

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI HUZURIDGI
FISKAL INSTITUT**

**I.M.NIYAZMETOV, S.A.GIYASOV,
F.A.FAYZIYEV, R.R.DUSCHANOV**

SOLIQ NAZARIYASI VA TARIXI

O‘quv qo‘llanma

**TOSHKENT
“CHINOR FAYZI BALAND”
2022**

UDK: 336.22(075.8)

KBK: 65.261.8ya73

S 77 Soliq nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma / I.M.Niyazmetov, S.A.Giyasov, F.A.Fayziyev, R.R.Duschanov – T.: «Chinor fayzi baland». 2022. 340 b.

Taqrizchilar: **K.Xotamov** – Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal institut “Buxgalteriya va iqtisodiyot” fakulteti dekani, i.f.d., professor

F.Tolipov – Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal institut “Gumanitar fanlar va chet tillari” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada soliqqa tortish nazariyasi va tarixining barcha jabhalari, xususan, soliqlarning paydo bo‘lishi, qadimgi dunyo va o‘rta asr davlatlarida amal qilgan soliq munosabatlari, soliqqa oid ilmiy qarashlarning vujudga kelishi, dastlabki umumiy va xususiy soliq nazariyalari hamda soliqqa tortishning zamonaviy nazariyalari mazmun-mohiyati o‘z aksini topgan.

Mazkur adabiyot “Soliqlar va soliqqa tortish” ta‘lim yo‘nalishi bakalavriat talabalari uchun “Soliq nazariyasi va tarixi” fanidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

O‘quv qo‘llanmadan iqtisodiy yo‘nalishda ta‘lim olayotgan bakalavr va magistratura talabalari, shuningdek, sohaga qiziquvchi boshqa mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Mazkur qo‘llanma “60410200-Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo‘yicha)” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda soliq munosabatlarining rivojlanish bosqichlari, soliqlarning kishilar hayoti va jamiyatdagi o‘rni hamda ahamiyati, soliqqa oid ilmiy qarashlar va bilimlarning shakllanishi hamda soliqlarning nazariy asoslari yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal institut Kengashi tomonidan 2022-yil “1”apreldagi yig‘ilishida (13-son bayonnoma) muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

UDK: 336.22(075.8)

KBK: 65.261.8ya73

ISBN 978-9943-7878-9-6

© **I.M.Niyazmetov, S.A.Giyasov,**
© **F.A.Fayziyev, R.R.Duschanov, 2022**
© **“CHINOR FAYZI BALAND”, 2022**

KIRISH

Har qanday jamiyatning taraqqiyot bosqichlarida soliqlarning vujudga kelish tarixi ilk davlatchilik asoslari paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir. G'oyat mas'uliyatli, o'z navbatida, o'ta yuqori darajadagi ehtiyojni o'zida ifodalagan soliqlarning o'ziga xos rivojlanishi natijasida ularning jamiyat taraqqiyotida yangi qirralari, imkoniyatlari ortib bordi.

Soliq muhim va serqirra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning turli shakllarda paydo bo'lishi va amal qilishi kishilik jamiyati rivoji bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston hududida davlatchilikning uch ming yillik tarixga ega ekanligi bu makonda soliq munosabatlarning ham shuncha davrlik tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi IX asrlarda Xorazm vohasi hududida zardo'shtiylik dinidagi ajdodlarimiz yashagan davlat vujudga kelgan. Sal keyinroq Movarounnaxr hududida Baqtriya (Surxon vohasi) va So'g'd (Zarafshon, Qashqadaryo vohalari) kabi davlatlar shakllangan. Tabiiyki, Turon zaminidagi bu qadimiy davlatlar o'z soliq munosabatlari tarixiga ega.

Soliqlarning tarixiy shakllanishi va rivojlanishini, shuningdek, ularning bugungi kunda davlat va jamiyat hayotidagi o'rnini o'tmishda kechgan soliq munosabatlari bilan solishtirish asosida tadqiq etish hamda tizimning rivojlanish istiqbollari ilmiy manbalar hamda tarixiy hujjatlar asosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotining taraqqiyot tajribalari shuni ko'rsatadiki, soliqlar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda muhim vosita bo'lib kelgan. Soliqlar davlatlarning moliyaviy faoliyatini ta'minlash va kafolatlashga xizmat qilgan. Amaliyotda va nazariyada soliqlar mohiyatiga nisbatan turlicha qarashlar paydo bo'lib kelgan. Shu bois,

har bir davlat soliqlardan o'ziga xos tarzda va turli sharoitlarda har xil shakllarda foydalanib kelgan.

Shu sababdan, soliq solishning jahon hamda mamlakatimiz hududida kelib chiqish va shakllanish tarixining asosiy jihatlarini o'rganish bugungi kunda soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va samarali soliq tizimini shakllantirishda, soliq sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlardan ijobiy natijalarga erishish, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlardan iqtisodiy tartibga solish vositasi sifatida foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, har qanday jamiyat o'zining xususiyati va tabiatiga ko'ra soliqlar va soliqqa tortish jarayoniga hamohangdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliq munosabatlarining tarixi hamda soliqqa tortishning nazariy jihatlarini o'rganish maqsadida "Soliq nazariyasi va tarixi" fani asosiy fanlardan biri sifatida shakllandi. Ushbu fan "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishidagi bakalavriat bosqichi talabalariga o'qitiladigan dastlabki mutaxassislik fani hisoblanadi.

O'quv qo'llanmada soliqqa tortish nazariyasi va tarixining barcha jabhalari qamrab olingan. Fanni o'qitish soliqlar tarixi va nazariyasini uyg'unlikda o'rganishga qaratilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma mantiqiy jihatdan uch qismdan iborat.

Birinchi qism bitta mavzu (birinchi bob) doirasida yoritilgan bo'lib, unda "Soliq nazariyasi va tarixi" fanining soliqqa oid boshqa fanlar nazariy-uslubiy poydevori va davlat soliq siyosatining ilmiy asosi sifatidagi mohiyati ochib berilgan. Fanning predmeti va mazmuni yoritilgan. Fanni o'rganishdagi umumiy va alohida usullari keltirilgan. Shuningdek, fanning kadrlarni tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishdagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

Ikkinchi qism soliqlarning paydo bo'lishi va shakllanishi tarixini o'rganishga bag'ishlangan. O'quv qo'llanmaning bu qismi yettita mavzuni (II-VIII boblarni) qamrab olgan bo'lib, bu mavzular doirasida soliqlarning vujudga kelishi, qadimgi dunyo davlatlarida soliq

munosabatlarning shakllanishi, arablar, turon zaminidagi boshqa oʻrta asr davlatlari, moʻgʻul istilochilari, temuriylar, oʻzbek xonliklari, rus chorizmi va sovet hukmronligi davrlarida Markaziy Osiyodagi amal qilgan soliqlar hamda soliq munosabatlari batafsil yoritilgan.

Oʻquv qoʻllanmaning uchinchi qismi soliqlar nazariyasiga bagʻishlangan toʻrtta mavzuni (IX-XII boblar) qamrab olgan boʻlib, unda soliqqa oid ilmiy qarashlarning shakllanishi, soliqlar xususidagi ilk umumiy nazariyalar, soliqqa tortishning takomillashgan umumiy nazariyalari, soliqqa oid dastlabki xususiy nazariyalar hamda soliqqa tortishning zamonaviy nazariyalari koʻrib chiqiladi.

Yuqoridagilardan koʻrinadiki, ushbu oʻquv qoʻllanmada soliqqa tortish nazariyasi va tarixining barcha jabhalari qamrab olingan.

1-BOB. “SOLIQ NAZARIYASI VA TARIXI” FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA UNI O‘RGANISH USULLARI

§ 1.1. “Soliq nazariyasi va tarixi” fani soliqqa oid boshqa fanlarning nazariy-uslubiy poydevori va davlat soliq siyosatining ilmiy asosi sifatida

Har qanday jamiyatning taraqqiyot bosqichlarida soliqlarning vujudga kelish tarixi davlat paydo bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababdan soliq solishning jahonda hamda mamlakatimizda kelib chiqish va shakllanish tarixini, asosiy jihatlarini o‘rganish bugungi kunda davlat xazinasini boyitishda va soliqlarni to‘g‘ri shakllantirishda, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlardan iqtisodiy boshqaruv vositasi sifatida foydalanishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Soliq muhim iqtisodiy kategoriya, uning turli shakllarda paydo bo‘lishi va amal qilishi kishilik jamiyati bilan chambarchas bog‘liq. Soliqlar davlatlarning moliyaviy faoliyatini ta‘minlash va kafolatlashga xizmat qilgan. Amaliyotda va iqtisodiyotda soliqlar mohiyatiga nisbatan turlicha qarashlar bo‘lgan. Shu bois har bir davlat soliqlardan o‘ziga xos tarzda va turli sharoitlarda har xil shakllarda foydalanib kelgan.

Soliqlarning vujudga kelishi va shakllanishi davlat paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan bog‘liq. Davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish va uni taqsimlashning qonun-qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga oshiriladi. Davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya‘ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiriladi. Davlatning bunday faoliyatini o‘rganish “Soliq nazariyasi va tarixi” fanining diqqat markazida turadi.

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti – erkin va pulli

munosabatlar iqtisodiyotidir. Soliqlar ham pul munosabatlarini ifoda etganligi uchun bozor iqtisodiyoti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismi hisoblanadi. Soliqlar davlat byudjetining daromadlar qismini shakllantiradi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlari “Soliq nazariyasi va tarixi” fanining asosini tashkil etadi. U qonunlarni chuqur anglamasdan turib, soliqlarni tushunib bo‘lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o‘rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Shunday ekan, davlat to‘g‘risidagi ta’limot davlat iqtisodiyotini boshqarishda bosh rol o‘ynaydi. Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda yetakchilik, boshqaruvchilik vazifalarini bajaradi. Davlat soliqlarni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o‘rganib chiqib, uni amaliyotga tatbiq qilishni o‘z zimmasiga oladi.

Soliq munosabatlari davlatning bajaradigan vazifa va faoliyati amaliy jarayonining ibtidosini tashkil etadi. Chunki, har qanday ustqurtma muayyan iqtisodiy bazisdan oziqlanadi. O‘z navbatida, bazisning fundamental asosini yaratuvchi omillar, ayni paytda uning qismatini ham belgilaydi. Mazkur ta’kiddan kelib chiqib, ana shu bazisning oqilona asosini shakllantiruvchi soliq hamda uning tizimini jamiyat tarixi taraqqiyotida tutgan rolini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, o‘ziga xos dastak ekanligini ilg‘ash qiyin emas.

“Soliq nazariyasi va tarixi” fanini o‘qitishning zarurligi bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyati o‘sib borayotganligidan kelib chiqadi.

Mazkur fan soliq voqeliklarini chuqur o‘rganish asosida zarur xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini o‘rgatadi.

“Soliq nazariyasi va tarixi” fani soliq amaliyotidagi eng to‘g‘ri, eng mukammal va eng progressiv voqeliklarni o‘rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib beradi. Nazariya voqeliklarni

amaliyotdan oladi va yana amaliyotdan eng to'g'ri, ma'qul va ilg'or tajribalar olinib, amaliyotga yo'l ko'rsatish uchun o'rgatiladi.

Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va amaliyot uchun kompas, barometr, yo'l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amaliyot yo'ldan adashgan yo'lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o'zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo'ldan adashmaydi.

«Soliq nazariyasi va tarixi» fanini o'qitishning zarurligi amaliyotda yo'ldan adashmaslik, keraksiz soliqlar bo'yicha o'zgartishlarga yo'l qo'ymaslik, amaliyotda istiqbolli qadamlar tashlash uchun va katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun ham zarurdir¹.

“Soliq nazariyasi va tarixi” fani masalalariga doir bilimlarni o'rganish boshqa fanlardan ham xabardor bo'lishni talab etadi. Jumladan, tarix fanlari, iqtisodiy ta'limotlar tarixi va nazariyasi, moliya nazariyasi, davlat moliyasini boshqarish hamda soliqlar va soliqqa tortish yo'nalishidagi fanlar shular jumlasidandir.

Fanning tarixga oid boshqa fanlar bilan bog'liqlik jihati shundan iboratki, “Soliq nazariyasi va tarixi” fanida ham soliqlarning rivojlanish bosqichlari, davrlari, har bir davrda va davlatda amal qilgan soliqlar, ularning tarkibi va tuzilishi, dinamikasi kabilar o'rganiladi. Xususan, fanning iqtisodiy ta'limotlar tarixi bilan bog'liqlik jihati shundaki, har ikkala fan ham o'z predmetida asosan jamiyat taraqqiyoti davrlarida ulardagi muammolarni yechib berishga qaratilgan turli shaxslarning iqtisodiy fikrlarini, g'oyalarini va turli nazariyalarning mohiyatini o'rganadi.

“Soliq nazariyasi va tarixi” fani iqtisodiy nazariya fani bilan chambarchas bog'liqdir va uning maxsus bo'limi, ya'ni chuqurlashtirilgan, kengaytirilgan bo'limdir. Chunki, soliq nazariyasining qonuniyatlari umumiy iqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqmasdan, ularga asoslanadi. Shuningdek, mazkur fan “Moliya nazariyasi” fani bilan ham chambarchas bog'liqdir. Chunki, moliya

¹ Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik (qayta ishlangan). TMI. Fan va texnologiyalar markazi. Toshkent. 2003. 247 b.

uchun ham, soliq uchun ham yagona asos pul munosabatlarining mavjudligidir. Lekin soliq nazariyasi o'ziga xos bo'lgan pul munosabatlarini, ya'ni soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi majburiy pul munosabatlarini o'rganadi.

“Soliq nazariyasi va tarixi” fani soliqlar va soliqqa tortish yo‘nalishidagi boshqa barcha fanlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur fan o‘z predmeti bilan, birinchi navbatda, soliq tizimi va soliqqa tortish asoslari bilan hamnafas bo‘lishi lozim. Unda asosan soliqlarning kelib chiqishi, tabiati, iqtisodiy mohiyati, belgilari, funksiyalar hamda soliqqa tortish tamoyillari kabi bilimlar qamrab olinganligi “Soliq siyosati”, “Soliqqa tortish asoslari”, “Iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solish”, “Individual daromadni soliqqa tortish”, “Bilvosita soliqqa tortish asoslari”, “Biznesni soliqqa tortish”, “Soliq huquqi”, “Soliq ma'murchiligi” va boshqa shu kabi soliqqa oid fanlar bilan chambarchas bog‘liqligini, ushbu fanlarning nazariy poydevori ekanligini anglatadi.

Bundan tashqari, ushbu fan doirasida o‘rganiladigan kishilik jamiyatida soliq munosabatlarining yuzaga kelishi va rivojlanishi, soliqlarning iqtisodiy mohiyati va soliqqa tortishning obyektiv zarurligi hamda iqtisodiy munosabatlarda soliqlarning beqiyos o‘rni va roli davlat soliq siyosatining ilmiy-nazariy asosini tashkil etadi.

§ 1.2. Fanning predmeti va mazmuni. Fanni o‘rganishdagi umumiy va alohida usullar

“Soliq nazariyasi va tarixi” fani soliqlarning nazariy jihatlarini, xususiyatlarini o‘rganishdagi asosiy fan hisoblanadi. Fanning predmetiga to‘xtalishdan oldin soliq kategoriyasiga qisqacha to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, soliq kategoriyasi – bu muhim iqtisodiy jarayon bo‘lib, uning paydo bo‘lishi va amal qilishi kishilik jamiyatining mavjudligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Soliqlar har bir davlat

faoliyatini moddiy jihatlarini ta'minlaydi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi.

Amaliyotda va umuman iqtisodiy fanda soliqlarning mohiyatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Shu sababli, ushbu kategoriya har bir davlat tomonidan o'ziga xos tarzda foydalaniladi.

Davlat asta-sekin rivojlanib borishi bilan, uning funksiyalari ham muvofiq ravishda kengayib boradi. Bu esa, soliqlarga nisbatan qo'yiladigan talabning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli, soliq tizimi tobora murakkab va ko'p qirrali bo'lib boradi. Kishilik jamiyati rivojlanishi tarixi shuni ko'rsatadiki, davlat ma'muriy boshqaruv bilan shug'ullangan hollarda, uning ehtiyojlari ma'lum darajada saqlanib qoladi, davlatning iqtisodiyotni boshqarish majburiyati paydo bo'lsa, uning xarajatlari va aholidan olinadigan tushumlari ko'payadi. Bunday holatda, soliqlarning shakllari rang-baranglashib boradi.

Har qanday fan o'zining predmetiga ega, ya'ni izlanish obyektiga ega bo'ladi. Masalan, texnologiya fanining predmeti bo'lib kimyoviy moddalar tarkibini o'rganish, mashinasozlik fani uchun mashinalar mexanizmi xarakteristikasi bo'lsa, soliq nazariyasi va tarixi fanining predmeti soliq munosabatlarini (harakatini) o'rganishdir.

Ushbu keltirilgan ta'rifdan ko'rishimiz mumkinki, fan o'z predmetini o'rganishda turli usullarning o'zaro aloqasining nazariy

Soliq nazariyasi va tarixi fanining predmeti – bu soliq to'lovchilarning majburiy to'lovlari bo'yicha davlat byudjeti bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarining nazariy jihatlarini o'rganishdan iborat

jihatlarini o'rganar ekan soliq to'lovchilar va uni o'zlashtiruvchi, davlat byudjeti, majburiy to'lovlar, moliyaviy munosabatlar kabi elementlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonlarining nazariy jihatlarini, qirralari keng ko'lamda o'rganiladi.

Fanning mohiyati shu o'rtadagi moliyaviy munosabatni, ya'ni soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi munosabatni chuqur o'rganish, soliq munosabatlarida qatnashuvchi

tomonlarning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda, tomonlar adolatlilik tamoyiliga amal qilishi zarur.

Fanning predmetini chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama adolatlilik munosabati bo'lguday bo'lsa, ikkinchi tomon unga javoban o'z daromadlari va boshqa soliq obyektlarini har xil yo'llar bilan yashiradi. Bunday hollarda, har qanday huquqiy hujjatlarning ham kuchi yetmay qoladi. Daromadlarni, soliq obyektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi. Fanni chuqur o'rganish orqali amaliyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

“Soliq nazariyasi va tarixi” fanining predmeti soliq munosabatlarini o'rganish bo'lsa, soliqqa tortish fanida esa soliqlar mexanizmini har tomonlama o'rganishdan iboratdir.

Fanning predmeti soliq voqeliklari va pul munosabatlarini o'rganishdan iborat bo'ladi. Bu pul munosabatlari soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o'rtasidagi munosabatlardir.

Fanning mohiyati shu o'rtadagi munosabatni chuqur o'rganish, ularni to'g'ri tashkil qilishni ta'minlashdir. To'g'ri tashkil etish - deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlilik va insoflik tamoyillariga amal qilishi zarur.

Fanning vazifasi – soliq mutaxassisi va boshqa soliq idoralari xodimlarini nazariy jihatdan qurollantirish hamda amaliyotda adashmaslik uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatishdan iboratdir. Shuningdek, chet el soliq amaliyotini o'rganish va taqqoslash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish, ularning ish tajribalarini o'zimizning amaliyotga moslab zarur joylarini tatbiq etishdan iboratdir.

Demak, fanning asosiy vazifasi yuqori malakali soliq mutaxassislarini tayyorlashda ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan uslubiy qo‘llanmalar bilan ta’minlashdir.

Har bir fanning predmetini shakllanishi bilan birgalikda, uning ilmiy bilish usullarining qaror topishi bilan ham bog‘liq. Har qanday fanni o‘rganishdagi usullar umumiy tavsifga ega, lekin har bir fan o‘z predmetidan kelib chiqib, o‘zining ilmiy bilish usullariga ega. Shuning uchun fanni o‘rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo‘linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini o‘rganishning birdan-bir to‘g‘ri ilmiy usuli dialektik usuldir. Shuning uchun, ham ushbu ilmiy bilish usuli barcha fanlarning, shu jumladan, “Soliq tarixi va nazariyasi” fanining ham nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Dialektik usul shuni ko‘rsatadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo‘ladi. Bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun, ushbu usul tadqiqotning induksiya va deduksiya usullarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo‘lsa – bu induksiya. Avval, boshdanoq barcha xususiy hollarni o‘z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa bu – deduksiya. Shu bilan, birga barcha iqtisodiy fanlar kabi “Soliq nazariyasi va tarixi” fanining ham o‘ziga xos ilmiy bilish usullari mavjud. Ulardan biri ilmiy abstraksiya usulidir. Ilmiy abstraksiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida obyektning faqat bir tomoniga, o‘rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e’tibor qaratiladi va xalaqit berishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali unsurlarning ta’siri e’tiborga olinmaydi.

“Soliq nazariyasi va tarixi” fani, shuningdek, o‘z predmetini o‘rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil – bu o‘rganilayotgan butun obyektни qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish bo‘lsa, sintez esa o‘rganilgan qismlardan olingan

xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Soliqlarga doir murakkab nazariy masalalar mana shu yo‘l bilan o‘rganiladi.

Fanning o‘z predmetini o‘rganishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy holda tahlilni qo‘shib olib borish muhim o‘rin tutadi. Soliqlarning nazariy masalalarini mikroiqtisodiy jihatdan o‘rganishda iqtisodiyotning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar nuqtayi nazaridan, ular bilan davlat byudjeti o‘rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda esa, davlat miqyosida, ya’ni soliqlarning nazariy masalalari makroiqtisodiy darajada o‘rganiladi.

Shuningdek, fan o‘z predmetini o‘rganishda taqqoslash, statistik, grafik usullaridan ham foydalanadi. Jumladan soliqlarni davrlar bo‘yicha taqqoslash, ulardan tushumlarni jadvallar orqali ifodalash, o‘zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta’sirini grafik usulida tasvirlash va shu kabilardir. Masalan, soliqlar o‘zgarishini yalpi talab va yalpi taklifga ta’sirini mana shu usul bilan ifodalash mumkin.

§ 1.3. Fanning kadrlarni tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishdagi o‘rni va ahamiyati

Soliq xizmati xodimlari o‘zlariga soliqqa oid qonun hujjatlarida yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat amaliy jihatdan soliqlarni bilibgina qolmasdan, soliqlarning kelib chiqishi tabiati, mohiyati, belgilari, funksiyalari, ularning obyektiv zarurligi, davlatning soliq siyosati, soliqlar tizimi, soliqqa tortish tizimi, soliq mexanizmi, soliq ma’murchiligi, soliq idoralari tizimi va boshqalar kabi nazariy masalalarni chuqur bilishlari zarur.

Buning uchun esa “Soliq nazariyasi va tarixi” fanini chuqur o‘rganish kerak. Shuni nazarda tutish zarurki, Leonardo Da Vinchi aytganidek: “Nazariya qo‘mondon, amaliyot askarlardir”. Nazariya

amaliyotni to'g'ri yo'lga boshlovchi kompasdir. Nazariyani shakllanishi bevosita amaliyotning to'g'ri yo'naltirilishini ta'minlab beradi.

Har qanday vazifalarni kadrlar hal qiladi. Shuning uchun, ular chuqur nazariy bilimga va kasb mahoratiga ega bo'lishlari zarur. Fanning mazmunini chuqur egallagan har qanday mutaxassis soliqlarni o'rganishda va ularni hayotga to'g'ri va to'liq tatbiq etishda adashmaydi. Shunday ekan, bu fan soliq xizmati xodimlari, soliq sohasi vakillari, kadrlar uchun o'zlarining ilmiy salohiyatlarini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida quyidagi soliqqa oid qonun hujjatlar mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilib o'rganish soliq xizmati xodimlari uchun muhim hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-son Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5837-son Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6098-son Farmoni;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4389-sonli qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-avgustdagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 677-sonli qarori.

Shuningdek, “Soliq nazariyasi va tarixi” fanining kadrlarni tayyorlashdagi o‘rni va ahamiyati shundan iboratki, bo‘lajak davlat soliq xizmati organlarining rahbar va mas‘ul xodimlari yoki umuman olganda, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining rahbar va mas‘ul xodimlari tomonidan amaliyotda har qanday vaziyatda va qisqa muddatda soliq sohasida oqilona qarorlar qabul qilishda mazkur fan doirasida o‘zlashtiriladigan bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xodimlar tomonidan soliqqa oid tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda soliqlarning kelib chiqishi va tabiati, shuningdek, tarixda soliq sohasida yuzaga kelgan munosabatlar, ro‘y bergan tarixiy voqea va hodisalarni inobatga olish va ular asosida ishlab chiqish hamda takliflar shakllantirish hozirgi davr talabidir.

Soliq sohasida yetishib chiqadigan malakali kadrlar va mutaxassislar tomonidan fan doirasida olgan nazariy, huquqiy, uslubiy va tarixiy bilimlari hamda amaliy ko‘nikmalari hozirgi kundagi soliq munosabatlarini samarali tartibga solishda va ularga obyektiv baho berish orqali tegishli xulosalar chiqarishda fanning o‘rni va ahamiyati juda muhimdir.

Talabalar tomonidan “Soliq nazariyasi va tarixi” fani doirasida soliqlar va soliq munosabatlariga oid olingan bilimlari asosida soliq munosabatlarini samarali boshqarishda nafaqat davlat, hukumat, fiskal organlar manfaati nuqtayi nazaridan, balki fuqaro, tadbirkorlik subyekt, xo‘jalik yurituvchi subyekt – soliq to‘lovchilar manfaati nuqtayi nazaridan fikr va mushohada yuritish hamda manfaatlar uyg‘unligini ta‘minlashda sezilarli hissa qo‘shadi. Ayniqsa, talabalar tomonidan

hozirgi kunga qadar shakllangan soliqqa tortish nazariyalari yuzasidan bilimlarni mukammal egallashi kelajakda mamlakatimizning soliq siyosatini oqilona amalga oshirishda munosib xizmat qiladi.

“Soliq nazariyasi va tarixi” fanining ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishdagi o‘rni va ahamiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ma’lumki, nafaqat soliqqa doir, balki boshqa soha va yo‘nalishlardagi ilmiy tadqiqot ishlarining avvalida, tanlangan tadqiqot mavzusining ilmiy nazariy jihatlari, o‘rganilganlik darajasi, soha olimlari va mutaxassislarning qarashlari, g‘oyalari, shakllangan maktablarning yondashuvlari, ilmiy izlanishlari tahlil qilinadi va sharhlanadi hamda ularga tayangan holda ilmiy ishning keyingi bosqichlari tadqiq etiladi. Shuning uchun ham mazkur fan doirasida olingan bilimlar soliqqa doir har qanday ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda asos va poydevor sifatida xizmat qiladi.

Bundan tashqari, fanning ilmiy izlanishlarni olib borishdagi o‘rni va ahamiyatiga zarurat sifatida yondashuv maqsadga muvofiq. Buning asosiy sababi fan tarkiban soliqqa oid eng asosiy, zaruriy va tayanch mavzularni qamrab olgan.

Ta’kidlash joizki, fan soliq sohasidagi birinchi umume’tirof etilgan ta’limotlarning mazmun-mohiyati, soliqqa tortishning umumiy, xususiy va zamonaviy nazariyalarga asos solgan olimlarning ilmiy izlanishlari va ularga berilgan sharhlar asosida shakllantirilgan. Bu ham o‘z navbatida, “Soliq nazariyasi va tarixi” fanining ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishdagi o‘rni va ahamiyati nechog‘lik muhimligidan dalolat beradi.

Birinchi bob bo‘yicha o‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. “Soliq nazariyasi va tarixi” predmeti va obyektini tushuntirib bering.
2. “Soliq nazariyasi va tarixi” fanini o‘qitishning obyektiv zarurati nimada?
3. “Soliq nazariyasi va tarixi” fani nimani o‘rgatadi?
4. “Soliq nazariyasi va tarixi” fanining vazifalari nimalardan iborat?

5. Fanning nazariy asosi nimalardan iborat?
6. “Soliq nazariyasi va tarixi” fani qanday fanlar bilan o‘zaro bog‘liq?
7. Fanning soliq mutaxassislarini tayyorlashdagi roli qanday?
8. Fanning ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishdagi o‘rni va ahamiyatini izohlab bering.
9. Fanni o‘zlashtirishda qanday umumiy usullardan foydalaniladi?
10. Fanni o‘zlashtirishda qanday alohida usullardan foydalaniladi?

Test savollari:

1. “Soliq nazariyasi va tarixi” fanini o‘qitishning zarurligi nimada?

- a) Bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyati o‘ziga borayotganligidan kelib chiqadi;
- b) Soliq to‘lovchilarning majburiy to‘lovlari bo‘yicha davlat byudjeti bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarining nazariy jihatlarini o‘rganishdan iborat;
- c) Fuqarolar bilan davlat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish;
- d) Soliqlarning joriy etilish prinsiplarini nazariy tahlil qilish.

2. “Soliq nazariyasi va tarixi” fanining predmeti nimani o‘rgatadi?

- a) Soliq to‘lovchilarning davlat byudjeti bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini nazariy jihatlarini o‘rgatadi;
- b) Soliq to‘lovchilar bilan davlat byudjeti o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni o‘rgatadi;
- c) Soliq to‘lovchilari bilan davlat byudjeti o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni o‘rgatadi;
- d) Soliq to‘lovchilar bilan davlat byudjeti o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rgatadi.

3. Soliq to‘lovchi bilan davlat o‘rtasidagi munosabatni chuqur o‘rganish ularning iqtisodiy manfaatini e‘tiborga olish,

muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilishanglatadi. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying?

- a) Fanning mohiyatini;
- b) Fanning predmetini;
- c) Fanning vazifasini;
- d) Fanning zarurligini.

4. “Soliq nazariyasi va tarixi” fanini o‘rganishning umumiy usullariga qaysi usullar kiradi?

- a) Induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiya;
- b) Dialektik, grafik, jadval;
- c) Ilmiy izlanish, statistika;
- d) Dialektik, taqqoslash.

5. “Soliq nazariyasi va tarixi” fani quyidagi qaysi fanlar bilan o‘zaro bog‘liq?

- a) Iqtisodiy ta’limotlar tarixi, iqtisodiyot nazariyasi, moliya, davlat byudjeti;
- b) Soliq tarixi, soliq huquqi, marketing;
- c) Soliqlar va soliqqa tortish, sug‘urta;
- d) Soliq menjmenti, davlat byudjeti, tarix.

6. Fanni o‘rganishning alohida usullariga qaysi usullar kiradi?

- a) Jadval, grafik taqqoslash, analiz va sintez, statistika;
- b) Dialektik, statistik, ilmiy abstraksiya;
- c) Analiz va sintez, mantiqiy fikrlash, deduksiya;
- d) Jadval, ilmiy abstraksiya.

7. “Soliq nazariyasi va tarixi” fanining vazifasi nimadan iborat?

- a) Mutaxassis kadrlarni nazariy bilimlar bilan qurollantirish;
- b) Muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilishni anglatadi;
- c) Fuqarolar bilan davlat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish;

d) Soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish.

8. Soliqlarning ilk ko'rinishlari qanday bo'lgan?

- a) Qurbonlik, natura va mehnat;
- b) Oltin tangalar va kumush pullari;
- c) Qimmatli qog'ozlar va qimmatbaho tolalar;
- d) Mo'ynalar va oltin tangalar.

9. "Soliq nazariyasi" fanining o'rganish usullariga bo'linadi. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying?

- a) Umumiy va alohida usullar;
- b) Dialektik va ilmiy abstraksiya;
- c) Induksiya va ilmiy abstraksiya;
- d) Dialektik va jadval.

10. Induksiya usuli nima?

- a) Fanni o'rganish usullaridan biri bo'lib, yakka faktdan umumiy xulosa tomon o'rganish degan ma'noni anglatadi;
- b) Fanning o'rganish usullaridan biri bo'lib, umumiy xulosalardan yakka xulosalar chiqarishni anglatadi;
- c) Fanni o'rganish usullaridan biri;
- d) Soliq elementlaridan biri.

2-BOB. QADIMGI DUNYO DAVLATLARIDA SOLIQ MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI

§ 2.1. Qadimgi Rimda soliq munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari



Qadimgi Rimda soliq munosabatlari tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, soliqsiz yoki kam soliqlar amal qilgan, shuningdek, juda yuqori (og‘ir) soliqlar ham mavjud bo‘lgan davrlarni ko‘rish mumkin.

Rim imperiyasidagi soliq munosabatlari tarixini ikki davrga bo‘lsa bo‘ladi²:

- davlat respublika sifatida Rim Senati tomonidan boshqarilgan davr (miloddan avvalgi 30 yilgacha);

- imperiya davri, u milodiy 476-yilda barham topgan.

Dastlab respublikada soliqlar deyarli bo‘lmagan. Rim imperiyasi tashkil topgan davrdan boshlab dastlabki ikki yuz yil mobaynida davlatning aholiga soliq yuki o‘rtacha darajada bo‘lgan. Hokimiyatning yuqori pog‘onasidagi ko‘plab amaldorlar o‘z shaxsiy daromadlari hisobidan davlat xarajatlarini qoplashda misli ko‘rilmagan saxiylik ko‘rsatganlar. Eng katta xarajat talab qiluvchi armiyani moliyalashtirish badavlat fuqarolar, mulkdorlar tomonidan amalga oshirilgan. Ular armiyada bir yil tekinga xizmat o‘tashgan.

Ixtiyoriy mehnat davlatning barcha tuzilmalarini qamrab olgan. Xatto senatorlar ham maoshsiz ishlaganlar.

² Леонова Л.Г. История и теория налогообложения, РФ “Тихоокеанский государственный университет” Хабаровск Издательство ТОГУ: 2016 с 4.

Bilvosita savdo soliqlari respublika uchun zarur bo'lgan daromadlarning katta qismini tashkil qilgan. Dastlab soliqlar eksport va import bojlaridan iborat bo'lgan. Savdoning ko'p qismi portlar orqali o'tganligi sababli, soliq "portoriya"³ deb nomlangan. Rimliklar yangi mustamlakalarni istilo etganda, ularga o'zlarining soliq tizimini joriy qilgan. Ispaniyada import boji 2 %ni tashkil etgan, Sitsiliya, Afrika va Albaniyada esa – 5 %dan undirilgan.

Rim imperiyasida quyidagi soliqlar amal qilgan⁴:

Qul solig'i – har bir qulni sotishdan 2 foizlik savdo solig'i undirilgan. Qullar ozod qilinganida, har bir qul qiymatidan 5 foiz undirilgan. Qul savdosi juda katta daromad manbai hisoblangan. Masalan, Delos portida 120 ming qulni qabul qilish imkoniyati mavjud bo'lgan. Tinchlik davrida asosiy qul yetkazib beruvchilar qaroqchilar va kreditorlar hisoblangan.



Dengiz qaroqchiligi birinchi triumvirat davrida (miloddan avvalgi I asr o'rtalari) avjiga chiqqan. Kredit muddati tugagandan so'ng qarzdorga bir oylik imtiyozlar berilib, agar qarz to'lanmasa, sud qarzdorni kreditorga topshirgan va uni uyda zanjirband qilib 60 kun ushlab turgan.

³ Charles Adams. For Good and Evil: The Impact of Taxes on the Course of Civilization, Second edition, Madison Books:Lanham, New York, Oxford 1999, p. 79.

⁴ Леонова Л.Г. История и теория налогообложения, РФ "Тихоокеанский государственный университет" Хабаровск Издательство ТОГУ:2016 с 5.

Harbiy soliq – harbiy xarajatlarni qoplash maqsadida respublika hukmdorlari urush solig‘i – “tributum”ni joriy etishga qaror qilgan. Bu soliq har xil tovarlardan yig‘iladigan o‘lpon ko‘rinishida bo‘lgan. Urush solig‘i bazasi har 5 yilda ro‘yxatga olish paytida baholanadigan aktivlar orqali shakllantirilgan. Daromadni e‘lon qilmagan fuqarolar qullikka mahkum qilinishi mumkin bo‘lgan. Bunday qarorni esa ro‘yxatga oluvchi qabul qilgan. Rimning urush solig‘i yunonlarning “eisphora”siga o‘xshar edi.

Hashamatli tovarlar uchun soliq.

Hashamatli tovarlarga zargarlik buyumlari, ayollarning qimmatbaho kiyimlari, qimmatbaho aravalar kirgan. Soliq to‘lovi bozor narxidan 10 barobar qimmatroq bo‘lgan. Bunga qo‘shimcha ravishda, badavlat fuqarolar armiyani saqlash uchun davlatga kredit berishga majbur bo‘lgan.



Rimda soliq yig‘uvchilar.



Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari (senzorlar) respublikadagi eng muhim amaldorlar hisoblangan. Ular urush soliqlarini yig‘ish uchun mulklarni baholagan. Bu lavozimlarni sobiq senatorlar va konsullar, keksa siyosatchilar egallagan. Ular Rimning barcha fuqarolar assambleyasi tomonidan saylanar va senatorlarni tayinlash va lavozimidan ozod qilish vakolatiga ega bo‘lishgan.

Miloddan avvalgi II asr o'rtalariga kelib urush solig'i bekor qilingan. Bunga sabab, viloyatlar o'z armiyasini qo'llab-quvvatlay olmagan. Keyingi 400 yil davomida rimliklar bevosita soliqlarni to'lashdan ozod qilingan.

Shimoliy va sharqiy viloyatlarda rimliklar soliq yig'ishning yangi usullarini qo'llay boshlagan. Buning natijasida Rim imperiyasi yunonlarga qaraganda ancha uzoqroq hukm surdi. Shunga qaramay, o'lpon yig'ish tizimi bir qator kamchiliklarga ega edi. Uni nazorat qilish qiyin bo'lib, turli qo'zg'olonlarni keltirib chiqarar edi. Ossuriyaliklar tomonidan soliq siyosatiga qarshi qilingan isyonlarini bostirish uchun katta mablag' sarflanar edi. Shahar yoki viloyat qo'zg'olonchilarini bostirishning yagona yo'li – ularni o'ldirish bo'lgan, lekin bu soliq to'lovchilar sonining kamayishiga olib kelgan.

Rimliklar o'lpon yig'ish tizimining o'rniga provinsiya tuzish tizimidan foydalanganlar. Har bir viloyatga hukmdor tayinlab, ularga kuchli armiyalar, ya'ni qo'shinlar hamda vakolatlar berilgan. Bunday tizim Ossuriyaliklarning olib borayotgan soliq siyosatiga qaraganda tartibli edi.

Rimning o'lpon yig'ish tizimi Misr yoki Yunonistondan ko'ra adolatliroq edi. Rimliklar o'zlari uchun bir xil soliqlarni joriy etgan edilar.

Rimliklar uzoq vaqt Sitsiliya bilan yaxshi munosabatda bo'lgan va mazkur viloyatning soliq tizimiga aralashmagan. Biroq, shunday hukmdorlar bo'lganki, ular qonunga zid ravishda soliq stavkalarini oshirib, soliq yig'uvchilarning ishiga aralashgan va ba'zi hollarda yig'ib berilgan soliqlar uchun ustama ham talab qilishgan. Gubernator Verres shunday hukmdorlar jumlasiga mansub. U korrupsiyada ayblanib, unga antiqa jazo, ya'ni Sitsiliya aholisidan qo'shimcha uchta soliqni yig'ishni topshirilgan, xususan, biri o'zi uchun, ikkinchisi armiya uchun, uchinchisi ushbu ta'magirlik ishlarini ko'rib chiqayotgan sudga pora uchun.

Rim imperiyasi qulashi ibtidosi Ispaniyadan boshlangan. Boshda rim legionlari shu hududdan undiriladigan yigʻimlar evaziga tirikchilik oʻtkazgan. Rimdan yordam kelmagan.

Senat tomonidan yollangan korrupsionerlar soliq yigʻuvchilarning eski kemalariga har xil lash-lushlarni ortib, Ispaniyaga joʻnatadi. Kemalar yarim yoʻlda suvga choʻkadi va soliq yigʻuvchilar kemalari va yuklarining qiymatini qoplash uchun Ispaniyadagi vakillardan pul talab qilgan.

Miloddan avvalgi II asrda kelib chiqishi aristokratlardan boʻlmagan rim ishbiarmonlari Rim hokimiyatini egallab oladi. Senatning vakolatlari cheklanadi. Yangi zabt etilgan viloyatlarda birinchi boʻlib daromadli lavozimlarni egallab olgan koʻplab soliq yigʻuvchilar boʻlgan. Ular xalq orasida Publikani deb nomlangan edi. Ular hududlarda Rim fuqarolarining umumiy yigʻinlari hisobidan saylanar edi⁵. Ularning shafqatsizligi tufayli rimliklarni chirkin, hunuk deb atash boshlanadi. Aristokratik Senat oddiy odamlarni qabul qilmasdi, Assambleya esa qonunlar qabul qilish vakolatiga ega emasdi. U qonunlarga faqat veto qoʻyishi mumkin edi. Taxminan eramizdan avvalgi 130 yillarda Assambleyaga qonunlarni qabul qilish vakolati berilgan boʻlib, bu amaliyot bir necha yil davom etadi va tez orada bekor qilinadi. Faqatgina ikkita qonun qoladi: Rim kambagʻallari uchun tekin non tarqatish va boy Yunoniston hamda Decumaning boshqa provinsiyalaridagi yangi soliq tizimi saqlab qolinadi yoki Rim Senati soliq shartnomalari oʻrnini hosildan olinadigan 10 foizli soliq egallaydi.

Bu soliqlar faqat rimliklar tomonidan undirilgan va oldindan koʻp miqdorda yigʻilgan. Ularni yigʻish uchun rimliklar oʻziga xos mexanizm yaratgan. Yaʼni, “societates publicanorum” deb nomlanuvchi korporatsiyalar aksiyalari Rimdagi forumda sotilgan. Publikani aksiyalari barqaror daromad bilan kafolatlangan edi. Shu bilan birga, hech kim Publikanilarning faoliyatiga aralashmagan. Sitseron ular

⁵ Леонова Н. Г. История и теория налогообложения учеб. пособие / Изд-во Тихоокеан гос ун-та. 2016. -. 84 стр.

haqida shunday yozgan: “yaxshi siyosat yuritish va ezgu-niyatni ifoda etish publikaniga xalaqit beradi. Basharti biz ularga qarshilik qiladigan bo‘lsak, unda biz bir-birimizdan va davlatdan begonalashamiz... boshqa tarafdin esa, agar biz har bir vaziyatda ularga hayrixohlik ko‘rsatadigan bo‘lsak, unda biz o‘zimiz himoya qilishimiz kerak bo‘lgan insonlarning farovonligi va manfaatlarini barbod qilamiz”.

Rodos va Rim haqidagi hikoya antik davrning eng mashhur soliq hikoyalariidan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra Rodosdagi Delos portida soliq stavkalari kamaytiriladi. Bunda soliq 2 %ni tashkil qiladi. Buning natijasida Rodosda yil davomida savdo hajmi 85 %dan oshadi. Rim byudjeti yillik tushumlari 1 million kumush draxmadan 150 ming draxmaga tushadi.

Savdogarlarga joriy etilgan 2 foizlik soliqni bekor qilish uchun qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Qolgan viloyatlarda ham qo‘zg‘olonlar tez-tez bo‘lib turardi. Hozirgi Turkiyadagi viloyatni boshqargan Buyuk Mitridat bu qo‘zg‘olonlardan birining markazida bo‘lgan. Bir kunda imperiyaning ko‘plab shaharlarida 80 ming Rim Publikanisi o‘ldiriladi. Mitridat to‘langan 5 yillik soliqlarni qaytarib olishga harakat qiladi. To‘rt yillik urushdan so‘ng general Sulla isyonchi kuchlarni mag‘lub etadi va “Men vandalizm qilmayman. Men sizni endi besh yilga to‘lanadigan soliq miqdorini to‘lashga majbur qilaman. Qolaversa, siz bilan bo‘lgan urush xarajatlarini menga to‘lashingiz kerak⁶” deydi.

Bu pulni yig‘ish uchun Sulla “maxsus agentlar” institutini tuzadi. Bu soliqlarni yig‘ish vakolati imperium yoki lektorlarga topshirilgan. Sulladan keyin qudratli sarkarda Pompey sharqiy viloyatlarga ham soliqlarni keskin oshiradi, bularga jon boshidan olinadigan soliq, uy xo‘jaligi solig‘i, harbiy maqsadlar uchun mol-mulkni musodara qilish kabilar kiradi.

⁶ Charles Adams. For Good and Evil: The Impact of Taxes on the Course of Civilization, Second edition, Madison Books: Lanham, New York, Oxford 1999

Keyingi unutilmas hukmdor Yuliy Sezar bo‘lib, u provinsiyalarda tinchlikni og‘ir tovlamachilik bilan emas, faqat o‘rtacha soliqlar yordamida o‘rnatish mumkin⁷, deb hisoblar edi.

U shaharlar bilan soliqlar to‘g‘risida shartnomalar tuzadi, ularda soliqlar yig‘iluvchanlik darajasiga qarab bir qator soliq imtiyozlari ham nazarda tutilgan. Yuliy Sezar davrida oxirgi 150 yil ichida birinchi marta sharqiy viloyatlar bilan munosabatlar yaxshilanadi.

Ammo miloddan avvalgi 44 yilning mart oyida Sezarning o‘ldirilishi Sharq bilan munosabatlar yomonlashuviga olib keladi. Brut shaharlarni talaydi, soliq to‘lashdan bosh tortgan va o‘z mulkini unga berishni istamaganlarni o‘ldiradi.

Rodosda barcha kemalar qo‘lga olinadi, o‘lim xavfi ostida bo‘lgan odamlar zargarlik buyumlaridan voz kechadi.

Mark Antoniy Brutni qo‘llab-quvvatlagan barcha shaharlarga nisbatan soliqlarni 2 baravar oshirishni buyurdi. Aktium jangidan so‘ng Oktavian Avgust hukumatning vakillik organini tarqatib yuboradi. 1500 yil davomida Rim Sezarlar hukmronligi ostida bo‘ladi.

Avgust Sezarlarning eng ko‘zga ko‘ringanlaridan hisoblanadi. U imperator maqomining o‘rniga “Birinch fuqaro” maqomini qabul qiladi, soliq oqimlari yo‘nalishini o‘zgartirib, respublika hokimiyatini yo‘q qiladi.

U Rim hukumatining shaklini o‘zgartirmaydi, Senat hukmronlik qilishda davom etadi, lekin Avgust amalda imperator bo‘lib qolaveradi.



⁷ Леонова Н. Г. История и теория налогообложения учеб.пособие / Изд-во Тихоокеан гос ун-та. 2016.

Avgust soliq idorasini tuzadi va Publikani institutini tugatadi. U shahar va viloyatlar bilan soliq shartnomalarini tuza boshlaydi.

Bilvosita soliqlar g'ayratli ishbilarmonlar tomonidan yig'ilgan. Ular vatanparvarlik g'oyasi ostida tekin ishlagan.

Soliqlar mahalliy aholi tomonidan aholini ro'yxatga olish asosida yig'ilgan. Aholini ro'yxatga olish soliq bazasini hisoblash uchun amalga olishar edi. Shaharlarga o'z soliqlarini belgilash huquqi berilgan.

Askarlarning nafaqasini ta'minlash uchun Avgust stavkasi 5 % bo'lgan meros solig'ini joriy qiladi. Bolalar va xotinlarga berilgan sovg'alar soliqqa tortilmas edi.

Rimda savdo solig'i barcha tovarlar uchun 1 % va qullar uchun 4 % miqdorida qo'llanar edi. Avgust vafotidan keyin sotishdan olinadigan soliq ikki baravarga qisqartirildi. Milodiy 40 yilda Kaligula⁸ bu soliqni butunlay bekor qildi.

Rim dunyosining ikki yuz yil davom etgan buyuk davri milodiy 180 yilda Mark Avreliyning o'limi bilan yakunlanadi. Mazkur davrga kelib davlat xazinalari tugaydi, Mark davlat xarajatlarini qoplash uchun shaxsiy aktivlarini kim oshdi savdosiga qo'yadi. Bir tomondan askarlar maoshni oshirishni talab qilsa, boshqa tomondan fuqarolar soliqlarni kamaytirishni talab qilishar edi. Markning oxirgi xatosi eng qobiliyatli fuqarolarni emas, balki o'g'lini taxtga tayinlash bo'lgan. O'g'li o'z maslahatchisi tomonidan o'ldiriladi.

Shu davrdan boshlab Rim uchun shafqatsizlik va qon to'kilish asri boshlanadi. Soliq to'g'risidagi manbalar yozuvlari yoqib yuboriladi. Imperatorlarning mulki auksionda sotiladi. Omon qolish uchun hukumat daromad olishning to'rt usulini qo'llaydi⁹:

1. Qo'shimcha emissiyani amalga oshirish;
2. Ibodat solig'i joriy etish;
3. Meros solig'i joriy etish;

⁸ Rim imperatori. Yuliy-Klavdiy avlodi vakili. Eramizdan avvalgi 37-41 yillarda Rim imperiyasini boshqargan.

⁹ Charles Adams. For Good and Evil: The Impact of Taxes on the Course of Civilization, Second edition, Madison Books:Lanham, New York, Oxford 1999 p. 79.

4. Urush o'ljalari.

Bu yo'llarning barchasi Diokletian tomonidan faol ishlatila boshlangan. U hokimiyatga iqtisodiy betartiblik sharoitida keladi, ya'ni soliq yig'uvchilar qadrsizlangan pulni olmagan, askarlar esa u pulda maoshlarini olishni xohlamagan davr bo'lgan. Dengizlar qaroqchilar tomonidan nazorat qilingan, aholi tomonidan tez-tez g'alayonlar bo'lib turgan. Dehqonlarni soliq yig'uvchilar uylaridan haydab chiqarishgan. Davlat yana qul mehnati va musodara choralariga qaytgan.

Bunday vaziyatda Diokletian imperiyada favqulodda holat e'lon qiladi. U narxlarni muzlatishni buyuradi, natura shaklida soliq yig'ishga o'tadi. Ya'ni ibtidoiy soliq shakliga qaytiladi. Soliq yig'ish uchun aholini ro'yxatga olish o'tkaziladi.

Rasmiylar tomonidan aholi o'z mol-mulki salohiyatidan kelib chiqib qancha soliq to'lashi kerakligi hisoblangan.

Dinor o'lchovi "iugum" deb nomlangan ishlab chiqarish birligi bilan almashtirilgan. U 12,5 akr (1 akr 0,4047 gektarga teng) eng yaxshi yerga, 25 gektar birinchi toifali yerga va 37,5 akr ikkinchi toifali yerga teng bo'lgan.

Xalqaro soliqqa tortishi bo'yicha soliq maslahatchisi, 20-asrning taniqli iqtisodchisi Ch.Adams aytganidek, bunday tizim bugungi kundagi daromad solig'i tizimidan ko'ra sodda edi.

Bu tizim o'sha paytda kuchli byurokратиyani yuzaga keltirdi. Ko'pgina tarixiy manbalarda Rimda soliq to'lovchilarga qaraganda soliq yig'uvchilar ko'proq bo'lganligi ta'kidlanadi. Imperiya fuqarolarining



avval boshdan mavjud bo'lgan erkin harakatlanish huquqi cheklangan edi. O'zining soliq tizimi yo'lida Diokletian o'z vatandoshlarini 1000 yil davomida amal qillgan huquqlaridan mahrum qildi. Dehqonlar va ularning bolalari o'z yerlarida qolishlari shart edi. Shunday qilib, Rim imperiyasi totalitarizm botqog'iga botib ketdi.

Har yili sentyabr oyida hukumat har bir "iugum" uchun soliq stavkalarini e'lon qilar edi. Hech kim qanday soliq to'lanishi kerakligini oldindan bilmas edi. U islohotlar boshlanganini va soliqlar sonini kamaytirganligini e'lon qiladi, lekin soliq stavkalarini oshiradi. Diokletianning izdoshi Konstantin imperiyani nasroniylikka bag'ishladi va soliq yukini yanada oshiradi.

Milodiy 306 yilda u savdo va ishlab chiqarishga to'g'ri (bevosita) soliq joriy qiladi. Bu soliq har to'rt yilda bir marta undirilar edi. Soliq bazasini tijorat operatsiyalari tashkil qilgan. Soliq oltin yoki kumushda yig'ilgani sababli uni to'lash uchun ba'zilar xatto o'z bolalarini qullikka sotishar edi. Ota-onalarni shunday noiloj ahvolda qoldirish uchun soliq yig'uvchilar qiynoqlardan foydalanganlar. O'sha kezlarda ko'plab jafokashlar diniy sabablarga ko'ra emas, balki soliqlar tufayli vafot etgan.

§ 2.2. Xitoy hududidagi qadimgi davlatlarda amal qilgan soliqlar

Qadimgi Xitoy soliq tizimi boshlang'ich kurtak shaklda Qadimgi Xitoy hududida davlatning dastlabki shakllanishi chog'ida Sya sulolasi davrida (mil. av. 2205-1786-yillar) paydo bo'ldi.

Sya davlat birlashmasining tashkil topishi ishlab chiqarishni tashkil etish, yerlarni sug'orish, daryo toshqinlarining halokatli oqibatlarini bartaraf etish, hududlarni himoya qilish maqsadlari bilan bog'liq edi. Qadimgi Xitoy davlatining paydo bo'lishi, birinchidan, qabila oqsoqolini Qadimgi Xitoy podsholigining ilohiylashtirilgan hukmdoriga aylantirishda, ikkinchidan, jamoatchilar ommasiga qarshi turuvchi ko'plab harbiy sarkardalar, koinlar va amaldorlardan tashkil topgan

ma'muriy boshqaruv apparatini sekin-asta ajratib chiqarishda o'z ifodasini topgan¹⁰.

Soliqlar yig'ish uchun hukmdor Yuy o'ziga tobe hududlarni to'qqizta viloyatga bo'ladi. Odatda soliqlar natura shaklida mahsulot bilan to'lanardi, ularning shakli bir xilda emasdi va har bir hududning jug'rofiy sharoitlari va mahalliy boyliklaridan kelib chiqib belgilanardi. Masalan, birinchi (darajali) viloyat yerlaridan soliq yashma toshi va marvarid bilan, ikkinchi darajali yerdan soliq qirg'ovul va baliq bilan, yettinchi darajali yerdan panda ayig'i, tulki, suvsar, cho'chqa va ot terisi bilan, sakkizinchi darajali yerdan turli xil yelpig'ichlar, fil suyagidan yasalgan buyumlar bilan, to'qqizinchi darajali yerdan bambuk, turli o'tlardan to'qilgan buyumlar va rangli metallar – oltin, kumush, jez bilan to'lanardi.



Bundan tashqari, “Shutszin” (qonunlar to'plamiga kiruvchi kitob)da ham yer-mulklarning – podshoh xonadoniga qarashli yerlar atrofidagi doirasimon zonalar, har birining kengligi 500 liga teng, besh toifasi tavsiflangan. Toifasidan kelib chiqqan holda ular soliqlarni turli davrlarda to'lashgan: eng yaqindagi zonalar har kuni soliqqa tortilgan, ikkinchi zonadagilar – oyiga bir marta, uchinchi zonadagilar – har uch oyda bir marta, to'rtinchi zonadagilar – yiliga bir marta, beshinchi zonadagilar – bir asrda bir marta soliq to'lagan.

Qadimgi Rus davlatidan farqli ravishda Qadimgi Xitoyda soliq muntazam va tizimli ravishda yig'ilib borilgan. Shunday qilib, soliqqa tortishning dastlabki alomatlari paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin, bu shunda o'z ifodasini topadiki, hukmdor endi ixtiyoriy ravishda hadya va in'omlar tortiq qilinishini kutib o'tirmaydi, o'z xonadoniga tegishli yer-mulklar atrofidagi birinchi va ikkinchi zonalarga

¹⁰ Леонова Н. Г. История и теория налогообложения учеб.пособие / Изд-во Тихоокеан гос ун-та. 2016. 84 стр

soliq va o'lon to'plash uchun o'z amaldorlarini yo'llaydi, ya'ni soliq to'lash majburiyati yuzaga keladi¹¹.



Bundan tashqari ziroatkorlardan undiriladigan renta solig'i ham amal qilgan. Uning soliq solish obyekti ziroatkorning 50 mu (0,07 gektarga yaqin) o'lchamdagi chek yeri hisoblangan, undan hosilning o'ndan bir ulushi miqdorida soliq olingan, ammo ushbu ma'lumotlarni mahsulot bilan

to'lanadigan natural to'lov yoki ishlab berish majburiyati sifatida ham talqin qilish mumkin¹².

Xitoydagi Sya sulolasi hukmronligi davri shakllanayotgan quldorlik davlati bosqichini o'zida ifoda etadi, buni jamiyatda sekin-asta turli ijtimoiy qatlamlar, sinflar – oliy hukmdor va uning qarindoshlaridan, mahalliy hokimlar va urug' birlashmalarining boshliqlaridan iborat hukmron aristokratiya, erkin jamoatchi dehqonlar va qullarning vujudga kelishida kuzatish mumkin. Quldorlikning manbalari janglarda olingan asirlar, qarz evaziga qullikka sotilganlar, ayrim jinoyatlari uchun qullikka solinganlar, o'ziga tobe qabilalardan o'lon sifatida tortiq qilingan qullardan iborat bo'lgan. Yer davlat mulki hisoblangan hamda hukmdorlar ixtiyorida bo'lgan. Bu davrdagi xususiy mulkni qullar, uy-joylar, mehnat qurollari tashkil etgan. Sya sulolasi hukmronligi davrida Qadimgi Xitoy jamiyatining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy zamini yaratilgan.



¹¹ Charles Adams. For Good and Evil: The Impact of Taxes on the Course of Civilization, Second edition, Madison Books: Lanham, New York, Oxford 1999 p. 79.

¹² Романовский М.В., Прохорова Н.Г. История налоговой системы Китая. РФ. СПб. : Изд-во СПбГУЭФ, 2012.

Arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra, Shan sulolasi davrida davlatning hududiy bo'linishida o'zgarish kuzatiladi. Endilikda u teng bo'lmagan uchta qismga bo'linadi. Ularning orasida birinchisi va eng asosiysi – markazida poytaxt joylashgan hudud hisoblangan, u bevosita hukmdor – van va markaziy ma'muriyat boshqaruvi ostida bo'lgan. Hududning markazida van va uning yaqinlari, sarkardalar va amaldorlar, hunarmandlar va xizmatkorlar istiqomat qilishgan. Bu yerda saroylar va ustaxonalar, omborlar, harbiy kazarmalar va dalalar, eng avvalo “katta dalalar” joylashgan. Katta dalalardagi ishlarda ko'pincha van va uning yaqinlari ishtirok etishgan, hosil esa diniy marosim va ibodat ehtiyojlari uchun hamda xazina omborlarini to'ldirishga mo'ljallangan. Mazkur dalalarga atrofdagi mahallalardan shu ish uchun maxsus tashrif buyurgan dehqonlar tomonidan ishlov berilgan. Ikkinchi hudud – Shan tomonidan vakil qilingan Van, uning qarindoshlari va yaqinlari tomonidan boshqariladigan mintaqaviy yer-mulklarning bepoyon hududidan tashkil topgan. Ikkala zonadan keyin yovvoyi qabilalardan iborat allaqanday uchinchi hudud joylashgan.

Sekin-asta birinchi hududda istiqomat qiluvchi ma'muriy apparat amaldorlari ko'lami kengaya boradi. Ularning lavozimiy unvonlari funksiyasi, ularning yuqoriga yaqinligi darajasi va boshqa omillarni mezon sifatida olib, uchta asosiy toifani ajratib ko'rsatish mumkin: oliy toifali ma'murlar (muhim va mas'uliyatli qarorlar qabul qilinishiga daxldor to'ralar va maslahatchilar), quyi amaldor-farmonbardorlar (vositachilar va devonxona hisobini yurituvchi mulozimlar); harbiy tayyorgarlik va ov uchun mas'ul mutasaddilar (mazkur toifaga harbiylardan tashqari aslahasozlar va yarog'bardorlar, aravakashlar, otboqarlar va itboqarlar mansub bo'lgan).

Ikkinchi hududning soliqlar tizimi Sya sulolasi hukmronligining oxirlarida shakllangan bo'lib, quduq tizimi (*szin-tyan*) deb atalgan. Quduq, ya'ni taxminan bir quduq atrofida joylashgan dehqon xo'jaliklari majmuidan iborat bo'lib, uning qayd qilingan maydoni to'qqiz yuz

mudan (1 mu taxminan 0,07 gektarga teng) iborat bo'lgan, undan belgilangan miqdorda soliq undirilgan, soliqqa tortish birligidan tashqari Qadimgi Xitoy yagona moliyaviy-iqtisodiy va ma'muriy birlikka ham ega bo'lib, bu mil. av. 247 yilgacha saqlanib qolgan. "Quduq" hududidagi yer maydonining o'ndan bir qismi jamoat mulki hisoblangan va jamoaning barcha a'zolari tomonidan ishlov berilgan, undan olingan hosil esa aynan hukmdorga taqdim etiladigan renta solig'ini tashkil etgan, xususiy yerlardan olinadigan hosil esa dehqonlarning o'zlariga tegishli bo'lgan. Biroq xususiy dalalar huquqiy jihatdan ularning egalarining xususiy mulki hisoblanmagan, balki mahalliy knyazga yoki feodalga tegishli bo'lgan, shu boisdan har bir dehqon "quduq"ning xususiy qismidan natura shaklida obrok solig'i ham to'lagan.

Shu davrda hukmronlik qilgan uchinchi sulola – bu Chjou (mil. av. 1122-476-yillar) sulolasi, u g'arbiy va sharqiy qismga bo'lingan. Shan sulolasining oxirgi imperatori qo'shni Chjou davlati imperatori tomonidan taxtdan ag'dariladi. Butun Xitoy saltanati tarixida Chjou sulolasi hukmronligi eng uzoq davom etgan bo'lib, davomiyligi 770 yilni tashkil etadi¹³.

Bu Xitoyda quldorlik tizimining gullagan davri hisoblanadi. Chjou vorisiy va harbiy aslzodalari, shan quldorlik aristokratiyasining ag'darilgandan so'ng omon qolgan qismi taalluqli bo'lgan quldorlik aristokratiyasi jamiyatda hukmronlik mavqeiga ega bo'lgan. Lavozimlar ko'pincha avloddan avlodga meros tariqasida o'tgan. Quldorlik aristokratiyasi o'z mulklarini erkin tasarruf etgan, yerlarni o'zganing ixtiyoriga o'tkazish, ijaraga berish yoxud garovga qo'yish mumkin edi. Shu davrda mulklarni xususiy yer mulkiga aylantirish taomili yuzaga keladi, garchi rasman yerga egalik qilishda Van (podshoh) irodasiga tobelik hanuz saqlanib qolgan. Keyinchalik chjou podsholarining hokimiyati zaiflashuvi natijasida yirik quldorlarning yerni xususiy mulk

¹³ Романовский М.В., Прохорова Н.Г. История налоговой системы Китая. РФ. СПб. : Изд-во СПбГУЭФ, 2012, 56 ст.

huquqi asosida o‘zlariga o‘tkazib qonunlashtirib olish jarayoni ro‘y beradi.

§ 2.3. Qadimgi Turon zaminida shakllangan davlatlarda soliqlarning rivojlanishi

Bizgacha yetib kelgan tarixiy, huquqiy, diniy va boshqa manbalarning ko‘pchiligida soliqlar juda uzoq tarixga ega bo‘lgan qadimiy ijtimoiy hodisa bo‘lishi bilan birga, ularning turlari haqida ham muhim ma’lumotlar bor. Masalan, qadimgi Sharq mamlakatlarida soliqlar aholidan Qur’oni karim nozil etilganidan so‘ng (undan oldin ham) shaxsiy mol-mulk, yer osti boyliklari, yerdan olingan hosil, uy hayvonlari va boshqalar uchun “zakot” tariqasida undirilgan¹⁴. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlaridayoq Markaziy Osiyo hududlarida ko‘chmanchilik sharoitida, o‘zlari uchun qulay joy izlab yurgan ko‘plab urug‘ va qabilalar, yer maydonlari, suv, o‘tloqlarni egallash maqsadida kurashib kelganlar. Xatto, ayrim hollarda ular o‘zlaridan kuchlirok, yirik qabilalarga soliq solish — o‘lpon to‘lab turganlar.

Doro I hukmronligi davrida uning avlodlaridan bo‘lmish, Kurush va Kambis (529-522-yillar) o‘zlariga qaram mamlakatlardan muayyan soliq olmaganlar, biroq tobe mulklardan ularga sovg‘a-salomlar yuborib turilgan. Daroni forslar savdogar deyilishiga sabab, u birinchi bo‘lib soliq tizimini joriy etganligidir.

Doro qo‘l ostidagi har bir mamlakat va viloyat ularga katta miqdorda tayinli soliq to‘lab turganlar. Xususan, ahamoniylarga tobe satrapliklardan o‘n ikkinchisiga kirgan “baqtriyaliklardan” “egllar” gacha (Xo‘jand atroflarida yashagan qadimgi urug‘ shunday atalgan) bo‘lgan hudud yiliga 360 talant (1 kg talant 30 kg kumushga teng bo‘lgan) to‘lab turishi kerak bo‘lgan¹⁵.

¹⁴ Kur’oni karim. Shayx A’louddin Mansur tarjimasi. T. Sharq. 2001. Turli suralarning tegishli oyatlari.

¹⁵ Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T. Sharq. 2000. - 36 bet.

Ahamoniylarning yillik soliqlardan tashqari boshqa yo‘llar bilan ham tobe xalqlardan qo‘shimcha tushumlar olganliklari ma’lum. Qaqrab yotgan dalalarni sug‘orish uchun dehqonlar ahamoniy hukmdorlari saroylariga borib, suv yo‘lini to‘sib turgan va tabiiy ravishda doimo qo‘riqlanib turadigan to‘g‘on darvozalarini ochib yuborishni so‘rab nola qilar ekanlar. Shunda hukmdor to‘g‘onni katta pul evaziga ochishga farmon berar ekan, yillik soliqlar bundan mustasno bo‘lgan. Umuman olganda ahamoniylar tobe o‘lkalar aholisi, boyliklarni talashda, suiiste’mol qilishda boshqa tajovuzkorlardan qolishmaganlar. Chunonchi, qadimda Elam davlati poytaxti bo‘lgan, keyinchalik ahamoniylar qarorgohlaridan bo‘lmish Suza shahridagi saroy qurilishida ishlatilgan oltin Baqtriyadan olib ketilganini tasdiqlovchi ma’lumotlar bor.

Doro I aytadi: “Eron chegarasidan tashqaridagi, men qo‘lga olgan, menga boj to‘laydigan o‘lkalar budir: Midiya, Suziana, Parfiya, Ariya, Baqtriyona, So‘g‘diyona, Araxoziya, Sattagidlar, Gandariya, Hindlar, Emergiya saklari, kamonchi saklar, Bobil, Ossuriya, Araviya, Misr, Kappadokiya, Sparda, Ioniya, dengiz ortidagi saklar, skudrlar, gulchambar kiyib yuruvchi ioniyaliklar, pontliklar, kossaklar, matsiy, kolxlar va boshqalar. Ular mening qonunlarimga itoatda edilar, mening qonunlarimdan boshqasiga bo‘ysunmasdilar¹⁶.”

Tarixiy adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, qadimgi Eron manbalari xususan toshlar va sopolga o‘yib yozilgan manbalar (mixxat yozuvlari)da qayd etilishicha, miloddan avvalgi VI – V asrlarda So‘g‘diyona, Baqtriya, Midiya, Xorazmdan katta miqdordagi mollar o‘lpon tarzida olib ketilgan. Masalan, pishiq sopol taxtachaga o‘yib yozilgan bir katibada Doro I (miloddan avvalgi 522-486-yil) hukmronligining dastlabki yillarida (miloddan avvalgi 494-490-yillar orasida) Suzada bunyod etilgan saroyning qurilish tafsiloti, aniqrog‘i, qurilishga ishlatilgan materiallarning qaysi mamlakatdan keltirilganligi

¹⁶ Abdullayev O, Toshmatova J. Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida. T. Yurist-media markazi. 2008. 67-68- b.

yozilgan. Taxtachadagi ma'lumotlarga ko'ra, tovon tarzidagi oltin Lidiya bilan Baqtriyadan qimmatbaho toshlar, lazurit va serdolik (qizg'ish rangli tosh) tosh So'g'diyonadan, firuza Xorazmdan olib ketilgan¹⁷.

Erondagi Sheroz shahridan taxminan 50 km masofada joylashgan Persopol shahri yaqinidan topilgan yozuvlar va tasviriy suratlar katta ilmiy ahamiyatga ega. Suratlarda ahamoniylarga tobe bo'lgan 23 satraplikdan o'lpon olib ketayotgan kishilar qiyofasi tasvirlangan. Bular orasida baqtriyaliklarning turli idishlari, teri, mo'yna, tuya, so'g'dliklarning turli mato, teri va qo'ylari, saklarning ot, chakmonlari, parfiyaliklarning ot va qurol-aslahalari o'z aksini topgan.

Eradan oldingi II-I asrlarda yashagan qadimgi yunon faylasufi Anrippa soliq tizimi va uning funksiyasi xususida shunday degan edi: "Qo'shinni tutib turish va davlatning qolgan xarajatlarini qoplashga zarur bo'lgan mablag'larni qayerdan olish kerak? Men buni sizlarga tushuntirib beraman, lekin avval shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki, xatto bizda demokratiya bo'lgan taqdirda ham, davlat byudjeti uchun baribir pul kerak. Zero askarsiz davlat yashay olmaydi, pul ta'minotisiz esa biz qo'shinni tutib turishga qodir bo'lmaymiz. Xullas, soliq solish monarxiyaning farqlab turuvchi xususiyati emas, boshqaruvning har qanday shakli soliq undirishni taqozo etadi". Bu davrda Eron va Turon hududlari eronlik va yunon hukmdorlari tomonidan qator satrapliklar hamda viloyatlarga bo'lib idora qilingan, har bir ma'muriy-hududiy birliklar ma'lum soliqlar va o'lponlar yig'ish orqali qat'iy tarzda boshqarilgan, satrapliklarni boshqaruvchi hukmdorlar Eron va yunon hukmdorlari tomonidan tayinlangan, soliq yig'ib olish ham ular tomonidan idora etilgan.

Doro I Eronda satrap deb ataluvchi yigirmata ma'muriy viloyat tashkil etgan. Viloyat boshliqlarini tayinlagach, har bir satraplikdagi asosiy xalqlarga qarab soliqlarni belgilagan. Doroning talabi bo'yicha

¹⁷ Дандамаев М.А. Политическая история Ахменидской державы. Пресс. М., 1985.- С 73.

o'lonni kumush bilan to'laydiganlar Bobil talantida, tilla bilan to'lovchilar esa Evbey talantida o'lchab keltirishlari lozim bo'lgan. Bobil talanti yetmish sakkiz Evbey minasi qimmatiga ega bo'lgan. "Yettinchi viloyatda birlashtirilgan sattagidlar, gandariylar, dadik va aparilar yuz yetmish talant miqdorida soliq to'laganlar. O'ninchi viloyat bo'lmish Ekbatan, Midiyaning qolgan qismi parikaniylar, ortokorobantiylar-to'rt yuz ellik talant, kaspiylar, pavsika, pantimat, dareytlar-hammasi o'n birinchi viloyatni tashkil etishgan, ulardan ikki yuz talant daromad tushgan.

Baktriyadan egllargacha bo'lgan yerlarni qamrovchi o'n ikkinchi viloyatning o'loni uch yuz oltmish talant belgilangan. Paktikadan, shuningdek, arminiyaliklar va ularning qo'shni yerlaridan boshlanib, Evskin, Ponti (Qora dengiz)gacha uzanuvchi o'n uchinchi viloyat to'rt yuz talant to'lagan. O'n to'rtinchi viloyat bo'lmish sagartiy, sarangiy, famanay, utiy, miklar va podsho surgun qiladiganlarni joylashtiruvchi Eritrey (Qizil dengiz)dagi orollar xalqlaridan olti yuz talant soliq solingan. O'n oltinchi viloyatdagi parpilar, xorazmiylar, so'g'dlar, areylardan uch yuz talant olingan. Parikaniylar, osiyolik efioplar to'rt yuz talant to'lab, o'n yettinchi viloyat ikki yuz talant to'lashga majbur etilgan. Matiyenlar, saspeyrlar, alarodiyalar o'n sakkizinchi viloyatni tashkil etishgan. Mosx, tibaren, makron, masinoyklar o'n to'qqizinchi viloyatga kiritilib, ularga uch yuz talant soliq solingan". Mazkur xalqlar ichida eng ko'p sonlisi bo'lgan hind xalqi, boshqalarga nisbatan eng katta soliq, ya'ni uch yuz oltmish talant oltin qum to'lar va ular yigirmanchi viloyatga kiritilgan.

Ma'lumki, eramizning VII-VIII asrlarida O'rta Osiyoda turk-so'g'diy xalqlar va davlatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar jadal kechgan. Bu davrda turk so'g'd munosabatlari yer egaligi, iqtisodiy, savdo, oila - nikoh munosabatlarida ham mavjud bo'lgan.

Zero, qadimgi davrlarda O'rta Osiyo hududlarida soliqlar tizimini tahlil etish shundan dalolat bermoqdaki, mahalliy soliqlar bilan

birgalikda umumdavlat soliqlari va yig'implaridan nafaqat hukmdorlar, balki chet ellik bosqinchilar ham katta-katta foydalar olganlar. Bunday to'lovlar asosan natura tarzida amalga oshirilib, chet ellarga maxsus ajratilgan sovg'a-salomlar yuborish an'ana tusini olgan, albatta, soliq yuki, avvalambor, mahalliy xalqlar zimmasiga tushgan. Shu bilan birga, maxsus shahar tipidagi aholi manzilgohlari, o'troq dehqon jamoalarida aholi dehqonchilik, hunarmandchilik mahsulotlari bilan soliq va o'lponlar to'laganlar. Bunday toifa kishilardan ot, tuya, xachir, qoramollar, qo'y, echki, hunarmandchilik buyumlari, oltin, kumush buyumlar, mis, qo'rg'oshin kabilar undirib olingan. Ular, albatta, maxsus tayinlangan xazinabonlar nazorati ostida bo'lganligini tasdiqlamoqda.

Ilk yer egaligining shakllanishi jamiyatda turli toifadagi fuqarolarning yerga bo'lgan munosabatini o'zgartirishi barobarida ulardan olinadigan soliq shakllari, miqdori ham orta borgan. O'rta asrlarda ham jamiyatda "dehqonzoda"lar (qishloq hokimlari) mavqei yanada ortgach, soliq va ularning turlari yanada ko'paygan. Zero bu davrda endigina shakllanayotgan dehqonlar qadimgi mulkdor tabaqa sifatida shakllanib kelgan, birmuncha boy, o'zining daxlsiz mol-mulkiga ega bo'lgan katta yer egalari edi.

Katta patriarxal qishloq jamoalari endilikda bir qancha tabaqalarga bo'linib, mulkdor dehqonlar, ularga qaram bo'lgan, qishloqning mehnatkash aholisi kadivarlar, voha va vodiylardagi o'troq ziroatchi qishloq jamoalarining aholisi esa kashovarz (yerni omoch bilan haydovchi, qo'shchi)lar deb yuritiladigan bo'ldi. Dehqonchilik vohalaridagi katta yer egalari sifatida shakllanib ulgurgan yer egalari o'z viloyatlarida xatto mustaqil hokim darajasiga ham ko'tariladilar.

Eramizning V-VI asrlar boshlarida O'rta Osiyoda eftalitlar davlati hukmronlik qilgan. Eftalitlarning bir qismi ko'chmanchi chorvador bo'lsa, ikkinchi kattaroq qismi shahar va qishloqlarda yashaydigan o'troq aholi bo'lgan. Toxariston va So'g'dda dehqonchilik va

bog'dorchilik rivoj topgan. Ayniqsa, Qashqadaryo va Zarafshon vohalarida barcha ekinlar ekilgan, g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan. Xitoy manbalarida qayd etilishicha V-VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo yerlarida ko'plab g'o'za ekilgan.

Soliqlar ham mazkur ekin turlari bilan bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, O'rta Osiyo paxta tolasi Xitoyda juda mashhur bo'lgan. Tog' va tog' oldi yerlaridagi aholi yilqichilik bilan shug'ullanganlar, Farg'ona vodiysida zotdor armutoqlar ko'paytirilgan.

Yangi yer egaligi munosabatlarining tarkib topa boshlashi bilan sug'oriladigan yer maydonlarining ma'lum bir qismi mulkdor zodagon tabaqa vakillari "dehqonlar" qo'lida to'plana boshlangan edi. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin qo'shchilari ma'lum darajada zodagon dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram kadivarlarga aylanib borar edi.

Obikor yerlarning bir qismi ibodatxonalar mulki hisoblangan. Bunday yerlar "vagnze" deb yuritilgan. Yaylovlarning asosiy qismi oqsoqol zodagonlar qo'lida bo'lgan. Eftalitlar orasida ijtimoiy tabaqalanish ham kuchli bo'lgan. Ular orasida yer egaligi munosabatlari shakllanishi bilan bir qatorda ibtidoiy tuzumning ayrim belgilari ham hali saqlanib qolgan edi.

V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida eftalitlarning o'troqlashuvi kuchayadi. Buning oqibatida esa obikor yerlarga bo'lgan ehtiyoj ortadi. Kichik-ko'prik sug'orish kanallari qazib chiqarilib, minglab gektar yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi. Sug'orish texnikasi takomillashadi, shox ariqlar chuqurlashib, yer-suv va sershoxa sug'orish tarmoqlariga aylanadi.

Hozirgi vaqtda ham mavjud bo'lgan Zaxarik, Buzsuv, Darg'om kanallari V asrda barpo etilgan eng yirik sug'orish tarmoqlaridan bo'lgan.

Eramizning VI asri va VII asr birinchi yarmida o'lkamizda Turk xoqonligi hukmronlik qilgan. Butun saltanat ustidan oliy hukmronlikni xoqon olib borgan, bu lavozim merosiy bo'lgan.

Xitoy manbalariga ko'ra, ota doimo o'z o'g'liga taxtni qoldiravermay, balki undan kattaroq turgan qarindoshlariga qoldirishi lozim bo'lgan. Bundan tashqari, shunday hollar ham bo'lganki, taxt sohibini "urug' sulolalari" tayinlaganlar. Xitoy manbalariga ko'ra, turkiylar xonni taxtga o'tkazishda maxsus marosim o'tkazganlar, ya'ni amaldorlar bo'lajak xonni kigizga o'tqazib, quyosh yurishi bo'ylab 9 marotaba aylantirganlar.

Xoqondan keyin yabg'u (baxodir) davlatdagi birinchi amaldor (vazir) vazifasi bo'lgan. (Masalan Istemi yabg'u). Ammo yabg'u taxtga merosxo'rlik qila olmas edi. Taxt merosxo'ri tegin (shaxzoda) deb yuritilgan. Tegin taxtga da'vogar shaxs bo'lgan. Shod unvoni tuman va viloyat hokimligidagi shahzodalarga berilgan, shahzodalar bilan qondosh bo'lmasa, unday odamga shod unvoni berilmagan.

Tudun unvoni hukmdorning joylaridagi noibi (nazoratchisi)ga berilgan. Ular mahalliy hokimlar siyosatini, boj-soliq ishlarini nazorat qilganlar. Shod unvonidagi kishi hukmdorning o'ng tomonidan joy olgan.

Chorvador turkiy aholida urug'-jamoachilik an'analari kuchli bo'lib, qabila va urug' jamoalarining negizi katta oilalardan iborat edi. Bunday oilalarda uy chorakorlari ham mavjud bo'lgan.

Ularning vujudga kelishi bilan jamiyatda tabaqalanish munosabatlari tarkib topa boshlagan. Lekin uni qulchilik munosabatlari bilan solishtirish lozim emas, chunki qulchilik munosabatlari O'rta Osiyo ijtimoiy hayotiga Yevropa quldorligi kabi kirib kelmagan.

Turkiy ko'chmanchilarning asosiy qismi kambag'al chorvadorlardan iborat edi. Bunday xalq ommasi budun yoki qora budun deb atalgan. Viloyatlar budunlar yashaydigan jamoalar (ellar)ga bo'lingan. Xoqonlikning markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik

siyosiy-davlat tadbirlari, xususan, saltanat osoyishtaligini saqlash, davlat hududini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va hokazo bilan mashgʻul boʻlib, joylardagi mahalliy ishlarni yuritishda maʼlum darajada erkinlikka yoʻl qoʻyilgan. Shuning uchun ham, Fargʻona, Soʻgʻd, Shosh, Toxariston, Xorazm va boshqa joylarda boshqaruv ishi asosan mahalliy sulolalar qoʻlida boʻlgan.

Xitoy manbalariga koʻra, Soʻgʻd hukmdorlari ixshid unvoniga, tobe hokimliklar ham unvonlariga ega boʻlganlar. Dehqonlar mavjud suv resurslari hamda lalmikor yerlar imkoniyatlaridan foydalanib, asosan don ekinlari hamda, qovun, tarvuz, beda, uzumchilik, paxtachilik sohalaridan yuqori hosil yetishtirganlar.

Mevali daraxtlardan bogʻ-rogʻlarda meva yetishtirishga alohida ahamiyat berilgan. Bir soʻz bilan aytganda “mevali daraxtlar savlat toʻkib turgan”. Chunonchi, ajnabiylarni Samarqandning “tilla shaftolisi” lol qoldirgani maʼlum.

Shahar aholisi asosan hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashgʻul edi. Dehqonchilik va konchilikdagi taraqqiyot koʻlami va sifatiga koʻra uchta tarmoq hunarmandchilik, qurilish, savdo-sotiq ravnaqi uchun turtki boʻlgan. Shuning uchun bu vaqtda metallsozlik, zargarlik, kulolchilik, duradgorlik, qurolsozlik, toʻqimachilik, shishasozlik, konchilik keng rivoj topgan. Hunarmandchilik rivojiga turkiy aholi katta taʼsir koʻrsatdi. Chunki ularda qadimdan ayrim kasb-hunarlar ancha rivojlangan edi. Turkiylar metall qazib olish va undan qurol-yarogʻ yasashda, ayniqsa, mohir edilar. Turkiylar yasagan qurol-yaroq, zebu-ziynat buyumlari xilma-xilligi va pishiqligi bilan ajralib turgan. Konchilik faoliyati ham shu paytda ancha rivojlangan. Oʻtin, temir, kumush, qoʻrgʻoshin, mis, margimush, tuzning bir necha xili, qimmatbaho toshlar, turli maʼdanlar Soʻgʻd, Shosh, Fargʻona, Kashgar, Toxariston kabi viloyatlarda qazib olinganligi manbalarda uchraydi.

Bu davrda soliq turlari ham xar xil bo‘lgan. Masalan, sak (shak) va kaspiylar kabi qabilalar ikki yuz ellik talant (bir talant 25 kg. 248 gr. sof oltinga teng bo‘lgan), demak, 6312 kg miqdorida, parfiyaliklar, xorazmiylar, so‘g‘dlar va oriylar uch yuz talant – 7574,4 kg miqdorida xiroj to‘lashgan. Qat’iy belgilangan xirojlardan tashqari har xil sabablarni ro‘kach qilib qo‘shimcha soliqlar ham joriy etilar va ular suv yo‘lini to‘sib qo‘yish yoki boshqa xil zo‘ravonlik “vositalari”ni qo‘llash kabi tahdidlar orqali undirib olinar edi.

Erondagi qadimgi Persopol shahridan topilgan uzoq ajdodlarimiz – baqtriyaliklar, xorazmliklar, so‘g‘dlar va saklar tasvirlangan rasmlarda, saklar kiyim-kechak, baqtriyaliklar tuya va idishlar, xorazmliklar dudama xanjar, jangovar bolta, bilakuzuk va otni shohga olib borayotgan manzara chizilgan. So‘g‘d bitiklariga ko‘ra, O‘rta Osiyo viloyatlariga mashhur otlar, oltin, lojuvard, firuza va qimmatbaho toshlar olib kelingan. Demak, miloddan avvalgi davrlarga nazar soladigan bo‘lsak, o‘sha davrlarda ham soliq undirishda yaratilgan buyumlar va tabiiy ashyolarga “natura” tamoyili qo‘llangan deyishimizga asos bor. Qisqasi, soliqlarning paydo bo‘lishi rivojlanishning dastlabki asoslarini yaratdi: kanallar qazilib, yerlar o‘zlashtirildi.

Makedoniyalik Aleksandr Markaziy Osiyoni bosib olib, uni o‘z saltanati tarkibiga kiritgach, mintaqamiz soliqlarni yunonlar tamoyili bo‘yicha to‘lashga majbur qilingan.

Yunonistonda soliqqa tortish Markaziy Osiyodagidan farq qilib, soliqlar daromad solig‘i va ehsonlardan

Ahamoniylar hukmronligi davrida (miloddan avvalgi birinchi ming yillik o‘rtalari) Markaziy Osiyoda yashovchi qabilalardan soliqlar salkam ikki asr mobaynida yillik xiroj va harbiy otryadlar yetkazib berish shaklida undirilgan

iborat bo‘lgan. Daromad solig‘i daromadning o‘ndan yoki yigirmadan biri miqdorida undirilgan va jamoat manfaatlarini himoya qilish maqsadlari yo‘lida ishlatilgan. Aleksandr Makedonskiy Markaziy

Osiyoda asosan Ahamoniylar barpo etgan davlat apparati tuzilmasini saqlab, mahalliy zodagonlar tarkibidan satraplar hokimiyatini tuzgan.

Maxsus soliq xizmati joriy qilmagan, soliq undirish vazifasi muayyan bir kishiga yuklatib qo'yilgan. Ular esa soliq, to'lovchilardan xazina bilan tuzilgan shartnomada belgilangan hajmdan ko'proq soliq yig'ib, o'z manfaatlari uchun dam qo'shimcha mablag'lar to'plab olishgan.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, greklar hukmdor Salavkiylar davlatida anchayin murakkab soliq tartibi mavjud bo'lib, hukmdorlar o'zlaricha mavjud bo'lgan soliq tartibini o'zlashtirgan holda unga bir muncha o'zgartirishlar kiritadilar. Dehqonlardan yer solig'ini undirish hukmdor satraplar vazifasi edi. Soliqlar miqdori aniq belgilangan bo'lib, viloyatlardan keladigan umumiy tushumlar qishloq jamoalaridan tushadigan soliqlarga bog'liq bo'lgan. Shu tariqa, soliq yig'uvchilar instituti ham dunyo yuzini ko'rdi.

Shu o'rinda qadimiy Surxon vohasida Yunon-Baqtriya davlatiga qarshi ajdodlarimiz tomonidan tuzilgan qudratli Kushon davlati va uning iqtisodiy hayoti, jumladan, soliq siyosatiga qisqacha to'xtalib o'tsak. Ma'lumki, miloddan avvalgi 155-yilda Yunon-Baqtriya davlati inqirozga yuzlanadi.



Bundan foydalangan kushonlar miloddan avvalgi 140 yili So'g'd orqali Baqtriyaga bostirib kiradilar va Shimoliy Baqtriya hududlarini egallab oladilar. Yuechjilar, ya'ni kushonlar 100 yil davomida beshta qabilaga bo'linib yashaydilar. Kushon qabilasi sardori Kudzula Kadfiz bo'lgan to'rttala qabila yabg'usini ham o'ziga tobe etib, barcha qabilalar ustidan hukmronlik qilari edi. Kudzula Kadfiz o'z davlatini bekklik deb e'lon qilgan va hozirgi Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida

joylashgan Dalvarzintepani ana shu beklik poytaxtiga aylantirgan. Davlati chegaralarini kengaytirish va qudratini mustahkamlash maqsadida bu hukmdor Amudaryo chap sohili tumanlarini egallashga bel bog‘laydi, tez orada Xuroson, Afg‘oniston va Kashmirni ham o‘z tasarrufiga oladi.

Kudzula Kadfiz sakson yoshida olamdan o‘tgan bo‘lsada, Kushon davlatining hali o‘z puli yo‘q edi. Qudratli hukmdor tangalarni Rim imperiyasi va Parfiya podsholari zarb etgan tangalarga taqlidan chiqargan. Shu boisdan Dalvarzintepada topilgan nodir tangalarda “Kudzula Kadfiz yabg‘u”, keyinroq esa “hukmdor Kadfiz” yozuvlarini uchratamiz. “Yabg‘u” esa, nainki davlatchilik tushunchasi, balki soliqchilik tushunchasi hamdir.

“Yabg‘u” – soliqlarni yig‘diruvchi va tasarruf etuvchi amaldorni, ya’ni hukmdorni anglatardi. Kudzula Kadfiz vafotidan keyin taxtga o‘tirgan va 30 yil hukmdorlik qilgan o‘g‘li Vima Kadfiz ham o‘z nomidan tangalar zarb ettiradi. U Pokiston va Hindistonning markaziy viloyatlarini egallab oladi. Undan keyin taxtga chiqqan Kanishka Hindiston janubi barobarida So‘g‘diyona, Xorazm va Choch viloyatlarini ham tasarrufiga kiritadi. Kanishka davrida “shoxlarning shoxi – ulug‘ xaloskor” yozuvi bilan tangalar zarb etilgan, buddaviylik dini davlat mafkurasiga aylangan, poytaxt Dalvarzintepadan Peshovarga ko‘chirilgan.

Bu imperiya sarhadi taxminan 12 million kvadrat kilometrni tashkil etardi. Kanishka 23 yil hukmdorlik qilganidan keyin o‘g‘li Vasishka 4 yil, Xuvishka 32 yil, Vasudeva 34 yil hukmronlik qiladi. Vasudeva davrida imperiya ikkiga bo‘linadi, bir qismini Vasudeva, ikkinchi qismiga esa Kanishka III hukmronlik qiladi. Har ikkalasi ham o‘z nomidan tangalar zarb ettiradi¹⁸.

Kushon podshoxlari Rim imperiyasi bilan diplomatik aloqalar, Sharqiy Turkiston uchun Xitoy bilan urushlar olib borgan edi.

¹⁸ Mamanazarov A. Soliq siyosati. “Moliya”. Toshkent. 2003. 6 b.

Aynan Vima Kadfiz hukmronligi davrida pul islohoti o'tkazilgan, zarb etilgan pullar – oltin, kumush va mis tangalar toifalariga ajratilgan. Har biri 8 gramm bo'lgan oltin tangalar tashqi savdo uchun zarb etilganki, bunda o'ziga xos xalqaro valyutani ko'ramiz. Kushonlar Osiyoda qudratli davlat tuzishining negizi ham aynan ana shu iqtisodiy hodisada mujassamlashgan edi.

Bu saltanat aynan soliq siyosatini to'g'ri tashkil etgani bois qudratli bo'lgan va uzoq hukmronlik qilgan. Oltin tangalar xalqaro savdoni ta'minlash barobarida oltin tangada olinadigan bojni, kumush va mis chaqalar ichki savdoni ta'minlashi barobarida ana shu tangalardagi tushumlar - soliqlar va yig'implarni ta'minlagan.

Ibn Xaldunga (1336-1406) murojaat etganimizda, davlat navqironligi va keksayishi nazariyasiga, bunda soliqlarning roli masalasiga to'xtalamiz. Aytish kerakki, Kushonlar imperiyasi aynan oltin tangalarni xalqaro muomaladan chiqarib, har xil haykallar yasashga mukkadan ketishi butun boshli sivilizatsiya zavoliga maydon hozirlagan va Sosoniylar bu davlatni tugatib tashlagan.

Ibn Xaldun nazariyasiga ko'ra, davlat navqiron kezlarida saxiy bo'ladi - Vima Kadfiz oltin tangalarni xalqaro muomalaga chiqargan edi, - keksayib qolgan kezlarida esa xasislashib qoladi - tangalar haykallarga aylangan, faol muomala so'nib qolgan, demak endi aholiga zulm o'tkaziladi.

Bu qadriyat hozir ham amal qiladi: rivojlangan mamlakatlar o'z valyutalari xalqaro maydonda muomalada bo'lishiga intiladilar, demak, ajdodlarimiz anglab yetgan qadriyatlarga amal qiladilar. Kushonlar ham barcha turkiylar singari ko'chmanchi bo'lishgan, ammo aynan katta makon, keng ulus, kuchli savdo-sotiq taraqqiyot asosi ekanligini anglab yetishgan.

IV-VI asrlardagi turkiy qavmlar tarixiga oid qadimgi manbalarda qabilalar, guruhlar O'rtasida sodir bo'lgan to'qnashuvlarda mag'lubiyatga uchragan tomon aholisi yangi hukmdorlariga mavjud yer

yoki chorvalari uchun soliqlar to‘lab turganligi, dehqonchilik yoki chorvachilik bilan shug‘ullanish imkoni bo‘lmagan joylarda esa soliq o‘rniga belgilangan miqdorda konlardan ma‘danlar qazib berganliklari kabi hodisalar haqida ma‘lumotlarni uchratish mumkin.

Tabiiy usul (daryo suvi) bilan sug‘oriladigan yerlardan olinadigan hosilning o‘ndan biri (ushr) miqdorida, agar hosil chig‘iriqlar, chelaklar kabi sun‘iy usullar va vositalardan foydalangan holatlarda yetishtirilsa, ushrning yarmi yoki hosilning yigirmadan biri miqdorida “zakot” berilgan.

“Hadis”larda ko‘rsatilishicha: “Osmon (yomg‘ir) va buloqlar yoki yer osti sizot suvlari bilan sug‘oriladigan ekinga ushr (hosilning undan biri), chig‘iriqlar yordamida sug‘oriladigan ekinga esa yarim ushr soliq solingaydir”, deb rivoyat keltirilib, ra‘iyatdan qaysi holatda va qay yo‘sinda soliq undirilishi to‘g‘risida ta‘kidlab o‘tilgan. Demak, tabiiy usul bilan sug‘oriladigan yerlarga, sun‘iy usul bilan sug‘oriladigan yerlarga nisbatan inson mehnati kam sarflanishini inobatga olib, sun‘iy usul bilan sug‘oriladigan yerlardan olingan hosildan soliq ikki baravar kam undirilgan, ya‘ni inson mehnati kam sarflangan, tabiiy usulda sug‘orish yo‘li bilan yetishtirilgan hosildan zakot ikki hissa ko‘proq undirilgan.

Ikkinchi bob bo‘yicha o‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Qadimgi Rimda soliq munosabatlari tarixi.
2. Xitoy hududidagi qadimgi davlatlarda qanday soliqlar amal qilgan?
3. Qadimgi Turon zaminida shakllangan soliqlarning rivojlanishi.
4. Markaziy Osiyo hududlarida Doro I hukmronligi davrida qanday soliq tizimi amal qilgan?
5. Eftalitlar davrida qanday soliqlar amal qilgan?
6. Yunonlarning hukmdorligi davrida olib borilgan soliq siyosati haqida gapirib bering.

7. Kushonlar sulolasi hukmronligi davrida “Yabg‘u” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi nimani anglatgan?

8. Ibn Xaldun davlatning navqironligi va keksayishi nazariyasini, bunda soliqlarning roli masalasini qanday izohlab bergan?

9. Erondagi qadimgi Persopol shahridan topilgan baqtriyaliklar, xorazmliklar, so‘g‘dlar va saklar tasvirlangan rasmlarning mazmun-mohiyati nimadan iborat?

10. Turk xoqonligi davrida Tudun maqomi kimlarga berilgan va uning vazifasi nimalardan iborat bo‘lgan?

Test savollari:

1. Rim imperiyasi davrida urush solig‘i qanday nom bilan atalgan?

- a) Tributum;
- b) Eispfora;
- c) Portoriya;
- d) Publikani.

2. Rim imperiyasi davrida daromadni e‘lon qilmagan fuqarolarga qanday jazo choralari ko‘rilgan?

- a) Qullikka mahkum qilingan;
- b) Qatl qilingan;
- c) Armiyaga jalb qilingan;
- d) Mamlakatdan chiqarib yuborilgan.

3. Rim imperiyasi davrida xalq orasida soliq yig‘uvchilar qanday nom bilan atalgan?

- a) Publikani;
- b) Sensorlar;
- c) Tributum;
- d) Eispfora.

4. Rim imperiyasi davrida urush soliqlarini yig‘ish uchun aholi mulklarini kimlar baholagan?

- a) Sensorlar;

- b) Publikani;
- c) Tributum;
- d) Senatorlar.

5. “Provinsiyalarda tinchlikni og‘ir tovlamachilik bilan emas, faqat o‘rtacha soliqlar yordamida o‘rnatish mumkin”. Mazkur fikr qaysi Rim imperatoriga tegishli?

- a) Yuliy Sezar;
- b) General Sulla;
- c) Mark Antoniy;
- d) Avgust Oktavian.

6. “Men vandalizm qilmayman. Men sizni endi besh yilga to‘lanadigan soliq miqdorini to‘lashga majbur qilaman. Qolaversa, siz bilan bo‘lgan urush xarajatlarini menga to‘lashingiz kerak”. Mazkur ibora qaysi Rim imperatoriga tegishli?

- a) General Sulla;
- b) Yuliy Sezar;
- c) Mark Antoniy;
- d) Avgust Oktavian.

7. Qadimgi Yunonistonda dehqonlardan yer solig‘ini undirish kimlarga yuklatilgan?

- a) Satraplarga;
- b) Senzorlarga;
- c) Publikanilarga;
- d) Omillarga.

8. Qadimgi Xitoyda soliqlar kelib chiqib belgilangan. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying?

- a) Jo‘g‘rofiy sharoitlari va mahalliy boyliklaridan;
- b) Imperator ixtiyoridan;
- c) Soliq yig‘uvchilar ixtiyoridan;
- d) Omillarning ixtiyoridan.

9. Qadimgi Xitoyda birinchi (darajali) viloyat yerlaridan qanday mahsulotlar soliq sifatida undirilgan?

- a) Yashma toshi va marvarid;
- b) Qirg'ovul va baliq;
- c) Turli xil yelpig'ichlar, fil suyagidan yasalgan buyumlar;
- d) Panda ayig'i, tulki, suvsar, cho'chqa va ot terisi.

10. Qadimgi Xitoyda yettinchi (darajali) viloyat yerlaridan qanday mahsulotlar soliq sifatida undirilgan?

- a) Panda ayig'i, tulki, suvsar, cho'chqa va ot terisi;
- b) Yashma toshi va marvarid;
- c) Qirg'ovul va baliq;
- d) Turli xil yelpig'ichlar, fil suyagidan yasalgan buyumlar.

3-BOB. ARABLAR VA MARKAZIY OSIYONING BOSHQA O‘RTA ASR DAVLATLARI HUKMRONLIGI DAVRIDA AMAL QILGAN SOLIQLAR

§ 3.1. Arablarning turon hududlarini egallashi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlarida soliq munosabatlarining o‘zgarishi

Arablar Markaziy Osiyoga bostirib kelgach, 651-yildan boshlab soliqqa tortish tizimi birmuncha murakkablashdi va soliqlarning turlari ko‘payib bordi. Masalan, xayr-ehson ehtiyojlari uchun soliq - zakot ijtimoiy keskinlikni yumshatish uchun mo‘ljallangan, kambag‘allar, yetimlar va yo‘lovchilarga xayr-ehson berishda foydalanilgan¹⁹.



Arablar Movarounnahrni istilo qilganidan keyin yer-mulklari xalifaga qarashli bo‘lib qolgani tufayli yirik zodagon qatlamlarning xususiy mulki ham xalifa mulkiga, yirik yer egalari bo‘lmish “dehqon”lar esa o‘z yerlarida ijaradorga aylandilar, daromadning ma’lum qismini xalifaga jo‘natadigan bo‘ldilar.

Dehqonlarning arablar bilan yaqinlashuvi yer-mulklari va boshqa boyliklarini saqlab qolishga imkon yaratgan. So‘g‘diylarning asosiy qismi juzya va xiroj to‘lashgan.

Xiroj yer solig‘i bo‘lib, “muqassama” deb atalgan va ko‘pincha yalpi mahsulotning 3/1 qismini tashkil etgan. Xiroj to‘lovchi aholi qatlami “harros” deb atalganlar. Movarounnahr va unga qo‘shni hududlarda jamoachilar soliqlar, uzluksiz urushlar, talon-tarojlardan

¹⁹ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy. Xadis. 1-kitob. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent, 1997. 382-416-betlar.

qiynalib qolib, yirik yer egalaridan panoh izlashga majbur bo‘lgan. Bu jarayonda jamoachilar yerda ishlash huquqini saqlab qolgan holda yirik zamindorlarga soliq to‘lash asosida o‘zaro kelishib olishgan. Zamindorlarning jamoachilar bilan bunday munosabati “al-ja’”, “at-talji’a”, “al-malaja” atamalari bilan ifodalangan.

Soliq yig‘uvchilar “omil” deb yuritilgan. Soliqlar pul yoki mahsulot – “natura” shaklida to‘langan.

Shu bilan birga, o‘sha davrda solliqlar quyidagi shakllarda yig‘ilgan:

- vazifa (o‘lpon);
- juzya (jon solig‘i);
- xiroj (yer solig‘i).

Sanab o‘tilgan solliqlardan xirojning undirilish tartibi 3 xil shaklda amalga oshirilgan:

Xiroj asosan Navro‘z bayrami arafasida yig‘ib olingan. Juzyani musulmon bo‘lmagan fuqarolar (ozod erkaklar) to‘laganlar. Xotin-qizlar, keksalar, voizlar, kambag‘allar va qullar bu soliqni to‘lashdan ozod qilingan
--

misahha – qat’iy belgilangan stavkada;

muqotta – qat’iy belgilangan summada;

muqassama – hosilning muayyan ulushida (masalan, hosilning 1/3 miqdori) amalga oshirilgan.

Soliq miqdori shartnoma bo‘yicha belgilangan, juzya fuqarolarning o‘ziga to‘qlik darajasiga qarab undirilgan.

Yuqoridagilardan tashqari chorva-dorlardan chorva tuyog‘iga qarab naturada, hunarmand va savdogarlardan agar soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdordan oshib ketgan muayyan yillik daromad mavjud bo‘lganida ham alohida solliqlar undirilgan. Shu bilan bir qatorda foydali qazilmalardan olingan daromad solliqlari hamda majburiy ishlab berish – kanallar qazish va ularni tozalash, yangi yo‘llar qurish va eskilarini tuzatish, ko‘priklar qurish, shahar va qal’a devorlarini barpo etish va mustahkamlash kabi vazifalarni bajarish ham solliqlar qatorida turgan.

Arab sarkardasi Qutayba ibn Muslim VIII asr boshlarida Samarqand hukmdori Gurak bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha yiliga 2,2 mln.dirham miqdorida va ibodatxonalardan qimmatbaho narsalar ko'rinishida xiroj olib turgan. Markaziy Osiyoda soliqqa tortishning arabcha tizimini joriy etib, ya'ni soddalashtirilgan tizimga o'tib, yagona soliq yig'ishni yo'lga qo'ygan.

Soliqqa tortish tizimiga ko'ra yerlar ikki guruhga: ushr va xiroj yerlariga bo'lingan. Birinchi toifaga arablarga qarashli yerlar kirar edi. Qolgan yerlarning hammasi ikkinchi toifa hisoblangan. Bunda ushr alohida ahamiyat kasb etgan.

Ushr yerlardan olingan hosilning 1/10 qismi, xiroj yerlardan hosilning 1/3 qismidan 1/2 qismigacha soliq muqassama olinar edi. Bundan tashqari ekin maydoniga qarab qat'iy tarzda, shuningdek, uzumzorlar va bog'lardan belgilangan miqdorlarda soliq olingan.

Chorvadorlardan soliq asosan mol boshi soniga qarab olingan. Hunarmandlar va savdo ahli yillik daromaddan oshgan taqdirda soliq to'laganlar. "Zakot" so'zi keyinchalik hunarmandchilik, savdo va chorvachilik solig'iga nisbatan qo'llaniladigan bo'lgan. Bundan tashqari, turli foydali qazilmalardan ko'rilgan daromad va bevosita vorisi bo'lmasa, merosdan ham soliq undirish taomilga aylanadi. Soliqning yana bir ko'rinishi "juzya" jon solig'i hisoblangan. U musulmon bo'lmagan erkaklardan undirilgan.

Dehqonlar o'z qurol-aslahalari bilan kanallar qazish va tozalash, yo'l qurish va eski yo'llarni ta'mirlash, ko'priklar, shahar qal'a devorlari barpo etish va shu kabilarni bajarishga majbur qilinganlar²⁰.

704-yilda Qutayba ibn Muslim Xuroson noibi etib tayinlanadi. Unga Movarounnahrni bo'ysundirish va idora etish topshiriladi. U uzoq tayyorgarlikdan so'ng Buxoro ustiga yurish qiladi. Farg'onaliklar, so'g'dlar, mahalliy turklar buxoroliklarga yordamga keladilar. Qattiq janglardan so'ng Qutayba harbiy hiyla ishlatib g'alabaga erishadi.

²⁰ O'zbekiston xalqlari tarixi // Akademik A. Askarov tahriri ostida. O'zbekiston. T: 1992. – 81. bet.

Hokimiyatni Buxorxudotlar qo‘lida qoldirgan arablar Buxoro bilan sulh tuzishib, Samarqandga qaytadilar. Sulh shartnomasiga binoan buxoroliklar har yili arablarga boj-xiroj to‘lab turish majburiyatini oladilar. Shu bilan birga, arablar uchun o‘tin, ot-ulov uchun yem-xashak va suv tashib berish majburiyati ham mavjud edi.²¹

ZAKOTI-CHAKANA – arablar hukmronligi davrida joriy qilingan, o‘rta asrlar va undan keyingi davrlarda 40 boshdan kam qo‘yi bo‘lgan fuqarolar zakot to‘lamagan, ammo zakoti-chakana, ya’ni mayda zakot to‘lashi shart bo‘lgan.

XIROJ – arablar hukmronligi davrida joriy qilingan va undan keyingi davrlarda aholining barcha tabaqalari uchun majburiy bo‘lgan, davlat tomonidan undiriladigan eng keng tarqalgan soliq turi. Mazkur soliq asosan Sharq mamlakatlari, xususan, musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan bo‘lib, arablar bosqini davrida istilo etilgan mamlakatlarda, islomni qabul qilmagan barcha toifadagi musulmon bo‘lmagan aholidan undirilgan. Keyinchalik u aholining etnik, ijtimoiy mansubligidan qat’iy nazar barcha uchun majburiy to‘lov turiga aylangan. Soliq miqdori aholining boy-kambag‘alligiga qarab, yer, mol-mulk miqdori hamda oila a’zolarining nufuziga qarab belgilangan. Undirilgan soliq maxsus tayinlangan soliq xodimlari tomonidan quyi boshqaruv vakillari, ya’ni yer-suv jamoasi raislari, qishloq oqsoqollari, diniy mahkamalarning hamda vaqf mulklari boshliqlari guvohligida amir, xon, bek xazinasiga tushirilgan.

Arablarning O‘rta Osiyoga yurishlarida soliq va moliya tizimi dastlab talonchilik asosida amalga oshirilgan. Talonchilik siyosati ayniqsa arab bosqinchiligining ikkinchi davrida yanada kuchayadi. Xususan, Qutayba 707-715-yillarda Movarounnahrni uzil-kesil qo‘lga kiritib, boylik orttirishning zo‘ravonlik yo‘liga o‘tadi. Masalan, uning tavsiyasiga binoan Samarqand hukmdori 2.200.000 dirham to‘lash majburiyatini olib, barcha oltin va kumush, zeb-ziynat buyumlarini

²¹ Tursunov X Beknazarov A. O‘zbekiston SSR tarixi. Darslik. – T.: O‘zbekiston, 1982. – 41 bet.

tortib olishni ko'zda tutadi. Movarounnahrni o'z mustamlakasiga aylantirishda talonchilik usuli bilan birga soliq solishni takomillashtirishga ham ahamiyat beradi²².

710-yildan 737-yilgacha So'g'dda podshohlik qilgan G'urak (Gurak) arablarga qarshi kurashlar olib borgan. Xususan, Karmana bilan Kattaqo'rg'on oralig'idagi Arbinjon degan joyda jang bo'lib o'tadi. Ammo kuchlar teng bo'lmaganligi sababli G'urak chekinadi. Shosh va Farg'onadan yordamga yuborilgan bo'linmalar ham yo'lda Qutayba tomonidan tor-mor etilgach, Samarqand qamali boshlanib, u 6 oy davom etadi.

712-yilda Qutayba o'zaro ichki urushlardan foydalanib, Xorazmni o'ziga bo'ysundiradi, o'sha yilning o'zida arablar O'rta Osiyoning yirik savdo, iqtisodiy-siyosiy markazlaridan biri Samarqandni ham bosib oladilar. Samarqand podshosi G'urak bilan tuzilgan shartnoma shartlariga binoan, Samarqand va So'g'diyona xalqi arablarga har yili 2 million 200 ming dirham miqdorda o'lpon to'lash va arab qo'shiniga 100 ming kishi to'plab berishga majbur etiladi²³.

Mahalliy aholiga nisbatan arablarning jabr-zulmi yanada kuchaya boshlagach, Movarounnahrning aksariyat shaharlarida ommaviy xalq qo'zg'olonlari birin-ketin sodir bo'la boshlaydi. Bu esa arab hukmdorlarning mahalliy xalqlarga nisbatan qahr-g'azabini yanada kuchaytiradi. Jumladan, 723-yilda Xo'jandda bo'lib o'tgan yirik xalq qo'zg'oloni kuch bilan bostirilgach, arablar jamoachilarni xiroj va juzya to'lashga majburlab, ularning bo'yinlariga maxsus qo'rg'oshindan qilingan muhrlar osib yurishni talab qilganlar. Bunday muhrlarda "rustoq" yoki ma'lum joyning nomi bilan bir qatorda, to'lanadigan soliq miqdori ham qayd etilgan. Shu bilan bir qatorda mahalliy xalqlar arablar bosib olgan yerlardan har yili xalifalik xazinasiga katta miqdorda o'lpon to'lab turishlari bilan birgalikda, ma'lum miqdorda qo'shin uchun odam

²² Oblomurodov N., Tolipov F. O'zbekistonda soliqlar tarixi. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. – 27-b.

²³ Чехович О.Д. Бухарские документы XIV в. – Т., "Наука". 1965. - С. 171.

ham to‘plab berganliklari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar uchraydi.²⁴ Arablar asosan diniy targ‘ibotni o‘zlarining asosiy maqsadlari deb bilgan holda, “g‘ayridinlarga qarshi kurash” niqobi ostida faol ish olib borishlari bilan birgalikda, talonchilikdan iborat istilochilikni ham asosiy maqsad qilganlar. Soliqlarning muttasil ortishi va jabr-zulmlar o‘lkada qudratli xalq chiqishlarining avj olishiga turtki bo‘lgan. Ana shunday yirik xalq harakatlaridan biri, shubhasiz, Buxorodan Shaxrisabzgacha bo‘lgan hududlarda keng yoyilgan Muqanna qo‘zg‘oloni edi.²⁵ Quyida biz arablar davrida mintaqada mavjud bo‘lgan ayrim mulk egaligi va soliq turlarini keltirib o‘tamiz.

VAQF – arablarning O‘rta Osiyoni bosib olishi jarayonida davlat hukmdorlari tomonidan joriy qilingan, shuningdek, ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjidlar, madrasalar ixtiyoriga daromaddan foydalanib turish, ammo sotmaslik sharti bilan o‘tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan mulk, ya‘ni yer-suv, mol-mulk, bino va boshqalar. Vaqfdan kelgan daromadlar o‘sha diniy muassasalar faoliyatini yaxshilash va ularda xizmat qiladigan din peshvolariga berilgan.

VAQFNOMA – vaqf hujjatlari. Vaqf mulklarining vaqtincha yoki doimiy ravishda bir shaxsdan ikkinchi bir shaxsga o‘tganligini tasdiqlovchi, ixtiyoriy berilganligi yoki vasiyat qilib qoldirilganligi to‘g‘risidagi hujjat. Yanada kengroq ma‘noda, mulk egalarining o‘z yer-suvi, xo‘jalik binolari va daromad keltiradigan boshqa mulklarini diniy muassasalar – masjid, madrasalar hamda diniy toifadagi kishilar – eshonlar, muftiylar, sufiylik jamoalari izmiga ixtiyoriy tarzda o‘tkazganligi to‘g‘risidagi hujjat. Vaqfnomada mulkning vaqfga o‘tkazilish sababi, mulk egasining nomi, vaqf qilingan mulkning mutavallisi (boshqaruvchisi), vaqf mulkidan foydalanish tartibi, guvohlar aniq ko‘rsatilgan. Vaqfnoma qozi tasdig‘idan keyin qonuniy kuchga kirgan.

²⁴ Tursunov X, Beknazarov A. O‘zbekiston SSR tarixi. Darslik. – T.: Qizil gvardiya. 1982. – 41 bet.

²⁵ Askarov A. O‘zbekiston xalqlari tarixi. T.: O‘quv qo‘llanma. – O‘zbekiston. 1992. – 83 bet.

Xalifalik davrida soliq tizimining qaror topishi va rivojlanishi yirik mutafakkir, qonunshunos Abu Yusuf Yokub ibn Ibrohim al Ansoriy (731-798) asarlarida yetarli darajada keng yoritib berilgan. Bizgacha uning “Kitob al-xiroj” asari yetib kelgan. Dastlabki kezlarda, yuqorida aytib o‘tilganidek, davlat xazinasini to‘ldiruvchi asosiy va har tomonlama qulay manba zakot bo‘lgan. Keyinchalik zakot o‘rnini sadaqa egallab, bu yig‘im nochor kishilarga beriladigan yordamdan iborat bo‘lgan²⁶.

Arab hukmdori Ashras ibn Abdulloh as-Sulamiy (727-729 yillarda noib) qisqa davr ichida ikkita bir-biriga qarama-qarshi yo‘l tutgan. U yangi musulmonlardan juzya va xiroj olinmaydi deb e‘lon qilib, “arablarning kuchi – islomda”, uni qabul qilgan kishilar istilochilarga qarshilik ko‘rsatishni to‘xtatadi deb hisoblagan. Ashrasning siyosatiga So‘g‘d zodagonlari qarshilik ko‘rsatishdi, zero, ular xirojdan ozod qilish mavjud tuzum negizlarini qo‘poradi deb bilishgan. Hatto, Gurak xat bilan Ashrasga murojaat qilib, uning qarori xirojni butunlay tugatishga olib keldi, endi soliq undiradigan hech kim qolmadi, deb ogohlantirgan. Xirojdan ozod etish xazina tushumlarini keskin qisqartirib yuborgandan so‘ng Ashras Gurakning haq ekanligiga ishonch hosil qilib, “Arab hokimiyatining kuchi – xirojda” degan shiorni ko‘tarib chiqqan. U o‘z vaqtida al-Jarroh taklif qilgan siyosatga qaytib, juzyadan xatna kildirgan yangi musulmonlarga ozod etiladi degan g‘oyani olg‘a surgan.

So‘g‘d va Buxoro aholisi bu adolatsizlikka nisbatan qarshilik bildirib, qo‘zg‘olon ko‘tarishgan. Samarqand atrofida yetti ming kishidan iborat so‘g‘diylar to‘planishib, itoat etmasliklarini namoyish qilishgan. Nihoyat, olib borilgan noma‘qul soliq siyosati tufayli arablarga qarshi qudratli harakat avj olib, Movarounnahr besh yildan keyin arablar tasarrufidan xalos qilingan, ammo u faqat IX asr oxiriga kelibgina mustaqil bo‘lishga erishgan. Arab xalifaligi hukmronligi tugashi bilan dehqonlar ahvoli o‘zgarib, natura majburiyatlari bir qadar

²⁶ Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekistonda soliqlar tarixi. T.: “Iqtisod-Moliya” 2009. – 27 b.

yengillashgan. Tohiriylardan Abulabbos Abdulloh (830-844 yillarda hukmdor) amaldorlardan dehqonlar manfaatini himoya qilishini so‘rab, o‘z talabini “Ollloh bizni ularning qo‘li bilan boqadi, ularning og‘izlari bilan tabriklaydi va ularni xafa qilishni man etadi”, deb asoslagan.

Shunday qilib, ikki asrdan ko‘proq hukmronlik qilgan arablar saltanati tugab, Somoniylar (869-1005 yillar) hukmronligi maydonga chiqqan.

§ 3.2. Arablar tomonidan undirilgan islomiy soliqlar mazmuni

Arablarning Movarounnahrda yurishi arafasida o‘lkada turli katta-kichik davlatlar hukmronlik qilgan, ularning qariyb barchasi mustaqil davlatlar hisoblangan. Arab qavmlarini din targ‘iboti bilan birgalikda, o‘lkaning serunum tuproqlari, yam-yashil voha va vodiylari, katta miqdordagi yer osti va yer usti boyliklari e’tiborini tortganligi shubhasiz. Bosib olingan mamlakatlarda arablar din targ‘iboti yo‘lida turli soliqlar, majburiyatlar va yig‘imlarni joriy etadilar. Kimda-kim islom dinini qabul qilsa, ularni soliqlardan ozod etish to‘g‘risidagi hukmlar ham aholi e’tiboridan chetda qolmagan.

Xususan, mahalliy aholi islom diniga o‘tishini tezlashtirish maqsadida arablar islom diniga yangi kirgan kishilarga turli imtiyozlar berib boshlaganlar, xususan, ularni asosiy soliqlarni to‘lashdan ozod etganlar. Arablar mahalliy aholiga nisbatan hayrixohlik siyosatini yuritganlar. Masalan, xalifa Umar II (717-720 yillar) Xuroson noibi al-Jarrohdan islom diniga kirgan kishilarni xiroj va juzyadan ozod qilishni talab qilgan. Al-Jarroh, rasman unga bo‘yso‘ngan, lekin yangi musulmonlarga qo‘shimcha shart – xatna qildirishni ham qo‘ygan.

Xalifalikning Xuroson noibi Ubaydulloh ibn Ziyod yurishlari davrida arablar Poykent va Buxoro shaharlari hamda ularning tevarak atrofidagi yerlarni talon-taroj qiladilar va katta miqdordagi o‘lpon, 1 mln dirham pul va 4000 asir bilan orqaga qaytganlar²⁷. Asta-sekin

²⁷ Церетели Г.В. Арабские диалекты в Средней Азии. Ч. I. Тбилиси., 1956. – С 17.

Movarounnahrda arablarning to'la hukmronligi o'rnatila boshlagach, ilgarigi dehqonzodalar tasarrufidagi qishloq jamoalarining mulklari ham arab hukmdorlari va noiblari qo'liga o'tishi barobarida, mahalliy hukmdorlar faqatgina ayrim soliqlarni to'lash orqali avvalgi hukmdorliklarini davom ettirayotgan edilar. Bosib olingan shahar va qishloqlarning islom dinini qabul qilmagan barcha toifasidan birdek juzya (jon solig'i) faqat mol-mulkka egalik huquqiga ega erkaklardan undirilgan. Xotin-qizlar, keksalar, yersiz, mulksiz toifa kishilar bunday soliqni to'lashdan ozod etilganlar. Qolgan barcha toifadagi aholi esa umumiy yer solig'i – xiroj to'lashlari shart bo'lgan. Xiroj miqdori hosilning 1/3 (ba'zi manbalarda uning miqdori 1/5, 1/10 ekanligi qayd etiladi) qismiga qadar yetgan edi, ba'zan undan ortiq bo'lgan. Juzya, xiroj va boshqa soliqlardan tashqari, ziroatchi aholi gardanida boshqa og'ir soliq turlari ham bo'lgan.

Juzya musulmon bo'lmagan erkaklardan undirilgan, uning hajmi kelishuv asosida belgilangan. Mast qiluvchi ichimliklar va so'yilgan hayvonlar bunday soliq turi sifatida qabul qilinmagan. Arablar o'z mustamlakachilik mavqelarini mustahkamlab olish maqsadida soliq siyosatidan islom manfaatlari yo'lida keng foydalanishga uringanlar. Soliq to'lashdan islom dinini qabul qilgan aholi ozod qilingan. Xususan, arablar O'rta Osiyoni bosib olganlaridan so'ng xirojni mahalliy odat bo'yicha yozning o'rtasida hamda ikkinchi yarmida, g'alla pishib yetilganda va kech kuzda yoki erta bahorda yig'ib olganlar. Bu esa ayrim hollarda xalq g'alayonlari ko'tarilishiga sabab bo'lgan.

JUZYA – dastlab Arab xalifaligida, keyinchalik boshqa musulmon davlatlarida g'ayridin kishilardan olingan soliq. O'z davrida shariat me'yorlariga ko'ra musulmon bo'lmagan fuqarolar jon solig'i to'lashlari shart bo'lgan. Albatta, uning bir qancha shartlari bo'lib, shulardan biri juzya to'lovchi jismoniy shaxs balog'at yoshiga yetgan bo'lishi kerak bo'lgan. Qariyalar va ayollar, bolalar, qul va gadoylar juzyadan ozod qilingan. Juzya asosan pul va natura tarzida undirilgan.

ZAKOT – dastlab arablar tomonidan bosib olingan hududlarda aholidan undirilgan diniy soliq sifatida shakllangan, keyinchalik chorva mollari, hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqaruvchi ustalar, savdogarlar hamda boshqa toifadagi mulkdorlardan olingan soliq, ba’zan u amaldorlar va ruhoniylarni ta’minlash uchun ham undirilgan. Islom dinining besh asosiy farzlaridan biri musulmon bo’lgan, ma’lum boylikka ega bo’lgan, o’z daromadiga ega bo’lganlar zakot beradi. Zakot miqdori pul daromadlarining qirqdan bir ulushiga teng.

Musulmon huquqshunoslari “zakot” tushunchasini “tozalash” (begunoh musulmonning o’z boyligidan foydalanishini zakot to’lash “tozalaydi” ma’nosida talqin etadilar. Ba’zi tadqiqotchilar uni qadimgi yahudiy tilidagi “zakut” (xayrli ish) tushunchasiga xos termin sifatida talqin qiladilar. Umuman, zakotning kelib chiqishi islomdan oldingi arab qavmlari va qabilalari orasida ham rasm bo’lgan bo’lib, qo’lga kiritilgan o’ljani bo’lish vaqtidagi o’zaro yordam maqsadida kelajak uchun tuziladigan o’ziga xos “jamg’arma” sifatida ham talqin etiladi.

Qur’oni Karimda nozil qilingan suralarda zakot “xayrli faoliyat, moddiy yordam, sadaqa” ma’nolarida ko’llanilgan. Ehtiyojmand jamoa a’zolari foydasiga doimiy ravishda yig’iladigan soliq sifatida zakot xirojdan keyin joriy qilingan bo’lib, Muhammad Payg’ambarning vafotlaridan keyin jamiyat hayotida zakotni to’lashga ehtiyojning yo’qligi tufayli uning o’rnini xayr-saxovatning boshqa turlari egallagan. Zakotni rasmiy ravishda joriy qilish va miqdorini tayinlash hazrati Umar xalifaligining dastlabki yillarida amalga oshiriladi.

Keyinchalik O’rta Osiyo jamiyatida insonlarga mehr-muruvvat, saxovat ko’rsatish maqsadida islom an’analariga ko’ra zakotni faqat balog’at yoshidagi va to’lashga qodir bo’lgan musulmonlar berganlar hamda u quyidagicha olingan:

- ekinzorlardan;
- uzumzorlardan va xurmo daraxtidan;
- chorvadan;

- oltin va kumushdan;
- sotiladigan mollardan va hokazo.

Dehqonchilik mahsulotlaridan olinadigan zakot hosilning 1/10 bir qismi miqdorida hosil o‘rib-yig‘ib olingan paytda olingan bo‘lsa, boshqa turdagi narsalardan ularning 1/40 miqdorida yil tugaguncha olingan. Yig‘ib olingan mablag‘ qozi ixtiyorida bo‘lib, yil davomida o‘sha yig‘ib olingan muzofotdagina sarf qilinishi mumkin bo‘lgan. Bundan faqat g‘oziylarga berishga mo‘ljallangan mablag‘largina istisno edi.

Muhim jihati shunda bo‘lganki, yig‘ib olingan zakotdan yordam olishga hech narsasi yo‘q nochorlar, kambag‘allar, zakot yig‘ib oluvchilar, taqdirlanishga arzigulik kishilar (muayyan toifa vakillari), qarzini to‘lashga qodir bo‘lmagan shaxslar, g‘oziylar, uyiga qaytib borishga mablag‘i bo‘lmagan musofirlar haqli bo‘lganlar.

Xalqimiz huquqiy qarashlari, milliy an‘analariga muvofiq zakot ba’zida sadaqa (ko‘ngilli ravishda xayru-ehson qilish) tarzida ham ifodalangan. Garchi u umumiy yig‘ib olingan bo‘lsada, Ko‘pchilik hollarda miskin, faqir, beva-bechoralarga ehson tariqasida ham tarqatilgan. Ko‘pincha dehqonchilik mahsulotlaridan olinadigan zakot “utr” deb atalib, odatda qozi ixtiyoriga emas, balki xazinaga tushgan. Shuningdek, qazib olinadigan oltin, kumush, qimmatbaxo toshlar, dengiz mahsulotlari va topib olingan xazinalardan tushadigan zakot ham davlat xazinasiga tushar edi. Ko‘p hollarda zakot deganda chorva, pul va sotiladigan mollardan olinadigan soliq ham tushunilgan.

Umuman zakot ixtiyoriy xayriyaning bir turi bo‘lib, musulmon banda o‘z daromadi yoki mulkini bir qismini Alloh yo‘lida xayr-ehson sifatida sarflagan. Musulmon kishi o‘z daromadining 1/5 qismini qashshoqlar, yetim-esirlar, yolg‘izlarga berib, qolgan qismini o‘z ehtiyojiga sarflagan. Xususan, Muhammad Payg‘ambarning, keyinchalik esa xalifalarning, qolaversa alohida mansabdagi imtiyozli musulmon oilalarining sarf-xarajatlari ham shu tarzda bo‘lgan. Arablarning O‘rta Osiyodagi hukmronligi 651 yilda Marvni egallashdan boshlanib,

dastlabki talonchilik hujumlari Poykent va Buxoroni mahv etish bilan yakunlangan. Bu davrda zakot butun Movarounnahrda keng yoyilgan.

Shu bilan birga, zakotdan tashqari, garchand soliq bo‘lmasa-da, musulmon davlatlarida, xususan, Movarounnahrda tarixan zakotning mazmun-mohiyatiga yaqin bo‘lgan “sadaqa” tushunchasi ham mavjud bo‘lgan. Bu davrda sadaqa keng tarqalgan yig‘im bo‘lib, agarda uning mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratsak, u o‘ziga to‘q, turmushda moddiy mavqega ega kishilar tomonidan miskin, beva- bechoralarga berilganligi ayon. U jamiyatning o‘ziga to‘q toifa kishilaridan to‘plab olingan va davlatning, ya’ni mahalla, qishloq oqsoqolliklari, viloyat hokimliklari, beklik, amirlik, xonlik devoni amaldorlari tomonidan ayrim hollarda miskin, kambag‘allar uchun tarqatilganligi bois, mohiyatan davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy ahamiyat kasb etgan.

Jamiyatda insonlarning huquqiy mavqei, ijtimoiy toifasiga ko‘ra “sadaqa” – (arabcha – chin dildan qilingan ehson) xayru-ehson tushunchasida ham ko‘llanilgan. Sadaqa berish haqida Qur’oni Karimda ham ta’kidlab o‘tilgan bo‘lib, u haqdagi masalalarni islom huquqi (fiqh)ning uqubot va ahkom bo‘limlari ham talqin qiladi. Sadaqa berish islomda imkoni bo‘lgan har bir kishi uchun farz hisoblanadi. Birovga sadaqa bera olishga qurbi yetmaydigan kishilar sadaqa olishlari mumkin bo‘lgan, sadaqaning quyidagi turlari mavjud bo‘lgan:

- bir martalik xayru-ehson ko‘rinishdagi sadaqa;
- kafforat, ya’ni xayrli maqsadlarga sarf etiladigan jarima ko‘rinishidagi sadaqa;
- o‘ziga to‘q bo‘lgan musulmonlarning daromadlaridan yo‘qsil, miskinlar foydasiga ajratib beriladigan sadaqa va hokazo.

Dastlabki ikki holatda sadaqa pul, ovqat, kiyim-kechak, xizmat ko‘rsatish va uy-joy bilan ta’minlash, karzdan va majburiyatdan kechish kabi shakllarda bo‘lgan. Uchinchi holatda sadaqa – faqat pul bilan beriladigan, u maxsus soliqchilar tomonidan yig‘ilib, markaziy yoki mahalliy xazina (bayt ul-molga) kelib tushgan. Xususan, o‘rta asrlarda

bu mablag' sadaqa deb ataluvchi zakotdan to'plangan mablag' bilan birgalikda maxsus vakolatli shaxslar tomonidan sug'urta vositasi turi sifatida markaziy hokimiyat nomidan kambag'al, muhtoj kishilarga tarqatilgan. Sadaqa mablag'laridan yordam olishga kambag'allar va nogironlar haqli bo'lib, ularning bu holati to'g'risida jamoaning uch a'zosi shohidligi lozim bo'lgan.

Shuningdek, biror sabab bilan xonavayron bo'lgan, qurbi yetmaydigan xarajatlar, to'lovlarni to'lash (masalan, muhtoj qarindoshlarini boqish)ga majbur bo'lgan kishilarga ham sadaqa berilgan va hokazo. Shuningdek, xalifalik davrida sadaqa to'plovchi va taqsimlovchi amaldorlarga, musofirxonalarga, biror sabab bilan safarni davom ettira olmay qolgan yo'lovchilarga ham sadaqa mablag'lari ajratilgan.

Huquqiy manbalar, fiqh ilmiy manbalari hamda Xadisu-sharifda va boshqa adabiyotlarda sadaqa ma'nosi bilan zakot tushunilgan. Sadaqa va zakot dastlab bir-biriga yaqin tushuncha bo'lganligi bois, zakotdan qoladigan mablag'ni olish huquqiga ega kimsalar ham sadaqa mablag'laridan foydalanish huquqiga ega bo'lganlar. Huquqiy va tarixiy hujjatlarda sadaqaning majburiy turiga zakot, xiroj, ushr, fitr, kafforat (jarima) kabilar kirgan. Ixtiyoriy sadaqalar esa xudoyi, to'ylar, ziyofatlar, xayriya tashkilotlariga, jamg'armalarga beriladigan moddiy xarajatlardan iborat bo'lgan. Odatda, sadaqa deganda faqat muhtojlarga, gadoylarga beriladigan narsalar tushuniladi. Lekin jamiyatning huquqiy mezonlaridan kelib chiqib sadaqa xayr-ehsonning barcha turlari uchun qo'llanilgan.

§ 3.3. Somoniylar davlatida soliq munosabatlari tizimi. Qoraxoniylar hukmronligi davrida soliq siyosati

O'rta asrlarga kelib, O'rta Osiyoda yer egaligi shakllari birmuncha o'zgargan, shu asosda ulardan olinadigan soliqlar ham o'zgarib turgan. Katta miqdordagi yerlarni boshqarish yirik yer egalari qo'lida bo'lib,

ular mahalliy aholidan yigʻilgan soliqlarni davlat xazinasiga tushirib turganlar. Xususan, Ismoil Somoniy islomni tarqatish va targʻib qilishning eng yaxshi vositasi boʻlgan savdo-sotiqqa homiylik qilish orqali oʻlpon va bojlarni eng kam darajaga tushirganligi haqidagi maʼlumotlar mavjud.

Somoniylar davrida (874-999 yillar) Xalifalik soliqlari oʻzgarishsiz saqlangan boʻlib, ulardan mushrifona va begar singari yangi turlari joriy etilgan. Xalifalik davridan farqli ravishda soliqlarning talonchilik mazmuni oʻzgarib, uning mintaqada markazlashgan davlat tizimiga aylantirilishi roʻy beradi.

Hukmdorlar soliqlarning muttasil tushib turishini taʼminlash va Bagʻdod hukmdorlarining tobora ortib borayotgan talablarini qondirishga intilib, qishloq xoʻjaligini rivojlantirish hamda suvdan foydalanish qoidalarini tuzgan holda yer-suv munosabatlarini tartibga solish yuzasidan anchagina kuch-gʻayrat sarfladilar. “Ariqlar toʻgʻrisida kitob” deb atalgan qoidalar majmui tayyorlandiki, u ikki asr mobaynida suvdan foydalanish ustidagi bahslarni yechishda asosiy qoʻllanma vazifasini oʻtagan. Somoniylar davrida yer egaligiga asoslangan ishlab chiqarish asoslari tobora kuchaya boshlagach, ulardagi mulkiy boʻlinish ham turli shakllarda boʻlib, olinayotgan soliq turlari ham koʻpaya boshlaganligini koʻrish mumkin. Jumladan, quyidagi yer egaligi turlari boʻlgan:

1. Mulki sultoniy – sultonga (amirga) tegishli yerlar. Ulardan olinadigan soliqlar davlat xazinasiga tushgan. Bu juda katta yer-mulklar, shu jumladan, koʻp sonli dehqonlarning yer-suvi va boshqa daromad keltiradigan mol-mulklari hissasiga toʻgʻri kelgan.

2. Mulk yerlari – ular xususiy mulk yerlari boʻlib, ular yirik yer egalari, zamindorlarga qarashli boʻlgan. Ular hissasiga toʻgʻri keladigan soliqlar sulton xazinasiga tushgan.

3. Vaqf yerlari – ular masjid, madrasa va boshqa diniy muassasalar tasarrufidagi yerlar boʻlib, ulardan olinadigan daromadlar diniy

muassasalar ehtiyoji uchun sarf qilinishi bilan birga, yirik islom arkonlari, ziyoli va ulamolar ulardan xayriya maqsadlarida ham foydalanganlar. Bunday holat, ayniqsa soʻnggi oʻrta asrlarga kelib xoʻja va eshonlar, avliyolarning jamiyatda nufuzining ortishi barobarida yanada keng quloq yozgan. Ayrim hollarda vaqf mulklaridan olingan daromadlar musulmon ruhoniylar manfaatlari uchun ham xizmat qilgan.

Somoniylar davrida soliq solish maqsadlarida yerlar asosan ikki turga boʻlingan:

1. Mulki xiroj - jami soliq olinadigan yerlar. Aholining aksariyat tabaqalari daromad turidan va shaklidan qatʼi nazar, davlatga yer soligʻi toʻlashlari shart boʻlgan. Jumladan, “mulki sultoni” ham shu toifaga kirgan. Aholi bunday yerlardan hosil miqdoridan kelib chiqib, daromadning uchdan birini davlatga soliq tarzda topshirganlar.

2. Soliq toʻlashdan qisman yoki butunlay ozod etilgan yerlar.

Bunday yerlar oliy musulmon ruhoniylari, jumladan, avliyo va pirlar, yuqori tabaqa eshonlar, xoʻjalar va ularning avlodlari hamda Paygʻambar avlodlaridan boʻlgan sayidlar mulki hisoblangan.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida soliqlar asosida shakllantiriladigan turli toʻlovlar bilan birgalikda somoniylar davrida koʻplab davlat majburiyatlari ham muxim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, yirik suv inshootlari, ariqlar, zovur va kanallar, dambalar qurilishida koʻplab qishloqlarning oddiy aholisi majburiy mehnatga jalb etilgan. Bunda ular majburiyatni bajarishni oʻz hisoblaridan oʻtaganlar. Ayrim hollarda soliq olishda aholining ijtimoiy mavqei hamda turmush tarzi ham inobatga olingan. Bu ayniqsa, ilk oʻrta asrlarda yaqqol namoyon boʻlganligini koʻrishimiz mumkin.

Tarixchi Muhammad Narshaxiyning yozishicha, somoniylar va ular qoʻl ostidagi amirlar davrida Buxoroning xiroji Karmananiki bilan qoʻshilib bir gal 1168560 (bir million bir yuz oltmish sakkiz ming besh yuz oltmish olti) dirhamu besh yarim donakni tashkil etgan. Undan keyin xiroj har jihatdan kamaygan, baʼzi yerlar suv tagida qolib ketib,

podshox, bu mavzedan xiroj olishni to'xtatgan. Ba'zi yerlar, masalan, Baykand va boshqa qishloqlar sultonning mulkiga o'tib, xiroj daftaridan o'chirilgan va Karmananing xiroji Buxoro xirojidan ajratib olingan.

Ismoil Somoniy hukmronligi davrida davlat o'zining rivojlanishining anchagina yuqori cho'qqisiga erishgan. Xususan, 900 yilda xalifa Amir ibn Lays tor-mor qilinganligi uchun unga Xurosondagi noiblik hadya qilinadi. Ungacha bu yerlarda tohiriylar va safforiylar hukmronlik qilganlar. Endi esa Xorazm janubiy chegaralaridan Hindistonning shimoliy chegaralarigacha, sharqda Sirdaryo havzalaridan g'arbda Isfaxongacha cho'zilgan ulkan hududda somoniylar hukmronlik qilar edilar. Ismoil Somoniy davrida mamlakatda markazlashgan kuchli hokimiyat tarkib topgan, unga ko'ra viloyat hokimlarini hukmdorning o'zi tayinlar edi. Ismoil Somoniy ayrim muhim lavozimlarni meros qilib qoladigan tarzida shakllantirar ekan, aholidan soliq yig'uvchi mushriflar uchun ham anchagina imtiyozlar yaratgan.

Ayni vaqtda yer va jon soliqlarining miqdori mahalliy aholi gardaniga og'ir yuk bo'lib tushgan. Jumladan, Nuh ibn Mansur hukmronligi yillarida dehqonlardan yiliga ikki marta soliq yig'ib olingan. Ayrim hollarda soliqlar birmuncha barvaqt, yil boshida undirib olingan. Bu esa aholining mahalliy hukmdorlarga nisbatan g'azabini ko'zg'atgan.

XI asrdan boshlab, O'rta Osiyoda shartli yerga egalik "iqta" keng yoyiladi. Yer muayyan muddatga sovg'a qilinib, "iqtador" foydasiga ma'lum bir daromadning to'liq yoki bir qismi tegadigan bo'ldi. "Iqta" egalari maxsus farmon bilan belgilangan tartibdagina dehqonlardan soliq undira olardi.

Soliqlar miqdori "iqta" yer sovg'a qilinganidan avval qancha bo'lsa, shuncha bo'lishi shart edi. Nafaqat yerni, tegirmon, hammom, bozordagi do'kon va boshqa narsalardan tushadigan soliq yoki daromadni ham "iqta" tarzida berish mumkin bo'lgan.

Agarda mazkur tizimning ma'no va mazmuni, shakllanishi va rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, "iqta" atamasi O'rta Osiyoda XVIII asrning 20-yillariga qadar qo'llanilgan. XIV asrda bu atama "suyurg'ol" tizimi bilan almashtirilgan.

"Iqta" tarixiy tizimi "tanho" so'zining sinonimi sifatida shartli, ya'ni ma'lum shartlar asosida in'om etilgan mulk ma'nosini bildirgan. Shu bilan birga, ba'zan "suyurg'ol" va "iqta" atamalari bir-biridan tafovut ham qilgan. XVI asrda har ikki atama bir xil tushunchani anglatgan, ya'ni shartli ravishda sulola a'zolari, harbiy boshliqlar va ko'zga ko'ringan davlat arboblari toju-taxt oldida ko'rsatgan maxsus xizmatlari evaziga berilgan in'om (viloyatlar, tumanlar) ma'nosini bildirgan. Iqta muvaqqat in'om hisoblangan va markaziy hukumat, ya'ni xon uchun qilingan alohida xizmatlar evaziga aholining va hukumatning ma'lum toifadagi kishilariga berilgan. Ammo iqtador faqat daromadning xon tarafidan belgilangan qismigagina ega bo'lgan, oliy mulkdorlik haq-huquqi xon ixtiyorida saqlanib qolavergan.

Xususan, temuriylar hukmronligi va undan so'ng faqat hukmron sulola vakillari, yirik harbiy arboblari iqta egalari hisoblanganlar. Iqta sohibi, garchand asosiy soliqlardan ozod bo'lsada, xirojning bir qismini, ya'ni yer-mulkdan tushadigan daromadning ma'lum qismini davlat xazinasiga topshirishi zarur bo'lgan. Hatto bunday toifadagi kishilar qo'shni mamlakatlarga uyushtirilgan harbiy yurishlar vaqtida, darhol o'z qo'shinlari bilan xonga yordamga borishlari yoki uning ixtiyoriga ma'lum miqdorda qo'shin yuborishlari shart bo'lgan. Shu ham diqqatga sazovorki, o'rta osiyolik hukmdorlar chet ellardan kelib, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi katta yer egalari va sultonlarga ham ularning xizmatlarini inobatga olib iqta in'om etganlar. Demak, o'rta asrlarda iqta tizimi soliqlar to'lashdan birmuncha himoyalangan, ammo davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy maqsadlarida va xalq manfaatlarini yo'lida o'z mol-mulking yoki daromadining bir qismini sarflovchi tizimning

o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, uning davlat xazinasini shakllantirishdagi o‘rni katta bo‘lgan.

XVI-XVIII asr boshlariga kelib esa iqta tizimi ma’lum hududni, ya’ni ma’muriy sud va soliq daxlsizligi bilan vaqtinchalik va shartli ravishda beriladigan in’omlarni anglatgan. Iqta egalari hukmron xonadon a’zolari, yirik amaldorlar va harbiy tuzilma aslzodalaridan iborat bo‘lgan. Iqta miqdori in’om etilayotgan shaxsning jamiyatda tutgan ijtimoiy-siyosiy mavqei bilan bog‘liq bo‘lgan. Iqta xirojning ma’lum qismini markaziy davlatning xazinasiga topshirib turish va xarbiy xizmat ko‘rsatish sharti bilan ham berilgan.

Somoniylar davrida davlat daromadlari va xarajatlarini boshqarib turuvchi oliy moliya amaldori, ya’ni mustavfiy devoni markaziy idora tizimida katta o‘rin egallagan edi.

Avvalo hali shartli va doimiy mulk qilib berilmagan sulton yerlari, ya’ni davlat maydonlari mavjud bo‘lgan. Bu yerlar xazinaga soliq tushumlari va iqta taqsimoti fondining asosiy manbai xizmatini o‘tagan. Soliqlar davlatning maxsus shaxslar tomonidan yig‘ilib, ular davlat xazinasiga tushgan. Butun siyosiy tizim avvalo g‘oyat ulkan yer fondi hisobiga yashagan, daromadlar tushadigan asosiy manba yerdan olinadigan daromadlar hisoblangan. Xususiy va davlat yerlari xazinaga soliq tushadigan iqta taqsimot fondining asosiy manbai bo‘lgan. Bu esa yer egaligi munosabatlari hukmronlik qilgan davrning o‘ziga xos tartibi edi.

Somoniylar davlatida harbiy xarajatlarning o‘sib borishi shoh saroyida turk gvardiyasi ta’sirini kuchaytiradi. Davlatda mansab talashish, fitna va xazina talonchiligi avj olishi natijasida chuqur inqiroz holati vujudga keladi. 996-999 yillar mobaynida turkiy chigil va yag‘mo qavmlaridan iborat Qoraxoniylar sulolasi Movarounnahrda Somoniylar hukmronligini tugatib hokimiyatni egallaydilar.

Qoraxoniylar davrida markazlashgan despotik boshqaruv oʻrniga udel (viloyatlarga boʻlib) boshqaruvi va dehqon zamindorligi oʻrniga xonlik iqto yer egaligi vujudga keladi.

Iqto mulkchiligida yer muayyan muddatga, koʻrsatgan xizmatlari uchun sovgʻa qilinib, “Iqtodorlar” foydasiga maʼlum daromadning toʻliq yoki qisman ulushi muqtaga (iqtodorga) qoldirilgan. Iqtodorlar maxsus farmon bilan belgilangan tartibdagina dehqonlardan soliq undira olganlar. Soliq miqdori yer inʼom etilgandan oldin qancha boʻlsa, oʻshancha olingan. Nafaqat yer, balki tegirmon, hammom, savdo doʻkoni va boshqa mulklardan tushadigan daromadlar ham iqto sifatida berilishi mumkin edi.

Qoraxoniylar davlatida soliqlar Somoniylar davridagidek vazifalarni bajargan boʻlsada, bu davrda ularning mayda va oʻrta ishlab chiqarishni rivojlantirishga yoʻnaltirilganligini ham qayd etish mumkin boʻladi.

Qoraxoniylar, saljuqiylar, gʻaznaviylar hukmronligi yillarida oʻlkada soliq tizimi va uning shakllari haqida maʼlumotlar birmuncha kam. Ammo mazkur davlatlar hukmronligi yillarida ham davlatlarning soliq tizimi hukmron tabaqa vakillari tomonidan ishlab chiqilgan amaldagi qonun-qoidalar doirasida joriy etilgan boʻlib, ular koʻproq mavjud tuzum manfaatlarini va katta yer egalari, hukmdorlar qiziqishlarini ifoda etgan. Jumladan, Qoraxoniylar davrida soliq tizimi uchun, shubhasiz, ulkan yer va mulk zaxirasining mavjudligi, u davlatning asosiy daromadlar tushadigan manbai hisoblangan.

§ 3.4. Gʻaznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatida shakllangan soliqlar tizimi

Gʻazna shahrini Xurosonning siyosiy markaziga aylanishi X asrning ikkinchi yarimiga toʻgʻri keladi. Gʻaznaviylar davlatining asoschisi Sabuqtegin boʻlib, bu davlat uning oʻgʻli Mahmud Gʻaznaviy davrida musulmon olamining eng kuchli davlatlaridan biriga aylandi. Uning

hukmronligi davrida (998-1030) Xorazm, Xuroson, Seyiston, Qobul, Gʻazna, Shimoliy Hindiston kabi viloyatlar va makonlar gʻaznaviylar izmida boʻlgan. Mahmudning oʻlimidan soʻng uning oʻrniga taxtga oʻgʻli Maʼsud oʻtiradi. Binobarin, Masʼud davri (1030-1041) asosan Mahmud saʼy-harakatlari bilan koʻlga kiritilgan natijalarni saqlab qolish yulidagi urinishlar yillari boʻldi, desak toʻgʻri boʻladi.

Gʻaznaviylar davri boshqaruv tizimi oʻzining murakkabligi bilan diqqatni jalb etadi. U koʻp jihatdan somoniylar, qoraxoniylar zamonidagi davlat boshqaruvi, shu jumladan, soliq tizimlariga yaqin va oʻxshash. Chunki har qanday boshqaruv tizimi (shakli) mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy-madaniy sharoitga bogʻliq boʻladi. Boshqa tomondan esa gʻaznaviylar hukmronligi ostida boʻlgan Xuroson, Seyiston, Qobul, Fazna kabi viloyatlar mintaqaning ajralmas tarkibiy qismlari boʻlib kelganliklarini nazarda tutsak, boshqaruvchilik taraqqiyotidagi oʻxshashliklar, yaqinliklar sababi maʼlum boʻladi.

Mahmud Gʻaznaviy davrida (997-1030) Xorazm hukmdori Oltintosh viloyat xirojini oʻzida iqta haqi sifatida saqlab qolish taklifini bosh vazirga yuboradi. Shunda bosh vazir: “Amir Oltintoshga maʼlum boʻlsinki, u Mahmud Gʻaznaviy boʻla olmaydi. Soliqlarni yigʻ, xazinaga yetkaz, undan soʻng oʻz taʼminoting uchun soʻra. Qul uchun shohlikda oʻz hukumdori bilan bir qatorda talab qoʻyish juda xavflidir!” deydi.

Nizomulmulkning yozishicha, “Gʻaznaviylar iqta bermaganlar. Xazinadan yiliga xarajatlar uchun 4 marta mablagʻ ajratilgan. Amirlar soliqlarni yigʻib xazinaga topshirganlar. Xazinadan har 3 oyda viloyatlar uchun mablagʻ ajratganlar. Ular esa rozi va farovon edilar”.

Saljuqiylar turkiy oʻgʻiz qavmidan boʻlib, ular dastlab hozirgi Janubiy Qozogʻiston hududidagi yaylovlarda, Sirdaryoning oʻrta oqimidagi yerlarda koʻchmanchi hayot kechirar edilar. Aslini olganda xuddi shu vaqtda saljuqiylar sulolasi hali shakllanmagan edi. Boshqacha aytganda, saljuqiylar bu etnik nom emas. X asrda Balxash koʻlining janubidan to Volga daryosi etaklarigacha boʻlgan hududda turkiy

xalqlardan bo‘lmish o‘g‘izlar yashardilar. Ular ko‘plab qabila va urug‘larga bo‘linganlar. Ana shundaylardan biri – qiniq urug‘idan chiqqan Saljuq ismli shaxs o‘zining fazilatlari, bilimdonligi, abjirligi va mardligi orqasida obro‘-e‘tibor qozonib boradi va bir qancha o‘g‘iz qabilalari sardori, katta qo‘shin boshlig‘i darajasiga erishadi. Tabiiy ravishda bunday shaxslarning borib-borib o‘z davrasi, ta’sir doirasi vujudga keladi. Saljuqda ham shunday bo‘lgan. Bu esa o‘z o‘rnida muayyan qarama-qarshiliklarni ham vujudga keltirgan. Xullas, iqtisodiy-siyosiy raqobat natijasida Saljuq o‘z tarafdorlari bilan yuqorida tilga olingan Sirdaryoning o‘rta oqimlarini tark etib, daryoning quyi oqimi chap qirg‘og‘ida joylashgan Jand viloyati yaqiniga kelib o‘rnashadi. Bu voqea taxminan X asrning o‘rtalarida sodir bo‘lgan. Shu orada ular islom dinini qabul qiladilar. Ular xuddi shu asrda Movarounnahrni idora qilayotgan somoniylar, aniqrog‘i so‘nggi somoniylarni harbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaganlarini bilamiz. Saljuqiylarning Movarounnahr siyosiy hayotiga faol aralashuvi ayniqsa somoniylarning qoraxoniylar bilan raqobati yillari kuchaydi. Bu esa saljuqiylar qaramog‘idagi o‘g‘iz qavmlarining Samarqand, Buxoro, Kesh viloyatlariga borib o‘rnashishlari uchun sharoit yaratdi. Ular o‘z turmush tarzlariga ko‘ra yaylovlar, dashtliklarda o‘rnashganliklari tabiiy. Shahar va vohalarda esa, avvalgidek, o‘troq turkiy aholi istiqomat qilavergan.

Saljuqiylar davrida ayrim shartlar asosida iqtadorlar o‘z foydalari hisobiga renta yig‘ish huquqini oladilar. Shunday bo‘lsada muqtalar (iqtadorlar) o‘z foydalari huquqlarini yanada kengaytirishga harakat qilganlar. Nizomulmulk bu xususda shunday yozadi: “Iqtaga ega muqta bilsinkim, halqqa nisbatan ularga yuklangan soliqni to‘g‘ri va qonuniy yo‘l bilan yig‘sinlar. Bunda halq sog‘lig‘i, mulklari, xotin-bolalari xavfsizligi ta‘minlansin. Ularning buyumlari va yerlari daxlsiz bo‘lsin va muqtalar halqqa nisbatan boshqacha yo‘llarni tutmasinlar”.

Mamlakatda dehqonchilik rivojlanib borib, bunga asosan sun‘iy sug‘orish tizimlarining kengayib, mukammallashib borishi keng yo‘l

ochib bergan. Chunonchi, suv to'g'onlarini ta'mirlash, yangilarini qurish, yer osti va yer usti suv inshootlarini barpo etish, dehqonchilikning ilg'or usullaridan foydalanish, sun'iy suv havzalarini yaratish kabi tadbirlar o'sha zamon dehqonchiligi taraqqiyotidagi asosiy omillardandir. G'allachilik, bog'dor-chilik, polizchilik, sabzavotchilik, paxtachilik, pillachilik sohalaridagi yutuqlar ham ilgarigi davrlar va boshqa mintaqalardan kam bo'lgan. Chunonchi, Xorazm qovunlari, Jurjon (Gurgon) xurmolari, shakarqamishi, limonlari, Niso uzumlari, behilari, baqlajonlari, Marv bug'doyi nafaqat mintaqada, balki undan tashqarida ham shuhrat qozongan edi.

Saljuqiylar dehqonchilik va hunarmandchilik taraqqiyoti uchun tegishli asos yaratib beradi. Shuning uchun ham yozma manbalar, arxeologik izlanishlar natijalari bergan guvohliklarga nazar solinsa, to'qimachilik (ip gazlama, ipak, zig'ir tolasidan tayyorlangan matolar ishlab chiqarish), kulolchilik (kosa, xum, ko'za, piyola va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish), gilamchilik, zargarlik, oynasozlik, temirchilik, ko'nychilik kabi qator sohalar ham ichki, ham tashqi talab va ehtiyojlarni qondirish yo'lida taraqqiy etib borgan. Savdo-sotiqning rivojlanishida ishlab chiqarish (dehqonchilik, hunarmandchilik) bilan bir qatorda ulkan iqtisodiy-savdo makonining mavjudligi ham muhim o'rin tutgan. Albatta, bunday makonni yaratish oson bo'lmagan. Shaharlarda bozorlar ahvolini yaxshilash, tartib o'rnatish, karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlash, ma'lum masofalarda rabotlar, to'xtash joylari bino etish, pul muomalasini nazorat qilish kabi qator muhim tadbirlarni doimo amalga oshirishga to'g'ri kelgan. Buning natijasida mintaqaning O'rta va Yaqin Sharq, Sharqiy Yevropa, Hindiston, Xitoy kabi mamlakat va o'lkalar bilan savdo aloqalari gurkirab borgan.

1087 yili Sulton Malikshoh Sharq va G'arb yo'nalishlararo savdoni yanada jonlantirish niyatida Xuroson va Iroq savdogarlarini ba'zi bir savdo to'lovlaridan ozod etgan. Savdo-sotiqda quruqlikdan tashqari

Kaspiy dengizi imkonlaridan ham oqilona foydalanishga intilingani ma'lum.

Kaspiy dengizi orqali Turkistonga neft mahsulotlari keltirilganligini bilamiz. Yoki bo'lmasa, Sirdaryo quyi oqimi o'ng qirg'og'i yerlaridan chiqadigan mushk, oltin, kumush kabilar nafaqat tashqi bozorda, balki mintaqaning o'zida ham g'oyatda qadrlangan. Umuman olganda, mintaqa bozorlarida qimmatbaho mo'yna, qorako'l terisi, tuzlangan baliq, morj qoziq tishidan tortib quruq meva, nafis matolar, qimmatbaho toshlar, taqinchoqlargacha topish mumkin edi.

Pul birligi o'rnida sof oltindan zarb etilgan dinor (qizil dinor) qabul qilingan. Tarkibida oltindan tashqari qo'shimcha metall aralashmasi bo'lgan va mahalliy ahamiyat kasb etgan dinor ham bo'lib, uni rukniy deganlar. Shuningdek, muomalada mis dirhamlar ham bo'lib, ular asosan ichki bozorga mo'ljallangan. Saljuqiylar davrida ham chek, akkreditiv, veksel tarzidagi naqd pulsiz muomala qilish tizimi amalda bo'lganini alohida ta'kidlash lozim.

Tariximizning saljuqiylar, g'aznaviylar, qoraxitoylar va xorazmshohlar davrida soliqlarning somoniylar hamda qoraxoniylar davridagi shakllangan funksiyalar tizimi ayrim sulolaviy o'zgarishlarni istisno qilganda, deyarli avvalgidek davom etgan.

Xorazmshohlar davlati markazi – Gurganj yirik savdo va madaniy markazga aylangan. Shuningdek, Hazorasp, Kat, Xushmusan, Darg'on, Savag'on, Mang'ishloq, Nuzkat kabi shaharlari obod shaharlar qatoriga kirgan.

Xorazm davlati qadimdan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik rivojlangan hududlardan biri bo'lgan. Qadimgi davrlarda bu hudud rivojlanishining asosiy omillardan biri Buyuk ipak yo'lining bu hududdan o'tganligi edi. Xorazmshohlar davlati davrida yirik siyosiy birlashmaning vujudga kelishi bilan davlatning siyosiy mavqei oshdi. Bu esa o'z navbatida hunarmandchilikning, savdoning rivojlanishiga, shaharlarning

yuksalishiga zamin yaratdi. Ulkan mintaqada siyosiy yaxlitlik va barqarorlikka erishilishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida ham ijobiy oʻzgarishlar yuz berdi. Arxeologik izlanishlar, yozma manbalar guvohligiga koʻra sunʼiy sugʻorishga katta eʼtibor berilib, vohalar imkonidan iloji boricha keng foydalanishga harakat qilingan. Natijada dehqonchilikning rivojlanishida uzilish boʻlmagan. Turli hil qishloq hoʻjalik mahsulotlari yetishtirilgan. Ulardan yuqori hosil olingan. Shaharlarda hayot qaynab, savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlangan. Mamlakatda ishlab chiqarilgan turli xildagi gazlamalar, zargarlik buyumlari, kiyim-kechaklar, gilam, poyonoz, teri, jun, yogʻ-moy, sovun, qurol-aslaha, egar-jabduqlar, hoʻl va quruq meva, ipakchiliklar, javohirlar va boshqa koʻplab mahsulotlar ham ichki bozorda, ham tashqi bozorda xaridorgir edi. Albatta, bunda tegishli davlat idoralarining hissasi ham katta boʻlgan. Chunonchi, doim boʻlganidek muxtasib²⁸lar bozorlardagi narx-navo, mahsulotlarning sifati, toshu tarozining ahvolidan xabardor boʻlishni toʻxtatmaganlar. Karvon yoʻllarida toʻxtash joylari, suv omborlari, havzalari qurilgan, katta karvonlarni qoʻriqlab borishga hatto sultonning shaxsiy pahlavonlari ham jalb etilgan.

Xorazmshoh Takash oʻz farmonlaridan birida raiyatga nisbatan adolatli boʻlishga, dehqonlarning manfaatini himoyaga qilishga, soliqlarni olish jarayonida qonunlarga toʻliq rioya etishga amr qilgan. Jaloliddin Xorazmshoh ham urush natijasida qiyin ahvolga tushib qolgan aholini soliqlardan ozod etgan.

Xorazmshohlar davrida dehqonlarning turmush tarzi ancha yuqori boʻlgan. Hukmdorlar va iqto egalari ham dehqonchilikdan yuqori hosil olish uchun dehqonchilikka koʻp mablagʻ sarflab, qishloqning iqtisodiyotini qoʻtarishga harakat qilganlar. Takashning munshiysi – shaxsiy kotibi Muxammad Bagʻdodiy At-tasviri ila-tarassul (Muhim

²⁸ Hududda shariat qonunlariga amal qilinayotganligini va bozorlarda toshu tarozining toʻgʻriligini nazorat qiluvchi shaxs.

nomalar bitish yo‘l-yo‘riqlari) asarida o‘sha davrdagi ahvolni yozib qoldirgan.

Bu davrdagi voqea-hodisalarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va to‘g‘ri xolis xulosalar chiqarishi mumkin bo‘lgan inson Shahobiddin An-Nasaviy Sulton Muhammadning hukmronligini yuksak baholab shunday deydi: “Uning amalga oshirgan ishlari nihoyatda ulug‘ edi, otasi unga Xuroson va Xorazm hukmdorligini meros qoldirdi, u bunga Iroq va Mozandarinni ham birlashtirdi. Shu bilan birga, qo‘l ostiga Kirmon, Kesh, Seyiston, G‘ur, O‘azni, Bomiyon mamlakatlarini, Hindistonning vodiylariga qadar maskanlarni qo‘shib oldi. Bu ishlarning hammasini qilichlar qindan chiqarilmasdan, hatto qinlar yelkalarga osilmasdan amalga oshirildi, bu mamlakatlarni ortiqcha kuchsiz, kurashsiz, zo‘ravonlik va vayronagarchiliksiz, faqat tahdid va qo‘rqitish bilan bosib oldi. U o‘z qo‘l ostiga to‘rt yuzga yaqin shaharlarni birlashtirdi. Boshqa birov bo‘lganda bu darajada muvaffaqiyatga erishishi qiyin kechardi, u esa bir og‘iz so‘z bilan qo‘l ostiga shuncha miqdordagi mulkni to‘pladi”.

Anushteginlar davrida madrasalar barpo etish, kutubxonalar ochish, ularni kitoblar bilan to‘ldirish, iste’dod egalarining boshini silash, asrab-avaylash odati saqlanibgina qolmay, yanada rivoj topdi. Ziyo maskani bo‘lmish kutubxonalar faoliyatiga katta e’tibor berilgan. Masalan, Buxoro viloyatidagi shaharlardan birida fuqarolar uchun, ya’ni umumiy kutubxona mavjud bo‘lib, unda saqlanadigan qo‘lyozma asarlar g‘oyatda noyob hisoblangan. Xuddi shunday kutubxonalar o‘lkaning boshqa yerlarida ham, masalan, Xorazmda bo‘lgani ma’lum. Madrasalarga kelsak, manbalarda yozilishicha, bunday bilim maskanlari saltanat markazi Xorazmdan tashqari Nishopur, Isfahon va boshqa shaharlarda ham qad ko‘targan. Ularda o‘qish jarayoniga juda katta mas’uliyat bilan qaralganini shundan ham bilib olsa bo‘ladiki, madrasa rahbari va mudarrislar oliy hukmdor yo uning joylardagi noibining maxsus buyrug‘i bilan tayinlanganlar. Chunki har qanday jamiyat, u qanchalik turli imkoniyatlarga ega bo‘lmasin, agar shu imkoniyatlarni yuzaga

chiqarishga qodir mutaxassislar bo'lmagan ekan, ular og'izda qolaveradi. Mutaxassislar esa tarbiyalanadi, parvarish etiladi. Xorazmshohlardan Otsiz, Takashlarning shu ma'nodagi buyruqlarini tahlil qilarkanmiz, ular mazkur haqiqatni juda to'g'ri anglaganliklari namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ular ta'lim va tarbiya, fan sohalariga mutasaddilarning ilmi, iymonli, hurmatli, halol bo'lishlariga katta e'tibor bilan qaraganlar. Mazkur siyosat o'z mevasini ham bergan. Bahoviddin Marvaziy, Abu Ali Hasan Buxoriy, Zahiriddin G'aznaviy, Ismoil Jurjoniy, Faxriddin Roziy, Mahmud Zamaxshariy, Abulfath Xorazmiy, Abulqodir Jurjoniy, Sirojiddin Xorazmiy, Rashididdin Votvot, Sayfi Isfarangiy, Ziyo Xo'jandiy, Najmiddin Kubro, Majididdin Xorazmiy kabi o'nlab matematiklar, yulduzshunoslar, tabiblar, tarixchilar, shoirlar, faylasuflar, adiblar, tilshunoslar, mutassavvuf olimlar shular jumlasidandir.

Uchinchi bob bo'yicha o'zini o'zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Arablar hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda qanday soliqlar amalda bo'lgan?
2. Arablar hukmronligi davrida xiroj solig'ini to'lovchi ag'oli qanday nomlangan?
3. Arablar hukmronligi davrida soliq yig'uvchilar qanday nom bilan nomlangan?
4. Arablar hukmronligi davrida xiroj solig'ining qanday turlari mavjud bo'lgan ?
5. Arablar hukmronligi davrida Vaqf yerlarini soliqqa tortish munosabatlari qanday bo'lgan?
6. Zakot solig'ining to'lovchilari kimlar bo'lgan va uning xususiyatlari nimadan iborat bo'lgan?
7. Somoniylar hukmronligi davrida yer egaligining qanday turlari mavjud edi?
8. Somoniylar hukmronligi davrida amalda bo'lgan Iqta tizmi va uning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
9. G'aznaviylar hukmronligi davrida soliq munosabatlari qanday tashkil etilgan?

10. Xorazmshohlar davlatida soliq munosabatlari haqida tushuntirib bering?

Test savollari:

1. Arablarning turon hududlarida hukmronligi davrida Sugʻdiylar asosan qanday soliqlarni toʻlagan?

- a) Juzya va xiroj
- b) Ushr va uloq
- c) Umra va ushr
- d) Misaha va muxayir

2. Arablarning Markaziy Osiyoda hukmronligi davrida halq orasida soliq yigʻuvchilar qanday nom bilan atalgan?

- a) Omillar
- b) Baskaklar
- c) Harroslar
- d) Tanobchilar

3. Arablarning Markaziy Osiyoda hukmronligi davrida soliqlar qanday koʻrinishlarda undirilgan?

- a) Pul va mahsulot (natura)
- b) Qurbonlik va mehnat
- c) Qimmatli qogʻozlar va qimmatbaho tolalar
- d) Oltin moʻynalar va tangalar

4. Arablarning hukmronligi davrida xiroj soligʻining undirilish tartibi qanday koʻrinishlarda amalga oshirilgan?

- a) Qatʼiy belgilangan stavkada, qatʼiy belgilangan summada va hosilning muayyan ulushida
- b) Aralash, qatʼiy va mutloq stavkalarda
- c) Progressiv va regressiv stavkalarda
- d) Proporsional va tabaqalashtirilgan stavkalarda

5. Juzya solig‘i kimlardan undirigan?

- a) Musulmon bo‘lmagan ozod erkaklardan
- b) Musulmon bo‘lmagan xotin-qizlardan
- c) Musulmon bo‘lmagan keksalar va voizlardan
- d) Musulmon bo‘lmagan kambag‘allar va qullardan

6. Arablarning hukmronligi davrida ushr yerlaridan qancha miqdorda soliq undirilgan?

- a) Hosilning $1/10$ qismidan soliq (munosima) olingan
- b) Hosilning $1/3$ qismidan $1/2$ qismigacha munosima olingan
- c) Hosilning $1/7$ qismidan soliq (munosima) olingan
- d) Hosilning $1/5$ qismidan $1/9$ qismigacha munosima olingan

7. Arablarning hukmronligi davrida xiroj yerlaridan qancha miqdorda soliq undirilgan?

- a) Hosilning $1/3$ qismidan $1/2$ qismigacha munosima olingan
- b) Hosilning $1/7$ qismidan soliq (munosima) olingan
- c) Hosilning $1/5$ qismidan $1/9$ qismigacha munosima olingan
- d) Hosilning $1/10$ qismidan soliq (munosima) olingan

8. Mulki sultoniy yerlari kimga tegishli?

- a) Sultonga (amirga) tegishli yerlar
- b) Xususiy mulk yerlari bo‘lib, ular yirik yer egalari, zamindorlarga qarashli bo‘lgan
- c) Masjid, madrasa va boshqa diniy muassasalarga tegishli yerlar
- d) Umumhalq yerlari

9. Vaqf yerlarining egalari javoblarning qaysi birida to‘g‘ri keltirilgan?

- a) Masjid, madrasa va boshqa diniy muassasalarga tegishli yerlar
- b) Xususiy mulk yerlari bo‘lib, ular yirik yer egalari, zamindorlarga qarashli bo‘lgan
- c) Sultonga (amirga) tegishli yerlar
- d) Umumhalq yerlari

10. Somoniylar davlatida halq orasida soliq yig‘uvchilar qanday nom bilan atalgan?

- a) Mushriflar
- b) Omil
- c) Publikani
- d) Harros

Kopchur – yaylov va unda boqiladigan podalarga har yuz bosh qoramoldan bir bosh miqdorida soliq yoki podaning bir foizi. Bu soliq asosan ko‘chmanchi qabilalardan olingan. Sababi o‘troq holda yashovchi dehqonlarning katta miqdordagi podalari yo‘q edi. Soliq mo‘g‘ul imperiyasi tarkibida bo‘lgan mo‘g‘ullar tomonidan ham to‘langan. Kopchur dastlab kambag‘allar manfaati uchun mo‘ljallangan bo‘lib “Yashirin afsona”²⁹ da ham bu haqida ko‘rsatib o‘tilgan.

Unda aytilishicha kopchur “kambag‘allar va kambag‘allar manfaati uchun” xizmat qilib, har yuz qo‘ydan bitta qo‘y olinishi kerak³⁰. Soliq Markaziy Osiyo, Armaniston, Gruziya, Eron, Xitoy va boshqa bosib olingan mamlakatlarning chorvadorlari shuningdek, mo‘g‘ullar davlatining ichki hududlaridagi mo‘g‘ul fuqarolari uchun ham tatbiq etilgan.

Tarixiy manbalarda quyidagi parcha keltiriladi. “Mo‘g‘ullarda ilgari shunday urf-odat va qoidalar mavjud bo‘lganki ular har yili mo‘g‘ul hududining har bir joyidan kambag‘al qo‘shinlarga otlar, qo‘ylar, ho‘kizlar, kigizlar va boshqa narsalar ajratib turganlar”.

Kopchur-kambag‘allarga yordam berish uchun mo‘ljallangan ijtimoiy soliqning bir turi bo‘lib, uning kelib chiqishi mo‘g‘ullarning qadimiy odatlariga borib taqaladi. Vaqt o‘tishi bilan u ijtimoiy maqsadini yo‘qotdi va davlat bojiga aylandi.

²⁹ “Сокровённое сказание монголов” - eng qadimgi mo‘g‘ul adabiy-tarixshunoslik yodgorligi, dastlabki mo‘g‘ullar tarixi, ularning davlati va uning asoschisi Chingizxon, shuningdek, XII-XIII asrlardagi O‘rta Osiyo tarixiga oid qimmatli manba.

³⁰ Сергей Андреевич Козин (1879 - 1956) - sovet mo‘g‘ul olimi, 1943 yildan SSSR Fanlar akademiyasi akademigi. U “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi”ni rus tiliga tarjima qilgani bilan mashhur.



Shulen – oziq-ovqat solig‘i. Podadan bitta ikki yoshli qo‘chqor va mingta otlar podasidan bitta toy yig‘ib olinishi. (Soliq yig‘ish ko‘pincha barot tizimi, ya‘ni “erta yig‘ish” bo‘yicha olib borilgan, bu esa suiste‘mollikni yanada kuchaytirgan).

1235 yilda Talan-Dabe

hududidagi Qurultoyda O‘qtoy xon amalda bo‘lgan shulen solig‘ini yig‘ishni soddalashtirdi.

Soliqni soddalashtirish natijasida u mingta otlar podasidan bitta toy, qo‘ylar podasidan ikki yoshli qo‘chqorga qirollik taomlari uchun har yilgi boj sifatida o‘zgartirilgan.³¹ Shulen faqat mo‘g‘ullardan undirilgan va rasmiy davlat boji bo‘lgan.

Kopchur ham shulen ham tabiiy oziq-ovqat uchun soliq sifatida xizmati qilib, uni asosan ko‘chmanchi aholi to‘langan. Undirilgan soliqlar xoqonning o‘zi va to‘rt shahzoda - meros egalari foydasiga olib ketilgan.

“Yashirin afsona” ning xitoycha matnida O‘qtoy Xonning bu ikki soliq to‘g‘risidagi farmoni batafsilroq bayon qilingan. Unda shunday deyilgan:

“Kopchur odamlarning har yili qo‘ylar podasidan faqat bitta ikki yoshli qo‘yni pishirish maqsadida olinsin, yuz qo‘ylar podasidan bitta qo‘y olinib o‘sha ulusning kambag‘allariga yordam sifatida tarqatilsin.”

Markaziy Osiyodan tashqari Armaniston va Gruziyada kopchur soliqlari noyon³² Argun tomonidan joriy qilingan³³.

Yig‘ilgan kopchur mo‘g‘ul qo‘shinlar orasidan ijtimoiy ahvoli qiyin bo‘lgan o‘rda, qo‘shinlar va otryadlarga tarqatilgan. Uluslar hukmdorlari

³¹ VIII-XII betlardagi ma‘lumotlar quyidagi mualliflarning ma‘lumotlari asosida shakllantirildi. Базаров Б. В., Ванчикова Ц. П. Экономическая система Монгольской империи // Власть. 2015. Том 23. № 6. С. 170-175.

³²Noyon - mo‘g‘ul hukmdori o‘rta asrlardan boshlab XX asrning birinchi choragigacha bo‘lgan davrgacha shunday nomlangan. Noyon-dastlab qadimdan shakllangan mo‘g‘ul urug‘i sifatida talqin qilingan. Keyinchalik yuqori tabaqa vakillari sifatida e‘tirof etilgan. Mo‘g‘ullar imperiyasidagi hukmdor tabaqa.

³³Serovbe Kerobovich Patkanyan 1860-1918 yoki 1923 - rus statistik va etnograf - Sibir tadqiqotchisi.

va boshqa hukmdorlar ushbu soliqni undirishdan manfaatdor edi (chunki armiyaga odatda ularning oilalari ham hamrohlik qilar edi).

Eronda Rashid-ad-din³⁴ hukmronligi davrida kopchur asl ma'nosini yo'qotdi. Ko'chmanchilardan (shu jumladan mo'g'ullardan) Eronning o'troq aholisidan ham olinadigan oddiy soliq turiga aylandi.

Shunday qilib turli manbalarni qiyosiy tahliliga asoslanib quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin.

Shulsi – soliqning miqdori har bir otardan ikki yashar quy va har ming otdan bir biyani (qimiz uchun) tashkil etgan.

Mamlakatdagi savdo yo'llarida joylashgan bekat - "yom" (jom)larning xarajatlari ham aholi zimmasiga yuklatilgan. Ularning miqdori shu darajada ko'payib ketar ediki, ba'zi hollarda har bir "yom" uchun 20 ot-ulov, so'yish uchun qo'ylar, sog'ish uchun sog'uvchisi bilan biyalar, aravalar va boshqa sarf-xarajatlar yig'ib olingan.

Chig'atoy ulusida oliy mansabdorlar yer solig'i to'lamagan. Yirik mulkdorlar, savdogarlar, islom peshvolari mo'g'ullar bilan yaqinlashib har xil yorliqlar olganlar va soliqdan imtiyozlarni qo'lga kiritganlar.

Tamg'a – mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyo, Eron, Oltin O'rda hududlarida joriy qilingan hunarmandlar va savdogarlardan undirilgan va bevosita xon xazinasiga uchun yig'ilgan soliq turi.

Ushbu soliqning joriy etilishi natijasida xazinaga katta daromad keltirgan. Mazkur soliq mahalliy xalq, ayniqsa, savdogarlar va hunarmandlar zimmasiga og'ir yuk bo'lib tushgan. Uni har bir soliq to'lovchi o'z daromadidan kelib chiqib, ma'lum muddatda to'lashi shart bo'lgan.

Chopg'in – mo'g'ullarning harbiy yurishlari paytida talafot ko'rgan qo'shin va boshqa kichik harbiy bo'linmalar ehtiyojlarini qoplash maqsadida shahar, qishloq, ovul va boshqa aholi punktlariga talonchilik maqsadida qilingan yurishlar.

³⁴ Rashid ad-Din Fazlullax ibn Abu-lb-Xayr Ali Xamadaní- Fors davlat arbobi, tabib va qomusiy olim; Hulaguidlar davlati vaziri. Abaka Xon davrida davlat xizmatiga qo'shilgan.

Chopg'in paytida aholi punktlaridan aholidan so'ramasdan hayot uchun zarur bo'lgan barcha mol-mulk, yegulik, kiyim-kechak, o'tin va boshqa narsalar o'lja sifatida olib chiqib ketilgan.

“Yashirin afsona” ko'ra, imperator undana solig'ini soddalashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni bergan: “Odamlardan ham kopchur ham undana undirishda soliq yukini pasaytirish maqsadida har bir mingta otdan bitta sut beruvchi biya va qimiz sog'uvchini belgilash lozim.

Har bir podada (tabun)dan qimiz sog'uvchilar tayinlanib, ma'lum bir hududda sog'ish ishlarini tashkil etish, otlarni boquvchi (nuntukchin)larni belgi-lash va ularni almashtirib turish tizimini joriy etish lozim. Ushbu soliq turi faqat mo'g'ullarga tatbiq etilgan.

Shibag'u – xon va uning yaqinlariga yozda yaylovdan yaylovga ko'chish paytida beriladigan in'om. Shibag'u asosan oziq-ovqat tarzida talab qilingan.

Mo'g'ulistonda soliqlarning joriy etilishi va tartibga keltirilishi 1228 yildan 1241 yilgacha hukmronlik qilgan O'qtoy davriga to'g'ri keladi.

1235 yildagi qurultoyda eski mo'g'ul soliqlaridan biri Undana bo'yicha ham islohotlar o'tkazildi.



Undana-sut beruvchi ot(biya)lardan qimiz ko'rinishida undiriladigan soliq turi.

1235 yilda bo'lib o'tgan Qurultoyda O'qtoy Xon “Bug'doyning har o'n tagaridan kambag'allarga sarflanishi uchun bitta tagar berishini” buyurdi.

Tagar - mo'g'ul tilida “sumka, non o'lchovi” degan ma'noni anglatadi.

Bu 750 funt³⁵ga teng edi. Markaziy Osiyodan tashqari Arman manbalariga ko‘ra Armanistonda va Kavkazda tagar quyidagicha edi.

Aholini ro‘yxatga olingan har erkakdan mo‘g‘ul soliq yig‘uvchilari 100 kg bug‘doy, 50 litr sharob, 2 kg guruch, 3 dona qop, 2 dona arqon, 1 oq (kumush tanga), 1 o‘q, 1 dona taqa, 20 bosh qoramoldan - 1 bosh qoramol va 20 kumush tanga undirilgan.

Yuqorida aytilganlarning hammasini to‘lashga qodir bo‘lmaganlarning farzandlari o‘g‘il-qizlari tortib olingan.

Tagarning maqsadi qo‘shinlarni, imperator saroyini don va yem-xashak bilan ta‘minlash edi. Mo‘g‘ullar hukmron bo‘lgan ba‘zi mamlakatlarda soliq yig‘uvchilar tagarni boshqa turdagi oziq-ovqat va hatto pulga ham tatbiq etilgan.

Plano Karpining so‘zlariga ko‘ra, mo‘g‘ullar zabt etilgan xalqlardan “qon bilan to‘lash” deb nomlangan harbiy xizmat amaliyotini tashkil etgan.

Unga ko‘ra harbiy xizmatga majburlar zarurat tug‘ilganda armiyaga qo‘shilib jangga safarbar etilgan, shuningdek oila a‘zolari va mulkidan ular o‘nta yoshdan bittasini olib(qizlar bilan ham shunday qilishadi) ularni o‘z vatanlariga olib ketib, qul qilib saqlaydilar. Qolganlarini o‘z odatlari bo‘yicha hisoblab, tarqatadilar”.

Uloq – suv usti transportlari bo‘yicha majburiyat. Qishloq va shahar aholisining davlat va mahalliy ehtiyojlar uchun transport vositalari bilan ta‘minlash majburiyati. Amaldorlar, mahbuslar va davlat idoralarini tashish uchun aravalar berilishi, yuk (qurilish materiallari, oziq-ovqat, shu jumladan tuz, tovarlar va boshqa)larni tashish uchun undirilgan.

Mo‘g‘ul hukmronligi davrida monastirlar, cherkovlar, diniy konfessiyalar har qanday soliqdan ozod qilingan.

³⁵ 1 funt hozirda 0,453592 kg

Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, mo'g'ul davlatchiligi va imperiyasida turli davrlarda ma'muriy va iqtisodiy faoliyatni olib yo'nalishlari turlicha bo'lgan. Dastlabki davrlarda soliq tizimini yagona birlashtirish istagi bilan bo'sa, boshqa davrlarda esa Mo'g'ullar siyosiy hukmronligi doirasiga kiritilgan turli xalqlar va davlatlarning iqtisodiy tuzilmalari va an'analarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib ma'muriy va iqtisodiy faoliyatni olib borish yo'nalishlari belgilangan.

Mo'g'ullar uchun an'anaviy bo'lgan bir qator to'lovlar asta-sekin davlat soliqlariga aylanib, butun imperiya bo'ylab tarqaldi. Ulardan ba'zilar armiyani oziq-ovqat va pul bilan ta'minlash uchun mahalliy aholining zimmasiga tushdi. Soliqlarning amalda qo'llanilishi imperiyaning turli hududlarida ularning xususiyatlaridan kelib chiqib turlicha bo'lgan.



§ 3.5. Yelyuy Chutsayning mo'g'ul soliq siyosatini tashkil etishdagi o'rni

Chingizxon vafot etdi va o'g'li O'qtoyga armiya va ulkan xonlikni moliyalashtirish masalasi hal qilinmay qolgan edi. Mo'g'ul xonligi barcha rahbarlarning moliyaviy muammosini-pulni qayerdan olish masalasini hal qilishda Yelyuy Chutsayning o'rni muhim ahamiyatga ega.

Yelyuy Chutsay ismining birinchi qismi shuni ko'rsatadiki, bu odam mo'g'ullar bosib olgan Qoraxitoy Gurxan sulolasining shahzodasi edi, lekin bu ularning armiyada va amaldor sifatida xizmat qilishiga to'sqinlik qilmas edi.



Yelyuy Chutsay juda yaxshi o'qimishli odam va O'qtoy davrida amaldor bo'lib ishlagan. (Mo'g'ullar yaxshi jangchilar edi, lekin ular

orasida savodli kishilar kam edi, shuning uchun ular boshqaruv ishlari uchun o'sha davrdagi uyg'urlarni va boshqa xalqlarning vakillarini faol ishlatishgan).

1233 yilda mo'g'ullar Shimoliy Xitoy poytaxti Kaifengni qamal qilishdi. Kaifeng zabt etilganidan so'ng, urush bir muncha vaqt to'xtadi va tirik qolgan dehqonlar o'z uylariga qaytishni boshladilar.


O'qtoy dehqonchilikni qayta tiklashdan hech qanday foyda ko'rmas, "Xitoylardan hech qanday foyda yo'q" degan fikrda edi. "Qanday qilib xitoylarni befoyda deb atash mumkin", e'tiroz bildirdi Yelyuy Chutsay. "Agar soliqlar adolatli belgilansa, Siz har yili 500 ming liang kumush, 80 ming dona ipak va 400 ming shi don olishingiz mumkin"ligini matematik asoslab tushuntirdi. Soliq ma'muriyatlarini tuzish kerak, dedi Yelyuy Chutsay xonga.

O'qtoy otasiga o'xshagan shafqatsiz jangchi emas, barqaror, bir maromda hayot tashkil etish tarafdori edi. Yelyuy Chutsayning so'zlari Xonga yoqdi.

O'qtoy Yelyuy Chutsayni "buyuk imperiya kotibiyati" boshlig'i etib tayinladi va unga zabt etilgan ulkan hududlarni boshqarishni o'rnatishni buyurdi.

Yelyuy Chutsay dastlab O'qtoyni soliqlarni to'g'ri hisoblash uchun aholi ro'yxatini o'tkazishga ko'ndirdi. Bu aniq aholini ro'yxatga olish emas, aniqrog'i soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish edi.

Aholini ro'yxatga olish "olov va tutun" asosida o'tkazilganligi uchun ya'ni, soliq solish obykti bitta alohida xo'jalik edi. Bundan tashqari, ro'yxatga olish mo'g'ul cho'llarida ham, bosib olingan mamlakatlarda ham o'tkazildi.



3.1-rasm. Yelyuy Chutsay siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Yelyuy Chutsayning asosiy maqsadi, aqli va malakali amaldorlarni topish. Malakali odamlarni saralash maqsadida eski imtihon tizimini qayta tikladi. Tarqalgan Konfutsiy olimlarini yig‘ishga harakat qildi va ularning ko‘pini qullikdan qutqardi.

Barcha xalqlar va millatlar va hatto qullar ham bu imtihonlarda qatnashish huquqiga ega edilar. Qullar egalariga imtihon topshirishlariga aralashish taqiqlangan. Shu sababli, yangi mansabdor shaxslarning qariyb to‘rt dan bir qismi sobiq qullar bo‘lganligi ajablanarli emas.

Hududlarda “darugachi” (imperiyaning g‘arbiy hududlarida ularni “baskaklar” deb atashdi) soliq yig‘uvchilarni tayinladi. Baskaklar aholini ro‘yxatini o‘tkazdi, soliqlarni taqsimlash va yig‘ish ishlarini amalga oshirdi.

Shu bilan birga, Yelyuy Chutsay amaldorlarga nisbatan “ko‘chirish” siyosatini yurita boshladi. Amalda, bu xitoylik amaldor qadimgi Xitoydan boshqa har qanday mamlakatda, musulmon amaldor esa Xitoyda ishlashini anglatardi. Shunday qilib, Yelyuy Chutsay qarindoshlik va qarindoshlikka qarshi kurashdi.

Xon yordamida Yelyuy Chutsay qonun qabul qildi, unga ko‘ra, mansabdor shaxsga pora uchun faqat bitta jazo - o‘lim. Shu bilan birga,

o‘lim jazosi mansabdor shaxsga soliqdan ko‘proq ushlab qolsa, tahdid solgan. Shunisi e‘tiborliki, o‘zlashtirish uchun jazo yengilroq bo‘lgan.

Agar mansabdor shaxs xazinadan pul o‘g‘irlashda aybdor deb topilsa, unga barcha mol-mulkni musodara qilish va olis joylarga surgun qilish bilan tahdid qilishgan.

Rasmiylarning yolg‘izlik va o‘zini nazorat qilmasligini oldini olish uchun Yelyuy Chutsay davlat pochta tizimini tashkil qildi. Ma‘lum masofalar orqali har doim zaxira otlar bo‘lgan “hududlar” yaratildi. Shuning uchun, rasmiy yoki hisobot xonlikning istalgan nuqtasiga juda tez yetkazilishi mumkin edi. O‘sha davr guvohlarining xotiralariga ko‘ra, Volganing quyi oqimidan Mo‘g‘uliston markazigacha bo‘lgan masofa bir yarim oy ichida bosib o‘tilgan.

Yelyuy Chutsayga bunday vazifalarning topshirilishi bilan xonlik bo‘ylab yagona tartib o‘rnatildi. Bitta mulkdorga tegishli bo‘lgan yuzta narsadan, bir narsa yiliga bir marta soliq yig‘uvchilarga beriladi. Agar narsalar kamroq bo‘lsa, ular mutanosib ravishda bo‘linadi. Hamma savdogarlar barcha tovarlarga boj to‘ladilar, tovarlarning umumiy qiymatining 3 foizi miqdorida, sharobdan tashqari 10 foiz boj bor edi. Sharob o‘sha paytda hashamatli buyum sifatida qaralar edi.

Soliq yig‘ishning birinchi natijalari barcha natijalardan oshib ketdi. Armiya uchun yetarli, hatto faxriylarni yerga berish o‘rniga ularni har xil narsalar va chorva mollari bilan saxiylik bilan mukofotlash uchun yetarli edi. Ortiqcha mablag‘ hali ham yetarli edi. Aynan shu davrdan boshlab Mo‘g‘ul xonligi temir, ziravorlar, zargarlik buyumlari va vino sotib olishni faol boshladi.

Ayrim viloyatlarda hokimlar rolini mahalliy hukmdorlar bajargan, baskaklar³⁶ esa bir vaqtning o‘zida Buyuk xonning vakillari bo‘lgan. Boshqa hududlar harbiy qo‘mondonlarga meros “ulus” sifatida berildi va baskaklar yiqqan soliqlarning bir qismi askarlarni ta‘minlashga sarflandi.

³⁶ Базаров В.Б., Ванчикова Ц.П. Экономическая система монгольской империи. Журнал. ВЛАСТЬ. 2015 г. № 6

Har bir viloyatda devonxona mavjud bo'lib, u yerda soliq to'lovchilar ro'yxati va ulardan olinadigan soliqlar to'g'risidagi ma'lumotlar saqlangan. Dehqonlar asosan ikkita soliq to'lar edilar – yer va jon solig'i. Shaharliklar jon solig'i va savdodan boj (“tamg'a”)ni to'lashgan.

Tuz, vino va boshqa ba'zi tovarlarni ishlab chiqarish va sotish davlat monopoliyasi bo'lib, katta daromad keltirgan.

Yelyuy Chutsay joriy qilgan barcha boj va soliqlar odamlar uchun og'ir bo'lmagan va oson hisoblangan.

Yer solig'i – yig'im-terimning faqat o'ndan bir qismini tashkil etgan. Bu mo'g'ullardan oldingi olingan soliqning chorak qismi edi.

Barcha dinlarning ruhoniylari va rohiblari soliq va yig'implardan ozod qilindi - sababi ular Buyuk Xon haqiga o'z xudolariga ibodat qilishi lozim edi.

O'z imperiyasini yaratgan mo'g'ullar aslida Buyuk Ipak yo'lini tikladilar. Endi bitta davlat, bitta soliq tizimi bor edi, qaroqchilar yo'q edi. Bu paytda Buyuk Ipak yo'li yangi kuch bilan ishlay boshladi. Shu bilan birga, nafaqat uyg'urlar balki musulmonlar ham yaxshi daromad olishdi, ular mo'g'ul xonlari, turklar, xitoylar bilan tez orada umumiy til topdilar.

Yelyuy Chutsay Mo'g'ul xonligi hokimiyatining iqtisodiy asosini yaratdi. U vafot etgach, uning izdoshlari soliq yig'ish usullarini “takomillashtira” boshladilar. Ushbu takomillashtirish usullaridan biri “qaytarib olish” amaliyotiga aylandi. Bu ma'lum bir shaxslar ma'lum bir hudud uchun kelishilgan soliq miqdorini xazinaga to'laganlar. Keyinchalik ular bu hududda soliqlarni o'zlari qiymat belgilab yig'ib olishgan.

Yangi mo'g'ul hukmdorlari bosib olingan yerlar aholisidan boj-hiroj undirishning yangi yo'llarini o'ylab topaverishgan.

§ 3.6. Maxmud Yalavochning Movaraunnahrda amalga oshirgan soliq islohotlari

Chingizxon vafotidan soʻng Chigʻatoyda soliqlar tushumini muntazam nazorat etish va oʻlkada moʻgʻullarga qarshi gʻalayon boʻlishini oldini olish masʼuliyati Maxmud Yalavochga yuklatilgan. Buning uchun unga 4000 ta askar biriktirilgan. Koʻpchilik aslzoda zodagonlar, savdogarlar va islom ulamolari ham oʻz jonlari va qolgan mol-mulklarini saqlab qolish maqsadida bosqinchilar xizmatiga oʻta boshlaganlar.

Oltin Oʻrdaga asos solingan. Chigʻatoy ulusini xorazmlik savdogar Maxmud Yalavoch boshqargan, keyinchalik u Xitoyga hokim etib tayinlangan.

4-BOB. MO‘G‘UL ISTILOCHILARI DAVRIDAGI SOLIQLAR

§ 4.1. Mo‘g‘ullar imperiyasining shakllanishi va davlatning iqtisodiy tizimi

Tatarlar va kereylar (keraitlar) ustidan g‘alaba qozongan Temuchin 1203-1204 yillarda merkit, nayman, kuralas, ikiras, durban va boshqa qabilalarni bo‘ysundirib, markazlashgan Mo‘g‘uliston davlatiga asos soladi.

1206 yil mart oyida O‘non daryosi yaqinida Qurultoy yig‘iladi va u yerda **Temuchin** buyuk xon etib saylanadi va shundan boshlab u Chingizxon nomini oladi.

Chingizxon imperiyasi ma‘muriy jihatdan bir necha hududlarga (uluslarga) bo‘lingan. Ulus o‘z ichiga nafaqat ma‘lum bir yerlar balki qabilalarni ham qamrab olgan. Mo‘g‘ullar bosib olgan butun hudud 4 ulusga bo‘lingan.

1-ulus. Jo‘chi (Oltin O‘rda) ulusi (hozirgi Qozog‘istonning ma‘lum bir qismlari va Xorazmning shimoliy qismlari)

2-ulus. Chig‘atoy ulusi (hozirgi Qozog‘istonning janubi-sharqiy qismi, O‘rta Osiyo, Mo‘g‘ulistonning g‘arbiy qismi hamda Sharqiy Turkiston)

3-ulus. O‘qtoy ulusi (G‘arbiy Mo‘g‘uliston va hozirgi Qozog‘istonning shimoliy-sharqiy qismlari)

4-ulus. Xulagu ulusi (Xorazmning janubiy qismlari, hozirgi Eron va Yaqin sharq hududlari)

XII asrlarda uyg‘urlar hozirgi Xitoyning g‘arbiy mintaqasida yashagan. Uyg‘urlar Buyuk Ipak yo‘lining bir qismiga ega bo‘lgan va uning hisobiga boylik orttirgan savdogarlar millati edi. Uyg‘urlar xitoylik savdo sheriklaridan juda norozi edilar.

O‘sha paytda Xitoy hududida Jin va Sui imperiyalarining cheksiz urushlari o‘n yildan ziyod davom etgan va bundan tashqari, Tangun

imperiyasi uyg'urlarning Xitoy bilan savdo-sotiq ishlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilgan.

Chingizxonning ham Tangun imperiyasiga nisbatan g'azabi bor edi, chunki bu imperiya mo'g'ullar dashtini doimiy ravishda vayron qilib, aholisini qullikka asir qilib olar edi. Uyg'urlar va Chingizxon o'rtasida shartnoma tuziladi.

Unga ko'ra mo'g'ul qo'shini Jin va Tangun imperiyalariga qarshi kurash olib boradi va uyg'urlar buning uchun mo'g'ullarga tariq (armiyaning asosiy oziq-ovqat mahsuloti) hamda ipak (ofitserlarning ish haqi) yetkazib berish majburiyatini oladi. Uyg'urlardan o'lpon undirilishi natijasida mo'g'ul qo'shini xitoyning Jin imperiyasini mag'lub qiladi.

Agar savdogarlar tarixiy voqealar oqimiga aralashmaganida Chingizxon Tangun va Jin imperiyalarini egallab olish bilan cheklanishi va boshqa ko'chmanchilar kabi tinchlanishi mumkin edi. Balki shunda "dengizdan-dengizgacha" imperiyasi shakllanmas edi.

Xorazmshox Chingizxon tomonidan Xitoy bosib olinganligini eshitgach, bu holni tasdiqlash va Chingizxon davlati haqida ma'lumotlar olib kelish uchun sayidlar avlodidan bo'lgan Bahovuddin Roziyni o'z elchisi sifatida 1218-yil Chingizxon huzuriga yuboradi.

Chingizxon ham bunga javoban xorazmshoxlar huzuriga o'z elchilarini yuboradi. Elchilarga xorazmlik taniqli savdogar Mahmud Yalavoch (Yalavosh) boshchilik qilgan.

Xorazmshox Sulton Muhammad bu elchilarni 1218 yilda Buxoro shahrida qabul qiladi. Elchilar Chingizxon Sultonning zafarli yurishlaridan xabardorligini, uni "o'zining ardoqli o'g'illari qatorida" ko'rishini bayon etishadi. Lekin bu aslida qaram qilish yoki o'z homiyligiga olish degan ma'noni anglatar edi.

1219-yili Chingizxon Sulton Muhammadga o'z minnatdorchiligini bildirish maqsadida 450 musulmon savdogari, 500 tuyaga ortilgan qimmatbaho mollardan iborat, savdo va elchilik karvonini yo'llaydi.

Chingizxonning Umar Xoja O'troriy, Jamol Marog'iy, Faxruddin Dizakiy (Jizzaxiy) al-Buxoriy, Aminuddin Hiraviy boshchiligidagi 450 kishilik savdo karvoni O'trorga kelganda, mazkur karvon ahlining savdogarlar niqobi ostida jo'natilgan mo'g'ul josuslari ekanini fahmlagan Inolchiq zudlik bilan shu haqda Muhammad Xorazmshohga xabar yuboradi. Ammo, u Xorazmshohning maxsus farmon yuborilguncha, karvon ahlini ehtiyotlash zarurligi xususidagi buyrug'iga e'tibor qilmay, ularning deyarli barchasini qatl qilib, mol-mulklarini musodara etadi. Shunda tasodifan omon qolgan bir mo'g'ul Pekinga qochib borib, Chingizxonni bo'lgan voqeadan xabardor qiladi.

Chingizxon Xorazmshoh huzuriga Kafraj Bug'roni 2 mo'g'ul hamrohligida elchi qilib jo'natib, Inolchiqni ular qo'liga topshirmoqni talab qiladi. Lekin, Xorazmshoh Inolchiqning o'ziga yaqin qarindosh, jasur sarkarda va qo'shinning asosiy qismida uning qavmiga mansub kishilar sarkarda ekanini, onasi Turkanxotun talabi bilan uni Inolchoq³⁷ jazolanmay qoladi. Bu bilan Xorazmshoh qo'pol siyosiy xatoga yo'l qo'yadi.

Chingizxonning bu talabini qat'iy rad etadida, Kafraj Bug'ro bilan kelgan 2 mo'g'ulni qatl ettiradi (Ibn al-Asir³⁸ ning yozishicha, faqat elchi o'ldirilib, uning hamroxlari soqollari qirqib tashlangan holda qo'yib yuborilgan). Aynan shu voqea Chingizxonning Xorazm davlati ustiga qo'shin tortish kelishiga bahona bo'ladi.

Bu voqealardan so'ng Inolchiq mo'g'ullar bilan bo'lishi muqarrar jangga hozirlik ko'rib, 20 ming kishilik qo'shin to'playdi, Xorazmshoh unga 10 ming askarni madadga yuboradi. 1219 yilda Chingizxon 100 mingdan ortiq askar bilan O'tronni qamal qiladi. Inolchiq 5 oylik qamal

³⁷INOLCHIQ, Inolchuq (7-1220, Samarkand) - O'tror hokimi (1210-1220), Muhammad Xorazmshohning yirik sarkardalaridan, Turkon xotunning amakivachchasi.

<https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/inolchiq-uz/>

³⁸IBN al-ASIR Izzuddin Abulhasan Ali (1160, Jazirat ibn Umar, Suriya - 1234, Mosul) - arab tarixchisi. Iroqning Mosul va Bag'dod sh. lari madrasalarida tahsil ko'rgan. Eng yirik va muhim asari - "Alkomil fitta'rix" (Tarix bo'yicha mukammal asar) bo'lib, u 12 jilddan iborat. Unda Huroson va Movarounnahrning 12-a. va 13-a. ning 1-choragidagi tarixi yilma-yil bayon qilingan. Asarning so'nggi jildlari mo'g'ullar istilosiga bag'ishlangan. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ibn-al-asir-uz/>

davomida o‘z qo‘shini va shahar aholisi bilan birgalikda mo‘g‘ullarga qattiq qarshilik ko‘rsatib, ulardan bir necha minggini halok etadi. Ammo, suv va yegulik tanqisligi, kuchlarning teng emasligi oqibatida mudofaachilar holdan ketib, mo‘g‘ullar shaharga kirishga muvaffaq bo‘ladi.

Ikki o‘rtada shiddatli jang bo‘lib, Inolchiq qo‘shini yengiladi. Otisha otisha bir dona ham o‘qi qolmagan Inolchiq, vayron bo‘lgan qal‘a g‘ishtlari bilan bir qancha mo‘g‘ullarni urib o‘ldiradi. Oxiri, mo‘g‘ullar ko‘pchilik bo‘lib uning ustiga tashlanadida, qo‘l-oyoqlarini bog‘lab Samarqandga - Chingizxonning huzuriga olib boradi. Chingizxon uning ko‘zu quloqlariga kumush eritib quyishni amr qiladi.



Shu sababli, bor-yo‘g‘i to‘rt yil ichida Chingizxon o‘sha paytdagi Mo‘g‘uliston hududidan bir necha baravar katta bo‘lgan Osiyodagi eng yirik davlat bo‘lgan Xorazmni zabt etadi.

Mo‘g‘ul imperiyasining siyosatida asosiy yondashuv shunda bo‘lganki, davlat hududida bo‘lgan hamma narsa hoqonning mulki hisoblangan va uni o‘zi boshqargan. Bu haqida Chingizxon kelini Sorkuktani-begi (Chingizxon o‘g‘li Tuli Xulaguning xotini) bayonotida ham aks ettirilgan: “Biz ham oxir-oqibat hoqonga tegishlimiz, u hukmdor. U nimani to‘g‘ri deb bilsa, shuni buyuradi”.

Plano Karpini³⁹ xonning ulkan qudrati haqida shunday yozgan edi: “Hamma narsa imperator qo‘lida. Ya‘ni, odamlarning o‘zlari, ularning mol-mulk, hayvonlari ... Bir so‘z bilan aytganda, imperator va uning

³⁹ KARPINI Jovanni da Plano (1182-1252) - italiyalik sayyoh va rohib. Mo‘g‘ullarning g‘arbga qilgan istilosidan so‘ng Rim papasi Innokentiy IV tomonidan (1245 y. gi Lion sobori topshirig‘iga ko‘ra), josuslik maqsadida yuborilgan elchilarga bosh bo‘lgan. Liondan safarga chiqib, Jan. Rossiya, Xorazm, Yettisuv, Tarbag‘atoy orqali qoon o‘rdasiga, Qoraqurumga kelgan. Bu yerda u mo‘g‘ul zodagonlarining buyuk qoon saylash marosimi - qurultoyida qatnashadi va O‘qtoyxonning o‘g‘li Guyukxonm taxtga o‘tirish marosimida qatnashgan.

amaldorlari barcha narsani o‘z mulklariday nimani va qancha miqdorda xohlasalar olib qo‘yadilar. Xuddi shunday, istaklari bo‘lsa har narsani yo‘q qilishlari mumkin”.

O‘qtoy taxtga o‘tirganda imperiya tarkibiga Shimoliy Xitoy, Sharqiy Turkiston, Eron va Kavkaz hududlarining asosiy qismi kirgan.

Zabt etilgan hududlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xon O‘qtoy tomonidan boshqarilgan. Mamlakatlarning ma‘muriy-hududiy rahbarlari, harbiy qo‘mondonlar, tamg‘achilar, davlat bojlari palatasi boshliqlari ham imperator tomonidan tayinlangan. Mahalliy feodallar mo‘g‘ullarning soliq xizmati maxsus vakillari - baskaklar nazorati ostida bo‘lgan.

Xitoyda 10 ta hududga bo‘lingan soliq yig‘ish punktlari tashkil etilib, ularning har biriga 2 ta mansabdor shaxs tayinlangan. Xitoyda tuman, viloyat va okruglarda don va pul yig‘ish uchun maxsus xazina palatalari tuzilgan. Bu palatalar tovarlarni natura shaklida yetkazib berish va hisobga olishni birlashtirish maqsadida yaratilgan.

Soliq tushumlarini hisoblash uchun Shimoliy Xitoy, Armaniston, Gruziya va Eronda aholini ro‘yxatga olish o‘tkazilgan.

1236 yili Shimoliy Xitoyda aholining ro‘yxatga olinishi natijasida soliqqa tortiladigan 1040 ming oila (uy) mavjud ekanligi aniqlangan⁴⁰.

Chingizxon davrida Mo‘g‘uliston davlatida pul birligini balish - oltin va kumush tashkil etgan. Fors tarixchisi Vassafning yozishicha, balishning og‘irligi taxminan 2,25 kg bo‘lgan. Oltin balish 2000 dinorga, kumush balish esa 10 dinor teng edi.

1271 yili mo‘g‘ullarning madaniylashgan o‘troq hayot tarafdorlaridan Ma‘sudbek Talas qurultoyi qarorlariga tayanib yangi pul (moliyaviy) islohot o‘tkazishga kirishadi. Unga ko‘ra har qanday shaxs o‘ziga kerakli tangalarni zarbxonalarga olib borib, ularni xohlagan tarzda, lekin bir xil hajm, qiymat va vaznda zarb etishi mumkin edi. Avval boshida qiyinchilik bilan kechgan bu jarayon XIII asrning 80-yillariga kelgandagina faollasha bordi. Tez orada 16 ta yirik shahar va

⁴⁰BICHURIN Nikita Yakovlevich (Iakinf) (1777—1853) — xitoyshunos. Uning ilmiy ishlari mo‘g‘ul va turkiyzabon xalklar tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga oid. Uning Turon xalqlari tarixiga bag‘ishlangan “Qadimgi davrda O‘rta Osiyoda yashagan xalklar haqida ma‘lumotlar to‘plami” nomli uch qismdan iborat asari katta ilmiy qimmatga ega. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bichurin-uz/>

viloyatlarda bir xil vazn va qiymatga ega sof kumush tangalar zarb etilib, muomalaga kiritildi.

Garchi bunday islohotlarga qarshi bo'lgan mo'g'ul harbiylari Erondan yoki Yettisuvdan turib Movarounnaxrga vayronagarchilik keltirib chiqaruvchi bosqinlarni amalga oshirib tursalarda, lekin islohotlar borishiga to'sqinlik qila olmadilar.

1286 yili mo'g'ullar (O'qtoy) davlatida 10 ming mayda quyma tangalar (ya'ni, 50 ming unsiya kumush) o'rniga qog'oz pullar muomalaga kiritildi.

Rubrukning yozishicha Pulning birligi szyao-chao deb nomlangan va pul birliklari to'g'risida tartib e'lon qilingan. Mazkur qog'oz pul kengligi va uzunligi odamning kaftiday keladigan paxta qog'ozidan bo'lgan⁴¹.

XIII asrda Osiyo va Yevropa mamlakatlari hali qog'oz banknotalar haqida bilishmagan. Marko Polo bunday banknotalar haqida batafsil ma'lumot beradi: "Kanbaluda buyuk xonning zarbxonasi bo'lgan. Bu pullarning ko'pi uning buyrug'i bilan qilinganki, ular bilan dunyodagi barcha boyliklarni sotib olish mumkin. Agar qog'oz pul ishlatilish jarayonida yirtilsa yoki unga qandaydir zarar yetkazilsa uni zarbxonaga keltiradilar va 3 foiz kamaytirish hisobiga yangisiga almashtiradilar. Agar kimdir tilla yoki kumush olishni istasa qog'oz pullar bilan zarbxonaga kelib tilla yoki kumush sotib olish imkoni bo'lgan.

§ 4.2. Mo'g'ullar hukmronligi davrida Markaziy Osiyo hududida shakllangan soliq tizimi

Chingizxon Xitoy va Xorazmni bosib olishi natijasida Mo'g'uliston xonligi bir necha marotaba kattalashadi va endilikda uyg'urlarning homiyligi mo'g'ul armiyasining ehtiyojlarini qondira olmay qoladi.

⁴¹Rubrukvis Billeem (1215, 1220-1293) - flamand sayyohi, rohib. 1253-1255 y. larda frantsuz qiroli Lyudovik IX tomonidan Mo'g'ulistonga yuborilgan elchilarga rahbarlik qilgan. R. Frantsiyadan Falastinga yo'l olgan, so'ngra Konstantinopol, Krim, Don dashtlari, O'rta Osiyo, Markaziy Mo'g'ulistondan o'tib 1254 y. Koraqurum sh. ga yetib borgan; qaytishda Kavkaz va Kichik Osiyoda bo'lgan. Rubrukning o'z sayohati haqidagi hisobotida u bosib o'tgan mamlakatlar tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar bor. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-r/rubruk-uz/>

Avvaliga armiyani urushlar o'ljasiidan moliyalashtirish mumkin deb hisoblashadi. Ammo amalda bunday bo'lib chiqmaydi. Chunki, birinchidan, janglarda har doim ham g'alaba qozonilmaydi, ba'zida mo'g'ullar ham mag'lubiyatga uchrab turadi. Armiyani esa yutqazgan paytda ham boqish va saqlash kerak.

Ikkinchidan, har bir mamlakat yoki hududni qo'lga kiritishga nafaqat oylar, balki yillar ketgan. Eng yaxshi deb olingan holatda har olti oyda yoki yiliga bir marta yangi hududlarni qo'lga kiritish mumkin bo'lgan. Bu vaqt oralig'ida armiyani moliyalashtirish kerak, uni har kuni ovqat bilan ta'minlash lozim.

Mo'g'ul faxriylari va urush qahramonlari norozi bo'la boshlaydilar, ular qilgan "mehnat"lari uchun rag'bat talab qilishadi.

Natijada mo'g'ullar yangi bosib olingan yerlarni taniqli harbiylar mulkiga taqsimlash va ularni xuddi xon vassali sifatida boshqarishga o'tadi. Shu maqsadda chorvachilik uchun yaylov maydonlarini ko'paytirish uchun qadimgi Xitoy aholisini yo'q qilish va ularning shaharlarini vayron qilish haqida fikr paydo bo'ladi.

Harbiy harakatlarning dastlabki bosqichlarida Chingizxon tomonidan armiyani moliyalashtirish uchun eski va sinalgan "polyude"⁴² usuli ishlatilgan (hukmdorning o'z bo'ysunuvidagi hududlardan borgan holda tegishli yig'imlarni (o'lpon) undirib olishi). Bunday amaliyot odatda yilda bir marta amalga oshirilgan. Ammo Chingizxonga bu usul endi mos emas edi, shuning uchun u moliyalashtirishning boshqa usuli – talon-tarojga o'tadi.

1219-1221-yillarda Markaziy Osiyoda mo'g'ullar bosqini va istilosidan so'ng Movarounnaxr, Xorazm va Xurosonning gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari tamomila halokatga uchraydi.

Dunyoga dong'i ketgan qadimiy va obod shaharlar, jumladan Gurganch, Buxoro, Samarqand, Marv, Termiz, Xo'jand, Balx, Nishopur va boshqa shaharlar xarobazorga aylantiriladi. Urganch, Samarqand,

⁴² IX-XII asrlarda undiriladigan yig'im turi. Ushbu yig'im slavyan va fin qabilalaridan Kiev Rusida ham undirilgan.

Buxoro va Marv kabi ulkan shaharlar aholisining katta qismi o‘z ona shaharlarini tark etadilar, qolgan aholining bir qismi qirib tashlanadi.

1230 yilda O‘qtoy Markaziy Osiyo va Xitoy hududlarida boj yig‘ishni buyuradi. Unga ko‘ra sharobdan 10% va boshqa tovarlardan 1/30 miqdorda soliq undirila boshlanadi⁴³.

Mamlakat hududiga olib kelinadigan tovarlarga nisbatan import bojlari 1236 yilda joriy etiladi.

Chju Si “Tung-szyan gan-mu” (Xitoy tarixi haqidagi kitob) ga ko‘ra, savdogarlar boj to‘lashga buyurilgan bo‘lib, bojning miqdori 1/30 miqdorda bo‘lgan. Shuningdek, tuzga ham soliq belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra 40 gin (1 gin - suyuqlik o‘lchov birligi, bugungi kunda 12 stakan yoki chashka miqdorida) tuz uchun bir unsiya kumush undirilgan.

Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida quyidagi asosiy soliqlar joriy qilingan:

Kalon (er solig‘i) – hosilning 10 foizi miqdorida undirilgan.

1235 yilda O‘qtoy Xon davrida Talan-Dabe hududida tashkil etilgan Qurultoyda sigir, qoramol va ekinlardan olinadigan soliq tashkil etish belgilandi.

Harbiy hokimiyat, aholini ro‘yxatdan o‘tkazish, soliq yig‘ish ishlari, “dorug‘achi” va “tamg‘achi” deb ataluvchi mo‘g‘ul amirlari qo‘lida bo‘lgan.

Mahmud Yalovoch xalqdan turli soliklar undirib berar edi⁴⁴.

Kalon-dehqonlardan olinadigan asosiy soliq bo‘lib, hosilning 10/1 qismini tashkil qilgan.

“Yaso”⁴⁵ qonuni bo‘yicha aholidan o‘zining foydasiga Shulsi deb atalgan soliq undirilgan. Bundan tashkari, mamlakatdagi savdo yullarida

⁴³ Rashid ad-Din Fazlullaax ibn Abu-l-Xayr Alí Xamadani (Rashiid ad-Doule; Rashiid at-Tabiib-“tabib Rashid” davlat arbobi, tabib va olim-enttsiklopedist; Hulaguiylar davlatining vaziri (1298-1317). Abakaxon (1265-1282) davrida davlat xizmatiga kirgan. G‘azon davrida (1295-1304) vazir lavozimini egalladi va eng muhim iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi.

⁴⁴ Mamanazarov A. Soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma – T.: Moliya. 2003. – 150 bet.

⁴⁵ 1206 yilda mo‘g‘ullar qurultoyida qabul qilingan “Chingiz-xon yusunlari” yoki “Yaso qonunlari” nomi bilan ataluvchi huquqiy qoidalar to‘plami 33 qismdan iborat bo‘lib, O‘zbekiston hududida ham amal qilgan. Unda jinoyat va jazo, harbiy qismlarni boshqarish va ularda qat’iy tartib-intizomni joriy qilish, oila va nikoh, mulk masalalariga e’tibor berilgan.

joylashgan obyektlar xarajatlari xam aholi bo'yniga yuklatilgan. Yana bir soliq Targ'u deb atalgan.

Targ'u - hunarmandlar, savdogarlardan olingan. Ishlab chiqarilgan va sotilgan molning 1/30 ulushi hajmida bo'lgan.

Oliy mansabdorlar soliq to'lashdan ozod etilgan edi.

Yuqoridagi soliq va majburiyatlardan tashqari aholi yana mahalliy to'ralarning zulmidan azob chekar edilar.

Maxmud Yalavoch soliq undirishda eng vahshiy usullardan ham qaytmagan. Xususan aholi birinchi talab bilan soliq to'lamasa, jismoniy chora-tadbirlar ko'rilgan, xatto ularning bolalari ham soliq hisobiga tortib olingan.

Bunday sharoitda o'lkada mo'g'ullarning soliq tizimiga qarshi yirik xalk qo'zgonlari bo'lib o'tadi. Ana shunday qo'zgonlardan biri 1238 yilda Mahmud Torobiy boshchiligida qo'zgon edi.

Karmana ostonalarida qo'zgonchilar bilan mo'g'ullar o'rtasida qattik jang bo'ladi. Bu jangda mo'g'ullardan 10 ming kishi o'ldiriladi. Jangda qo'zgonchilarning rahbari Mahmud Torobiy va Shamsuddin Maxbubiyalar ham halok bo'ladi. Mahmud Torobiyning ukalari Muhammad va Ali qo'zgonlonga rahbarlikni o'z qo'llariga olgan bo'lsalarda ularning yosh, tajribasizligi Xo'jandga yetib kelgan yordamchi kuchlar tomonidan qo'zgon shafqatsizlik bilan bostiriladi va qo'zgonchilar qattiq jazolanadi.

Maxmud Yalovoch amalidan chetlatiladi va Pekinga hukmdor qilib tayinlanadi.

Chig'atoy ulusiga Yalovochning o'g'li Ma'sudbek noib hamda ijarador qilib tayinlanadi. U bu lavozimda 51 yil xizmat qiladi. U mo'g'ullarga o'lpon va soliqlarni o'z vaqtida to'lab turdi, natijada keyinchalik mo'g'ullar Movarounnaxrni boshqarish ishiga deyarli aralashmaganlar.

Maxmud Torobiy qo'zgonining ahamiyati katta edi. Qo'zgon bostirildi, lekin u mahalliy hukmdorlarni o'z moliya siyosatini qayta

ko‘rib chiqishga majbur etdi. Shuningdek qo‘zg‘olon xalq ommasini bosqinchilar zulmiga qarshi birgalikda harakat kilib, mustakillik yo‘lida muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligini ko‘rsatdi.

Mazkur qo‘zg‘olondan so‘ng mo‘g‘ul xoni Manguxon (1257-1259) chiqargan yorliqqa asosan belgilangan tartibdagi soliq turidan tashqari aholidan oziq-ovqat, yem-xashak olinmasligi, soliq to‘lashda jismoniy kuch ishlatilmasligi va boshqa yengilliklar ko‘zda tutilgan edi.

XIV asrning birinchi yarmiga kelib mo‘g‘ul xonlari o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatlar, feodal tarqoqlik oqibatida mo‘g‘ullar Movarounnahrda mahalliy hokimliklarni va mahalliy aholini boshqarishni uddasidan chiqa olmay qoladilar.

Soliq masalasidagi qarama-qarshiliklar kuchayib ketadi. Ayniqsa, dehqon va hunarmandlarning ahvoli yil sayin yomonlashib bordi. Chunki yer solig‘ini to‘lashdan tashqari, dehqonlar turli majburiyatlar va xizmatlarni bajarishga majbur qilinar edi. Hunarmandlar ayniqsa, qurolsozlarni ham natura majburiyatini o‘tash tartibida ishlashga majbur etilar edi.

Manguxon zo‘ravonlik va suiste‘mol qilish tizimi mo‘g‘ullarga qarshi harakatni kuchaytirganini tushunar, shu sababli u buysundirilgan xalqlar uchun soliqlarni yumshatishni taklif qildi.

Saltanatning butun aholisi (o‘trok va ko‘chmanchi) daromadlari va boyligiga mutanosib ravishda soliq va o‘lponlar to‘lashi kerak edi. Soliq har yili undirilishi shart bo‘lgan.

Boy kishi bir yilda 10 dinor, kambag‘al toifa esa 1 dinor to‘lashi shart bo‘lgan. Chorva solig‘i har yuz tuyoqdan bir bosh miqdorida olingan.

Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida O‘rta Osiyoda mo‘g‘ul zodagonlarining yer egaligi va mulk egaligi borasida amalga oshirayotgan isloxtlari mahalliy xalqlar turmush tarziga og‘ir yuk bo‘lib tushgan edi. Har yili mo‘g‘ul zodagonlari va hukmdorlari

ishtirokida o‘tkazilayotgan Qurultoylarda yer egaligi va soliq xususidagi masalalar ham muhokama etib borilgan.

Qurultoyda taklif qilingan tadbirlar O‘rta Osiyo hududida amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa, mahalliy dehqon va hunarmandlarning ahvoli yanada og‘irlashib, ular yer, mol-mulk solig‘ini to‘lashdan tashqari turli majburiyatlarni ham bajarishga majbur edilar. Natijada ulkaning katta-kichik qishloqlarida jabr-zulum va zo‘ravonliklarga qarshi xalqning qarshilik harakatlari kuchayib bordi.

Mo‘g‘ullarning Movarounnaxrdagi uzoq yillik boshqaruvi davrida o‘lkada ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan inqirozli holatning vujudga kelishi, soliqlar tizimini takomillashishi barobarida, ularni undirib olishda ham shafqatsizlarcha usullar amalga oshirilgan. Bu holat jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchayishiga va yuqori va quyi tabaqa vakillari o‘rtasida sinfiy kurashning avj olishiga olib keldi.

Feodal yer egaligining kuchayishi, mulkdor mo‘g‘ul zodagonlarning muttasil jabr-zulmlari barcha turdagi iqtisodiy to‘lovlar, soliqlar va yig‘imlarning butun yukini oddiy xalq yelkasiga ag‘darildi. Ular mumkin qadar tezroq boshqaruvni qo‘lga olish hamda bo‘ysundirish ilinjida haddan tashqari soliqlarni ko‘paytirib, oddiy xalqni qashshoqlarga aylantirdilar, ularni iskanjalar bilan qiynab, azoblay boshladilar, to‘lashdan qochgan, yashiringanlarni tutib olib o‘ldirar edilar. Hatto bolalarini tortib olar edilar, ayrim mahalliy amaldorlar bu ishda ularga ko‘maklashib, tovlamachilik orqali boyib olar edilar.

1251-yili hokimiyat tepasiga Botuxon va Berkaxonlarning qo‘llab-quvvatlashlari bilan Munka (1251-1259) ulug‘ xon sifatida saylanadi.

U dastlab Chig‘atoy ulusini mulk sifatida tugatadi va uni Botuxon bilan bo‘lib oladi. Keyinchalik Munkaning o‘limidan so‘ng Chig‘atoyning nabirasi Olguxon (1261-1266) Oltin O‘rdaga qarshi kurashib, Chig‘atoy ulusini qayta tiklashga muvaffaq bo‘ladi.

XIII asrning 60-70-yillariga kelib, rasman yagona hisoblangan mo‘g‘ul imperiyasi aslida Erondagi Xulagiylar, Movarounnaxrdagi Chig‘atoylar va Oltin O‘rda deyarli mustaqil qismlariga bo‘linib ketgan

edi. Ayniqsa, xo‘jalik-iqtisodiy hayotni bir me‘yorga tushirish, savdo va pul muomalasini izga solishda Chig‘atoy ulusi noibi Ma’sudbekning xizmati va islohotlari katta o‘rin tutgan. Ma’sudbek mo‘g‘ul xoqonlariga shaxsan yaqinligi ham uning islohotlar o‘tkazishiga imkon bergan edi.

To‘rtinchi bob bo‘yicha o‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Mo‘g‘ullar ma‘muriy jihatdan necha uluslarga bo‘lingan va ularning tarkibi haqida gapirib bering?
2. Mo‘g‘ullarda soliq tizimini tashkil etilishi to‘g‘risida tushuntirib bering?
3. Yelyuy Chutsay soliq sohasida qanday islohotlar olib bordi?
4. Mahmud Yalavochning mo‘g‘ullar davrida faoliyati nimalardan iborat bo‘lgan?
5. Mo‘g‘ul xoni Manguxonning soliq islohotida qanday o‘rinni egalladi?
6. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida soliqlarni yig‘ish ishlarini amalga oshiruvchilar qanday nom bilan atalgan?
7. “Yaso” qonunining soliqqa tortish munosabatlaridagi ahamiyatini tushuntirib bering?
8. Mahmud Yalavochdan keyin Chig‘atoy ulusiga noiblik faoliyatining amalga oshirilishi qanday bo‘lgan?
9. Mo‘g‘ullarning soliq siyosatiga qarshi amalga oshirilgan xalq qo‘zg‘olonlari haqida tushuntirib bering?
10. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida soliqdan imtiyozlar berilish tartibini tushuntirib bering?

Test savollari:

1. Javoblarning qaysi birida Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida hududlarning bo‘linishini anglatuvchi ibora to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) Ulus
- b) Iqta
- s) Satrap
- d) Shibag‘u

2. Mo'g'ullar hukmronligi davrida hudular nechta uluslarga bo'lingan edi?

- a) Hudular to'rtta uluslarga bo'lingan
- b) Hudular uchta uluslarga bo'lingan
- s) Hudular ikkita uluslarga bo'lingan
- d) Hudular uluslarga bo'linmagan

3. Uyg'urlar va Chingizxon o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra mo'g'ul qo'shini Jin va Tangun imperiyalariga qarshi kurash olib boradi va uyg'urlar buning uchun mo'g'ullarga tariq yetkazib berish majburiyatini oladi. Ushbu holatda tariq nimani anglatgan?

- a) Armiyaning asosiy oziq-ovqat mahsuloti
- b) Harbiylarning ish haqi
- c) Ot-ulov uchun yem-xashak
- d) Askarlarning ish haqqisi uchun to'lov

4. Uyg'urlar va Chingizxon o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra mo'g'ul qo'shini Jin va Tangun imperiyalariga qarshi kurash olib boradi va uyg'urlar buning uchun mo'g'ullarga ipak yetkazib berish majburiyatini oladi. Ushbu holatda ipak nimani anglatgan?

- a) Harbiylarning ish haqi
- b) Armiyaning asosiy oziq-ovqat mahsuloti
- c) Ot-ulov uchun yem-xashak
- d) Chorva mollari

5. Mo'g'ullar hukmronligi davrida soliq xizmati maxsus vakillari qanday nom bilan atalgan?

- a) Baskaklar
- b) Portoriya
- c) Tributum
- d) Publikani

6. Chingizxon davrida Mo'g'uliston davlatida pul birligi qanday nomlangan?

- a) Balish
- b) Tarxon
- c) Talant
- d) Baytulumol

7. 1271 yili Mo'g'ullarning Movorounnaxrda noib hamda ijaradori Ma'sudbek qanday iqtisodiy islohotni amalga oshirdi?

a) Pul (moliyaviy) islohot o'tkazishga kirishadi. Unga ko'ra har qanday shaxs o'ziga kerakli tangalarni zarbxonalarga olib borib, ularni xohlagan tarzda, lekin bir xil hajm, qiymat va vaznda zarb etishi mumkin edi

b) Soliq siyosatini amalga oshirib, dehqonlardan qo'shimcha soliq undirgan

c) Huquq tizimida islohot olib borib o'lim jazosini bekor qilgan

d) Chorva mollaridan olinadigan soliqlarni undirishni bekor qilgan

8. 1230 yilda Mo'g'ul imperiyasi tomonidan Markaziy Osiyo va Xitoy hududlarida boj yig'ish tashkil etiladi. Unga ko'ra sharobdan necha foizlik stavkada soliq undirilgan.

a) 10% stavkada soliq undirilgan

b) 20% stavkada soliq undirgan

c) 35% stavkada soliq undirilgan

d) 0% stavkada soliq undirilgan

9. Mo'g'ullar hukmronligi davrida Kalon solig'ini kimlar to'lagan va uning miqdori qanchani tashkil etgan?

a) Dehqonlardan olinadigan asosiy soliq bo'lib, hosilning 10 foizi miqdorida undirilgan

b) Chorvadorlardan olinadigan asosiy soliq bo'lib har yuz bosh qoramoldan birga teng bo'lgan

c) Yilqiboqarlardan olinadigan asosiy soliq bo‘lib har bir otardan ikki yashar qo‘y va har ming otdan bir biyani (qimiz uchun) tashkil etgan

d) Dehqonlardan olinadigan asosiy soliq bo‘lib yem-xashak ko‘rinishida undirilgan

10. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida Shulsi solig‘ini kimlar to‘lagan va uning miqdori qanchani tashkil etgan?

a) Soliqning miqdori har bir otardan ikki yashar qo‘y va har ming otdan bir biya (qimiz uchun) miqdorida tashkil etgan

b) Chorvadorlardan olinadigan asosiy soliq bo‘lib har 10 bosh qoramoldan 3 bosh qoramol miqdorida tashkil etgan

c) Dehqonlardan olinadigan asosiy soliq bo‘lib har bir otardan bitta ot va har o‘ttiz besh otdan bir biyani (qimiz uchun) tashkil etgan

d) Dehqonlardan olinadigan asosiy soliq bo‘lib, hosilning 10 foizi miqdorida undirilgan

5-BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGIDA SOLIQ MUNOSABATLARI

§ 5.1. Amir Temurning markazlashgan davlatga asos solishi va soliq islohotlari

Markaziy Osiyoni barlos qabilasidan chiqqan Amir Temur (1336-1405-yillarda yashagan) mo'g'ullar hukmronligidan butkul ozod etadi. Yarim asr davomida u Kashmirdan O'rta dengizga, Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar cho'zilgan ulkan saltanatni barpo etadi.

Bunday ulkan yurish va istilolar uchun Amir Temurga juda katta moliya resurslari kerak edi. G'alabalardan qo'lga kiritilgan boyliklar va soliqlar harbiy yurishlarning asosiy manbai bo'lgan. Muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy ta'biri bilan aytganda, Temur davlati mamlakatning u boshidan bu boshigacha bir bolakayni oltin va javoxirot to'la patnis bilan jo'natganida ham biron-bir kishi boylikni tortib olishga qasd etmas darajasida yuksalgan. Sohibqiron Amir Temur Xitoydan G'arbiy Yevropaga qadar savdo yo'lini yanada kengaytiradi. Bundan ko'rinadiki, Amir Temur iqtisodiy siyosatining bosh omili globallashuv bo'lgan.

Temur saltanati kengayib ketgandan so'ng uning hududi amirzodalarga taqsimlab beriladi. Xususan, amirzoda Mironshoh⁴⁶ga "suyurg'ol" etilgan hududlar Old Osiyo, Kavkaz, Iroq va Barbiy Eroning hududlari bo'lib, uning maydoni qariyb 3 million kvadrat kilometrni tashkil etgan.

Pirmuhammad Mirzo⁴⁷ga topshirilgan hududlar Xuroson, Shimoliy Hindiston, Movarounnahr va Qipchoq bilan birga 7-8 million kvadrat kilometrni egallagan edi. Ana shu ulkan saltanat hududiy jihatdan

⁴⁶Mironshoh Mirzo Amir Temurning uchinchi o'g'il farzandi. Ozarbayjonni boshqarar edi. U bu yurtda ko'plab obodonlashtirish ishlari olib borgan. <https://e-tarix.uz/maqolalar/627-maqola.html>

⁴⁷Amir Temurning birinchi o'g'li Jahongir Mirzoning kichik o'g'li.

Kushonlar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar kabi imperiyalarining vorisi - ya'ni, Buyuk Ipak yo'li vorisi edi.

Bu davrda yirik va mayda feodal yer egalarining asosiy qismi **suyurg'ol** mulklarga ega edilar.

Suyurg'ol yerlar hajmi, sharti hamda yer va yorliqqa ega shaxslarning tabaqasi jihatidan turlicha bo'lgan. Odatda, shahar yoki viloyatlardan tortib to alohida qishloqqacha suyurg'ol shaklida in'om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyat ko'pincha hukmron sulola namoyandalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan.

Suyurg'ol egasiga o'z suyurg'oli doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to'lovlarni to'plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Shoxrux davrida Xorazm - Shoh Malik; Farg'ona - Mirzo Ahmad; Tus, Mashhad, Obivard, Nisoni o'z ichiga olgan Xuroson - Boysung'ur; Qobul, Bazna va Qandaxor viloyatlari Mirzo Qaydu bahodirning suyurg'oli edi. Suyurg'ol yorlig'iga ega bo'lgan viloyat hukmdorlari markaziy hokimiyatga fakat nomigagina qaram bo'lib, odatda, ular deyarli mustaqil edi. Suyurg'ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat ba'zan ular tasarrufidagi yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning ma'muriy va adliya jihatidan haq-huquqni cheklab qo'yar edi. Suyurg'ol egasi markaziy hukumatga bo'ysunmagan taqdirda suyurg'ol huquqidan mahrum bo'lar va hokim uning viloyatini boshqa shaxsga berar edi⁴⁸.

Temuriylar davrida maydoni jihatidan mayda va haq-huquqi jihatidan ancha-muncha cheklangan suyurg'ol yerlari ham bo'lgan. Bunday mayda suyurg'ol yerlari, odatda, xizmat ko'rsatgan kichik mansabdagi harbiylardan tortib, oliy hukmdorning muntazam gvardiyasidagi harbiylargacha berilgan.

Viloyat va tuman hokimlari ana shunday yerlarning to'la xo'jayinlari bo'lib, o'z hududidan soliq va o'lponlar yig'ish uchun ular


⁴⁸ Mamanazarov A. Soliq siyosati. O'quv qo'llanma. T. Moliya. 2003. 150 b.

davlat xazinasini oldida javobgar boʻlganlar. Ular Amir Temur davlatining asosiy tayanchi sifatida mulkdor yer egalari kabi aholining imtiyozli qatlamini tashkil etgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, Husayn Boyqaroning 14 minglik gvardiyasi va 40 minglik muntazam qoʻshini (kush)ning har bir askariga 80 jarib, yaʼni 40 tanob⁴⁹dan yer berilgan. Navkarlarga berilgan bu yerlardan ham soliq va toʻlovlar olinmagan.

Hukmdor soliq toʻplashning viloyatlar va uluslar tizimidan foydalangan. Bunda barcha tushumlar markaziy davlat xazinasiga toʻplanmasdan mahalliy maʼmuriy tuzilmalar ixtiyorida qoldirilgan.

Mahalliy hokimiyatlarga soliq va boshqa tushumlardan oʻzlarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda foydalanish, natura tarzidagi mol-mulklarni esa oʻz hoxish-irodalariga bogʻliq tarzda taqsimlash vakolati berilgan.



5.1-rasm. Amir Temur xazinasining tuzilishi

Temur soliqlar fondini birinchi oʻringa qoʻygan, chunki mamlakatni boshqarishda soliqlarning ahamiyati va tutgan oʻrnini chuqur mulohaza qilgan. Shu sababdan ham soliq munosabatlarining demokratik tamoyillarini rivojlantirishga harakat qilgan.

Amaldagi suyurgʻol va tarxon tizimiga koʻra har bir tuman, viloyatda soliqlar uchun javobgar vazirlar faoliyat koʻrsatgan.

⁴⁹ Maydon oʻlchovi, turli joylarda turlicha: bir gektarning oltidan biridan to yarim gektarigacha boʻlgan.

Ular amirning moliya devoniga bo'ysunib, maxsus soliq yig'uvchilarning to'plagan yig'imlarini davlat xazinasiga tushishini nazorat qilganlar.

Hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki kezlarida Temur mamlakatdagi siyosiy parokandalikni bartaraf etish uchun o'z egaligidagi mulklardan keladigan daromadlar hisobidan davlatning siyosiy mavqeini bir qadar mustahkamlab turgan. Soliqlardan tushgan mablag'larni esa asosan infratuzilmani yaxshilashga sarflagan.

Amir Temur davridan ilgari ma'lum yo'nalishlarda chinakam ehtiyoj to'liq o'rganilmasdan xarajatlar chamalab berilar edi. Oqibatda ortib qolgan mablag'lar xazinaga qaytarilmasdan ko'plab anglashilmovchiliklarga sabab bo'lib kelgan. Temur xazina xarajatlarini me'yorlashtirish borasida ham islohotlarni amalga oshiradi.

Me'yorlar, birinchi galda, sipohiyalar, lashkarboshilar va vazirliklarning lavozimli xizmatchilariga beriladigan ulufalarda o'z ifodasini topgan. Bunda, pullik normalar bilan birga moddiy normalar ham qo'llanila boshlangan.



Temur "Tuzuklar"ida aytilishicha, "Amr kildimki, amirul umaroning maoshi o'z qo'l ostidagidan o'n barobar ortiq bo'lsin. Shunga o'xshash, devonbegi va vazirlarning maoshlari amirlar maoshidan o'n barobar ko'p bo'lsin. Yasovullar, chapovullar, qalaqchilarning maoshlari o'z xizmatlariga yarasha mingdan to o'n ming tangagacha bo'lsin; ahli majlis bo'lgan sayyidlar, olimlar, fozil kishilar: hakimlar, tabiblar, munajjimlar, qissaxonlar, xabarchilar, tarixdonlarga o'z hollariga qarab, suyurg'ol, vazifa va maosh belgilasinlar. Piyodalar, xizmatchilar, farroshlarga yuzdan ming tangagacha maosh bersinlar".

Amir Temur devonida maxsus vazirliklar faoliyat olib borgan, ulardan uchinchi “Mulkchilik va soliq ishlari devoni” (vazirlik) deb atalgan. To‘rtinchisi ham moliya hamda xarajatlar tizimi bilan shug‘ullangan vazirlik bo‘lib, “Kirim-chiqimlar va xazinadan sarf qilinayotgan barcha xarajatlar hisobini olib boruvchi moliya vazirligi” deb atalgan.

Soliq ishlari devoni turli sabablarga ko‘ra egasiz qolgan mol-mulklarni nazoratga olish, savdogarlardan zakot va boj undirish, mamlakat chorvalari, o‘tloq-yaylovlarni boshqarish, ularning barchasidan tushadigan daromadlarni saqlash, mulkchilik va merosxo‘rlik tartiblarini yuritish kabi vazifalarni amalga oshirgan.

“Tuzuklar”da moliya vazirlariga tegishli diqqatga sazovor quyidagi jumlar uchraydi: “Moliya vazirlari moliya ishlarida xiyonat qilib o‘zlashtirib olgan bo‘lsalar, agar o‘zlashtirib olgan mablag‘i o‘ziga tegishli ulufa (maosh) miqdoriga teng bo‘lsa, mazkur mablag‘ unga sovg‘a – in‘om o‘rnida berilsin. Agar o‘zlashtirib olgan mablag‘i maoshidan ikki baravar ortiq bo‘lsa, ortig‘i oladigan maoshidan ushlab qolinsin. Agar maoshidan uch baravar ko‘p mablag‘ olingan bo‘lsa, hammasi saltanat xazinasiga tortiq sifatida olinsin⁵⁰”.

Yer-mulkchilikning asosiy shakllari			
Mulki devoniy (davlat yerlari)	Mulk (xususiy yerlar)	Mulki vaqf (Madrasava masjidlar tasarrufidagi yerlar)	Jamoa yerlari

5.2-rasm. Temuriylar davrida yer mulkchiligining shakllari

⁵⁰ Mamanazarov A. Soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya. 2003. – 150 bet.

Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga, avvalgidek, mamlakat hukmdorlari sulton yoki amirlar egalik qilgan.

Dehqonchilik maydonlarining ikkinchi katta qismi xususiy yerlardan iborat bo'lgan. Yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mehnatkash zirotchilarning mayda paykallari ham xususiy mulklar qatoriga kirgan. Mulk yerlarining katta qismi ma'muriy, harbiy va diniy arboblarning tasarrufida bo'lgan.

Bosh hukmdor tomonidan yirik mulk egalariга ularning biron xizmati uchun tarxonlik yorlig'i berish keng tarqalgan. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan ozod qilingan. Tarxonlik yorlig'i, odatda, amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Tarxonlik yorliqlarini faqat lashkarboshilar va harbiy mansabdorlargina emas savdogarlar ham olishlari mumkin bo'lgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga "tarxon" so'zi qo'shib aytilgan.

Tarxonlarning aksariyati juda boy bo'lgan. Masalan, bu davrda Hirot atrofidagi mulklar Darveshali Tarxon, Samarqand va Buxoro atrofidagi juda katta yerlar Abduali Tarxon qo'lida to'plangan edi. Bobur Abu Ali Tarxonning shohona hayotini tasvirlab, uning hashamatli saroyi, xizmatidagi uch ming kishidan iborat xizmatkoru navkarlari, o'tkazgan dabdabali to'y-tomoshalari, bergan qimmatbaho sovg'a-salomlari va xalqqa yetkazgan jabr-zulmlari to'g'risida yozgan⁵¹.

Temuriylar hukmronligining so'nggi davrida Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa viloyatlar dehqonlaridan hamda shahar aholisidan yig'iladigan davlat daromadlarining anchagina qismi tarxonlar qo'lida to'planib, Movarounnaxrda ular g'oyat katta kuchga aylangan edi. Mamlakatning siyosiy hayotida tarxonlarning nufuzi kuchli bo'lib, ular juda katta siyosiy huquqdan foydalanar edilar. Hatto o'zaro nizolar


⁵¹Oblomurodov N., Tolipov F.. O'zbekistonda soliqlar tarixi. T.: "Iqtisodiyot-Moliya", 2009. – 47 bet.

vaqtida tarxonning qo‘llab-quvvatlashi birorta viloyat hokimining taqdirini belgilashda ba’zan hal qiluvchi ahamiyat kasb etar edi.

XV asrda ham, avvalgi davrlardagidek, juda ko‘p yer-suv mulki masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va mozorlarga biriktirilgan mulki vaqfni tashkil etgan. Ma’lumki, Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnaxr va Xurosonda katta-katta dehqonchilik yerlari vaqf qilingan.

Odatda, yer va suvdan tashqari, ko‘plab do‘kon, korxon, tegirmon, objuvoz, bozor, karvonsaroylar ham vaqf qilinib, ulardan tushgan daromad masjid, madrasa, shifoxona va xonaqohlarning ta’miri va jixozi uchun, shuningdek, mutavalli, mudarris, tabib va talabalarga beriladigan nafaqalar hamda langarxona (musofirxona) va shifoxonalarning kundalik ehtiyoji (oziq-ovqat, yoqilg‘i va yoritkichlari) uchun sarf etilgan.

XV asrda Movarounnaxr va Xurosonda yer egalari dehqonlar, ekin maydonlariga ishlov beruvchilar esa **muzoriy** (ziroatchilar) deb yuritilgan.



5.3-rasm. Temuriylar davrida muzoriylarning tabaqalanishi

Muzoriy davlat yoki vaqf yerlarida ham, tarxon yoki suyurg‘ol egalari kabi yirik mulkdorlarning yerlarida ham yollanma ziroatchi bo‘lib dehqonchilik qilgan. Uning hosildan oladigan hissasi yer egalarining yerdan tashqari, urug‘lik, omoch, ho‘kiz, ot-arava kabilarni

berishiga qarab belgilangan. Qanday yerda dehqonchilik kilishidan qat'i nazar, muzoriy hamma vaqt soliqlarni to'lar va majburiyatlarni o'tar edi.

Amir Temur jahondagi 27 mamlakatni bosqichma-bosqich o'z davlati tarkibiga kiritib, yagona davlat safida birlashtirdi, ularning iqtisodiyoti va moliya tizimini takomillashtirdi.

Bu mamlakatlarning tabiiy sharoiti bir xil bo'lmaganidek, ularning iqtisodiy rivojlanish darajalari ham, shuningdek, aholisining turmush darajasi, mashg'uloti, boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalari ham bir xil emas edi.

Amir Temurning yagona mustahkam saltanatni shakllantirish strategiyasida moliya muammolari o'zining muhimligi bilan boshqa muammolardan ajralib turar edi.

Temur, avvalo, davlat moliyasining mo'g'ul va boshqa bosqinchilarga qaramligiga uzil-kesil nuqta qo'ydi, ulkan mamlakatning mustaqil davlat moliyasini yaratdi va uni muttasil takomillashtirib bordi.

Markazlashtirilgan davlat tarkibiga kirgan barcha mamlakatlar moliyasini bir tizimga birlashtirdi va ularni ma'muriy boshqarish talablari asosida idora qilish usullarini joriy etdi.

Qur'oni karim talablarini o'zida ifoda etgan moliya sohasidagi shariat qonunlari asosida soliq tizimi shakllantirildi. Bunda har bir mamlakat va aholining xususiyatlarini e'tiborga olib, qator imtiyozlar joriy etildi.

Davlat xazinasini resurslari va mahalliy ulus hamda tumanlar ixtiyoridagi mablag'lar tarkibiga aniqlik kiritildi, ularning markaz bilan moliyaviy munosabatlari takomillashtirildi. Shu o'rinda, aytish lozimki, Amir Temur Yevropadagi birinchi byudjet tuzilishiga (XVII asr) nisbatan taxminan uch asr avval mamlakatni idora qilishda byudjetning dastlabki kurtaklarini ishlab chiqdi va joriy qildi.

Ma'lumki, islom shariatida ham "byudjet" tushunchasi mavjud va u "baytulumol"⁵² deb yuritiladi. Shunday qilib, mayda mulklar amirlarga, uluslarga, ya'ni ikki-uchta sobiq mamlakat amirzodalariga beriladi.

⁵²Ilk "baytulumol" boy yaxudiyalar yashaydigan Xaybar kal'asi zabt etilganda (milodiy 627 yilda) vujudga kelgan.

“Suyurg‘ol” va “ulufa” o‘rtasidagi tafovut esa tarxonlar, amirlar, bahodirlar, iqtadorlar kabi harbiy amaldorlar vakolatlari va ularning mol-mulki bilan to‘ldiriladi.

Amir Temur zamonida saltanatning 40 ga yaqin shahrida, shu jumladan, Samarqandda pul zarb qiluvchi korxonalar tashkil qilingan. Bunday korxonalar daromadlarining 3/4 qismi xazinaga ajratilgan.

§ 5.2. Amir Temurning soliqqa oid qarashlari va soliq siyosatini belgilashda “Temur tuzuklari”ning o‘rni

Amir Temur turmush tajribalari asosida ishlab chiqqan va uning hukmi bilan qonun darajasiga ko‘tarilgan qoidalardan iborat to‘plam tarixiy asarlarda turli tildagi tarjimalarga mos holda “Temur tuzuklari”, “Tuzuki Temuriy”, “Temurning aytganlari”, “Voqeoti Temuriy”, “Amir Temurning boshidan kechirganlari”, “Ulojeniye Temura” deb yuritilgan. “Tuzuk” so‘zi asli eski o‘zbek tilida “qonun-qoidalar to‘plami” yoki “nizom” kabi huquqshunoslikka oid ma‘noni anglatgan.

“Tuzuklar” Temur saltanati, uning davlat tuzumi, boshqarilishi, sud qurilishiga oid juda muhim qoidalar va ma‘lumotlarni o‘zida aks ettirgan, XIV asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy voqealarni o‘rganishga oid tarixiy hujjatdir. Yuridik tilda aytganda, bu hujjat ma‘muriy-siyosiy va harbiy Kodeksdir.

U ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi tarjimai hol xarakteriga ega. Bunda 150 yil davom etgan mo‘g‘ul-chig‘atoy sulolasining istibdodidan qutulish, O‘rta Osiyodagi markazlashgan davlatni tuzish bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon etiladi.

Ikkinchi qismida esa ulkan davlatning valiahd va amirzodalar tomonidan qay tarzda boshqarilishi, yirik mansabdorlarni tayinlash, harbiy qurilish, sud yuritish, armiyani tuzish, sarflash ta‘minoti masalalarini o‘z ichiga oladi. “Saltanat qurish, davlat tutish ishlarini bir necha tuzukka bog‘ladim va saltanatda boshqarish haqida qo‘llanma yozib qoldirdim”, deb yoziladi tuzuklarda.

Temur soliq siyosatining asosiy qoidasi “Tuzuklar”da sohibqironning o‘z farzandlariga qoldirgan siyosiy vasiyatida keltirilgan: “Soliqlarni yig‘ishda xalqni soliqlar bilan ezib qo‘yishdan yoki viloyatlarni xonavayron qilishdan ehtiyot bo‘lish zarur. Zero, xalqning xonavayron bo‘lishi davlat xazinasining qashshoqlashishiga olib keladi, xazinaning nochorligi oqibatida esa harbiy kuchlar parokanda bo‘lib, bu esa o‘z navbatida hokimiyatni zaiflashtiradi”. Temurning fikriga ko‘ra, qonunni ishlab chiqishda, avvalo, xalqning manfaatlarini hisobga olish, uning to‘lov qobiliyatidan kelib chiqish zarur. Har bir alohida xo‘jalikda boy-badavlatlik darajasi soliqqa tortishga asos qilib olinishi kerak.

“Temur tuzuklari”da har qanday jamiyat uchun iqtisodiyot ustuvorligi ifodalaniib, quyidagi xulosa berilgan: “Davlatu-saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan bardamdir. Oqil vazir bularning har uchalasini yaxshi ahvolda saranjom tutadi”. Bu xulosa ko‘proq xazinaga taaluqlidir.

“Temur tuzuklari”da “xarob bo‘lib yotgan yerlarning egasi bo‘lsa-yu, lekin obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblardan va kerakli narsalar bersinlar, toki o‘z yerini obod qilib olsin” deyiladi. Unda yana shunday deyiladi: “Kimki, biron sahroni obod qilsa, yo biron bog‘ ko‘tarsa, yoki biron-bir xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa (oliq-soliq) qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘ilsin”. Ko‘rinib turibdiki, Temur davlatida fuqarolardan soliq undirib olishdan oldin, ularga albatta zarur shart-sharoitlar yaratib berish lozim bo‘lgan.

Hozirgi zamon tili bilan aytganda, davlat ixtiyoridagi xazina – ikki shakldagi jamg‘armadan tarkib topgan. Birinchisi asosiy xazina bo‘lib, bunda uzoq yillar davomida avloddan-avlodga meros bo‘lib kelgan boylik va durdonalar saqlanar edi. Ikkinchi jamg‘arma joriy xarajatlar uchun mo‘ljallangan, buning uchun mablag‘ yetishmaganda birinchi (asosiy) xazinadan “qarz” olinar edi. Yillar davomida xazinaning holati

o'zgarib turgan, ba'zan taqchillik sezilib, uni to'ldirish uchun qo'shimcha soliq va yig'imglar ham joriy etib turilgan.

Amir Temurning xazinani boshqarishdagi tartiboti shundan iborat bo'lganki, u xazinadagi birinchi jamg'armani saqlab qolgan holda ikkinchi jamg'armaning shakllanishi va sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytiradi. Har ikkala jamg'armadagi mablag'lar harakati yozib boriladigan bo'ldi. Bundan tashqari, ikkinchi jamg'arma xarajatlariga mablag'lar berish vazirlar zimmasiga yuklatildi. Har bir vazir o'ziga topshirilgan daromad va xarajatlar ustidan nazorat olib boradigan bo'ldi.

Eng muhimi markaziy xazina bilan uluslar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarga aniqlik kiritildi. Mahalliy ehtiyojlar belgilangan tartibda mablag' bilan ta'minlanadigan bo'ldi. Amir Temur aksariyat hollarda xazinaning joriy xarajatlar manbai hisoblangan ikkinchi bo'limiga alohida e'tibor bergan. Bu hol Amir Temurning soliqlar demokratik xususiyatini chuqur anglaganligidan guvohlik beradi.

§ 5.3. Temuriylar davlatchiligida soliqlar tizimi

Temuriylar davrida soliqlarni hisoblab chiqish qoidalari mavjud edi. Soliqlar yerning unumdorligiga monand ravishda belgilangan. Masalan, agar dehqon doimiy ariqlar, suv quvurlari yoki oqimlar bilan sug'oriladigan yerlarga ega bo'lsa va ana shu suvlar uzluksiz oqib tursagina mazkur yerlardan olinadigan daromadning 1/3 qismi soliq sifatida olingan. Faqat yomg'ir suvi bilan sug'oriladigan yerlar uchun esa soliq stavkasi ikki baravar past bo'lgan. Bundan ko'rinadiki stavkalar yer sifatiga, uning sug'oriladigan yoki lalmikor ekanligiga qarab tabaqalashtirilgan.

Aholi natura bilan to'lanadigan haqni pulga almashtirishlari mumkin edi. Agar fuqaro pul bilan to'lashni hojlasa, yig'imning bir qismi joriy narxlar bo'yicha baholangan.

Biroq, rasmiy soliqlar bilan bir qatorda ayrim joylarda o‘zboshimchalik bilan belgilangan soliq va yig‘imlar ham mavjud bo‘lgan.

Temur Tuzuklarida shunday deyiladi: “Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan raiyatdan molu-jihot olinmasin. Hosil yetilgach, soliqni uch bo‘lib olsinlar. Agar raiyat soliq to‘plovchi yuborilmasdan, soliqni o‘zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to‘plovchi yubormasinlar. Agar soliq yig‘uvchi yuborishga majbur bo‘linsa, ular soliqni buyruq berish va yaxshi so‘z bilan olsinlar; kaltak-arkon ishlatib ishni urish-so‘kishgacha olib bormasinlar. Ularni band etib zanjir bilan kishanlamasinlar”. Bu qoida keyinchalik Adam Smit asarlarida soliqqa tortishning qulayligi tamoyili tarzida ifodalangan.

Amir Temur davrida asosiy soliqlar sifatida yer solig‘i (molu-xiroj), jon solig‘i (juzya), miniladigan hayvonlar yetkazib berish (uloq), begar majburiyatlari va ba‘zi boshqa favqulodda soliqlar (avarizot) mavjud edi. Amir Temur o‘zining moliya va soliq qonunlarini ishlab chiqishda o‘z zamondoshlari tajribasidan ham foydalangan.

Suyurg‘ol - in‘om etilgan sovg‘a, marhamat kilingan yer-suv, mol-mulk shunday atalgan. O‘rta asrlardan boshlab, ayniqsa, Amir Temur va temuriylar hamda o‘zbek xonliklari davrida davlat va hukumat oldidagi alohida xizmatlari uchun boy-badavlat kishilar, amaldorlar, yuqori lavozim egalari hukmdorlar tomonidan in‘om etilgan yer, mol-mulk suyurg‘ol deyilgan. Bunday toifa kishilar olayotgan daromadlari uchun barcha soliq va majburiyatlardan ozod etilgan bo‘lib, mol-mulkdan o‘z ixtiyorlaricha foydalanib kelganlar. Hatto ular egalik qilgan boyliklar ajdodlardan avlodlarga meros tarzida o‘tib kelgan.

O‘rta Osiyoda suyurg‘ol tizimi Amir Temur hukmronligi davrida ancha kuchaygan bo‘lib, hukmdor davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun sarkardalar, viloyat hokimlari, beklar va boshqa hurmat-e‘tibordagi alohida toifa kishilarga dehqonchilik yerlari, yaylovlar, ariq va kanallarni suyurg‘ol tarzida in‘om etgan.

Ushbu tizimning yana bir o'ziga xos tomoni shundan iborat bo'lganki, ularni boshqargan yer egalari o'zlariga tortiq qilingan joylardagi aholidan olinadigan davlat soliqlarini to'raligicha yo ma'lum bir ulushini o'zlariga olishlari mumkin bo'lgan.

Suyurg'ol yerlar hajmi, sharti hamda yer va yorliqqa ega shaxslarning tabaqasiga qarab in'om etish jihatidan turlicha bo'lgan.

Odatda, shahar yoki viloyatlardan tortib to alohida qishloqqacha suyurg'ol shaklida in'om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyat ko'pincha hukmron sulola namoyondalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan. Suyurg'ol egasiga suyurg'ol yeri (hududi) doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to'lovlarni to'plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan.

Aholining ko'chmanchi qismidan olinadigan asosiy soliqlardan biri kopchur (kobchur) yasog'i (mugulcha kubchur), ya'ni har bosh chorvaga solinadigan soliq edi. Xon yorliqlariga qaraganda, bu soliq Munka davridan (1251 - 1260) mavjud bo'lib, chorvaning yuzdan birini tashkil etar edi⁵³. Keyinchalik bu soliq pul jarimasi bilan almashtirilgan va ko'chmanchilardan ham, o'troq aholidan ham xar 100 bosh molga 70 tanga olingan.

Oshliq - oziq-ovqat solig'i bo'lgan. Bu soliq, adabiyotlarda qayd etilishicha, faqat urush paytida olingan. Oshliq - xalq uchun eng og'ir soliq bo'lib, favqulodda hollarda joriy qilingan. Oshliqning miqdori hukmdorlar va zodagonlarning zaruratlari va harbiy talab-extiyojlariga bog'liq bo'lgan.

Barot (arabcha) - temuriylar hukmronligi davrida diniy ulamo va shayxlarga davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlari uchun ma'lum shart bilan biror mulk yoki mansabni egallash orqali xalqdan soliq to'plash, g'alla, yem-xashak yig'ish uchun berilgan maxsus yorliq yoki hujjat. Bunday hujjat olgan kishi barotdor deb atalgan.

⁵³ Axmedov V. O'zbek ulusi. – T.: Sharq, .1992. – 74-75 b.

Bu xususiyatlar esa oʻrta asr hukmdorlarining oʻzboshimchalik bilan davlat xazinasini oʻzlashtirish va oʻz manfaati yoʻlida turli ishlarni amalga oshirayotgan bir davrda soliqlarga nisbatan butunlay yangicha qarash edi.

Temur avval hukm surgan soliqlarni qoldirishga harakat qildi. Shuning uchun ham biror hududni oʻz davlatiga qoʻshib olganda yangidan-yangi soliq turlarini joriy qilmaydi. “Agar yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi boʻlsa, ularning roziligi bilan ish koʻrsinlar, aks holda (xirojni) tuzuklarga muvofiq yigʻsinlar” deyiladi Tuzuklarda. Bu, oʻz navbatida, bir tomondan, oʻsha hududni boshqarishga yengillik yaratsa, ikkinchi tomondan, bu borada oldindan mavjud boʻlgan kamchiliklarni bartaraf etishga koʻmak bergan.

Amir Temurning soliq sohasidagi islohotlarini umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin

Amir Temur tarixda birinchilardan boʻlib davlat, xalq va sipoh oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni toʻgʻri anglab yetgan	Amir Temurning “Temur tuzuklari” da soliqlarni tartibga soluvchi qonun-qoidalar yaxlit holga keltiriladi.	Soliqlardan faqatgina fiskal vazifani emas, balki davlat boshqaruvi va xalq manfaati uchun ham keng foydalanila boshlanadi	Soliqqa tortishda ragʻbatlantiruvchi instrumentlardan foydalangan holda bir qator soliq imtiyozlari joriy etiladi	Soliq yigʻuvchilarning oʻzboshimchaligi ga chek qoʻyishga imkon qadar harakat qilinadi
--	---	--	---	--

5.4-rasm. Soliq islohotlarining umumiy koʻrinishlari

Temur yasovulboshilar (soliq toʻplovchilar) xalqning ustiga yuk boʻlib yashashlariga yoʻl qoʻymasdan, ularga maosh tayinlash bilan birga bu borada qonuniy cheklovlarni ham oʻrnatadi. Mazkur qoida Adam Smit asarida soliqqa tortishning tejash tamoyili deb atalgan.


Bu haqda tuzuklarda shunday deyiladi - “Yana buyurdimki, agar amaldorlari va kalontarlari oddiy fuqaroga jabr-zulm qilsa va shu yoʻl orqali bechoraga zarar yetkazgan boʻlsa, yetkazilgan zararni kalontardan

undirib, jabr ko‘rganga bersinlar, toki ular yana o‘z hollariga kelsinlar”. Bu esa an’anaviy tarzda davom etib kelayotgan soliq sohasidagi o‘zboshimchalikka chek qo‘yishga xizmat qilgan.

Shuni aytish kerakki, chorvachilikdan keladigan daromadlar xazinaga to‘liq miqdorda o‘tmasdan, soliqning ko‘p qismi natura shaklida undirilgan. Chunki, ular hisobidan sipohlar va saroy xizmatchilari oziq-ovqat bilan ta‘minlanar edi. Ba‘zan olingan ot, tuya va boshqa hayvonlar sipohiylar hamda amaldorlar uchun ulov vositasi sifatida xizmat qilgan. Manbalarda 40 ta qo‘ydan - 1 ta qo‘y, 120 tadan 200 tagacha qo‘ydan - 2 ta, 300 qo‘ydan - 3 ta qo‘y olingani yoki bir bosh otdan ikki dinor olinganligi haqida ma‘lumotlar bor.

Shu bilan birga, ayrim manbalarda foydali qazilmalardan foydalanuvchilar uchun ham soliq yig‘ilganligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Jumladan, Xuttalondagi (hozirgi Tojikistonning Xatlon viloyati) tog‘larda oltin, kumush, qalayi, temir, mis va boshqa metallar o‘rni ko‘rsatiladi. “O‘sha viloyatda o‘lpon to‘laydigan aholi uchun eng muhim soliq oltin hisoblangan, chunki bir necha qishloqlarda soliq oltin bilan to‘lanadi” deb yozadi Maxmud ibn Vali⁵⁴.

Manbalarda sahibqiron tomonidan bir qancha soliq imtiyozlari joriy qilinganligi bayon etilgan. Bu imtiyozlar quyidagilarni o‘z ichiga olgan:



5.5-rasm. Amir Temur davrida soliq imtiyozlarining asosiy ko‘rinishlari⁵⁵

Amir Temur moliya va soliq tizimini boshqarishda quyidagi tamoyillarga asoslanib ish tutgan, degan xulosaga kelish mumkin.


⁵⁴ Ахмедова Б.А. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. Введение, примечания, указатели Т.: Красная гвардия. 1977. – С. 38 - 92.

⁵⁵ Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekistonda soliqlar tarixi. T.: “Iqtisodiyot-Moliya” 2009. – 42-67 bet.

Birinchi tamoyil – adolatparvarlik tamoyili. Soliqqa tortishning ommaviy xarakteri, soliqni fuqarolarning daromadlariga qarab taqsimlash.

Ikkinchi tamoyil – aniqlik tamoyili. Bunga asosan soliq to‘lovchiga soliq hisoblash usuli va to‘lash vaqti oldindan ma’lum bo‘lishi kerak.

Uchinchi tamoyil – soliq to‘lash va undirish aholiga qiyin bo‘lmasdan, qulay bo‘lishi kerak. Soliq fuqarolar uchun qulay vaqtda va usulda undirilishi kerak.



5.6-rasm. Amir Temur davrida soliqqa tortish jarayonini tashkil etishda qo‘llanilgan tamoyillar

To‘rtinchi tamoyil - soliqlarni tobora takomillashtirib, soliq to‘plash xarajatlarini esa kamaytirib borish tamoyili.

Bu tamoyillarni Amir Temur “Tuzuklar”da o‘ziga xos mulohaza bilan bayon qilgan. Masalan, uning fikricha, soliq hosil pishib yetilgandan keyin olinishi kerak. Bundan tashqari, Temurning tashabbusi bilan favqulodda va mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan soliqlarning bir qanchasi bekor qilinadi. Bular qatoriga sovari (oliy mansabdagi kishilarga sovg‘a uchun olinadigan), qo‘nalg‘a (elchilar va choparlar uchun mehmon puli), shilon (saroy xizmatchilari uchun sovg‘a) va boshqalar kirgan.

Amir Temur davlati moliyasini tahlil etganda markaziy va mahalliy xazinalarga tushadigan barcha to‘lovlar bilan birga, ayrim soliqsiz daromadlar ham e’tiborda tutilishi kerak. Quyida shulardan ayrimlarini keltiramiz:

- ❖ chorvachilikdan keladigan daromadlar;
- ❖ bosib olingan mamlakatlar xazinalarini musodara qilishdan keladigan daromadlar;

- ❖ oltin va kumushdan pul zarb qilishdan keladigan daromadlar;
- ❖ nodir metallarni qazib olish va ularni sotishdan keladigan daromadlar;
- ❖ bedarak yo‘qolgan shaxslardan qolgan, vorissiz mol-mulklar;
- ❖ qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalar;
- ❖ tashqi savdoni rivojlantirishdan tushgan daromadlar;
- ❖ sovg‘alar va xazinaga taqdim qilingan boshqa daromadlar.

§ 5.4. Temuriylar davrida din peshvolariga ko‘zda tutilgan imtiyozlar

O‘rta asrlar va uning oxirlaridan boshlab, Amir Temur va temuriylar davrida ham jamiyatda ayrim toifa kishilar umumdavlat va mahalliy soliqlardan butunlay va qisman ozod etilganlar. Bunday kishilar toifasi oliy musulmon jamoasi a‘zolari va Muhammad Payg‘ambar xonadonining avlodlaridan bo‘lgan sayidlar va xo‘jalar edi. Tarixiy adabiyotlarda ana shunday kishilar qatorida Xoja Axmad Yassaviy, Xoja Ahror Valiy, Buxoroda Muxammad Islom xo‘ja Sa‘d (Juybor xo‘jalari) va ularning avlodlari keltirib o‘tiladi⁵⁶.

Ma‘lumki, Xoja Ahror o‘z davrining badavlat, obro‘li, diniy ulamo hamda avliyosi sifatida tanilgan bo‘lib, butun Movarounnaxr olamida davlatning ijtimoiy-siyosiy xayotida katta nufuzga ega ekanligi bilan shuhrat qozongan edi. Ulamoning pir va avliyolik jihati bilan birga, qo‘li ostida katta miqdordagi yer-suv, mol-mulkning to‘planganligi edi.

Tarixiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, uning yirik-yirik shaharlarda karvonsaroylari, sardobalari, bozorlari, savdo rastalari, do‘konlari, hammomlari, tegirmonlari, moyjuvozlari bo‘lgan⁵⁷

⁵⁶ Чехович О.Д. Самаркандские документы в XVI-XVI вв. (о владениях Ходжи Ахрара в Средней Азии и Афганистане) факсимиле, критический текст, перевод, примечание и указатели.- Москва. 1974. Кутбаев. З.А. К истории вакуфных владений Ходжи Ахрара и его потомков. Авгореф. дисс.

⁵⁷ Mallaboev B. Chorizmping Turkistonda vak;f mulkchilik siyosati (Xuja Ahror Valiy avlodlari vak;f mulklari misolida). tarix. fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtorsferati. -T, 2004. -B. 13-21. Болпшбоев С Д. Ваkfное имущество в Туркестанском крае во второй половине XIX и в начале XX веков. Авгоре. Дисс... канд. исг. Наук. - Т., 1995 10-17,

Xo‘ja Axror Valiy va uning avlodlariga tegishli mulklar O‘rta Osiyo hamda shimoliy Afg‘oniston hududlarida 64 ta qishlok, 1300 ga yaqin turli o‘lchamdagi yer maydonlari bo‘lgan. Ul piri murshid va avlodalari garchand soliq va boshqa to‘lovlardan ozod etilgan bo‘lsada, o‘z ixtiyori bilan davlat xazinasiga va hukmdorlarga sovg‘a va ehson tariqasida doimo mol-mulkidan bir qismini har yili o‘tkazib turgan. Uning g‘alla, don va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlari bilan bog‘liq har yili davlatga to‘laydigan solig‘ining o‘zi 80 ming botmonni tashkil etgan. U daromadning ma‘lum qismini xayrli ishlarga sarflagan, oddiy xalq, beva-bechoralar, miskin-faqirlarga xayr-ehson tariqasida tarqatgan.

O‘z davrida turli ichki nizolar va o‘zaro urushlarni oldini olgan, to‘lanmagan olik-soliqlarni o‘z hisobidan to‘lab, odilona siyosat bilan sulhparvarlik qilgan. Masalan 1463 yili temuriyzoda Umarshayx Mirzo Toshkent ahlidan katta miqdorda xiroj talab qilganda, Xoja Axror uni o‘z hisobidan to‘lagan, xunarmandlar va bozor ahlidan olinadigan tamg‘a solig‘iga qarshi chiqqan. Hazrat eshon barcha soliqlardan ozod qilinganiga qaramay, ayrim yillari hamma qatori xiroj, ushr va boshqa soliqlarni to‘lab turgan. Xoja Axror har yili Sulton Axmad mirzo (1458-1494 yillari Movarounnaxr hukmdori) ning devoniga 80 ming man (botmon) g‘allani xiroj o‘rnida yuborib turgan, yiliga unga xirojning bir qismi sifatida 10 ming kumush tanga berib turgan⁵⁸.

O‘rta asrlardan boshlab, xususan, temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar davrida ham jamiyatda ayrim toifa kishilar umumdavlat va mahalliy soliqlardan batamom yoki qisman ozod etilganlar. Bunday kishilar toifasi oliy musulmon jamoasi a‘zolari va Muxammad Payg‘ambar xonadonining avlodlaridan bo‘lgan sayidlar va xo‘jalar edi.

Tarixiy adabiyotlarda ana shunday kishilar qatorida Xo‘ja Axmad Yassaviy, Xo‘ja Axror Valiy, Buxoroda Muxammad Islom xo‘ja (Juybor xo‘jalari) va ularning avlodlari keltirib o‘tiladi.

⁵⁸ Кутбаев З.А. К истории вакуфных владений Ходжи Ахрара и его потомков. Автореф. дисс..канд. ист. Наук - Т., 1970. - С. 16.

Movarounnaxrning yuksak e'tibordagi tarixiy shaxslari orasida buxorolik Jo'ybor xo'jalaridan xo'ja Muxammad Islom, xo'ja Sa'd hamda ular avlodlarining o'ziga xos nufuzi va o'rni bo'lganligini tarixiy manbalar ko'rsatadi. Buni, keyinchalik shayboniyzoda hukmdor Abdullaxon II tomonidan Muxammad Islom avlodlarini soliq, mol-xiroj masalasida hech kim bezovta qilmasligi to'g'risida farmon bergani ham isbotlaydi.

Yana bir mashxur din ulamosi Xo'ja Tojiddinning Buxoro viloyati va tumanlarida joylashgan 20 ming tanob atrofidagi yer-mulklaridan soliq olinmaganligi haqida ham ma'lumotlar mavjud. Bunday yerlar oliq-soliqlardan ozod etilganligi to'g'risida maxsus hujjatlarga ega bo'lib, ular podsho, bek, amir yoxud xonlar tomonidan tasdiqlanishi shart bo'lgan.

Jo'ybor xo'jalari o'zlarining Buxoro, Miyonqol, Samarqand, Toshkent, Savron, Turkiston, Axsikat, Nasaf, Hisor, Termiz, Qubodiyon, Balx, Badaxshon, Hirot, Marv, Murg'ob, Mashhad va boshqa joylardagi mavjud yirik yer-suvlari, behisob mol-mulklarini soliq to'lamasdan ko'plab amaldorlar yordamida boshqarganlar.

Xo'jalar o'z shaxsiy devonlari va daftarxonalarini, ya'ni barcha mulkni (jumlat ul-mulk) nazorat qilib turuvchi moliyaviy idoralarni ham tashkil qilganlar. Daftarxonada daftardor (hisobchi) va kotib kabi amaldorlar ishlaganlar. Shuningdek, ular xizmatida qushbegi, miroxur, mirishikor, mushrif, qozi bakovul, kerak yaroqchi kabi bir qator mansablar ham mavjud bo'lgan.

Xo'jalarga tobe bo'lgan ko'chmanchi qabilalar ustidan maxsus amaldor –dorug'a rahbarlik qilgan. Bundan ko'rinadiki, Jo'ybor xo'jalari ma'lum davlat idora uslubiga o'xshash boshqaruv idorasini tuzganlarki, bu o'z o'rnida ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi kuch-qudrati va mavqeidan dalolat beradi.

Beshinchi bob bo'yicha o'zini o'zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Amir Temur davlati moliya tizimi haqida tushuntirib bering?

2. Amir Temur soliqqa oid qarashlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bering?

3. Amir Temurning "Temur tuzuklari" haqida tushuncha bering?

4. Amir Temur davrida qanday soliqlar amal qilgan?

5. Amir Temur hukmronligi davrida din peshvolariga nisbatan qanday soliq siyosati olib borilgan?

6. Temuriylar davrida xazinaning soliqsiz daromadlari tarkibiga nimalar kirgan?

7. Temuriylar hukmronligi davrida amalda bo'lgan barot tizimi haqida tushuntirib bering?

8. Temuriylar hukmronligi davrida amalda bo'lgan suyurg'ol tizimi haqida tushuntirib bering?

9. Amir Temur davrida soliq imtiyozlarining asosiy ko'rinishlari qanday bo'lgan?

10. Xo'ja Ahror Valiyning soliq islohotlaridagi o'rni haqida tushuntirib bering?

Test savollari:

1. Amir Temur hukmronligi davrida davlat xazinasini tuzilishi to'g'ri ko'rsatilgan javobni tanlang?

a) Ikki qismdan tashkil topgan. Soliq va yig'imlar fondi, soliqsiz daromadlar qismidan iborat

b) Bir qismdan tashkil topgan. Faqat soliq va yig'imlar qismidan iborat

s) To'rt qismdan tashkil topgan. Daromad, xarajat, qo'shni davlatlarning homiyliklari, yerlarni sotishdan tushgan mablag'lar qismlaridan iborat

d) Amir Temur xazinasini umumiy ko'rinishga ega bo'lmagan

2. Amir Temur hukmronlik davrida maxsus devonlar faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ular o'z soxasi bo'yicha nazorat ishlarini olib borganlar. Soliq munosabatlarini tartibga soluvchi devon qanday nomlangan?

a) "Mulkchilik va soliq ishlari devoni" deb atalgan.

- b) “Kirim-chiqimlar va xazinadan sarf qilinayotgan barcha xarajatlar hisobini olib boruvchi” devon deb nomlangan
- s) “Xiroj ishlari” devoni deb yuritilgan
- d) “Mulki devoniy” deb yuritilgan

3. “Temur tuzuklari”da moliya ishlarida xiyonat qilib o‘zlashtirib olgan bo‘lsalar, agar o‘zlashtirib olgan mablag‘i o‘ziga tegishli ulufa (maosh) miqdoriga teng bo‘lsa, mazkur mablag‘..... . Jumlaning to‘g‘ri javob shaklidagi qolgan qismini belgilang?

- a) unga sovg‘a – in‘om o‘rnida berilsin
- b) undirilib uzoq hududlarga surgun qilinsin
- s) undirilish bilan birga mol-mulki musodara qilinsin
- d) undirilmasdan lavozimdan ozod etilsin

4. “Temur tuzuklari”da moliya ishlarida xiyonat qilib o‘zlashtirib olgan bo‘lsalar, agar o‘zlashtirib olgan mablag‘i o‘ziga tegishli ulufa (maosh)idan ikki baravar ortiq bo‘lsa, mazkur mablag‘..... .

Jumlaning to‘g‘ri javob shaklidagi qolgan qismini belgilang?

- a) Ortig‘i oladigan maoshidan ushlab qolinsin
- b) To‘liq miqdorda maoshidan ushlab qolinsin
- s) Undirilish bilan birga mol-mulki musodara qilinsin
- d) Undirilmasin. Lavozimdan ozod etilsin

5. “Temur tuzuklari”da moliya ishlarida xiyonat qilib o‘zlashtirib olgan bo‘lsalar, agar o‘zlashtirib olgan mablag‘i o‘ziga tegishli ulufa (maosh)idan uch baravar ko‘p mablag‘ olingan bo‘lsa, mazkur mablag‘..... . Jumlaning to‘g‘ri javob shaklidagi qolgan qismini belgilang?

- a) Hammasi saltanat xazinasiga tortiq sifatida olinsin
- b) Undirilib, uzoq hududlarga surgun qilinsin
- s) Undirilish bilan birga mol-mulki musodara qilinsin
- d) Undirilmasin. Lavozimdan ozod etilsin

6. Amir Temur davrida Oshliq qanday soliq turi bo'lgan?

- a) Oziq-ovqat solig'i bo'lgan. Bu soliq, adabiyotlarda qayd etilishicha, faqat urush paytida olingan. Oshliqning miqdori hukmdorlar va zodagonlarning zarurlari va harbiy talab-extiyojlariga bog'liq bo'lgan
- b) Yem-xashak ko'rinishidagi soliq turi hisoblangan
- s) Yer solig'i hisoblangan
- d) Hosilning 1/3 qismi miqdorida undirilgan

7. Amir Temur hukmronligi davrida Barot qanday xujjat hisoblangan?

- a) Diniy ulamo va shayxlarga davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlari uchun ma'lum shart bilan biror mulk yoki mansabni egallash orqali xalqdan soliq to'plash, g'alla, yem-xashak yig'ish uchun berilgan maxsus yorliq yoki hujjat
- b) Faqat chorvadorlardan olinadigan soliq turi hisoblangan
- s) Hunarmandlar tomonidan to'lanadigan soliq turi bo'lib, sotilgan mahsulotning 5 foizi miqdorida undirilgan
- d) Faqat dehqonlardan undiriladigan soliq hisoblangan

8. Amir Temur davrida Suyurg'ol tizimi ko'rsatib o'tilgan to'g'ri javobni tanlang?

- a) In'om etilgan sovg'a, marhamat kilingan yer-suv, mol-mulk shunday atalgan
- b) Faqat chorvadorlardan olinadigan soliq turi hisoblangan
- s) Hunarmandlar tomonidan to'lanadigan soliq turi bo'lib, sotilgan mahsulotning 5 foizi miqdorida undirilgan
- d) Faqat dehqonlardan undiriladigan soliq hisoblangan

9. Amir Temur davrida Ixrojt qanday soliq turi hisoblangan?

- a) Saroylarga qarash uchun maxsus yig'im
- b) Musulmon bo'lmagan erkaklardan olingan
- s) Masjidlarni obodonlashtirish uchun undirilgan soliq
- d) Madrasalarni obodonlashtirish uchun undirilgan soliq

10. Amir Temur davrida Peshkash qanday soliq turi hisoblangan?

- a) Yuqori mansabdagi amaldorlarga sovg'a berish uchun yig'im
- b) Musulmon bo'lmagan erkaklardan olingan soliq turi
- s) Yem-xashak ko'rinishidagi soliq turi hisoblangan
- d) Diniy ulamo va shayxlarga davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlari uchun ma'lum shart bilan biror mulk yoki mansabni egallash orqali xalqdan soliq to'plash, g'alla, yem-xashak yig'ish uchun berilgan maxsus yorliq yoki hujjat

6-BOB. O‘ZBEK XONLIKLARI DAVRIDAGI SOLIQ MUNOSABATLARI

§ 6.1. Markaziy Osiyoda Shayboniylar hukmronligi davrida soliqlar tizimining o‘zgarishi

Balxash ko‘li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan to Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo‘lgan ulkan hudud XI asrdan boshlab Dashti qipchoq deb atala boshlandi. Qipchoqlar va boshqa turkiy qabilalar hukmronligi ostida bo‘lgan bu hududni 1236 yilda Botuxon o‘zining turk-mo‘g‘ul qo‘shinlari bilan egalladi. Tarixda Oltin O‘rda deb atalgan bu davlat XIV asr boshlarida ikki qismga bo‘linib ketadi. Uning sharqiy qismi bo‘lgan Oq O‘rda tarixiy manbalarda “O‘zbeklar mamlakati” deb ham yuritilgan. XV asrning o‘rtalariga kelib, Jo‘jixonning beshinchi o‘g‘li Shayboniy urug‘idan bo‘lgan Abulxayrxon (1412-1468) ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatiga asos soladi. Bu davrda temuriylar hukmronlik qilayotgan Movarounnahrda o‘zaro urushlar nihoyatda kuchayib ketgan edi. Bundan foydalangan Abulxayrxon Sirdaryoning o‘rta oqimidagi bir qancha shaharlarni hamda Xorazmning bir qismini bosib olib, temuriylar davlatining yon qo‘shnisi bo‘lib qoladi. Abulxayrxonning vafotidan keyin inqirozga uchragan bu davlat XV asrning 80-yillarida Muhammad Shayboniyxon (1481-1510) tomonidan qayta tiklanadi.

Muhammad Shayboniyxon 1488-yili temuriylar davlatini ishg‘ol qilishni boshlaydi. 1500 – 1508-yillarda Shayboniyxon tinimsiz urushlar olib borib, Xorazm, Movarounnahr va Xurosonni qo‘lga kiritadi. 1508 yilda Jom ostonalarida temuriylarning oxirgi qo‘shini tor-mor qilingach, ularning Markaziy Osiyodagi ildizi batamom tugatildi. Kaspiydan Xitoygacha, Sirdaryo etagidan Markaziy Afg‘onistongacha bo‘lgan ulkan mamlakat Shayboniylar mulkiga aylanib qoldi.

Shu tariqa Markaziy Osiyoda yangi feodal sulola – shayboniylar sulolasi qaror topdi va ular deyarli yuz yil hukmronlik qildi.

Shayboniylarning hokimiyat tepasiga kelish jarayonida Temuriy zodagonlar, ular bilan bog‘langan oliy ruhoniylar va yer sohiblari yo‘q qilindi. Bu kabi imtiyozdor mulkdorlarning yer-mulklari va boshqa boyliklari ko‘chmanchi o‘zbek feodal zodagonlari qo‘liga o‘tdi. Biroq, Shayboniylar davlatining ijtimoiy tuzumi asosan Temuriylar davlati xususiyatlarini saqlab qoldi.

Temuriylar davridagi soliq, to‘lov va majburiyat turlari shayboniylar davrida ham saqlanib qolishi bilan birga, ularning turlari yanada ortgan. Masalan, bog‘lardan, uzumzorlardan, polizlardan, bedazorlardan olinadigan qo‘shimcha soliqlar joriy qilingan⁵⁹.

Shayboniylar davrida ham xuddi temuriylar davridagi kabi yer-suv, mol-mulklarning katta qismi viloyatlar, tumanlar ixtiyoriga o‘tkazilib, davlat oldida alohida xizmat ko‘rsatgan shaxslarga suyurg‘ol sifatida berilgan. Yer egaligining eng keng tarqalgan turi suyurg‘ol edi. Bunday yer egaligi orqali yerlarni shartli tarzda tutib turish mahalliy hukmdorlar uchun qo‘l kelgan.

Shayboniylar hukmronligida iqta tizimining nufuzi ortib borgan. O‘rta Osiyoda shartli yerga egalik “iqta” keng yoyiladi. Yer muayyan muddatga sovg‘a qilinib, “iqtdor” foydasiga ma‘lum bir daromadning to‘liq yoki bir qismi tegadigan bo‘ldi. Iqta egalari maxsus farmon bilan belgilangan tartibdagina dehqonlardan soliq undira olar edi.

Soliqlar miqdori iqta yer sovg‘a qilinganidan avval qancha bo‘lsa, shuncha bo‘lishi shart edi. Nafaqat yerni, tegirmon, hammom, bozordagi do‘kon va boshqa narsalardan tushadigan soliq yoki daromadni ham iqta tarzida berish mumkin bo‘lgan. Agarda mazkur tizimning ma‘no va mazmuni, shakllanishi va rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, “iqta” atamasi O‘rta Osiyoda XVIII asrning 20-yillariga qadar qo‘llanilgan.

⁵⁹ Bobobekov X, Karimov III. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Iqtisod-Moliya.T.: 2000. – 122 - bet

XVI-XVIII asr boshlarida Iqta hukmron sulola namoyondalari (xonlar) va yirik amirlarga ma'lum o'lka va viloyatlarning shartli ravishda in'om etilishini anglatgan.

Ularga in'om etilgan yerlarni idora qilishda keng ma'muriy va iqtisodiy huquqlar ham berilgan. Masalan, Hofiz Tanish Buxoriy o'zining "Abdullanoma" asarida shayboniy hukmdori Abdullaxonning Xuzor va Jigdalikda ov qilishiga oid voqealarini bayon etarkan (1586), quyidagi muhim ma'lumotni keltiradi: "Hukmdorning ov qilishga kelganini eshitgan noyon⁶⁰ Qambarbiy Shaxrisabzdan hukmdor oldiga kelib, uni iqta tarzida in'om qilingan Shahrizabzga taklif etdi. Taklif qabul qilinadi va janobi oliylari Shahrizabzga qarab yo'l oladi. Bazmi jamshiddan so'ng Shaxrisabzdan keladigan daromadning bir qismi Qambarbiyga berilmasligi ayon bo'ladi. Hukmdor Balxga ketishi bilanoq, Qambarbiy Shaxrisabzni tark etdi va Samarqandga, sulton Ibodullo⁶¹ oldiga oshiqdi va u yerda uning buyuk amirlari safiga



qo'shiladi. Hukmdorsiz qolgan Shaxrisabzga Shibirg'on viloyatining hokimi iqtidorli amir Abdusamadbiy tayinlanadi va unga Shaxrisabzdan tushadigan daromaddan 150 ming xoniy miqdordagi mablag'i ham beriladigan bo'ldi".


1588 – 1589-yili Balx hukmdori shayboniy Abdulmuminxon Mashxad, Sabzavor, Isfaxon va Nishopur ustiga katta yurish qiladi. Bu shaharlarni o'z tasarrufiga kiritgandan so'ng yurishda faollik ko'rsatgan amirlarga turli-tuman inoyatlar qiladi.

⁶⁰ Noyon — mo'g'ul hukmdori o'rta asrlardan boshlab XX asrning birinchi choragigacha bo'lgan davrgacha shunday nomlangan. Noyon-dastlab qadimdan shakllangan mo'g'ul urug'i sifatida talqin qilingan. Keyinchalik yuqori tabaqa vakillari sifatida e'tirof etilgan.

⁶¹ Shayboniy sultonlardan, Abdullaxon II ning inisi. Iskandarxon (1563 – 1583) va Abdullaxon II (1583-1598) hukmronligining dastlabki yillarida Samarqand hokimi bo'lgan. 1583-y. Abdullaxon bilan oralari buzilgan.

Jumladan, Shoxmuxammad bahodir Kulobdan chaqirilib olinadi va Maymana, Foryob, Xayrobod, Kaysar, Olmor viloyatlariga hukmdor qilib tayinlanadi. Ulardan xazinaga yigʻiladigan yillik soliq sohibi devon tomonidan 200 ming tanga miqdorida belgilanadi.

Ushbu maʼlumotlar shuni anglatadiki, iqta vaqtincha va shartli ravishda berilgan inʼom boʻlgan.



6.1-rasm. Koʻchmanchi chorvachilik bilan shugʻullanadigan xalqlarning majburiyatlari

Ular harbiy yurishlar vaqtida oʻz ot-ulovi, yarogʻ-aslahasi, oziq-ovqati bilan birga kelib, vaqti-vaqti bilan xoʻjayinlarini yoʻqlab turishlari, tinchlik vaqtlarida esa koʻchmanchilar oʻzlariniki bilan birga xoʻjayinning chorvalarini ham boqib, bir joydan ikkinchi joyga koʻchganda boshqa xoʻjalik ishlarida ham ularga yordam berish majburiyatiga ega boʻlganlar.

Doimiy toʻlanadigan belgilab qoʻyilgan soliq va yigʻimlar asosan quyidagilar boʻlgan 7.2 va 7.3-rasmlar orqali koʻrishimiz mumkin.

Shayboniylar davrida davlat yerlari dehqonlarga muddatsiz merosiy foydalanishga berila boshlangan va qoidaga koʻra dehqonlardan hosil miqdoriga qarab xiroj (davlat soligʻi), ekilgan yerning hajmiga qarab esa tanobona soliqlari undirilgan.

Bulardan tashqari, Abdullaxon II davriga oid hujjatlarda, masalan, uning Joʻybor xoʻjalarini yer-mulklarini har xil soliqlardan ozod qilish haqidagi 1572 yil 8 sentyabrdagi farmonida bir qancha soliqlarning

nomi keltirilgan. Olimlarning fikricha dastlabki shayboniylar vaqtidagi soliq tizimi keyinchalik forsiy atamalarga o‘zgarib borgan⁶².

Masalan, yuqoridagi hujjatda Xo‘ja Sa‘dning Marvdagi o‘ziga ilgari suyurg‘ol qilib berilgan nasliy mulklarini quyidagi soliqlar va majburiyatlardan ozod qilish ko‘rsatilgan:

- a) molu jihat - mahsulotdan olinadigan yer solig‘i;
- b) mirobona - mirob (suv amiri) foydasiga ko‘p qismi mahsulot sifatida undiriladigan majburiyat;
- v) kax - armiya ehgiyojlari uchun pichan va yem undirish;

<p>Yasoq (qubur yasog‘i) – chorva mollaridan olinadigan soliq bo‘lib, 1/100 qismi hajmida olingan, keyinchalik o‘troq aholiga ham yoyilib, yuz bosh hayvondan 70 tanga undirilgan</p>	<p>Zakot – xonlarning shaxsiy xazinasini uchun chorva boshidan undirib olinadigan soliq</p>	<p>Savoyim zakot- esa har qirq chorva boshidan birni tashkil etgan. Shahar va qishloqlarning o‘troq aholisidan olinganda esa daromadning 1/10 qismi miqdorida undirilgan</p>	<p>Oshlig‘ - oziq-ovqat solig‘i asosan o‘troq holidan urush harakatlari borayotgan davrda qo‘shinni saqlab turish uchun to‘plangan yig‘im</p>
--	--	---	--

6.2-rasm. Shayboniylar hukmronligi davrida doimiy to‘lanadigan belgilab qo‘yilgan soliqlar turlari

g) tarh – xazinaga tegishli bo‘lgan omborlardan aholining majburiy tarzda don va boshqa mahsulotlarni oshirilgan narxlarda majburiy sotib olishi (xuddi G‘arbiy Yevropa feodallarining banalitet huquqiga o‘xshaydi) hamda dehqonlarning o‘z mahsulotlarini xazinaga arzon baholarda sotishlari;

d) sabun – yer haydash va don ekish mavsumlarida aholining ma‘muriyat tomonidan majburiy safarbar etilishi (hasharga o‘xshaydi);

e) yobisat – ekin ekib jonlantirish, obod qilishga yer berish.⁶³

Bunday soliqlar umumlashtirilgan atamalarda ham uchraydi:


⁶²Ziyodulla Muqimov Shayboniylar davlati va huquqi. T.: Sharq, 2007. – 154 bet.

⁶³ Сайидахмедов И. Пнсьма Шейбанидов - важный исторический источник//Дисс. на соиск. канд. ист наук. Ташкент. стр -1992 39.

Muqarari – aniq, to‘g‘ri soliqlar;

Ixrajot – davlat apparatining xarajatlarini qoplash uchun aholidan undiriladigan har qanday yig‘imlar;

Mol (jihot) – daromaddan olinadigan asosiy soliq, xirojning turi, miqdori yerning sifati va holatiga qarab hosilning 1/3 qismi miqdorida bo‘lgan.



6.1-chizma. Shayboniylar hukmronligi davrida yig‘imlarning asosiy turlari

Bularning hammasi xon farmonlarida “amaliyot” (aholidan olinadigan soliq va majburiyatlar) deb atalgan. Bu davrda soliqlarning tushishi ustidan moliya muassasasining boshlig‘i Mustavfiy nazorat qilib turgan.

Soliq to‘lashdan bosh tortgan jamoa yoki qabila boshliqlari qattiq jazolanganlar. Hatto qatl jazosi ham qo‘llanilgan.

Abdullaxon II ning Xo‘ja Sa‘d⁶⁴ga yozgan maktublaridan birida Markaziy Afg‘oniston, Mug‘on, Darayi, Suf atroflarida yashab kelayotgan Buxoro xonligiga tobe bo‘lgan tulkichi qabilasining davlat xazinasiga muqarari (aniq belgilangan to‘g‘ri soliq) va oshlig‘ solig‘ini bajarmaganligi, ilgari esa ular Balx xonligiga tobe bo‘lgan davrida 12000 qo‘y to‘lab turganligi ko‘rsatilgan. “Bu kishilar bizga ko‘p zarar yetkazdilar, ular muqarari solig‘ini to‘lashlari lozim edi, ammo uch yilgacha to‘lamay keldilar, uning miqdori 36000 qo‘yga yetdi” - deyiladi xatda.

Abdullaxon u yerga qo‘shin yuborib tulkichi qabilasini bu ishi uchun “bosqin va talon” qilmoqchi bo‘ladi. Shunda Xo‘ja Sa‘d va Balx hokimi Nazarbiy (1572-1582) oraga tushib, xonni tinchlantiradi. Ammo “qalbimizda u qabiladan qasos olmaslikka qaror qildik” deb yozgan bo‘lsada, xon baribir aybdor shaxslarni jazolaydi.

“Ravzat ar Rizvon”⁶⁵ asarida xo‘janing o‘zi qabilalar bilan xonning orasiga tushib, ularni ba‘zan soliq va yig‘imlardan ozod qilishga erishilganligi holatlari yoziladi. Shu maqsadda turli ulus beklari tomonidan Xo‘ja Sa‘dga xatlar kelib turgan.

Shu davr hujjatlarida juda ko‘p xildagi oliq-soliqlar uchraydi, ammo boshqa davrlarda kam uchraydigan turlari ichida “himoyat” solig‘i kishini diqqatini tortadi. Unga ko‘ra amirlar, beklar tomonidan chorvadorlarni o‘z himoyasiga olish, o‘ziga qarashli yaylovlarni ularga foydalanishga berish evaziga undirilgan soliq “himoyat” deb atalgan. Hujjatlarda Jo‘ybor xo‘jalaridan Xo‘ja Tojiddinga shunday soliq to‘lab turilganligini tasdiqlaydigan ma‘lumotlar bor.

Abdullaxon II ning soliq siyosatida, bir tomondan, diniy ulamo va shayxlarning suyurg‘ol mulkini darubast rejimiga o‘tkazib (hadya, in‘om tariqasida) soliqlardan ozod qilish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ayamasdan soliq solish bo‘lganligini tasdiqlaydigan manbalar ham mavjud.

⁶⁴Xoja Sa‘d Xoja Kalon Xoja (1531-Buxoro-1589.23.10.) Jo‘ybor xojalaridan, Buxoro shayx ul islomi. Xoja Muhammad Islomnint o‘g‘li. Otasi vafotidan keyin Abdullaxon II tomonidan Buxoro shayx ul islomi qilib tayinlangan. Abdullaxon II X. S. fatvosisiz birorta jiddiy ishga qo‘l urmagan. Xoja Sa‘duddinga “Qutblar qutbi” va “Sayyidlar panohi” unvonlari berilgan.

⁶⁵ Badriddin Kashmiriyning “Ravzat ar-rizvon” asarida Jo‘ybor xojalarining ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy-siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan.

“Ravzat-ur Rizvon”da bu haqda Mahmud Sultonning Xo‘ja Sa‘dga yozgan iltimosi (arzadosht) keltirilgan. Bunda ko‘rsatilishicha, ushbu sultonning onasi Nur qishlog‘ida (Nurota) Mulk huquqi asosida ikkita koriz⁶⁶ga ega bo‘lgan. Ilgarigi Samarqand, Toshkentxon sultonlar bunday mulklardan olinadigan o‘ndan bir soliqni undirmaganlar Abdullaxon esa Nurga kelganida ushbu korizlarga daromadning 1/10 qismi miqdorida soliq solinganligini, xoja xonga buni tushuntirib soliqdan ozod etishni so‘ragan.

Tarixiy manbalarda davlatda ta‘siri kuchli bo‘lgan otaliqlarning hatto ulus xonlari vakolatlarini o‘zlashtirib, yig‘ilgan soliqlarni talon-taroj qilganliklari haqida ma‘lumotlar uchrab turadi. Bunga dastlab Termiz hokimi (1584 yildan O‘ratepa hokimi) Mahmud Sultonning Xo‘ja Sa‘dga yozgan xatida keltirilgan ma‘lumotlar guvohlik beradi. Xatda keltirilishicha, Xushi Jaloyirni Abdullaxon unga otaliq qilib (Xushbiy otaliq) tayinlashga bir yil ham bo‘lmasdan, u barcha davlat ishlarini, hatto hokim xonadonini boshqarish sarkorligi ishlarini ham o‘z qo‘liga olib, viloyatdan to‘rt yil mobaynida to‘plangan muqarrari, ixrajot, oshlig‘, mol kabi soliq va yig‘imlarni o‘zlashtirib olganligi, buning natijasida viloyatning xonavayron bo‘lganligi hamda Xo‘jadan ushbu xat mazmunidan Abdullaxonni ogoh qilib qo‘yish so‘ralgan⁶⁷.

Shunday qilib shayboniylar hukmronligi va undan keyingi o‘zbek xonliklari davrida ham yer egaligining o‘tmishda shakllangan turlari saqlanib qolishi barobarida, ulardan tushadigan soliqlar ham ma‘lum miqdorda davlat va amaldorlar xazinasini to‘ldirishda katta ahamiyat kasb etgan.

§ 6.2. Xorazm xonligida amal qilgan soliqlar va yig‘imlar

Shayboniylar hukmronligidan ajralib chiqib, 1512 yilda mustaqil Xorazm xonligi faoliyat boshlaydi.

⁶⁶ KORIZ (fors.) - yer osti suvlarini yig‘ish va ularni yer yuzasiga chiqarish uchun quriladigan yer osti inshooti. Aholini suv bilan ta‘minlash va sug‘orish maqsadlarida qo‘llaniladi. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/koriz-uz/>

⁶⁷Ziyodulla Muqimov Shayboniylar davlati va huquqi. – T.: Sharq, 2007. – 107 bet.

Xorazm xonligida ham oliq-soliqlar masalasi muhim ahamiyat kasb etgan. Xonlik tashkil topgan dastlabki davrlarda o'lon yig'ish uchun hokimlar (okrug hukmdorlari), ularning noiblari yoki qozilar mas'ul bo'lgan. Ular huzurida bojmonlar (boj yig'uvchilar) va zakot yig'uvchilar, agar o'sha yerda davlat yerlari ham bo'lsa, mushriflar (natura bilan to'lanadigan o'lonlarni yig'uvchilar, ular Buxoro amlokдорlariga muvofiq kelgan) ham xizmat qilganlar. Qishloqlarda ma'muriy mirshablik tarkibidagi barcha ishlar bilan oqsoqollar shug'ullanib, ular aholidan o'lonlar ham yig'ishgan.

Xonlikning ma'muriy va moliya-soliq apparati pul bilan ta'minlanganligi sababli o'lonlarni, ayniqsa, "daxyak"ni yig'ishda jiddiy suiiste'molchiliklar bo'lib turgan.

XVII asr boshlarida Xorazm taxti uchun bo'lgan sulolaviy kurashlardan so'ng taxtga Arab Muxammadxon (1602-1621) o'tiradi. Bu davrda Xiva xonligida ichki kurashlar, ayniqsa uning o'g'illari Habash va Elbarslarning otasiga qarshi chiqishi taxt uchun kurashni avj oldiradi. Ular otasiga qarshi kurashda muvaffaqiyat qozonadilar. Biroq, taxtga o'tirgan Elbars va Xabash sultonlar (1621-1623) ukalari Isfandiyor (1623-1643) tomonidan taxtdan tushiriladi. Taxtga chiqqan Isfandiyor davrida mamlakat siyosiy hayotidagi keskinlik saqlanib qoldi. Orol bo'yidagi o'zbek qo'ng'irotlari Isfandiyorga bo'ysunmay qo'yadilar.

So'ngra Abulg'ozixon (1643-1663) akasi Isfandiyor vafotidan keyin taxtni egallaydi. Turkman va qalmiqlarga qarshi muvaffaqiyatli urush olib borgan Abulg'ozixon Buxoro xonligi hududlariga ham talonchilik yurishlari uyushtiradi. Uzoq talashishlardan so'ng 1662-yilda Xiva va Buxoro xonlari sulh tuzishga majbur bo'ladi.

Abulg'ozixonning o'g'li Anushaxon (1663-1687) davrida ham Buxoro va Xiva o'rtasidagi urushlar davom etaveradi. Uning davrda Xiva qo'shinlari Buxoro, Samarqand, Qarshiga hujum qiladilar. 1685 yilda G'ijduvon yaqinidagi mag'lubiyatdan keyin Buxoroning Xivadagi ta'siri kuchayadi. Subhonqulixon Anushaxonga qarshi fitna uyushtirib, uning o'g'li Ernakka taxtni egallashga yordam beradi. Otasini ko'r qilib taxtni egallagan Ernak (1687) hokimiyatni uzoq vaqt saqlab qola olmadi.

Subhonqulixon Xivadagi tarafdorlari yordamida taxtga Shohniyozni (1688-1702) o‘tqazib, amalda Xivani vassal davlatga aylantiradi. Hokimiyat uchun tinimsiz kurashlar, siyosiy nizolar mamlakat iqtisodiyotini izdan chiqaradi.

Shohniyoz xonlik mavqeiga ega bo‘lgach, Rossiya hukmdori Petr I dan Xivani Rossiya tarkibiga qo‘shib olishni so‘raydi. Rus podshosi Xiva xonligini o‘rganish va tobe qilish maqsadida Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy rahbarligida Xivaga harbiy ekspeditsiyani yuboradi. Bu davrga kelib taxtga o‘tirgan Xiva xoni Sherg‘ozixon (1715-1728) 1717 yilda xonlikka tashrif buyurgan rus ekspeditsiyasini yaxshi kutib oladi. Uning maslahati bilan Bekovich-Cherkasskiy o‘z qo‘shinlarini 3 ga bo‘lib joylashtirdi. Qulay vaziyatdan foydalangan xivaliklar rus qo‘shinlarini butunlay qirib tashlaydi.

Xonlikda aholidan asosan xiroj, zakot, juz‘ya kabi soliqlar undirib olingan. Ularning miqdori shariatda belgilanganidek bo‘lgan. Biroq, soliqlardan tashqari aholi turli majburiyatlarni ham bajarishi shart edi. Xususan, kanallarni tozalash, yangilarini qazish uchun ilk bahorda o‘z yeriga ega bo‘lgan har bir xonadondan bir kishi jalb etilib, 15 kun ishlab berishi shart bo‘lgan.

Xiva xonligida xususiy yerlarga solinadigan soliq u yer qanday toifaga mansubligiga bog‘liq bo‘lgan. Yorliqli mulk, ya’ni davlat yerlaridan xon yorlig‘i bilan biror shaxsning foydalanishi uchun ajratib berilgan yorliqli xususiy yerlardan olinadigan yer

solig‘i (daxyak) o‘rniga pul tarzida (salg‘ut) olingan. Aholining qadimdan xususiy mulki hisoblangan odatdagi xususiy yerlardan ham salg‘ut olingan. Aday mulk (xalq tilida atay mulk) yerlaridan yer solig‘i emas, balki hovli puli undirib olingan. Bu soliqning miqdori soliq to‘lovchi mol-mulkining ko‘p-ozligiga qarab belgilangan⁶⁸.

Hovli puli (uy-joy solig‘i) daromad solig‘iga o‘xshash bo‘lgan. Salg‘ut to‘la davlat xazinasiga, daxyakning bir qismi esa o‘z vaqf idoralari foydasiga olingan. Savdo ishlarida belgilangan zakot yig‘imi, tarozi puli va boshqa soliqlardan tashqari, Xiva xonligining savdo

⁶⁸ Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekistonda soliqlar tarixi. – T.: Iqtisod-Moliya. 2009. – 86 bet.

markazlaridagi (Urganch, Xonqa, Xiva, Gurlan va boshqalar) savdogarlar har yili xonga “boy puli” solig‘i to‘laganlar. Xon bu soliqni hamma boy savdogarlarga o‘zi xoxlagancha solgan.

Savdo shaharlariga yorliqlar yuborilar va ularga binoan har bir shahardan xon xazinasiga qarz tariqasida ma‘lum miqdorda pul yuborilishi kerak edi. Lekin olingan bu pullar egalariga qaytarib berilmas edi. Belgilangan pul (soliq) shahar aholisiga taqsimlab undirilar edi. Bu o‘ziga xos qarz olishlar bir yilda ikki-uch marta takrorlanib turgan.

Xon hokimiyati qozoqlar va qoraqalpoqlardan chorvaning soniga qarab chorva uchun 1/40 miqdorida zakot undirib olgan. Bundan tashqari, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi poda egalaridan butunlay o‘zboshimchalik bilan undirib olinadigan soliq “torcho‘p” deb atalgan. Hatto qirg‘oq bo‘ylab joylashgan tumanlardagi yantoqni mol yegani uchun ham soliq olingan. To‘qaydan o‘tgan har bir suruvdan bir bosh qo‘y olingan.

Xiva xonligida 25 ga yaqin turli doimiy va favqulotda o‘lponlar, majburiyatlar va soliqlar bo‘lgan. Bu o‘lpon va majburiyatlarning miqdori xonning va xon amaldorlarining xoxishi bilan belgilangan.

O‘lkada chorizm istilosidan keyin “salg‘ut kesma” degan yangi soliq joriy qilinib, har qaysi uydan 20 tanga (1 so‘m) dan pul, davlat qaramog‘idagi yaylovlardan foydalanganlik uchun “cho‘p puli” olingan⁶⁹.

Qoraqalpoqlar xon xazinasiga katta soliqlar to‘lashlari kerak edi. Musulmon odatiga ko‘ra, ular zakot yo‘li bilan undirib olingan. XIX asrning o‘rtalarida 40 bosh moldan olinadigan zakot 9 so‘mga yaqin bo‘lgan, 40 bosh mayda shoxli moldan 10 abbos yoki 2 so‘m 50 tiyin olingan, keyinchalik 1 bosh moldan 1 tanga olingan⁷⁰. XIX asrning so‘nggi choragida xonlikdagi yerlardan har yili natura solig‘i yo‘li bilan 66 ming pudga yaqin don to‘plangan.


⁶⁹ O‘zbekiston SSR tarixi. T. 1957 y. 1 tom. 2 kitob. 158 b

⁷⁰ O‘zbekiston SSR tarixi. T. 1957 y. 1 tom. 2 kitob. 70 b.

Bu davrda Xiva xonligida ayrim toifa mulkdorlar soliqlardan ozod etilganligi haqidagi yorliqlarga ega bo'lganlar.

XIX asrning 80-yillarida 1800 dan ortiq mulk egalari o'lpandan ozod qilinganligi haqida yorliq oladilar. Shunday yorliqlarning aksariyati sayidlar, eshonlar, xo'jalar va boshqa din peshvolarining avlodlariga berilgan. XIX asrning oxirlarida 4 mingga yaqin diniy ulamolar va ularning avlodlari soliqlardan ozod qilingan. Ularning har birining yeri 10 tanobdan 400 tanob⁷¹ gacha bo'lgan.

1887-1893-yillarning o'zida Xiva xoni 11 ta katta feodalga 4956 tanob yerni in'om qilgan⁷².



6.3-rasm. Yerlarning toifasiga qarab soliqqa tortish

Soliq to'lovchilarning bu tartibda toifalarga bo'linishi hukmdorlar va katta yer egalari uchun foydali edi. Chunki, ular minglab tanob yerlarga ega bo'lsalarda, bir yilda faqat 3 tilla soliq to'laganlar xolos⁷³.

Xorazm xonligida xon byudjeti daromadining asosiy manbai o'troq va yarim ko'chmanchi aholining ishlov beriladigan yerlaridan olinadigan soliqlar edi⁷⁴.

⁷¹ Tanob - maydon o'lchovi, turli joylarda turlicha bo'lib, 1 tanob 1 gektarning 1/6 dan to 1/2 gacha maydonni tashkil qilgan.

⁷² Oblomurodov N., Tolipov F. O'zbekistonda soliqlar tarixi. Toshkent. IQTISOD-MOLIYA. 2009. 86 b..

⁷³ O'zbekiston SSR tarixi. T. 1957 y. 1 tom. 2 kitob. 56-57 b.

§ 6.3. Buxoro amirligining soliq tizimi va undagi o'zgarishlar

1598-yilda boshlangan ichki siyosiy nizolar natijasida Abdullaxon va uning o'g'li Abdulmo'min o'ldirildi. Keyin taxtga o'tqazilgan Pirmuhammad II ning hukmronligi uzoqqa bormadi va 1601 yilda u ham o'ldiriladi. Shu bilan shayboniylar sulolasi barham topib, Buxoro taxtiga ashtarxoniylar sulolasining vakillari o'tirishdi.

Ashtarxoniylar Jo'jixon naslidan bo'lib, Ashtarxon (Hoji Tarxon, Astraxan) va uning atrofidagi yerlar va xalqlar ustidan hukmronlik qilgan. 1556 yili Astraxanni Rusiya bosib olgach, ashtarxoniylardan Yormuhammadxon oila a'zolari va qarindosh-urug'i bilan Buxoroga keladi. Ularni Buxoro xoni Iskandarxon (Abdullaxon II ning otasi) izzat-ikrom bilan kutib oladi. Iskandarxon o'z qizi Zuhrabegimni Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek Sultonga beradi. Jonibek Sulton Zuhrabegimdan uch o'g'il (Dinmuhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad) ko'radi. Jonibek Sulton va uning o'g'illari Buxoro xonligida yuksak mavqega erishib, Buxoro xonligi viloyatlarida hokim vazifasida faoliyat yuritadilar.

1601-yilda Jonibek Sultonning o'g'li Boqi Muhammad Buxoro taxtiga o'tqazildi. Shu tariqa Buxoro xonligi tarixida yangi sulola – ashtarxoniylar hukmronligi boshlanib, 175 yil davomida mamlakat shu sulola tomonidan boshqariladi.


Ashtarxoniy hukmdorligi davrida davlat xazinasini boyitishning yagona usuli xalqdan soliqlarni ko'proq yig'ib olish deb hisoblanganligi sababli ham soliqlar soni va miqdori haddan oshirib yuborilgan. Masalan, Subhonqulixon davrida 7 yillik soliqlarni bir yilda yig'ish haqida farmon e'lon qilingan edi.

Bu aholining yanada kambag'allashuviga, yerlarning qarovsiz bo'lib qolishiga, dehqonchilik inqiroziga, narxlarning oshib ketishiga olib keldi.

Bu davrda xonlikdagi an'anaviy bo'lgan xiroj, zakot, ixrojot, boj kabi soliqlardan tashqari juda ko'plab katta-kichik soliqlar joriy etilgan.

⁷⁴Oblomurodov N., Tolipov F. O'zbekistonda soliqlar tarixi. T.: Iqtisod-Moliya. 2009. – 86 b.

Ular asosan o‘zaro nizolar tufayli tez huvillab qoladigan xazinani to‘ldirishga, qo‘shinlar ta‘minotiga, xon va saroy a‘yonlari xarajatlarini qoplashga sarflangan.



6.4-rasm. Mulk shakllari



Asosiy soliq to'lovchi dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, chorvadorlar edi.

Turli soliqlardan tashqari qishloq va shahar aholisi har xil ishlarga (kanallar qazish, ariqlarni tozalash, qurilish ishlari va boshqalar) majburan jalb etilardi.

Bundan tashqari, mazkur tadbirlar uchun sarflanadigan xarajatlar aholidan turli yo'llar bilan undirib olinar edi.

Mamlakat fuqarolari bo'lmagan savdogarlardan olinadigan soliqlar (boj) deyarli o'zgarishsiz bo'lib, ko'pincha, ularning miqdori siyosiy munosabatlarga ham bog'liq edi.

1633-1634 yillarda Imomqulixon farmoyishiga ko'ra Qo'shqo'rg'on degan joyda yangi ariq ana shu usul bilan qazilgan bo'lib, buni zamondoshlari xon sahovati emas, balki kulfat deb baholashgan.

Buxoro xonligida yerlarning ko'pchiligi feodallar tasarrufida bo'lgani uchun xon xazinasiga soliq tushumlarining juda oz qismi kelib tushgan. Bu muammoni bartaraf etish maqsadida zodagonlarni zaiflashtirish uchun Ubaydullaxon (1702-1711) ularning yer mulklariga daxl qiladi. U feodallardan yer-mulkni tortib olib, saroy ayonlariga bermoqchi bo'ladi. Biroq, u meros yerlarni tortib olib darveshlar uyushmasi madadidan mahrum bo'ladi, natijada unga qarshi fitna uyushtiriladi va 1711 yili o'ldiriladi.

Soliqlardan yana biri zakot eng muhim soliq bo'lib, uni to'lash har bir musulmon uchun besh farzning biri hisoblanardi. U mol-mulkdan olinadigan davlat solig'i hisoblanib, mol-mulk bahosining taxminan 1/40 miqdorida to'langan.

Zakot yig'implarida mollar (tovar), shuningdek, savdogarlarning mol sotib olish uchun keltirgan pullari soliq manbai hisoblangan. Shuningdek, savdogar o'z molini bir joydan ikkinchi joyga necha marta olib borgan bo'lsa, u o'z moliga shuncha marta zakot berishi kerak edi.

Bundan ko‘rinadiki, Buxoro xonligida zakot savdogarlarni juda og‘ir ahvolga tushiruvchi, mollarni iste‘mol etuvchilarni tashvishga solib qo‘yuvchi va soliq yig‘uvchilarni boyituvchi o‘ziga xos ichki bojga aylanib qolgan.

Chorvachilik tumanlarida hayvonlardan olinadigan zakot natura (besh-o‘n tuyadan bir bo‘taloq, qirq qo‘ydan bir qo‘y yoki bir echki) bilan undirilgan. Buning ustiga mahalliy hokim foydasiga zakot solig‘ining yana bir turi - “zakoti-chakana” ham undirib olingan.

XV-XVII asrlarda zakot beva-bechoralar, musofirlar foydasiga olingan bo‘lsa, XVIII asrdan boshlab xazina foydasiga olinadigan bo‘ldi. Zakot to‘lashdan bosh tortgan qabilalar ustiga qo‘shin jo‘natilib, kuch bilan zakot va ustiga omonpuli (moli omoniy) ham olingan.

Buxoro xonligida urush mahali aholidan favqulodda soliq (jul) ham yig‘ib olingan.

Mamlakat fuqarolari bo‘lmagan savdogarlardan olinadigan soliqlar (bojlar) deyarli o‘zgarishsiz bo‘lib, ko‘pincha, ularning miqdori siyosiy munosabatlarga ham bog‘liq edi.

Xon avlodi tugatilib Buxoro amirlikka aylantirilgandan so‘ng (1753-1785) soliq tizimida ham bir qancha o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Buxoro amirligida ham barcha soliqlar ichida eng kattasi xiroj bo‘lib, xonlikdagi dehqon aholiga tegishli yerlar zamini xirojijiy deb atalgan.

Xiroj – hosilning ma‘lum qismi hisobidan natura bilan to‘langan.

Xiroji vazifa – muayyan yer uchastkasidan belgilangan summada pul va ma‘lum miqdorda don bilan undirilgan.

Xiroji muqassama – hosilning mutanosib qismini to‘lash tarzida, hosilning $\frac{1}{5}$, $\frac{1}{6}$, $\frac{1}{8}$ qismi miqdorida ifodalangan. To‘lanadigan soliq hajmi esa sinov tariqasida donni yanchib ko‘rish yo‘li bilan aniqlangan.

Botmon turlicha bo‘lib, Buxoro va Samarkand shaxarlari hamda ularga tutash hududlarda u 6 pudga teng bo‘lgan. Xosil yanchib olinib, xirmon qilingach, dehqonlar uning bir qismini sotishlari mumkin bo‘lgan. Qozilar bu vaqtda g‘allaning bozordagi narxini xushyorlik bilan

kuzatganlar. Agar narx soliq to‘lanishi paytidagi narxdan yuqori bo‘lsa, farqini qoplashi uchun qo‘shimcha yig‘imlar yig‘ilgan.⁷⁵

XIX asr oxirlarida yirik shaharlar atrofida va ba’zi kichik shaharlarda xirojning bir qismi pul bilan yig‘ib olinib boshlangan. Bunda qancha xiroj to‘lanishi quyidagicha belgilanar edi:

Hosil yetilgan paytda amlokdor (soliq yig‘ishni boshqaruvchi amaldor) o‘z kishilari bilan dehqonlar dalasiga chiqib borgan. U yerda uni qishloq amini yoki oqsoqoli va dehqonlar kutib olganlar. Amlokdor dala necha tanob⁷⁶ ekanligini “ko‘z bilan chamalab” o‘lchagan va qancha xiroj to‘lanishi belgilangan. Agar dehqonlar amlokdorlarning o‘zboshimchaligiga qarshilik ko‘rsatishga harakat qilsalar, oqsoqol yoki o‘z qo‘shnilari guvohligi bo‘yicha o‘tgan yillardagi soliq ma’lumotlarini aytib, bahslashmoqchi bo‘lsalar, amlokdorlar dehqonlarni butunlay xonavayron kilishlari mumkin edi. Soliq olingach amlokdor soliq to‘lovchiga patta berib unga o‘z muhrini bosgan. Bu dehqonning yoki yer egasining soliq to‘laganligini amalda isbotlovchi hujjat hisoblangan.

Hosil o‘rilganidan keyin yanchilib, bug‘doy xirmoniga to‘kilgan bo‘lsa, unga hech kim tegmasligi uchun alohida kuzatuvchilar tomonidan maxsus loy muhrlar bilan muhrlangan.

Ko‘pincha, amlokdorlar dalaga chiqishga kechikkanlari tufayli pishib-etilgan bug‘doy tabiiy ofat natijasida kutilganidan ancha kam hosil olishga to‘g‘ri kelgan. Shunga qaramay amlokdorlar dehqonlardan belgilangan soliqning hammasini undirib olganlar.

Shunday qilib, yer solig‘ini undirib olishning hamma tizimi o‘zboshimchalikka asoslangan bo‘lib, dehqonlarni haddan tashqari xonavayron qilgan.

Dehqonchilik qiluvchi qishloq aholisi qonunlashtirilgan yer solig‘idan tashqari, har bir tanob bog‘ yoki polizga maxsus soliq – tanob puli, bedazorga esa – alaf puli to‘laganlar. Ko‘pincha, bu ikki soliq umumiy termin bilan “tanobona” deb atalgan. Bu soliqlarning miqdori

⁷⁵ Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekistonda soliqlar tarixi. Toshkent. Iqtisod-Moliya, 2009. – 83 bet.

⁷⁶ Buxoro hisobi bilan bir tanob yer 2500m² ga yaqin

yerlarning bozorlarga yaqinligi va boshqa sabablarga ko'ra turlicha bo'lgan.

Amir Muzaffar hokimiyatga kelishi bilan "aminona" atamasi bilan yuritilgan vaqtincha soliq joriy qilgan. Unga ko'ra tovar va mol-mulk narxining 1,5 foizi miqdorida soliq to'langan. Vaqt o'tishi bilan u doimiy soliqqa aylanadi va to'lovchilarning qarshiligiga qaramay 1920 yilgacha, ya'ni amirlik tugatilgunga qadar saqlanib qolgan⁷⁷.

Zakot va aminonadan tashqari, dallol solig'i, bir viloyatdan ikkinchi viloyatga olib o'tilayotgan mollar, umuman yuklardan olinadigan bojlar ham savdo yig'implari qatoriga kirgan. Molning narxi uni dastlab olib ketilgan joyidan olib borilgan joyigacha bo'lgan masofaning uzoq-yaqinligiga qarab olinadigan boj va buning ustiga zakot qo'shilishi sababli ancha oshgan. Yana ular qatoriga mollarni qayiqlarda daryolardan olib o'tgani uchun soliqlarni ham qo'shishga to'g'ri kelgan.

XIX asrning 50-yillari oxirlarida amir Nasrullo (1827-1860) davrida soliqlarga o'zgartirishlar kiritiladi. Zarafshon bo'yida bir qancha dehqonlar jamoasi polizlari o'z uylaridan uzoq bo'lgani va ularga yaqin joylardagi polizlarga qaraganda o'sha yerlarni ishlash og'irligini aytib, tanob pulini kamaytirishni iltimos qiladilar. Amir bu iltimosni qondiradi va polizdan olinadigan maxsus soliq o'rniga "qo'sh puli"ni joriy etadi.

Bunda omochga qo'shiladigan bir juft ish hayvoniga va bir mavsumda 48-50 tanob yerni ishlay olish quvvatiga qarab soliq solingan. Keyinchalik bu soliq boshqa soliqlarga qo'shimcha ravishda hamma dehqonlarga solinadigan bo'lgan.

XIX asrning o'rtalarida Samarqand tumanida yerlarning sug'orilishi, bozorga uzoq-yaqinligi va boshqalarga qarab, har bir juft ish hayvondan olinadigan qo'sh puli buxoriy tangada 1 so'm 20 tiyindan 4 so'mgacha bo'lgan⁷⁸.

Bundan tashqari ish hayvonlaridan olinadigan maxsus yig'im "**yaksara**" ham mavjud edi. Bunda har bir juft ot yoki ho'kiz hisobidan

⁷⁷ O'zbekiston SSR tarixi. T. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi. 1957 y. 4 tomli. 1 tom. 2-kitob. 42 bb.

⁷⁸ O'zbekiston SSR tarixi. T. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi. 1957 y. 4 tomli. 1 tom. 2 kitob. 42-43 bb.

bir botmon chamasida bug‘doy undirib olingan. Kimda bir bosh ish hayvoni bo‘lsa, u “nimsara” - yarim botmon bug‘doy berishi kerak edi.

Suv tegirmonlari va objuozlarning egalaridan ham ma‘lum miqdorda pul yoki natural yig‘imlar undirib olingan.

Buxoro amirligida moliya ishlariga umumiy rahbarlik qilish va nazorat qilib turish qushbegiga topshirilgan bo‘lib, u xiroj, zakot va boshqa umumdavlat soliqlaridan tushgan mablag‘lar to‘planishini kuzatib borgan.

O‘lpon yig‘ish va davlat xazinasiga kelib tushgan soliqlarni nazorat qilish bilan devonbegi (moliya vaziri) shug‘ullangan. U soliq daftari, ya‘ni – o‘lponlar ro‘yxatlarini tuzgan, unga daftardor⁷⁹ yordam bergan.

Natura tarzida to‘langan soliqlar, ya‘ni narsalar, buyumlar ham xon yoki amir xazinasiga kelib tushgan, uni nazorat kilishni arbob⁸⁰ boshqargan. Ayrim hollarda arbob xiroj yig‘ish bilan ham shug‘ullangan, bundan tashqari, elchilarni ovqat bilan ta‘minlagan, sug‘orish ishlarini nazorat qilgan.

Moliya amaldorlari devonbegi rahbarligida xon saroyining moliya hisoboti va moddiy qismi bilan shug‘ullanganlar.

Buxoro davlatida mulkchilikning asosini yer-suv tashkil etgan va yer-suv mulkchiligining uch shakli mavjud bo‘lgan:

- 1) davlat yerlari (bu amlok yerlar deb ham atalgan);
- 2) mulk yerlari (xususiy);
- 3) vaqf yerlar.

Amir Shoxmurod hukmronligidan boshlab vaqf yerlarining miqdori birmuncha ko‘paydi. Albatta bu hol xazinaga tushadigan daromadga ta‘sir etmay qolmadi. Shuning uchun amir Nasrullo (1826-1860) yarg‘u usuli, ya‘ni vaqf yerlarini musodara qilishni joriy etadi.

⁷⁹Daftardor bu, xon yoki amirning kirim-chiqimlari hamda xazinaga kelib tushuvchi soliqlarni hisoblab borgan amaldor hisoblangan. Ba‘zi joylarda daftardor xon huzurida o‘tkazilgan marosimlarga va boshqa tadbirlarga sarflangan mablag‘larni yozib borgan.

⁸⁰Bunday lavozim egasi ba‘zi joylarda soliq yig‘ish bilan ham shug‘ullangan, shu bilan birga xon xazinasiga kelib tushayotgan narsalarni nazorat qilgan.

Tokzor, mevali daraxtzorlardan tanobona olingan. 1807 yili amir Haydarning bir yorlig‘ida har tanob yerdan bir tillodan tanobona olinishi zarurligi ko‘rsatilgan. Agar ekinzor egasi tanobona to‘lashdan bosh



tortsa, hosilning uchdan bir qismi mol (xiroj) tariqasida olingan. Ba‘zida xiroj, hosilning yarmini tashkil etgan.

Shoxmurod zamonida har bir ziroatchidan qo‘sh puli (xar qo‘sh (48—50 tanob) yerdan 40 tiyin) olingan.

Shoxmurod (1785-1800) Buxoro aholisini oliq-soliqlardan ko‘p paytlar ozod qilishga harakat qildi. Bu esa savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy hayotning jonlanishiga olib keladi.

Kanallar, inshootlar, qal‘a, ko‘priklar, yo‘llar ta‘miri hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan. Boshida hasharchilar oziq-ovqat bilan ta‘minlangan. XVIII asrdan boshlab hasharga keluvchilar oziq-ovqati, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishi lozim bo‘lgan.

Olimlar, qozilar, sipohiyalar va navkarlar xiroj hamda tanobona to‘lashdan ozod etilganlar.

Amir Shoxmurod vafotidan so‘ng Buxoro taxtiga amir Xaydar (1800-1826) chiqib, otasining butun ezgu ishlarini unutib, yana turli soliqlar joriy eta boshlaydi. Tarixchi Muxammad Yoqubning so‘zlariga qaraganda, amir Haydar soliqlarni otasi davridagiga nisbatan ikki barobarga ko‘paytirdi.

Amir Xaydar ko‘prok tanxo yerlarni navkarlarga berishga hamda navkar va sarbozlarni ko‘paytirishga, mamlakatni faqat ular orqali saqlashga harakat qilgan. Tarixchi olim Muxammad Vafoiy

Karmanagiy⁸¹ “Tuxfayi xoniy” deb nomlangan mashhur asarida turli xil amaldorlarga beriladigan tanxoning miqdorini quyidagicha yozadi: “Baxodir (kichik amaldagi navkar) larga 18 dan 23 tanobgacha, mirzaboshiga 25 dan 35 gacha, qorovulbegiga 47 tanob va hokazo amaldorlarga tanxo yerlari berilgan. Eng katta amaldorlar, masalan, parvonachi, dodxoh kabilarga bir qishloqning 100 tanobgacha yerlari tanxo kilib berilgan”. Demak, tanxo amallarning past yoki yuksakligiga qarab berilgan⁸².

TANXO – xonliklar hukmronligi davrida davlat hukmdorlari tomonidan davlat oldidagi xizmatlari uchun alohida toifadagi harbiy boshliqlarga in’om etilgan yer. Tanxo egasi tanxodor yoki tanxochi deb atalgan. Ba’zi adabiyotlarda tanxo mol-mulk, pul, buyum tariqasida ham berilganligi qayd etiladi, u shartli yoki vaqtinchalik ham berilgan⁸³.

Tanxo – otadan bolasiga meros sifatida amlok yerlaridan (davlat yerlari) berilgan. Bu amlok yerlarni dehqonlar ishlab, chiqqan hosilning ma’lum miqdorini tanxo oluvchilarga tumanlardagi amlokdor va uning odamlari tomonidan belgilab berilgan. Shunday qilib, ayrim amaldorlarning o’g’illari yoki yaqin qarindoshlari, amaldor bo’lmasa tanxo yerlari ulardan olinib, shu amalga tayinlangan kishilarga berilgan. Chunki amaldorlarning ko’pchiligi davlatdan hech qanday maosh olmas edilar. Demak, tanxoning vaqtincha xizmati uchun beriladigan tanxodorlar olgan yerlarini birovga tortiq qila olmas, sota olmas, hatto meros qilib qoldira olmas edi.

Amir Xaydar davrida ba’zi amaldorlar davlatdan katta yer olganlar. ular bu yerlarni shartli in’omlar sifatida emas, balki soliqdardan ozod

⁸¹ Tarixchi olim. Muxammad Raximxon mang’itning (1167/1753-1171/1758) devon boshlig’i. Xoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. Qisqachi ma’lumotnoma. Toshkent. “ShARQ” Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririya. 2005 y. 150 bet.

⁸² Muxammad Raximxon mang’itning buyrug’i bilan yozilgan. Bu asar “Tarixi Raximxoniy” (Raximxon tarixi) nomi bilan xam yuritiladi. Kitob ikki kismdan iborat. Asarning xar ikki kismida 60 yil ichida Movarounnaxr, ayniqsa Buxoroda bo’lib o’tgan tarixiy voqealar aks ettirilgan. Kitobda yuz, yetti, baxrin, qipchoq va boshqa o’zbek urug’lari xaqidagi muhim ma’lumotlar bor.

⁸³ Oblomurodov N., Tolipov F.. O’zbekistonda soliklar tarixi. T.: Iqtisod-Moliya”, 2009. – 97 bet.

qilingan holda shaxsiy mulk sifatida olganlar. XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asr o'rtalarida yerlar tanxo sifatida in'om etilmagan.

XIX asrning 50-yillaridan boshlab Rossiya O'rta Osiyoni bosib ola boshladi. Buxoroning ma'lum qismini bosib olgach, amir juda og'ir shartnomani qabul qiladi. Rossiya bilan urush paytida amir Muzaffar aminona ("sodiq fuqarolik") deb nomlangan maxsus soliqni joriy etdi, u badavlat shaharliklar mol-mulki va tovarlar qiymatidan 1,5%ni tashkil etgan.

Vaqt o'tishi bilan u doimiy soliqqa aylandi va amirlik tugatilguncha (1920 yilgacha) hukm surdi, ba'zan hatto maxsus soliq yig'uvchilarga bu soliqni oldindan undirish huquqi ham berilgan.

Tovarlarni daryodan olib o'tganlik uchun (suv puli), bozordagi joy uchun (puli taxtajoy) kabi soliqlar ham mavjud bo'lgan.

Buxoro amirligida moliya, asosan mol-mulk solig'i bilan qushbegi poyon shug'ullangan. U ark etagida yashagani, mahkamasi shu yerda bo'lgani bois "quyi qushbegi" deb atalgan.

Davlatdagi barcha zakot yig'uvchilarning boshlig'i singari uni ham zakotchi kalon (oliy zakot yig'uvchi) deb atashgan.

Buxoro amirligida juda ko'p soliqlar va urush vaqtlari qoracherik olinar edi.

Qora cherik – Buxoro amirligida untazam qo'shin bilan barobar urush yoki tinchlik chog'ida xizmatda bo'lgan nomuntazam lashkar. Ehtiyoj bo'lmagan kezlarda Qora cherik uylariga tarqalib ketgan. Qora cherikni to'plash uchun hukmdor (amir) farmoni chiqqan va u bozorlarda jarchilar tomonidan e'lon qilingan.

Har bir qishloq, shahar, viloyatdan yig'iladigan Qora cherik miqdori ilgaridan aniq bo'lganligi bois, amir buyrug'iga binoan nomuntazam lashkar yetkazib berishda muammolar tug'ilmagan. Muntazam qo'shin otlar bilan ta'minlangan bir paytda, Qora cherik, shaxsiy ulovi bilan harbiy harakatlarda ishtirok etishi majburiy hisoblangan. Qal'a, qo'rg'onlarni muhofaza qilishda muntazam xizmatdagi askarlar soni

kamlik qilsa, Qora cherikdan foydalanilgan. Ba'zan yurishda qatnashayotgan qo'shinning deyarli yarmini Qora cherik tashkil etgan⁸⁴.

Qoracherik olinishidan xalq noroziligi kuchaya boradi. Ayniqsa, Karmanada va boshqa beklalarda xalq isyoni ko'tariladi, chunki amir Xaydarning juda ko'p turli soliqlar, qoracherik olishidan noroziliklar kuchaya boshlagan edi.

Amir Xaydar bunday isyonlardan vahimaga tushib, Karmana begi Sayid Axmadxo'jaga quyidagi maktubni jo'natadi: "Siz kiyikchi jamoasidan qoracherik berishni talab qilibsiz. Karmana fuqarolari qoracherik olin-gani uchun turli qurollar bilan chiqib isyon ko'targanlar. Shu sababli Karmana va uning atrofidagi qo'zg'olon va noroziliklarni bartaraf qiling! Siz viloyatning aholisini va urug'larning miqdorini to'g'ri hisoblang, Karmanadagi aholi va elatlar 500 ta qoracherik berishlari zarur. Ularni oilalar soni hisobiga taqsimlab chiqing".

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, mahalliy zodagonlar soliqlarni undirishda belgilangan me'yorlarga amal qilmaganlar.

Soliqlarning me'yordan ortiq belgilab undirishlari xalqning noroziligiga olib kelib, qo'zg'olon ko'tarilishiga sababchi bo'lgan ekan.

§ 6.4. Qo'qon xonligida soliq munosabatlari

Qo'qon xonligida ham O'rta Osiyo mintaqasiga xos bo'lgan yer egaligi bilan birga hunarmandchilik ham ancha rivoj topgan. Xususan, barcha yirik hunarmandchilik turlari, to'qimachilik, kulolchilik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik va boshqalar ancha yo'lga qo'yilgan.

Qo'qon temirchilari, misgarlari, Chust duppido'zlari, Rishton kulolchilik mahsulotlari, Marg'ilon ipak va shoyi buyumlari bilan shuxrat topgan bo'lib, xonlikdagi yuqori sifatli hunarmandchilik buyumlariga ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan.

Qo'qon xonligidagi moliya mahkamasi (xalq tilida o'z mamlakati mehnatkashlarini talash mahkamasi) soliq yig'uvchilarning ko'p sonli

⁸⁴ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-q/qora-cherik-uz/>

shtatlariga ega edi. Rossiyaga qo‘shilishga qadar bu yerda soliq undirishning arxaik usullari va dehqonlarni iqtisodiy majbur qilishning og‘ir usullari saqlanib qolgan.

Xonlikdagi mavjud soliqlar tizimi shariat qonun qoidalarida belgilangan tartiblarga mos kelsada, aholidan ko‘plab qo‘shimcha soliqlar va jarimalar undirib olish keng tarqalgan.

Asosiy soliq xiroj bo‘lib, u pul va mahsulot tarzida undirib olingan. Savdogarlar va chorvadorlar zakot solig‘ini to‘lashar, hunarmandlardan ham turli soliqlar, xususan, tamg‘a solig‘i olingan.

Soliq yig‘uvchi amaldorlar tanobchi (er o‘lchovchi hamda har bir tanob yerdan soliq oluvchi), zakot solig‘ini yig‘uvchi amaldorlar zakotchi deb atalgan. Soliqlar qat’iy belgilangan miqdorda va vaqtida yig‘ilishi shart bo‘lsa-da, xon va amaldorlarning ixtiyori bilan bu narsa o‘zgarib turgan.

Harbiy harakatlar paytida, ayniqsa, soliqlar turi va miqdori oshirilgan. Soliqlardan tashqari aholi majburiy ravishda turli ishlarga kanallar qazish, ariqlarni tozalash, obodonchilik ishlariga va turli qurilishlarga jalb qilingan.

G‘allazorlardan xiroj yig‘imi, uzumzorlar, polizlar, bog‘lar bilan band bo‘lgan yerlardan tanobona undirilgan, mol-mulk va chorvadan zakot olingan.

Shaxsan xonga qarashli qishloqlardan bevosita xonga beriladigan yoki xonning maxsus farmoni bilan u yoki bu a‘yonlarga ta‘minot uchun beriladigan soliq undirilgan xolos.

Odatdagi soliqlardan tashqari xonlar yangilarini ham joriy etib turganlar. Bu borada ayniqsa Xudoyorxon ajralib turgan. U ekilgan mevasiz daraxtlardan, shaharga olib kirilgan pichandan, tog‘ o‘rmonlarida yoqilgan pista va ko‘mirdan ham soliq olgan. Xudoyorxon xazinadagi yetishmovchilikni xilma-xil musodara qilishlar va chayqovchilik vositasida to‘ldirgan.

1858 yilda Qo‘qon xonligining shimoliy qismida Turkiston, Chimkent, Toshkent viloyatlarida qo‘zg‘olonlar boshlanadi. Toshkent hokimi Ahmad Parvonachining soliq yig‘ishida haddidan oshib ketganligi xalq harakatining yuz berishiga sabab bo‘ladi. U har bir qo‘y uchun 1 so‘m, bir bosh qoramol uchun 2 so‘m, tuya uchun 3 so‘m, bo‘talog‘i uchun 2 so‘m, har bir qiz turmushga chiqqani uchun 20 so‘m to‘lashni shart qilib qo‘ygan.

Qo‘qon xonligida soliqlarni yig‘ish birmuncha boshqacha bo‘lib, xirojning miqdori bug‘doy, jo‘xori va boshqa donli ekin hosilining 1/5 qismi tariqasida undirilgan.

Xirojning yana bir turi tanabona solig‘i edi. Masalan, terak, qayrag‘och ekilgan bir tanob yerdan 50 tiyin, uzum, mevazordagi har tanob yerdan 2 so‘m, piyoz, sabzi ekilgan bir tanob yerdan 1 so‘m soliq olingan.

Xiroj dastlab mahalliy hokim xazinasiga tushgan. Shu hisobdan bek ma‘muriyatni maosh bilan ta‘minlab turgan, xon talab qilganda qo‘shin to‘plab, ularga xizmat haqi to‘lagan.

Xonlikda soliq to‘lovchilarning ro‘yxati qat‘iy yuritib borilgan. Aholi rasmiy soliqlardan tashqari mirob va mulla uchun ham g‘alladan ma‘lum miqdorini berishi lozim bo‘lgan⁸⁵.

Qo‘qon xonligi Chor Rossiyasiga tobe bo‘lgandan so‘ng soliqlar miqdori keskin darajada oshib ketadi. Chunki uning xazinasini bo‘shab qolgan edi. Shuning uchun xon yangidan-yangi soliq turlarini joriy etadi. Suv puli, dallol puli, mevasiz daraxtlardan soliq, o‘tin puli, pichan, pista, ko‘mirdan olinadigan soliq va boshqalar shular jumlasidandir. Umumiy hisobda xonlikda 30 dan ortiq soliq turlari bo‘lgan.

Oltinchi bob bo‘yicha o‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Markaziy Osiyoda Shayboniylar hukmronligi davridagi soliqlar haqida tushuntirib bering?

⁸⁵ Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekistonda soliklar tarixi. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2009. – 90 bet.

2. Shayboniylar davrida tobe bo‘lgan ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullangan xalqlar qanday majburiyatlarga ega bo‘lganlar?
3. Shayboniylar davrida amalda bo‘lgan yig‘imlar haqida tushuntirib bering?
4. Xiva xoni Sherg‘ozixon Rossiya hukmdori Petr I bilan iqtisodiy munosabatlar olib borishning asl sabablari nima edi?
5. Xiva xonligida qanday soliq turlari amal qilgan?
6. Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Subxonqulixonning olib borgan soliq siyosati haqida tushuntirib bering?
7. Buxoro amirligida soliqqa tortish tartibi qanday tashkil etilgan?
8. Buxoro amirligida xiroj solig‘ining qanday shakllari bo‘lgan?
9. Tanxo tizimi haqida tushuntirib bering?
10. Qo‘qon xonligida soliqlarning qanday turlari mavjud bo‘lgan?

Test savollari:

1. Shayboniylar davrida ham xuddi temuriylar davridagi kabi yer-suv va mol-mulklar egaligining qanday tizim shakllangan edi?

- a) Suyurg‘ol
- b) Omil
- c) Satrap
- d) Shibag‘u

2. Shayboniylar davrida yer-suv va mol-mulklar egaligining keng tarqalgan turidan biri iqta qanday tizim edi?

a) Iqta XVI-XVIII asr boshlarida hukmron sulola namoyondalari(xonlar) va yirik amirlarga ma‘lum o‘lka va viloyatlarning shartli ravishda in‘om etilishini anglatgan.Ularga in‘om etilgan yerlarni idora qilishda keng ma‘muriy va iqtisodiy huquqlar ham berilgan

- b) Ish qurollari va hayvonlarni ijaraga berish tizimi
- c) Fuqarolarning mehnat tarzidagi soliq to‘lashlari
- d) Fuqarolarning ixtiyoriy tarzda hukmdorlarga oziq-ovqat mahsulotlarini tortiq qilish tizimi

3. Shayboniylar hukmronligi davrida Yasoq qanday soliq turi edi?

a) Bu soliq chorva mollaridan olinadigan soliq bo'lib, chorvaning $1/100$ qismi hajmida olingan, keyinchalik o'troq aholiga ham yoyilib, yuz bosh hayvondan 70 tanga undirilgan

b) Hukmron otlari uchun yem-xashak ko'rinishidagi soliq turi

c) Dehqonlardan undiriladigan soliq bo'lib, hosilning $1/3$ qismini tashkil etgan

d) Savdogarlardan undiriladigan soliq turi bo'lib, tovar qiymatining 3 foizini tashkil etgan

4. Shayboniylar hukmronligi davrida savoyim zakot qanday soliq turi edi?

a) Har qirq chorva boshidan birta chorvani soliq maqsadida olish miqdorida tashkil etgan. Shahar va qishloqlarning o'troq aholisidan esa daromadning $1/10$ qismi miqdorida undirilgan

b) Hukmron otlari uchun yem-xashak ko'rinishidagi soliq turi

c) Dehqonlardan undiriladigan soliq bo'lib, hosilning $1/3$ qismini tashkil etgan

d) Savdogarlardan undiriladigan soliq turi bo'lib, tovar qiymatining 3 foizini tashkil etgan

5. Shayboniylar hukmronligi davrida Oshlig' qanday soliq turi edi?

a) Oziq-ovqat solig'i bo'lib, asosan o'troq aholidan urush harakatlari borayotgan davrda qo'shinni saqlab turish uchun to'plangan yig'im

b) Savdogarlardan undiriladigan soliq turi bo'lib, tovar qiymatining 10 foizini tashkil etgan

c) Faqat dehqonlardan undiriladigan soliq bo'lib, hosilning $1/40$ qismini tashkil etgan

d) Hukmdorning maxsus farmoyishida ko'rsatilgan miqdorda undirilgan

6. Shayboniylar hukmronligi davrida Tag‘or qanday soliq turi edi?

- a) Oziq-ovqat solig‘i bo‘lib, qo‘shinning ta‘minoti uchun sarflangan. hukmdorlar tag‘orni o‘zlari xohlagan miqdorda to‘plaganlar
- b) Faqat dehqonlardan undiriladigan soliq bo‘lib, hosilning 1/40 qismini tashkil etgan
- c) Savdogarlardan undiriladigan soliq turi bo‘lib, tovar qiymatining 10 foizini tashkil etgan
- d) Hukmdorning maxsus farmoyishida ko‘rsatilgan miqdorda undirilgan

7. Shayboniylar hukmronligi davrida So‘g‘im qanday soliq turi edi?

- a) Ko‘chmanchilar qishda iste‘mol qilish uchun har yili kuzda o‘z chorvasining bir qismini so‘yib olganlar. Buni “so‘g‘um-so‘yuv” deb atashgan. Ana shu vaqtda har bir xonadon xonga va o‘z xo‘jayinlariga uning so‘g‘umi uchun yaxshi boqilgan bir chorva molini bergan
- b) Ko‘chmanchi aholidan undiriladigan soliq bo‘lib. Bug‘doy hosilining 1/30 qismini tashkil etgan.
- c) Savdogarlardan undiriladigan pul ko‘rinishidagi soliq
- d) Axolining muxtoj qismini qo‘llab-quvvatlashg maqsadida undiriladigan soliq turi

8. Shayboniylar hukmronligi davrida Shibog‘u (sibog‘u) qanday soliq turi edi?

- a) Xonlar va o‘g‘lonlar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib o‘tayotganlarida ovullarning aholisi ularga oziq-ovqat to‘plab bergan, u ko‘pincha pishirilgan go‘shdan iborat bo‘lgan
- b) Harbiylarning ish haqini berish maqsadida undirilgan to‘lov turi
- c) Hukmdor ot-ulovlarini yem-xashak bilan ta‘minlash maqsadida undirilgan
- d) Askarlarning ish haqini berish maqsadida undirilgan to‘lov

9. Shayboniylar hukmronligi davrida Sovurin qanday soliq turi edi?

a) Xonlar va o'g'lonlar bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tayotganlarida ovullarning aholisi ularga oziq-ovqat to'plab bergan, u ko'pincha pishirilgan go'shtdan iborat bo'lgan

b) Shibog'uga o'xshash, lekinu odatda qimmat baho buyumlar, pul, ot va qoramollardan iborat bo'lgan. Hatto kitoblar (masalan, Qur'onning nodir nusxalari), qullar ham peshkash(tortiq) qilingan. Sovurin ham peshkash singari bo'lib, u ko'pincha mag'lub xalqdan g'olib chiqqan xonga tortiq shaklida qaralgan

c) Faqat hunarmandlardan olinadigan to'lov turi

d) Askarlarning ish haqini berish maqsadida undirilgan to'lov

10. Shayboniylar hukmronligi davrida kax qanday soliq turi edi?

a) Armiya ehtiyojlari uchun pichan va yem undirish

b) Faqat hunarmandlardan olinadigan to'lov turi

c) Askarlarning ish haqini berish maqsadida undirilgan to'lov

d) Xonlar va o'g'lonlar bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tayotganlarida olingan to'lov turi

7-BOB. ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDAGI SOLIQ SIYOSATI

§ 7.1. Rossiya imperiyasi davrida soliq siyosatining shakllanish asoslari

Rossiya imperiyasi Turkistonni zabt etgach, o'lka iqtisodiyotini imperiya manfaatlariga xizmat qilishga yo'naltirish maqsadida amalga oshirilgan tadbirlar orasida mustamlaka o'lkada metropoliya soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash, yerga egalik munosabatlarini tartibga solish va yangi soliq tizimini barpo etish alohida ahamiyat kasb etgan. Turkiston o'lkasini boshqarish bilan bog'liq hukumat qarorlari va boshqa hujjatlarda o'lkadagi soliq siyosati tamoyillari va yo'nalishlari belgilab berilgan. Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakachilikning ilk davrlarida mustamlakadan soliq olishning ishlab chiqilishi va yer solig'i tartibiga o'zgartirishlar kiritilishi, mintaqada tashkil etilgan soliqlar tizimi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqargan omillardan biri bo'lgan.

Rossiya imperiyasining Moliya vazirligi va Turkiston ma'muriyati o'rtasidagi soliq va moliyaviy munosabatlarning rivojlanishi XIX asrning 60-80 yillarida harbiy yurishlar natijasida Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi ma'muriy boshqaruvini tashkil etishga mustamlakachilikning ilk bosqichlaridayoq; kirishilgan bo'lib, uning tashabbuskorlari ham asosan harbiylar bo'lgan.

Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida harbiy vaziyat hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ular yangi hududlar bosib olinishi bilan yuzaga kelgan va qoida tarzida "muvaqqat" xususiyatga ega edi. Chunonchi, Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini "boshqaruv to'g'risidagi nizom" 1867 yili "tajriba tarzida uch yilga" joriy qilingan. Undan tashqari, 1868 yilning iyunida

“Zarafshon okrugini boshqarish muvaqqat qoidalari”, “Farg‘ona viloyatini boshqarish bo‘yicha 1873 yil muvaqqat nizom”, “Amudaryo bo‘limini boshqarish bo‘yicha 1874 yil 21 may nizomi” ham ishlab chiqilib, qabul qilingan edi⁸⁶.

Imperator Aleksandr II tomonidan 1886 yil tasdiqlangan “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom” asosida o‘lkani boshqarish Markaziy tizimi bo‘limlari belgilandi. Unga muvofik 1-bo‘lim: Ma‘muriy nazorat; 2-bo‘lim: Moliya-xo‘jalik ishlari; 3-bo‘lim: Soliqlar va shaharlar mablag‘larini boshqarish; 4-bo‘lim: Maxsus bo‘limlardan iborat edi.

1899 yil bo‘limi uyezdlar, esa o‘lka general-gubernatorligi huzurida “Diplomatiya ishlari bo‘yicha amaldorlik” tashkil etildi. Ma‘muriy jihatdan o‘lka viloyatlar, volostlar, uchastkalar sifatida boshqariladigan bo‘ldi. Toshkent Turkiston general-gubernatorligi markaziga aylantirildi⁸⁷.

Rossiya imperiyasi Turkistonni o‘z tarkibiga qo‘shib olgach, soliqlar tizimini joriy qila boshladi. Keyinchalik soliq majburiyatlari Turkistonda o‘troq sharoitda yashayotgan dungan, uyg‘ur, rus va ukrain aholi qatlamiga ham solinadi. Soliq va yig‘imlardan tashqari, mahalliy aholi har yilda mehnat va xo‘jalik majburiyatlarini ham bajarishi shart edi.

Soliqlar shakli va hajmi bilan bog‘liq savollar, ularni xalqdan qay tarzda undirish masalalari mustamlakachi hukumat siyosatining asosini tashkil qilar edi. Ma‘muriy boshqaruv tashkilotlari, yer tuzilishi va boshqa masalalar singari, bu masalani ham asta-sekinlik bilan hal eta boshladi.

1868 yildayoq o‘lkadagi moliya xo‘jalik sohalarini nazorat qilish uchun Rossiya Davlat Nazorat kengashining tasarrufida ish yuritadigan Turkiston Nazorat palatasi tashkil etildi. Nazorat palatasining asosiy

⁸⁶ Abduraximova N.A., Ergashev F.R. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. T.: Akademiya, 2002. – 44 bet.

⁸⁷ Jo‘raev Sh., Boboev S. Mahalliy soliqlar tarixi. – Buxoro 2004. – 35 bet.

faoliyati kreditlar berish, davlat soliqlarini yig'ish, Turkistondagi turli mustamlaka boshqaruv idoralari va g'aznalarning moliyaviy hisobotini, pul muomalasiga oid hujjatlarini taftish qilish, ya'ni mablag' sarf-xarajatlari ustidan nazoratni yo'lga qo'yishdan iborat edi.

Asosan taftish funksiyasiga ega bo'lgan mazkur idora kredit berish va davlat yig'imlarini to'plash bilan shug'ullanuvchi viloyat, uyezd g'azna va boshqaruvlarining hisob-kitob daftarlari hamda pul muomalasi hujjatlarini taftish qilar, narx-navo bilan bog'liq moliya operatsiyalarining to'g'riligini tekshirar edi. Barcha davlat muassasalari Nazorat palatasiga hisobot taqdim etishlari shart edi.

Turkiston G'azna palatasi. 1869-yilda Rossiya Davlat kengashining qarori bilan Toshkentda Moliya vazirligi tasarrufida ish yurituvchi Turkiston G'azna palatasi tashkil etilgan. Uning faoliyat doirasiga Turkistonda yagona kassa tizimini joriy qilish, aksiz yig'imlarini boshqarish hamda nazorat qilish vazifalari kirgan. Aksiz sohasida amalga oshirilgan ishlar tufayli g'aznaga tushgan foyda yil sayin ko'payib borgan. Turkistonda bug'doydan olingan vino, tayyor pivo, meva va asaldan olingan aroq uchun aksiz soliqlari hamda banderol (xarid mollari ustiga yopishtiriladigan yorliq qog'ozi) va savdo-sotiq uchun beriladigan guvohnoma patenti yig'uvlaridan katta daromad mablag'i olingan.

Bundan tashqari, spirtli ichimliklar, tamaki, shakar va yoritish (fonus) yog'lariga solingan barcha aksiz soliqlari ham katta foyda keltirgan. Bu sohaning yildan-yilga kengayishi Rossiya sarmoyadorlariga katta daromad keltirgan. Mayxona va ichkilik do'konlarini ochishga ruxsat beradigan, ularning faoliyatini nazorat qiladigan ko'plab boshqaruv idoralarining amaldorlari ham bundan katta daromad ko'rgan. XX asr boshiga kelib o'lkada spirtli ichimliklarni ulgurji sotish jami 118 ta manzilda amalga oshirilgan, chakana sotish esa jami 1298 ta manzilda yo'lga qo'yilganligi bu boradagi daromad ko'lamini tasavvur qilish uchun yetarli fakt bo'lib xizmat qiladi.

Shu tariqa Turkiston Gʻazna palatasi Aksiz nazoratini 1886 yilgacha amalga oshirib kelgan. 1886-yildan esa maxsus Aksiz boshqarmasi olib borgan. Keyinchalik tamaki, gugurt, shakar, neft ishlab chiqarish va sotishga ham aksiz soliqlari joriy qilingan. Aksiz boshqarmasining hisobotida qayd etilishcha, Turkistonda oʻtkir ichimliklar savdosining keng yoyilishi Toshkent-Orenburg temir yoʻli qurilishida rus ishchilari sonining keskin ortishi, umuman, oʻlkada rus aholisining koʻpayishi, oʻlkada aroq-vino zavodlarining qurilishi hamda ichkilik sotiladigan muassasalar tarmogʻining kengayishi, harbiy qismlar, kazaklarning hamda imperiyaning ichki guberniyalaridan koʻchirib keltirilgan rus aholisining spirtli ichimliklarga talabi oshganligi bilan izohlangan.

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkistonda soliq turlari turli-tuman boʻlib, XX asr boshlarida Buxoro amirligida 86 ta, Xiva xonligida 34 ta, Qoʻqon xonligida (1876 yilgacha) 32 ta soliq turlari mavjud edi. Bu davrda oʻlkadagi soliq yigʻimlar va majburiyatlar bilan bogʻliq vazifalarni Turkiston Xazina palatasi amalga oshirar edi. Rus hukumati Turkistondagi feodal ilgʻor boʻlgan soliqlarni nisbatan anarxistik kapitalistik soliqlar tizimi sifatida tartibga soldi⁸⁸. Aynan shu paytda Turkistonda yangi davr tizimiga xos hududiy jihatdan umumdavlat va mahalliy, qonuniy jihatdan daromad soliqlari qiymat soliqlari, boj toʻlovlari, turli yigʻim hamda toʻlovlar tizimlari vujudga keladi. Rossiya imperiyasi oʻlkada soliq tizimining bunday tartibda shakllanishida 1865 yil 9 fevralda qabul qilingan “Umumrossiya savdo-sotiq qilish huquqi” qonuni hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlgan.

Rossiya imperiyasi oʻlkada boʻlgan 100 ga yaqin soliq turlarininig qayd etilgan 6 ta guruh soliqlari asosida ixchamlashtirilishi albatta, bu davrda kamayganligi sifatida qabul qilinmasligi kerak. Chunki tarixiy manbalar boʻyicha imperiya hukmronligi oʻrnatilishi davridagi “Oʻlkaning metropoliya uchun iqtisodiy ahamiyatligi” bu yerda soliqlar shakllarining koʻpayganligidan dalolat beradi.

⁸⁸ Joʻraev Sh., Boboev S. Mahalliy soliqlar tarixi. – Buxoro, 2004. – 35 bet.

Qishloq xo‘jaligida bu davrda xiroj, tanob tizimi saqlab qolingan bo‘lsa-da, bir qancha qo‘shimcha yig‘imlar qisqartirildi, lekin endilikda saqlab qo‘yilgan qishlok idoralariga soliqlarni faqatgina pul sifatida to‘lash zarur edi.

1886-yil “Turkiston o‘lkasini idora qilish to‘g‘risidagi yangi Nizom” ga ko‘ra:

- vaqfdan tashqari barcha yerlar xazinaniki deb e‘lon qilindi;
- yer jamoa-hovli sifatida foydalanishga topshirildi;
- xiroj va tanob o‘rniga oklad tizimi joriy etilib, uning muddati 6 yil deb belgilandi va uning hisobi o‘rtacha yalpi daromad bilan aniqlanadigan bo‘ldi;
- Amerika navi paxtasini kupaytirish uchun olinadigan daromad oddiy ekinlarga nisbatan 4-5 barobar ko‘p bo‘lsada, ular uchun bir xil miqdordagi imtiyozli paxta solig‘i joriy etildi.

1867-yil gubernatorlik ma‘muriyati ko‘chmanchi aholi o‘tov yig‘imini (2,75 so‘m) joriy etib, 1882-yil uni 4 so‘mga yetkazdi. U soliqlar smetasida joy egallagan bo‘lib, u 27-29, 3 % ni tashkil etardi.

1865-yil savdo va kosibchilik bilan shug‘ullanish huquqini olish uchun boj to‘lash haqidagi qonun amalda soliq tizimida zakot tizimi o‘rnin egalladi. Lekin kosibchilikning soliqlardagi salmog‘i 4,3 qismgina edi xolos.

1867-yilgi Nizomning 255-bandiga muvofiq, (1867-yil 11-iyulda qabul qilingan Yettisuv va Sirdaryo viloyatini vaqtinchalik boshqaruv holati bo‘yicha) Yettisuv va Sirdaryo viloyatida yashovchi ko‘chmanchi xalqlardan har bir o‘tov uchun - 2 rub. 75 kop. soliq olish o‘rnatilgan⁸⁹. 279-bandiga ko‘ra, Sirdaryo viloyatida o‘troq, yashayotgan aholi yetishtirgan dexqonchilik mahsulotlaridan avvalgidek xiroj va tanob soliqlari olinar edi. Xiroj yig‘ilgan hosilning o‘ndan bir (1/10) qismi hajmida olinar, tanob solig‘ining hajmi esa aniq belgilanmagan edi. Shahar va qishloqlarda soliq yig‘ish bo‘yicha - xo‘jalik jamoatchilik

⁸⁹ Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях. - СПб., 1867. – С. 49.

boshqarmasi faoliyat ko'rsatar edi. Ushbu soliqlar dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi barcha aholidan olinar edi. Yuqoridagi soliq majburiyatlaridan ayrim shaxslargina faqat imperatorning ruxsati bilan ozod qilinishi mumkin edi⁹⁰.

Nizomning 295-bandiga muvofiq, vaqf yerlari viloyat boshqarmasi hujjatlari bo'yicha soliqdan ozod qilingan yoki soliq to'laydigan yerlarga ajratilgan edi. Qaytadan taqdim qilinadigan vaqf yerlari umumjamoat soliqlari asosida o'z badallarini to'lab borishi shart edi va ushbu qoidalar asosida zemstvo yig'implari va majburiyatlarini o'tash ham belgilangan edi. 1867 yilgi nizom loyihasida mahalliy aholiga tegishli yerlarni davlat mulkiga aylantirish haqida e'lon qilinmagan edi, shuning uchun ham soliq va yig'implar nima uchun olinayotgani ko'rsatilmagan. O'lkani bosib olish hali o'z nihoyasiga yetkazilmaganligi tufayli bunday ehtiyotkorlikka rioya qilingan edi.

1870-yilda general-gubernator topshirig'iga binoan Sirdaryo viloyatining o'troq aholisidan xiroj, tanob va boshqa yig'implar olish bekor qilinib, buning o'rniga yer solig'i joriy qilindi. 1870 yilda bu soliq miqdori 288.504 rub. qilib belgilangan bo'lsa, 1871 yilda ushbu yer solig'ining miqdori 367.208 rub.ga yetkazilgan. Farg'ona viloyati aholisi soliqlarni 1876-yildan boshlab, ya'ni xonlik tugatilgandan so'ng to'lay boshlaganlar. Keyingi yillarda soliq hajmi 5 foizdan - 10 foizga oshib bordi⁹¹.

Bulardan tashqari o'lkada bu davrda zemstvo, yer hovli, o'rmon, mol-mulk, kvartira, kasalxona, uy hayvoni saqlash, temir yo'l, bandargox, harbiy konfiskatsiya, evakuatsiya kabi soliqlari va yig'implari joriy etilgan bo'lib, ular markazlashgan tizim asosida to'planar edi⁹².

Manbalarda Turkiston o'lkasi aholisi boshqa mintaqalardagiga nisbatan ko'proq, soliq to'laganligi haqidagi ma'lumotlar ham uchraydi.

⁹⁰ Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях. - СПб., 1867. - С. 53.

⁹¹ Ergashev F., Abduraximova N., Suguralieva F. Turkistonda mustamlaka moliya-xo'jalik idoralari tizimi. - Toshkent: Akademiya, 2008. - 77b.

⁹² Jo'raev Sh., Boboev S. Mahalliy soliqlar tarixi. Buxoro 2004. -36 bet

Davriy matbuot materiallaridan birida Turkiston aholisi, turli xil soliqlarni qo‘shib hisoblaganda jon boshiga 3,5 rubl miqdorida, imperiyaning boshqa joylaridagi aholi esa 1,9 rubl to‘lashi qayd etilgan⁹³.

§ 7.2. Rossiya imperiyasi davrida soliqlarning turlari

Rossiya imperiyasining soliq siyosati ham xalqni talon-taroj qilishga asoslangandi. Soliq va majburiyatlar turi juda ko‘p edi. Bu yerda shuni aytish lozimki, Imperiya o‘lkani bosib olgandan keyingi dastlabki o‘n yillikda xonlar davridagi soliq tizimini saqladi. Shu davrda xiroj va tanob soliqlari yig‘ildi (ular hosilning 1/5 va 1/3 qismi hajmidan olingan). Ko‘chmanchilarning har bir xonadonidan 3 so‘m 50 tiyin miqdorida soliq olib turildi. 1886 yilda “O‘lkani boshqarish haqida Nizom” qabul qilingandan keyin soliq tartiblariga ayrim o‘zgartirishlar kiritildi. Bunga ko‘ra suvli va bahorikor yerlarda dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi kimsalardan yalpi daromadning 10 foizi hajmida davlat yer solig‘i olinadigan bo‘ldi. Ko‘chmanchilardan esa har bir o‘tov, ya’ni xonadondan 4 so‘mdan olish joriy etilgan. O‘sha davrda davlat tomonidan belgilangan turli majburiyatlarni natura va pul bilan olish tatbiq qilinadi. Bundan tashqari savdogar va hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi kishilarga ham soliq solingan.

Shu sababli ushbu izohlardan imperiya ma’muriyati tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan soliq izohlari tafsiliga o‘tamiz. Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi nizomda barcha yerlar (vaqf yerlardan tashqari) xazinaga tegishli deb e’lon qilinadi va barcha yerlar soliqqa tortildi. Ayni vaqtda, tanobona va xiroj o‘rniga “oklad tizimi” (qat’iy belgilangan okladlar bilan soliqqa tortish tizimi) keldi, u pul munosabatlari ancha o‘sgan. Oklad solig‘i olti yilga belgilangan. Uni hisoblab chiqarish uchun o‘rtacha yalpi daromad belgilangan. Soliq miqdori uning 10 foizini tashkil etgan. O‘rtacha yalpi daromadni

⁹³ Shodmonova S. B. Turkiston tarixi – matbuot ko‘zgasida. T.: Yangi nashr, 2011. –122 bet

aniqlashda quyidagilar e'tiborga olingan: haqiqatdan ekin ekilayotgan yer maydoni; o'rtacha hosil; ular egallagan makonda asosiy bo'lgan mahsulotlarning keyingi o'n yil ichidagi mahalliy narxlar; yerning suv bilan ta'minlanganlik darajasi hisobga olinmaganligini ko'rish mumkin⁹⁴.

Bu davrda quyidagi soliqlar bo'lgan:⁹⁵

Yer solig'i - bir xil miqdordagi hosildan to'lanadigan soliq. U yer rentasi (absolyut, differensial, monopol, o'zlashtiruvchi, qurilish rentalari) sifatida olingan.

Bojxona yig'implari - chegaradan mol chiqarish, mol kiritish, tashib o'tkazishda tovarlar ro'yxati-miqdori-massasi-bahosi birligida olinadigan soliqlar, jarimalar konfiskatsiya mulklari va poshina to'lovlaridan iborat.

O'tov solig'i-ko'chmanchi aholidan olinadigan yillik soliq.

Savdo va kosibchilik solig'i-tovar ishlab chiqarish va ayriboshlash faoliyatidan olinadigan soliq. Unga tovarlashgan xizmat sohalari yig'implari ham kirgan.

Oklad solig'i - xiroj va tanob o'rniga muddati 6 yil etib belgilangan yalpi daromad solig'i.

Imtiyozli paxta solig'i - amerika navi paxtasini ko'paytirish maqsadida beriladigan imtiyozli soliq.

Zemstvo solig'i - volostlar bo'yicha yig'iladigan mahalliy soliqlar.

Yer-hovli solig'i - fuqarolar shaxsiy uy tomorqalari maydoni hisobidan olinadigan soliq.

Mol-mulk solig'i - fuqarolar shaxsiy mulklari qiymati hisobidan olinadigan soliq.

Bandargoh solig'i - yuklarni tashishda kemalardan foydalanish uchun to'lanadigan kirra hakki (Fraxt to'lovi).

Uy hayvonlarini saqlash solig'i - uy hayvonlarining har bir boshidan olinadigan profilaktik-gigiyenik soliqlar.

⁹⁴ Oblomurov N., Tolipov F. O'zbekistonda soliqlar tarixi. – T.: "Iqtisod-Moliya" 2009. – 110-bet

⁹⁵ Jo'raev Sh., Boboev S. Mahalliy soliqlar tarixi. – Buxoro, 2004. – 37-38-betlar.

Harbiy soliq-favqulotda holatlarda aholi jon boshiga olinadigan zahira solig'i.

Konfiskatsiya solig'i - musodara qilingan mulkdan mahalliy hokimiyat xarajati uchun olinadigan ulush miqdori.

Evakuatsiya solig'i - ko'chirish siyosati xarajatlarini qoplash uchun mahalliy aholi jonboshidan yig'iladigan soliqlar.

Rossiya imperiyasi davrida mahalliy aholining ijtimoiy kelib chiqishi, millati, e'tiqodidan qat'iy nazar barcha soliq va to'lovlarni to'lashga majbur bo'lganlar. Imperiya hukmronligi davrida quyidagi soliq turlari amalda bo'lgan:

- yer soliqlari
- diniy muassasalardan olinadigan soliqlar
- ijtimoiy soliqlar
- ma'muriy organlardan olinadigan soliqlar
- ishlab chiqarish (daromad soliqlari) soliqlari shular jumlasidandir.

O'z o'rnida yer soliqlari va daromad solig'i bir qancha turlarga bo'lingan. Xususan, har bir qishloq jamoasi, ovullar, volostlardagi xususiy yerlar, amlok yerlari, vaqf yerlaridan, ishlab chiqarish korxonalaridan, maktablardan, miroblardan, qishloq xo'jalik qurollaridan ham tegishli yig'img'lar olingan⁹⁶.

Agrar islohotlarni amalga oshirmasdan, soliqchilik ishlarini yaxshilab bo'lmasdi, chunki yerlarning aniq hisobi yo'qligi sababli, Rossiya imperiyasining Turkistondagi boshqarmasi vakillari fikricha, o'troq aholidan ko'chmanchi aholiga nisbatan kam soliq to'lanardi. Masalan, 1868-1883-yillarda, ya'ni 16-yil mobaynida ko'chmanchi aholidan har bir o'tov hisobiga olinadigan umumiy soliq miqdori 1364190 rub. 99 kop., mahalliy aholidan olinadigan yerdan foydalanish yig'img'lari miqdori esa - 1047882 rub., 30 kop. tashkil qilgan.⁹⁷ Bu daromadlar 1867 - 1896 yillarda 4 barobarga ko'payib, aholidan

⁹⁶ Oblomurov N., Tolipov F. O'zbekistonda soliqlar tarixi. – T.: Iqtisod-Moliya, 2009. – 102-103 betlar

⁹⁷ Обзор Семиреченской области за 1883 г. – Верный, 1884. – С. 24.

olinadigan soliqlar 1889 - 1893 yillarda 40 foizga oshdi. 1869 - 1896 yillar davomida imperiya xazinasini o'lkadan 158 mln. rubl daromad oldi⁹⁸.

Turkiston general-gubernatorligida aholidan olinadigan soliqlar miqdori oshib borgan. Jumladan, soliqlar miqdori 1870, 1871, 1872, 1873, 1879 yillarda kamayib, 1877, 1878, 1880, 1881, 1882, 1883 yillarda esa, oshib ketgan. Bu aholi sonining aniq hisobga olinmaganligi va soliq amaliyoti to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidan dalolat beradi. Bunga qaramasdan, soliqlar miqdori dinamik tarzda oshib borgan. Ayniqsa soliqlarning birdaniga oshib ketishi 1883 yilda kuzatiladi⁹⁹.

§ 7.3. Qishloq xo'jaligi sohasidagi soliq idoralarining faoliyati

Turkiston zabt etilganidan keyin o'lkada yerga egalik munosabatlarini o'zgartirish va yangi soliq tizimini joriy qilish, soliqlarning shakli, hajmi va yig'ish tartibi masalasi Rossiya imperiyasi siyosatida asosiy o'rinni egallagan va keng doiradagi bahs-munozaraga sabab bo'lgan edi. Yerga egalik munosabatlari va soliqlar masalasida ikki xil fikr tarafdorlari mavjud bo'lib, Turkistonning birinchi general-gubernatori K.Kaufman barcha yerlarni davlat ixtiyoriga olib berish va ulardan jamoa tarzida foydalanish lozim deb hisoblashini bildirgan¹⁰⁰. U o'z boshqaruvining oxiriga qadar shu fikrda qolgan va uni amaliyotga tadbiiq etishga harakat qilgan. Rossiya hukumatining boshqa vakillari unga qarshi chiqib, K.Kaufmannning fikrini xususiy mulkni rad etish sifatida baholaganlar. Ular aynan xususiy mulk kelajakda Turkistonning rivojlanish omili bo'lishi lozimligini uqtirganlar¹⁰¹.

Xonliklar davrida davlat mulki hisoblangan katta-katta yer maydonlari Rossiya davlat xazinasiga tegishli deb e'lon qilindi. Vaqf

⁹⁸ Стеткевич А. Убыточен ли Туркестан для России? – СПб., 1889. – С. 7.

⁹⁹ Обзор Семиреченской области за 1883 г. – Верный, 1884. – С. 24.

¹⁰⁰ Jumaev U.X. Rossiya imperiyasining Turkistondagi soliq siyosatining shakllanishi: asosiy bosqichlari va taraqqiyoti. Tarix. fan. bo'yicha fal. dokt. (PhD) diss. ... avtoref. – T.: 2012. – 21 bet.

¹⁰¹ Центральная Азия в составе Российской империи. – М.: Новое литературное обозрение, 2008. – С.138.

mulklari ham asta-sekin davlat ixtiyoriga olindi. Xususiy mulk hisoblangan yerlar ham davlat mulkiga aylantirildi, ularni egalariga merosiy ravishda foydalanishga berildi va soliq solindi. Ijaraga yer olib, amalda undan foydalanib kelayotgan xonadonlarga o'sha yerlar meros qilib biriktirildi va ularga soliq solindi. Shu tariqa o'lkaning barcha hosildor yerlari Rossiyaning daromad manbaiga aylantirildi. Yer solig'i XIX asr oxirida 4 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1916 yilda 38 million so'mdan oshib ketdi.

Turkiston o'lkasida yer-soliq mahkamalarini tuzishga Rossiya imperiyasi hukumati juda katta e'tibor berib, o'z islohotlarining birinchi qadamlaridanoq mahalliy aholining yerdan foydalanishini yo'lga qo'yish borasida faoliyat olib borgan¹⁰².

Turkistonda Rossiya imperiyasi hukmronligi o'rnatilganiga qadar bo'lgan vaqt mobaynida mahalliy yer egalaridan soliqlar undirish, barcha turdagi yerlardan foydalanishni nazorat qilish xonning zimmasida edi. U davlatga harbiy va fuqarolik xizmatlarini o'tashda jonbozlik ko'rsatgan shaxslarga yerning ma'lum ulushini berish huquqiga ega bo'lgan. Natijada yer egaligining mulk va vaqf shakllari yuzaga kelgan. Turkistonda yerning aholi o'rtasida taqsimlanishi juda notekis bo'lib, katta yer egalarining soni ko'pchilikni tashkil qilgan va bu mulk 200 - 400 tanobdan iborat bo'lgan¹⁰³. Xon tomonidan berilgan yerdan ketma-ket uch yil davomida foydalanilmasa, mazkur yer yana davlatning bo'sh yerlari hisobiga kiritilgan. Davlat yerlari o'z navbatida, xon tasarrufida bo'lgan podsholik va aholi foydalanishiga berilgan amlok yerlarga bo'lingan. Amlok yerlarga ekin ekkan dehqon davlatga turli soliqlar to'lagan, jamoa yoki alohida shaxslar foydalanilmaydigan yerlarga suv chiqarib ishlatsa, bunday yerlar ularga davlat mulki sifatida berilgan. Ular bu yerdan merosiy foydalanish huquqiga ega bo'lishgan. Imperiyaning olib borgan siyosati natijasida har qanday yo'l bilan bo'lsa ham unumdor yerlarni rus dehqonlariga ajratib berishga harakat qilgan

¹⁰² Пален К.К. Поземельно-податное дело. - СПб., 1910. Папка 2, документ 3. - С. 3.

¹⁰³ Bir tanob - 600 kv.s.ga teng bo'lib, turli joylarda har xil: 1/6dan U 2 gektargacha bo'lgan yer maydoni.

va yer soliqlarini oshirib yig'ib mahalliy aholining o'z yerlarini sotishga majbur etgan. Bunday bo'sh turgan yerlar birinchi navbatda harbiy xizmatdan bo'shagan askarlarga, Rossiyadan ko'chib kelayotgan dehqonlarga beriladi.

Ta'kidlash kerakki, sotib olingan va suv chiqarilgan yoki davlat tomonidan berilgan har bir yer uchun aholiga tegishli hujjatlar berilgan.

O'lka xalqlaridan olinadigan soliqlar shakli, miqdori va ularni yig'ish usullari imperiya mustamlaka siyosatining asosini tashkil qilgan.

Bu ish sekin-asta boshqa muammolar, ya'ni siyosiy-ma'muriy tuzilish, yerdan foydalanish kabi muhim masalalar bilan birgalikda hal qilib borilgan.

O'rta Osiyo xonliklari bosib olinishining dastlabki yillarida mustamlaka ma'muriyati bir necha turdagi soliq majburiyatlarini kiritish bilan chegaralangan. Chunonchi, "Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish to'g'risidagi 1867 yil 11 iyuldagi vaqtinchalik Nizom"ning bandlariga muvofiq, o'troq aholidan avvaldan olingan xiroj va tanob soliqlari quyidagicha amalga oshirilgan: 280-bandida xiroj solig'i avvalgi shu soliq yig'implari olingan yerlardan olinishi, 281-band bo'yicha xiroj solig'i hosilning 1/10 qismi miqdorida yig'ilishi qayd etilgan¹⁰⁴.

"Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish to'g'risidagi 1867 yil 11 iyuldagi vaqtinchalik Nizom"ning bandlarida quyidagilar ta'kidlangan:

Tanob solig'i ham avvalgi shu soliq yig'implari olingan yerlardan olinadi, tanob solig'ining hajmi o'lka general-gubernatori tomonidan belgilanadi (282-band);

Soliq yig'implarini yig'ish shahar va qishloq xo'jalik jamoa boshqarmalari zimmasiga yuklanadi (283-band);

¹⁰⁴ Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях. - СПб., 1867. - С. 53.

Xo‘jalik-jamoa boshqarmalari o‘zlariga tegishli huquqlaridan foydalanib, xiroj va tanob soliqlari yig‘imlarini o‘tkazish uchun ma’lumot to‘plashlari kerak (284-band);

G‘aznaga topshiriladigan xiroj va tanob soliqlarining hisoboti xo‘jalik-jamoat boshqarmalari uyezd boshlig‘iga topshirishi, uyezd boshlig‘i esa ushbu yuqoridagi soliqlar hisobotini harbiy gubernatorga taqdim etishi lozim (285-band).

Shuningdek, Nizomning 286-bandiga binoan, harbiy gubernator o‘zida mavjud bo‘lgan har bir uyezdagi ziroatchilik mahsulotlarining qiymatlari hisobotini - xiroj yig‘imlarini o‘tkazish uchun o‘lka general-gubernatoriga taqdim etar, qonunning 287-bandi bo‘yicha esa, yuqoridagi banddagi ma’lumotlar tasdikdangach, Viloyat Boshqarmasi - G‘aznaga topshiriladigan xiroj va tanob yig‘imlari umumiy miqdorining ro‘yxatini tuzib chiqardi. Undan so‘ng harbiy gubernator uyezd boshliqlariga ushbu ro‘yxatni e‘lon qilib, har bir xo‘jalik-jamoa boshqarmasining xiroj va tanob yig‘imlari miqdorini belgilab berishi lozim bo‘lgan¹⁰⁵.

Shuni ham aytib o‘tish lozimki, xiroj va tanobdan kelib tushgan mablag‘larning 5 foiz xo‘jalik-jamoa boshqarma xodimlarining moddiy ta‘minotiga sarflangan; ushbu mablag‘ uyezd boshlig‘i tomonidan har bir boshqarmaga berilib, uning a‘zolari o‘rtasida teng taqsimlab berilgan (292-band). Soliq yig‘imlari miqdori o‘sgan taqdirda o‘lka xo‘jalik-jamoa boshqarmalari boshlig‘i a‘zolarining moddiy ta‘minotini 10 foizgacha oshirish huquqiga ega bo‘lgan (293-band). Nizomning 294-bandiga binoan, yig‘imlarni undirish vaqtida vujudga keladigan baxs va kelishmovchiliklar qozilik sudlari tomonidan hal etilgan. 295-band buyicha, vaqf yerlarining hujjatlarini mustamlaka ma‘muriyati tekshirgandan keyin, ular soliqdan ozod qilingan va ozod qilinmagan vaqf yerlariga bo‘lingan.

¹⁰⁵ Jumaev U.X. Rossiya imperiyasining Turkistondagi soliq siyosatining shakllanishi: asosiy bosqichlari va taraqqiyoti. Tarix. fan. bo‘yicha fal. dokt. (PhD) diss. ... – T.: 2012. – 99- bet.

Nizomning 255-bandiga ko'ra, ko'chmanchi aholidan har bir o'tov uchun 2 rub. 75 kop. miqdorida o'tov solig'i yig'ilgan. Keyinchalik, mustamlaka hududining kengayishi natijasida, aholiga solinadigan soliq va yig'implar miqdori ko'payib borgan. 1881 yilda o'tov soliqlari, natural majburiyatlarni hisobga olmaganda, yiliga 7 rublni tashkil qilib, undan 4 rub. davlat yig'imini, 3 rub. aholidan uyezd boshqaruvi va jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun olingan¹⁰⁶.

1870-yilda general-gubernator farmoyishiga muvofiq, xiroj, tanob hamda o'troq, aholidan olinadigan boshqa yig'implar bekor qilinib, ularning o'rniga yer solig'i kiritilgan. Bu soliqning chegarasi 288.504 rub. miqdorida belgilangan. 1871 yildagi soliq 367.208 rublni tashkil qilib, keyingi yillarda 5-10 foiz kupayib borgan. Farg'ona viloyati aholisi soliqlarni 1876-yildan boshlab, ya'ni xonlik tugatilganidan so'ng to'lay boshlagan.

Mustamlaka davrida Turkistonda turli davlat muassasalari bilan bir qatorda, soliq idoralari ham tashkil topgan edi. Ushbu idoralar soliq miqdorini belgilash va yig'ishni nazorat qilish, mahalliy xususiyatlarni hisobga olib, soliq solish qoidalarini takomillashtirish kabi vazifalarni o'z zimmasiga olgan. "Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish to'g'risida 1867-yil Nizom loyihasi"ning 283-bandida soliq yig'implarini yig'ish shahar va qishloq xo'jalik-jamoa boshqarmalari zimmasiga yuklanganligi qayd etilgan¹⁰⁷. Xo'jalik-jamoa boshqarmalari o'zlariga tegishli huquqlardan foydalanib, xiroj va tanob soliqlari yig'implarini o'tkazish uchun to'plagan ma'lumotlari hisobotini uyezd boshlig'iga topshirganlar. U o'z navbatida harbiy gubernatorga hisobot bergan. Xiroj va tanobdan kelib tushgan mablag'larning 5 foizi xo'jalik-jamoa boshqarma xodimlarining moddiy ta'minotiga sarflangan, soliq yig'implari miqdori o'sgan taqdirda bu miqdor 10 foizgacha oshirilgan.

¹⁰⁶ Проект положения об управлении Семиреченской и Съф-Дарвинской областей... – С. 49.

¹⁰⁷ Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях. – СПб.: Б.и., 1867. – С. 53.

“1886-yil Nizomi” nafaqat o‘troq aholining yerdan amalda foydalanish va egalik qilish huquqini tartibga solgan, balki haqiqatda yerni uning ixtiyoriga berib qo‘ygan edi. Yerdan doimiy foydalanish huquqiga egalik qiluvchilar hamda u yoki bu soliq imtiyozlaridan foydalanuvchi mulkdorlarning hamma toifalari yo‘qotilgan.

Yerga egalik qilish munosabatlarini tartibga solish, soliq tizimini takomillashtirish borasidagi tadbirlar muntazam ravishda o‘zgarib turgan.

Shu maqsadda 1887-yil Sirdaryo viloyatida, 1889-yil Farg‘ona viloyatida, 1892-yil Samarqand viloyatida yer-soliq komissiyalari va bo‘linmalari tashkil qilingan. Ular alohida shaxslar va jamoalarga qarashli doimiy, merosiy, foydalanishdagi va boshqaruvdagi yerlarni xo‘jalik jihatdan topografik suratga olish, davlat yer solig‘i miqdorini belgilash bilan shug‘ullanganlar. Bu mahkamalar ustidan nazoratni general-gubernator olib borgan.

1889-yil o‘lkaning tub viloyatlarida, 1893-yil Yettisuv va 1907-yil Kaspiyorti viloyatlarida soliq inspektorlari instituti barpo etilgan. Bu tadbir o‘troq va ko‘chmanchi aholidan olinadigan davlat soliqlari, zemstvo yig‘imlari va obrok soliqlari hisobiga imperiya g‘aznasini o‘z vaqtida va muntazam ravishda to‘ldirib turish maqsadida amalga oshirilgan edi. Shu tariqa, 1889-yildan boshlab joylarda doimiy soliq nazoratini amalga oshirish zaruriyati tufayli soliq boshqarmasi markazlashtirilgan¹⁰⁸.

Mustamlaka amaldorlarining safini to‘ldirgan soliq nazoratchilariga anchagina katta vakolatlar berilgan edi. Soliq to‘lovlaridan bosh tortish mustamlaka boshqaruvi siyosatiga hamda uning yer-soliq sohasida chora-tadbirlarini buzishga yo‘naltirilgan qarshilik deb qabul qilingan.

O‘sha davrdagi soliqlar shakli, hajmi va ularni undirish tartibi masalalari imperiya hukumati siyosatining asosini tashkil qilgan. Dastlabki yillarda an’anaviy soliq tizimi saqlanib qolingan va uning

¹⁰⁸ Jumaev U.X. Rossiya imperiyasining Turkistondagi soliq siyosatining shakllanishi: asosiy bosqichlari va taraqqiyoti. Tarix. fan. bo‘yicha fal. dokt. (PhD) diss. ... avtoref. – T.:, 2012. – 23 bet.

negizida mustamlaka soliq tizimi shakllantirilgan. Dastlab yerga egalik munosabatlariga o'zgarishlar kiritilgan. Natural soliqlarning pul solig'i bilan almashtirilishi o'lkadagi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishidan dalolat bergan. Soliq va turli yig'implardan tashqari, mahalliy aholi turli mehnat va xo'jalik majburiyatlarni bajarishi shart bo'lgan. Rossiya imperiyasi Turkistonda joriy qila boshlagan soliqlar avval mahalliy aholiga, keyinchalik o'troq sharoitda yashayotgan dungan, uyg'ur, rus va ukrain aholi qatlamiga ham tadbiiq etilgan.

Yettinchi bob bo'yicha o'zini o'zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha ilk dasturiy hujjatlar nima sababdan harbiy vaziyat hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan?
2. Turkiston Nazorat palatasi qanday vazifani amalga oshirgan?
3. Turkiston G'azna palatasi qanday vazifani amalga oshirgan?
4. 1886 yil "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi yangi Nizom"ning qanday ahamiyatli jihati bo'lgan?
5. Turkiston general-gubernatorligining yer-soliq komissiyalari qaysi viloyatlarida tashkil etilgan?
6. Turkiston general-gubernatorligida aholidan olinadigan soliqlar miqdori qaysi yillarda oshib borgan?
7. 1889-yil o'lkaning tub viloyatlarida soliq inspektorlari instituti tashkil etilgan bo'lib bular qaysi viloyatlar edi?
8. Turkiston general-gubernatorligi davridagi soliqlarni sanab bering?
9. XX asr boshlarida Buxoro amirligida qanday soliqlar bo'lgan?
10. Bojxona yig'implari qanday miqdorda undirilgan?

Test savollari:

1. Turkiston G'azna palatasi qachon tashkil etilgan?

- a) 1869 yil
- b) 1889 yil

- s) 1886 yil
- d) 1892 yil

2. Imperator Aleksandr II tomonidan 1886-yil tasdiqlangan “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom”i bo‘lib soliq haqida qaysi bo‘limida berilgan?

- a) 3 bo‘lim
- b) 1 bo‘lim
- s) 4 bo‘lim
- d) 2 bo‘lim

3. Xiroj va tanob o‘rniga muddati 6 yil etib belgilangan yalpi daromad solig‘i to‘g‘ri berilgan javobni belgilang.

- a) Oklad solig‘i
- b) O‘tov solig‘i
- s) Zemstvo solig‘i
- d) Mol-mulk solig‘i

4. Favqulotda holatlarda aholi jon boshiga olinadigan zahira solig‘i to‘g‘ri berilgan javobni belgilang.

- a) Harbiy solig‘i
- b) O‘tov solig‘i
- s) Zemstvo solig‘i
- d) Mol-mulk solig‘i

5. Volostlar bo‘yicha yig‘iladigan mahalliy solig‘i to‘g‘ri berilgan javobni belgilang.

- a) Harbiy solig‘i
- b) O‘tov solig‘i
- s) Zemstvo solig‘i
- d) Mol-mulk solig‘i

6. Ko‘chirish siyosati xarajatlarini qoplash uchun mahalliy aholi jonboshidan yig‘iladigan solig‘i to‘g‘ri berilgan javobni belgilang.

- a) Harbiy solig‘i
- b) O‘tov solig‘i
- s) Zemstvo solig‘i
- d) Evakuatsiya solig‘i

7. Musodara qilingan mulkdan mahalliy hokimiyat xarajati uchun olinadigan solig‘i to‘g‘ri berilgan javobni belgilang.

- a) Konfiskatsiya solig‘i
- b) Harbiy solig‘i
- s) O‘tov solig‘i
- d) Zemstvo solig‘i

8. Turkiston general-gubernatorligida soliqlarning birdaniga o‘tib ketishi quyidagi qaysi yilga to‘g‘ri kelgan?

- a) 1869 yil
- b) 1883 yil
- s) 1886 yil
- d) 1892 yil

9. 1887-yil qaysi viloyatda yer-soliq komissiyalari va bo‘linmalari tashkil qilingan?

- a) Sirdaryo
- b) Farg‘ona
- s) Samarqand
- d) Yettisuv

10. 1892-yil qaysi viloyatda yer-soliq komissiyalari va bo‘linmalari tashkil qilingan?

- a) Sirdaryo
- b) Farg‘ona
- s) Samarqand
- d) Yettisuv

8-BOB. SOVET DAVLATINING SOLIQ SIYOSATI

§ 8.1. Sovet davlatida soliqlarning turlari

Dunyo tarixi tajribasidan ma'lumki, soliqlar qadimdan jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, turli ko'rinishda, zamon va makonda o'ziga xos xususiyat kasb etib, turi, miqdori, hajmi jihatidan doimiy ravishda o'zgarib turgan. Bu jarayonda soliqlarning ilmiy nazariyalari ko'plab davlatlar iqtisodini ko'tarilishi va rivojlanishiga munosib hissa qo'shdi. Natijada dunyoning deyarli barcha davlatlarida soliq siyosatida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Biroq ba'zi davlatlarda o'zgarishlar amaldagi soliq undirilish tizimining asoslariga dahl qilmagan bo'lsa, boshqa davlatlarda jamiyat taraqqiyotining amalda o'zgargan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy shartlari bilan soliq munosabatlari o'rtasida yuzaga kelgan nomutanosiblik sababli soliq siyosatining printsiptial asoslari qayta ko'rib chiqildi. Jumladan, XX asrda sotsialistik davlatlarning barchasida, Sharqiy Germaniyada ham daromad solig'i stavkalari kamaytirildi, ba'zilari bekor qilindi, ayrim davlatlarda esa xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va xorij kapitallarini jalb qilish bo'yicha soliq imtiyozlari kiritildi. Biroq imtiyozli soliq undirish tizimi chinakam kapitallar kiritilishini to'liq rag'batlantira olmadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, soliq siyosatidagi o'zgarishlar ma'lum ma'noda davlatning iqtisodiyoti, siyosati va mafkurasida sodir bo'lgan tanaffuslarda aks etadi. Shuningdek, soliqlar iqtisod rivojlanganligi, davlatning mustahkamligi, davlat funktsiyalarining kenglik doirasi, iqtisod rivojiga ta'sirlarning kuchaytirilishiga ko'ra shakllandi va takomillashib bordi¹⁰⁹. Tabiiyki, soliqlarning roli va ahamiyati borasida bu turdagi nazariy asoslanishlar bir necha yillar va hatto asrlar o'tishi bilan iqtisodiy munosabatlar murakkablashuvi va

¹⁰⁹ Налоги и налогообложение. Учебник. – Курск: Региональный финансово-экономический институт, 2010. – С.53.

shunga bog‘liq holda davlatning muvofiqlashtiruv rolining kuchayishi ta’sirida birmuncha o‘zgardi. Buning natijasida soliq solishning yangi ilmiy nazariyalari paydo bo‘ldi.

SSSRda soliq siyosati ikki maqsadni: moliyaviy – urushlar natijasida barbod bo‘lgan iqtisodni ko‘tarish uchun moliyaviy bazani shakllantirish hamda kuchli bozor munosabatlariga asoslangan davlatlarning shahar va qishloqlarida o‘sha davlatlar moddiy pozitsiyasini kuchsizlantirish, soliq solishning maksimal og‘irligini aholining o‘ziga to‘q qatlamiga yuklash, parallel ravishda proletariat, kambag‘al dehqonlar, yollanib ishlovchilar uchun soliq yuklamalarini minimallashtirish vazifalarini bajarishi lozim edi. O‘z navbatida, bunday holat XX asrning 20 yillarida bolsheviklar hukumati tuzilgan hududlarda ko‘zga yaqqol tashlandi.

Joylarda sovet hokimiyati o‘rnatilib, uning mustahkamlanishi jarayonida boshlangan yangi iqtisodiy siyosat (NEP) davrida (asosan 1921-1924-yillarda) avval bekor qilingan soliq tizimiga qaytish zarurati paydo bo‘ldi. V.Lenin tomonidan ishlab chiqilgan yangi iqtisodiy siyosatni (NEP) joriy etish bilan sovet davlatining soliq tizimi ham ishlab chiqildi. Biroq bu jarayonda, mamlakatdagi mutlaqo yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, sanoatning deyarli to‘liq milliylashtirilishi, urushlar natijasidagi iqtisodiy tanazzullik, aholining sinfiy tarkibidagi o‘zgarish va boshqa omillar ham hisobga olinishi kerak edi. Bundan tashqari, urushdan keyin mamlakat iqtisodiyotini tiklash jarayonida muhim rol o‘ynagan xususiy sektorga ortiqcha soliq solinishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak edi. Natijada soliqlar yordamida yangi iqtisodiy siyosat yillari byudjet tanqisligi va pul chiqarish qisman bo‘lsada kamaydi¹¹⁰.

Yangi iqtisodiy siyosat davrida soliq va yig‘imlar quyidagicha bo‘ldi: davlat daromadlarining asosiy manbasi bo‘lgan – to‘g‘ri soliqlar, hunarmandchilik solig‘i (1928 yilda jami soliq tushumlarning $\frac{1}{3}$ qismi

¹¹⁰ Ушак Н.В. Теория и история налогообложения. Учеб пособ. / Н.В.Ушак. – Москва: Кнорус, 2009. – С.231.

hunarmandchilik solig'iga to'g'ri kelgan), qishloq xo'jaligidagi asosiy soliq shakli hisoblangan – pul ko'rinishidagi uy solig'i (1923-yil qishloq xo'jaligi solig'i joriy qilinishi bilan mazkur soliq bekor qilingan), fuqarolar urushi davrida oziq-ovqat tizimi o'rnini bosgan, qishloq aholisidan olingan yagona natural soliq, mulk – daromad solig'i, jismoniy va yuridik shaxslarning daromadi va mulkidan olingan to'g'ri soliq, ochlarga yordam berish, epidemiyalarga qarshi kurashish va davlat ta'minoti qaramog'idagi bolalarning hayotini yaxshilash maqsadida qo'shimcha moliyaviy mablag'larni safarbar qilish uchun bir martalik umumfuqarolar solig'i, harbiy soliq – Qizil Armiya chaqirig'iga kirmaydigan 21 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan erkaklardan undirilgan soliq, kvartira solig'i – shahardagi savdo va sanoat tashkilotlari, qurilishlar egalaridan hamda shahar tashqarisidagi ijaraga beriladigan binolardan olingan soliq, spekulyativ narxlarni qo'llash natijasida qo'lga kiritilgan xususiy kapital elementlarining daromadini tortib olish uchun joriy qilingan soliq, meros va hadya tariqasida o'tadigan mulk uchun soliq, (bu soliq mulkning narxidan kelib chiqib 1%-90% o'rtasida belgilangan), quloq xo'jaliklardan undiriladigan individual qishloq xo'jaligi solig'i¹¹¹ (bu soliqqa qishloq xo'jaligining barcha turdagi manbalari hamda qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan daromadlar tortilgan).

Yangi iqtisodiy siyosat davrida egri soliqlar iste'mol tovarlariga aksiz tartibida to'langan va ular davlatning barcha daromadlarining 11-20 foizini tashkil qilgan. Egri soliqlarga vino, gugurt, tamaki mahsulotlari, gilza, spirt, asal, tuz, shakar, qahva, kovushlar uchun ishlab chiqaruvchi –korxonalaridan undiriladigan aksizlar, kinofilmlar namoyishi uchun soliq kinoseanslarga sotilgan chiptalar savdosidan tushgan umumiy yig'implari kirgan¹¹².

¹¹¹ Толкушкин А.В. История налогов в России. Учеб пособие. – М.: Юристъ, 2001. – С. 209.

¹¹² Черник Д.Г., Починок А.П., Морозов В.П. Основы налоговой системы: учеб. для вузов / Д. Г. Черник, Починок А. П., Морозов В. П. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. – С. 84.

To'lov va yig'imga: patent to'lovi berilayotgan patentga munosib ravishda kashfiyotdan foydalanish to'liq huquqiga ega bo'lish uchun to'lov, turli xildagi sud hujjatlari uchun to'lov, patent yig'imi – savdo va sanoat tashkilotlaridan, shuningdek hunarmandchilik mashg'ulotidan daromad ko'radigan fuqarolardan olinadigan hunarmandchilik solig'i, ro'yxatdan o'tish uchun yig'im hujjatlarni qayd etish uchun to'lov, tashkilotlarga taqdim etiladigan hujjat va nusxalar uchun to'lov, shtamp yig'imi alohida shaxslar va tashkilotlardan fuqarolik – huquqiy bitimlarni imzolash va hujjat taqdim etishdagi to'lovlar¹¹³, – kirgan.

1925-1927-yillarda yangi iqtisodiy siyosatga chek qo'yilib, xo'jalikni industrilashtirish davri tomon yo'l tutildi. Bu jarayon ittifoq qishloq xo'jaligi hisobidan o'tkazilgan bo'lib, "1923-1924-yillarda qishloq xo'jaligidan 280 mln. rubl, 1924-1925-yillarda 346 mln rubl, 1926-1927 yillarda 400 mln. rublga yaqin soliq olindi. Bu esa dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy quvvati pasayishiga sabab bo'lib, 1928-1929 yillarda soliqlar summasining me'yoridagi ko'rsatkichlardan 11 foiz kam bo'lishiga olib keldi"¹¹⁴.

Sovet hukumatining 1928-yil 21-apreldagi "Yagona qishloq xo'jalik soliqlari yangi asoslari to'g'risida"gi va 1929-yil 8-fevraldagi "Yagona qishloq xo'jalik solig'i va o'rtahol dehqonlar soliqlarini yengillashtirish to'g'risida"gi qonunlari qishloqda xususiy mulkchilikni tugatib, davlatga qaram bo'lgan kolxoz-kooperativ xo'jaliklari tuzishga qaratilgan siyosatning boshlanishiga asos bo'ldi. Qishloq xo'jaligida yerning haqiqiy egasi bo'lgan yakka tartibdagi dehqon xo'jaliklarini tugatish esa soliq vositalari orqali amalga oshirila boshlandi. Masalan, 1929 yilda butun xo'jaliklarning 35 foizini tashkil etgan kambag'al xo'jaliklari soliqlardan to'la ozod etilgani holda 4 foizni tashkil etgan boy quloq xo'jaliklari butun soliq yig'imining 45 foizini to'ladilar. Bu davrda boy quloq xo'jaliklari daromadlaridan 70 foizgacha soliq to'lagan bo'lsalar,

¹¹³ Tolkushkin A. V. Istoriya nalogov v Rossii: ucheb. posobie / A. V. Tolkushkin. – Moskva: Yurist', 2001. – S. 216-218 betlar.

¹¹⁴ Jo'raev Sh., Boboev S. Mahalliy soliqlar tarixi. – Buxoro, 2004. - 46 bet.

“Yakka xo‘jaliklar solig‘i” qonuniga binoan ular 100 foizli daromaddan 200 foiz soliq to‘laydigan bo‘ldilar¹¹⁵.

Soliq islohotlarining navbatdagi bosqichi 1930-1932-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu byudjetga to‘lanadigan to‘lovlarning ko‘payishiga barham berdi. Ijtimoiylashtirilgan sektorda ilgari mavjud bo‘lgan 60 dan ortiq soliq va to‘lov bekor qilinib¹¹⁶, 6 ta majburiy soliq va to‘lov, jumladan, iqtisodiyotning umumiy sektoridagi korxonalaridan keladigan soliq, davlat tashkilotlaridan keladigan soliq, jamoatchilik tashkilotlaridan keladigan soliq, yagona davlat boji, xususiy ishlab chiqarishdan keladigan soliq hamda aholi daromad solig‘idan – iborat qilib belgilandi.

1930-yil 2-sentyabrdagi soliq islohotining muhim jihati ijtimoiylashtirilgan va xususiy sektorlarni soliqqa tortish tizimi o‘rtasidagi farq bo‘lib, u ilgari davlat birlashmasining solig‘i va xususiy korxonalar va baliqchilik xo‘jaliklaridan olinadigan tijorat soliqlarini ajratishda aniq namoyon bo‘ldi. Shuningdek, o‘ziga to‘q xo‘jaliklarni natura yo‘lida soliqqa tortish holatlari juda ko‘payib, hatto soliq to‘lashdan “bosh” tortgan mahalliy aholini surgun qilish darajasigacha borildi. Masalan, Surxondaryo viloyati Denov qishlog‘ida yashagan Raximov Karim 1928-yilda quloq qilingan bo‘lib, u aholi mehnatidan yollanma ishchi kuchi sifatida shartnomasiz foydalangani uchun 111 rubl 50 kop. qishloq xo‘jaligi solig‘iga, 366 rubl 12 kop. suv yig‘imi solig‘iga, 557 rubl o‘zini-o‘zi soliqqa tortishga, 1113 rubl 50 kop. bir martalik to‘lovga tortilgan. Inqilobiy tribunal uni soliqni umuman to‘lamaganligi va shartnomasiz kambag‘al aholini ishlatgani uchun aybdor deb topgan edi¹¹⁷.

Surxondaryo viloyati Denov qishlog‘ida yashagan Baratov Alim esa 1930 yilda quloq qilingan edi. Sovet hukumati uni aholi mehnatidan yollanma ishchi kuchi sifatida shartnomasiz foydalangani uchun 935 rubl qishloq xo‘jaligi solig‘iga, 84 rubl suv yig‘imi solig‘iga, 468 rubl

¹¹⁵ Jo‘raev Sh., Boboev S. Mahalliy soliqlar tarixi. BuxDU. Buxoro. 2004. – 46-47- betlar.

¹¹⁶ Черник Д.Г., Шмелев Ю.Д. Теория ва история налогообложения. Учебник. – М.: Юрайт, 2016. – С.139.

¹¹⁷ O‘zMA, R-1714-fond, 5-ro‘yxat, 609-yig‘majild, 3-varaq.

o‘zini-o‘zi soliqqa tortishga, 965 rubl bir martalik to‘lovga tortgan, biroq, belgilangan soliq A.Baratov tomonidan to‘lanmagan. Sovet hokimiyatining belgilagan tartib-qoidalarga amal qilmaganlar qatori A.Baratov ham quloq qilinib, sovet hukumati tomonidan jazoga tortilgan. A.Baratov haqidagi hujjatlarda yozilishicha, u poyafzal savdosida dallollik qilgan hamda qo‘y savdosi bilan shug‘ullangan. 1929-1930 yillarda Tuman moliya hisob bo‘limi tomonidan Alim Baratovning boqib turgan 145 ta qo‘yi ro‘yxatga olingan va sovet hukumati tomonidan tashkil etilgan kambag‘allar komiteti yig‘ini tomonidan ham tasdiqlangan. Surxondaryo viloyati Denov tumani moliya bo‘limi bilan tuzilgan shartnomaga ko‘ra A.Baratov qorako‘l teridan 98 ta, bahorgi yungdan 124,9 kg, kuzgi yungdan 105,8 kg jun davlat topshirishi belgilangan. Biroq, bu shartnoma to‘liq bajarilmay, u davlatga 61 ta qorako‘l teri, 125 kg. bahorgi yung, 107 kg. kuzgi yung topshirgan.

1930-1931-yillarga kelib Surxondaryo viloyati Denov tumani moliya bo‘limi tomonidan A. Baratovning boqib turgan 161 ta qo‘yi ham ro‘yxatga olingan va bu ham kambag‘allar komiteti yig‘ini tomonidan tasdiqlangan. A.Baratov ishi bo‘yicha tahlangan hujjatlarda yozilishicha, u 1929-1931 yillarda 200 boshga yaqin qorako‘l qo‘ylari va mol-mulkini davlatdan yashirgan. U davlatdan yashirgan holda bu qo‘ylarni cho‘lga berkitib, doimiy ravishda qo‘ylarini sotish bilan shug‘ullangan. Shuningdek 60 bosh qo‘yni “Beshkak” mahallasida yashovchi kuyoviga berganlikda ayblangan. Shu sababli 1930-yilda A.Baratov sovet hukumati tomonidan quloq qilingan edi¹¹⁸.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi bilan davlat qo‘shimcha mablag‘larga yanada ko‘proq ehtiyoj seza boshladi. Sababi urush yillari mamlakat davlat byudjeti va moliya sohasida ulkan qiyinchiliklar yuzaga kelgan edi. Bir qator muhim sanoat rayonlarini vaqtincha qo‘ldan boy berish hisobiga katta hududlarda xo‘jalik faoliyati qisqardi

¹¹⁸ O‘zMA, R-1714-fond, 5-ro‘yxat, 609-yig‘majild, 3-varaq

yoki butunlay to‘xtadi. Bu o‘z navbatida, davlat daromadlarining hajmi va tarkibida o‘z aksini topdi. Aynlanma soliq va foydadan ajratmalar hisobidan tushadigan daromadlar keskin ravishda qisqardi. Aylanma soliq tushumlari 1940 yilda 105,9 mlrd. rublni tashkil etgan bo‘lsa, 1942-yilda 66,4 mlrd. rublga teng bo‘ldi. Foydadan ajratmalar esa 21,7 mlrd. rubldan 15.3 mlrd. rublga qisqardi. Keyinchalik, ishlab chiqarish tiklangani va rivojlangani sari davlat byudjetining xalq xo‘jaligidan oladigan daromadlari asta – sekin ko‘payib bordi¹¹⁹.

Davlat byudjeti mamlakatning kirim va chiqimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lishi bilan birga mablag‘larni qayta taqsimlovchi ulkan moliyaviy mexanizm bo‘lib, sovet davlatida davlat byudjeti quyidagi pog‘onalardan iborat bo‘ldi: Birinchi pog‘ona – ittifoq byudjeti, ikkinchi pog‘ona – ittifoqdosh respublikalar byudjeti, uchinchi pog‘ona – mahalliy byudjetlar. Ushbu tizimda daromadlar quyidan yuqoriga, taqsimot esa yuqoridan quyiga qarab amalga oshirildi¹²⁰. Urush yillari davlat byudjetidagi holat soliqlarni oshirish, to‘lovlarni undirish ehtiyojlarini keltirib chiqardi. Masalan, mahalliy byudjetlar soliq va daromatlardan ma’lum qismini o‘zlariga olib qolib, qolganini respublikalar byudjetiga o‘tkazganlar. 1942 yili bu jarayonlar O‘zbekistonda quyidagi ko‘rinishda bo‘lgan. Aholi daromad solig‘idan – 2,5 foiz, davlat zayomi summasidan – 1,5 foiz, MTSlar daromadlaridan – 10 foiz, kolxozchi dehqonlar solig‘idan – 2,5 foiz kabilar mahalliy byudjet daromadlari hisobiga olib qolingan¹²¹. Byudjet harajatlari bo‘lsa yildan – yilga oshib bordi. Davlat byudjeti 180 mlrd. rubldan 1940 yilda 165 mlrd. rublga, 1942 yilda ishlab chiqarishdan keladigan daromadning kamayishi bilan 158 mlrd. rubldan 108 mlrd rublga tushib qoldi¹²². Davlat byudjeti harajati oshib faqat 1941 yildagi 174,3 mlrd.dan 1942 yilda 182,8 mlrd.ga, harbiy harajatlar ham 56,7 mlrd.dan 108,4 mlrd.ga

¹¹⁹ Налоги и налогообложение. 6-е изд. – Санкт –Петербург: Питер, 2009. – С. 90.

¹²⁰ Bobojonov X. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotidagi transformatsion jarayonlar. Tarix.fan.bo‘yicha fal.dokt. (PhD) diss. ... – Toshkent, 2018. – 104 bet.

¹²¹ O‘zMA, R-837, 32-ro‘yhat, 3270-yig‘majild, 64-varaq.

¹²² <http://www.oboznik.ru/?p=43261>. Murojat qilingan sana 20 dekabr 2019 yil.

o'sdi. 1944 yilga kelib byudjet harajatlari 1940 yilga nisbatan 2,4 baravarga oshdi¹²³. Yuzaga kelgan bunday murakkab vaziyat byudjet tushumlarini ko'paytirish zaruratini keltirib chiqardi. Natijada harajatlar qattiq nazorat ostiga olindi¹²⁴.

§ 8.2. O'zbekiston qishloq xo'jaligi solig'ining ahamiyati

1941-yil 3-iyulda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining "Urush yillari qishloq xo'jaligi hamda aholi daromad solig'iga vaqtinchalik ustama to'g'risida"gi Farmoni bilan oilasida bir nafar harbiy bo'lgan bo'lgan kolxozchilar oilasi, yakka tartibdagi xo'jaliklarga 50 foiz ustama, agar bu xonadonlarda ikki yoki undan ortiq harbiylar bo'ladigan bo'lsa butunlay ustamalardan ozod qilindi¹²⁵. Davlat byudjetiga kelib tushayotgan mablag'larni oqimini tezlashtirish maqsadida qishloq xo'jalik solig'i bir oy avval to'lanishi belgilab qo'yildi. Daromadga solingan ustama ishchi va xizmatchilarning faqat oylik maosh bilan to'lanmadi, balki bu toifalarga bo'lingan holda amalga oshirildi. Masalan, birinchi toifaga ishchilar va ularga tenglashtirilgan kishilar, ikkinchi toifaga daromad solig'ini to'lovchilar. Bu toifalarning o'zida ham soliq to'lovchi harbiy xizmatda bo'lgan bo'lmaganligiga qarab belgilandi. Bu ustama belgilashning asosiy xususiyati bo'ldi¹²⁶.

Urush davrining murakkab moliyaviy sharoitida iqtisod qilish darajasi mayda holatlarga borib yetgan. Masalan, 1942 yildan respublika bo'yicha telegraf jo'natmalariga ketadigan harajatlarni qisqartirishga qaror qilindi. Hatto hukumat va boshqa markaziy boshqaruv organlari telegrammalari 100 so'zga boshqacha bo'lishi, boshqacha

¹²³ Вознесенский Н. Военная экономика СССР в период Отечественной войны. – Москва: Госполитиздат, 2004. – С.131.

¹²⁴ Гладков И.А. История социалистической экономики СССР. В 7 томах. Т.5. – Москва: Наука, 1976-1980. –С.504.

¹²⁵ Гладков И.А. История социалистической экономики СССР. В 7 т. ... – С.505-506.

¹²⁶ Плотников К.Н. Очерки истории бюджета Советского государства. – М.: Госфиниздат, 1955. – С. 305-309.

organ va tashkilotlar telegrammalarida soʻz miqdori 50 soʻzdan oshmasligi belgilandi.

Oylik maoshlaridan iqtisod qilish maqsadida tashkilot, muassasa va korxonalarda asosiy hisoblanmaydigan shtat birliklari tugatildi. Qisqartirishlar butun tashkilotlarga ham taalluqli boʻldi. Bunday qisqartirishlar roʻyxatiga turli tashkilot va muassasalar, savdo shaxobchalar ham kiritildi. Birgina 1942-yil 17-oktyabrdagi Oʻzbekiston SSR XKK va KP(b) MQning 1390-sonli qoʻshma qarori asosida respublikada oylik maosh fondi 191906 soʻmni tashkil etuvchi, 501 shtat birligiga ega 29 ta tashkilot va muassasalar tugatildi¹²⁷. Madaniy-maʼrifiy muassasalar tarmogʻi ham keskin qisqardi. 1940 yildan Oʻzbekistonda 2859 madaniy muassasa ishlab turgan boʻlsa, 1943 yilda 1940 yildagiga nisbatan madaniy-maʼrifiy muassasalar 500 taga qisqardi, qishloqlarda 221 ta kutubxona yopildi¹²⁸.

1941-yil 21-noyabrda SSSR Oliy Sovetining “SSSRdagi boʻydoq, yolgʻiz va farzandsiz fuqarolarga solingan soliqlar toʻgʻrisida”gi¹²⁹ Farmoniga koʻra boʻydoq, yolgʻiz va farzandsiz SSSR fuqarolarining soliq toʻlashi qonun bilan mustahkamlab qoʻyildi. Bu erkaklar uchun 20 yoshdan 50 yoshgacha, ayollar uchun 20 yoshdan 45 yoshgacha qilib belgilandi. Boʻydoq, yolgʻiz va kichik oilali SSSR fuqarolaridan olinadigan soliq ish haqi olinadigan joyda hisoblanib, daromad soligʻi bilan bir vaqtda ushlab qolinar edi. Boshqa fuqarolardan (hunarmandlar, bino egalari, xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchilar) ushbu soliq bevosita moliya organlari tomonidan mazkur yilda daromad soligʻini hisoblash uchun aniqlangan daromad summasidan 6 foiz miqdorda undirilgan. Soliqlar bir yilda 4 marotaba teng qismlarga boʻlib toʻlangan¹³⁰. Shuningdek, bu soliqni toʻlashda fuqarolar toifaga ham

¹²⁷Qarang. Bobojonov X. Ikkinchi jahon urushi yillarida Oʻzbekiston iqtisodiyotidagi transformatsion jarayonlar. Tarix.fan.boʻyicha fal.dokt. (PhD) diss. ... – Toshkent, 2018. - 102-103 betlar.

¹²⁸ Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет (ст.сб.). – Ташкент: Узбекистан, 1967. – С.226-227.

¹²⁹ Григорьев В.В. Эволюция имущественного налогообложения физических лиц в России в XX веке // Евразийская адвокатура. 2018, №1. – С.11.

¹³⁰ Толкушкин А.В. История налогов в России. – М.: Юристъ, 2001. – С-252.

bo‘lindi va ular belgilangan miqdorda soliq to‘laydigan bo‘ldilar. Soliq summalari qattiq va foizli stavkalarda belgilandi. Masalan, ishchilar va xizmatchilarga bir oylik maoshi 150 rubl bo‘lganda soliq miqdori 5 rubl, maosh 150 rubldan oshsa oylik maoshining 5 foizi to‘lanadigan bo‘ldi. Adabiyot va san’at sohasida ishlaydigan kishilarga ham oylik maoshining 5 foizi miqdorida soliq belgilandi. Qolgan fuqarolar, xususan kolxoz, dehqon xo‘jaliklariga kiruvchi shaxslar yiliga 100 rubl to‘lashlari kerak bo‘lgan. Ayrim soliqlarga alohida summa turlari ham belgilandi, masalan, soliqqa tortilmagan fuqarolar yiliga 60 rubl to‘lashlari belgilab qo‘yildi¹³¹. 1944 yilga kelib uning miqdori bolasiz fuqarolar uchun 150 so‘m, bir bolaliklar uchun 50 so‘m va ikki bolaliklar uchun 25 so‘mga yetdi. Aynan shu yili qonun “Kam bolali fuqarolar solig‘i”, deb o‘zgartirildi va demografik pasayishni oldini olish maqsadida unda “Qahramon onalar” imtiyozlari belgilandi¹³². 1945 yilga kelganda bu soliqlardan byudjetga 3,4 mlrd. rubl kelib tushgan¹³³.

1941-yil 29-dekabrda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining “Harbiy soliq to‘g‘risida¹³⁴”gi Farmoni chiqdi. Bu soliqni 18 yoshga to‘lgan SSSR fuqarolari to‘ladi. Unga ko‘ra mintaqalarga qarab 150 rubldan 600 rublgacha bo‘lgan miqdorda qat’iy belgilangan harbiy soliq joriy qilindi¹³⁵. Harbiy soliq qanday stavka bo‘yicha to‘lanishi to‘lovchilarning toifasi va ular oladigan daromadlarga bog‘liq bo‘ldi¹³⁶. Daromad oluvchi hunarmand, kosiblar ishchi va xizmatchilarga belgilangan soliq stavkasidan uch barobar ko‘p soliq to‘ladilar¹³⁷. Yosh bo‘yicha harbiy xizmatga chaqirilishi yoki safarbar qilinishi lozim bo‘lgan, ammo safarbar qilinmagan yoki harbiy xizmatdan ozod

¹³¹ Григорьев В.В. Эволюция имущественного налогообложения физических лиц в России в XX веке // Евразийская адвокатура. 2018, №1. – С.12.

¹³² Jo‘raev Sh., Boboev S. Mahalliy soliqlar tarixi. – Buxoro, 2004. – 47-bet.

¹³³ Толкушин А.В. История налогов в России. – М.: Юристъ, 2001. – С-225.

¹³⁴ <https://ru.wikisource.org/wiki/>. Murojat qilingan sana 5 oktyabr 2020-yil.

¹³⁵ Ушак Н.В. Теория и история налогообложения. Учеб пособ. / Н.В.Ушак. – Москва: Кнорус, 2009. – С.57.

¹³⁶ Тарасова В.Ф. Семькина Л.Н., Сапрыкина Т.В. Налоги и налогообложение. – М.: КНОРУС, 2007. –С.48.

¹³⁷ Гритчина М.Н. Налоговая полтика в годы Великой отечественной войны // Региональная экономика: теория и практика. 2015, №40. – С.58.

qilingan fuqarolar ular uchun maxsus belgilangan stavkalar bo'yicha, hisoblangan soliq summasini 50 foizga ko'paytirilgan tartibda to'landi. Harbiy soliqdan Qizil Armiya askarlari, ofitserlar tarkibi, harakatdagi armiyada xizmatda bo'lganlar, harbiy xizmatchilar oilalari, davlatdan yordam pul (posobiya) oladiganlar, I va II guruh nogironlari soliqdan ozod qilindi. Harbiy soliq 1946-yil 1-yanvardan bekor qilindi¹³⁸.

Bu borada Respublika bo'yicha statistik ma'lumotlarga murojaat qilinadigan bo'lsa, Toshkent viloyatida har bitta xo'jalik a'zosi uchun to'lanadigan harbiy soliq 370 rublni, Andijon viloyatida 480 rublni, Surxondaryo viloyatida 420 rublni, Xorazmda 350 rublni, Samarqandda 460 rublni, Farg'ona viloyatida 360 rublni, Namangan viloyatida 460 rublni, Buxoro viloyatida 470 rublni, Qoraqalpog'iston ASSRda 390 rublni tashkil etgan¹³⁹. Bu soliq amal qilish davrida harbiy soliq bo'yicha tushumlar 7,2 mlrd. rublni tashkil qildi¹⁴⁰. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, viloyatlardan yig'ilgan soliqlar turlicha bo'lib, bunda ulardagi o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan edi.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1942-yil 10-aprelda "Mahalliy soliq va yig'implar to'g'risida"gi Farmoni chiqdi. Unga muvofiq qurilishlardan undiriladigan soliqlar, yer rentasi, transport egalaridan olinadigan yig'im va hayvonlar uchun yig'implar belgilandi. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatga muvofiq transport vositalari egalariga differentsiyalangan stavkalar birlashtirilib, transport vositalariga quyidagilar kiritildi: avtomobillar, mototsikllar, velosipedlar, yaxtalar, qayiqlar, yalıklar (ikki yoki to'rt eshkakli qayiqlar), paromlar (solsimon yassi kema), ot-arava transporti (xalq sanoatida ishlatiladigan otlar va boshqa hayvonlar).

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, soliq siyosatidagi o'zgarishlar ma'lum ma'noda davlatning iqtisodiyoti, siyosati va mafkurasida sodir bo'lgan tanaffuslarda aks etadi. Shuningdek, soliqlar iqtisod rivojlanganligi, davlatning mustahkamligi, davlat funksiyalarining

¹³⁸Jo'raev Sh., Boboev S. Mahalliy soliqlar tarixi. – Buxoro, 2004. 47-bet.

¹³⁹O'zMA, R-837-fond, 32-ro'yxat, 3747-yig'majild, 265-varaq.

¹⁴⁰O'zMA, R-837-fond, 33-ro'yxat, 6190-yig'majild, 4-varaq.

kenglik doirasi, iqtisod rivojiga ta'sirlarning kuchaytirilishiga ko'ra shakllandi va takomillashib stavkalar biriktirilib, transport vositalariga quyidagilar kiritildi: avtomobillar, mototsikllar, velosipedlar, yaxtalar, qayiqlar, yalıklar (ikki yoki to'rt eshkakli qayiqlar), paromlar (solsimon yassi kema), ot-arava transporti (xalq sanoatida ishlatiladigan otlar va boshqa hayvonlar)¹⁴¹.

Shuni alohida qayd etish kerakki, katta markazlar va ittifoqdosh respublikalar poytaxtlarida istiqomat qiluvchilar qishloq aholisiga nisbatan 2-4 marta ko'p soliq to'ladilar. Bu farmoyishda transport solig'ini to'laydigan va to'lamaydiganlar toifalariga ham ajratildi. Farmonning 28-moddasiga ko'ra, bu soliqni shaharlarda ishchi, dala hovli va kurort qishloqlarda avtomobil, mototsikl, velosiped, yaxta, qiyiq, parom, ishlab chiqarishda foydalaniladigan ishchi ot - aravasi borlar transport solig'ini to'lashi belgilab qo'yildi. Farmonning 29-moddasida bo'lsa oltin va platina hamda boshqa noyob metall qidiruvchilar, qazib olish hamda qayta ishlov bilan shug'ullanuvchilar, xo'jaliklari qishloq xo'jaligi solig'iga tortilganda otlari va boshqa jonivorlari hisobga olingan xo'jaliklar, o'zaro kelishuv asosida SSSR hukumati xorijiy davlatlarning diplomatik vakillari hamda konsullik vakillari, xorijiy avtomobil jamiyatlari a'zosi bo'lgan, shuningdek, ittifoqqa avtomobillar harakatlanishi to'g'risidagi xalqaro konvensiya asosida kelgan chet el fuqarolari, SSSR hududida 12 kun muddatdan ko'p bo'lmagan vaqtda yashagan xorij fuqarolari soliqdan ozod qilingan edi¹⁴².

Urush yillari kolxoz bozorlarida narxlar oshib borganligi, ommaviy hujumga uchragan shahar aholisining qishloqlarga ko'chishi, ular bilan mol –mulkning ko'chirilishi sababli “Mulk solig'i”, “Qishloq xo'jalik solig'i”, “Daromad solig'i” kabi soliqlar stavkasi ko'tarildi¹⁴³.

SSSR XXK va SK VKP(b)ning 1942 yil 13 apreldagi “Kolxozchilar uchun ish kunlarini majburiy oshirish to'g'risida”gi Qarorida ish

¹⁴¹ Раманова Л.С. Транспортное налогообложение: история развития и направления совершенствования // Вестник Бурятского государственного университета. 2015, №2. – С-88.

¹⁴² Артемьева О, Тропина Ю. История развития транспортного налога в России // Электронный научный журнал “Вектор экономики”. 2020, №10. / Вектор экономики /www.vectoreconomy.ru/ СМІ ЭЛ №ФС 77-66790, ISSN 2500-3666.

¹⁴³ Jo'raev Sh., Boboev S. Mahalliy soliqlar tarixi. Buxoro, 2004. – 47 bet.

kunlarini majburiy oshirish bir yilga hisoblaganda mamlakatning noqoratuproq rayonlari hamda shimoliy va sharqiy hududlarida 60 kundan 100 kungacha va 80 kundan 120 kungacha, paxtachilikka ixtisoslashgan hududlarda 100 kundan 150 kungacha qilib belgilandi¹⁴⁴.

1942-yil 24-noyabrda SSSR XKK tomonidan (1882 – son) “Kolxozlar va yakka tartibdagi xo‘jaliklar tomonidan davlatga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini majburiy tartibda yetkazib berilmasligi mas’uliyati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi¹⁴⁵. Bu Qonun urushdan keyingi yillarda ham bekor qilinmagan etdi. Urushdan keyingi yillarda go‘sh, bug‘doy, kartoshka topshirish vazirliklar orqali qonuniy ravishda “hech qanday tortishuvlarsiz, sudsiz” amalga oshirildi. 1931-1942-yillarda jismoniy shaxslardan, kolxoz xo‘jaliklari va yakka tartibdagi dehqon xo‘jaliklaridan olingan turar joy va madaniy-maishiy qurilishlar uchun to‘lov esa 1943-yilda bekor qilinib, daromad solig‘iga qo‘shib yuborildi¹⁴⁶.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1942-yil 10-sentyabrdagi Qarori asosida “ov itlarini ro‘yhatdan o‘tkazish yig‘imi va tomoshalar uchun yagona soliqlar” joriy qilindi¹⁴⁷. 1943 yilning may oyida ovchi itlarini ro‘yxatga olish uchun to‘lov kiritildi. Ushbu to‘lov ovchi itlarni ularni yetishtirish sohasidagi kitoblarda qayd qilish va qayd qilinganligi to‘g‘risida ko‘chirmalar olish uchun to‘lanar edi. Umumittifoq qayd qilish kitoblaridan ko‘chirma olish uchun bu to‘lov stavkasi 4 rublni, yordamchi kitoblardan ko‘chirma olish uchun esa 2 rublni tashkil etdi. To‘lov mablag‘lari bir xil miqdorda ittifoq respublikalarining davlat byudjetlari va ovchi itlarni yetishtirish sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun ittifoqdosh respublikalar Ministrlar Soveti huzuridagi davlat ovchilik inspeksiyalari tasarrufiga o‘tkazildi¹⁴⁸.

¹⁴⁴ Гритчина М.Н. Налоговая полттика в годы Великой отечественной войны // Региональная экономика: теория и практика. 2015, №40. – С.61.

¹⁴⁵ Попов В.П. Крестьянские налоги // Социологические исследования. 1997, №2. – С.97.

¹⁴⁶ O‘zMA, R-837-fond, 33-ro‘xat, 6190-yig‘majild, 4-varaq.

¹⁴⁷ Гритчина М.Н. Налоговая полттика в годы Великой отечественной войны // Региональная экономика: теория и практика. 2015, №40. – С.61.

¹⁴⁸ O‘zMA, R-837-fond, 33-ro‘xat, 6190-yig‘majild, 4-varaq.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1942-yil 10-apreldagi qarori bilan esa shahar va posyolkalarda (shaharchalarda) mahalliy Sovetlar tomonidan chorva egalaridan yigʻimlar tashkil qilindi. Davlat byudjetiga yigʻiladigan baʼzi toʻlovlar boshqasiga almashtirildi yoki ular bilan birlashtirib yuborildi.

Mahalliy byudjetlarni toʻldirish maqsadida SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1942 yil 10 sentyabrda “Tomoshalardan olinadigan soliq toʻgʻrisida”gi Qaror ham chiqarilib, unga asosan tomoshalardan toʻlanadigan yagona soliq kiritildi. Ushbu soliqni davlat, kooperativ, jamoat korxonalari va tashkilotlari pullik kinoseanslar, sirk tomoshalari va sport musobaqalarini oʻtkazishdan olgan yalpi daromadlaridan turli xil stavkalar boʻyicha toʻlanishi yoʻlga qoʻyildi.

Undan tashqari davlat bojlari ham boʻlib, ular maxsus vakolatga ega tashkilotlar – sud, davlat arbitraji, notarial idoralar, militsiya, FHDYO boʻlimlari, moliya tizimi organlari, Xalq deputatlari Kengashlarining ijro qoʻmitalari tomonidan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolar manfaatlaridagi harakatlarni amalga oshirish hamda yuridik ahamiyatga ega boʻlgan hujjatlarni topshirish, daʼvo va shikoyat arizalarini koʻrib chiqish, bitimlar, vasiyatnomalar va ishonch kogʻozlarini tasdiqlash, fuqarolik holatini yoki ZAGS qayd qilish, hunarmandchilik bilan shugʻullanish uchun guvohnoma berish uchun olingan pul mablagʻlari edi¹⁴⁹. Urush yillari turli sohalarda qisqartirish ishlari boʻlib oʻtdi. Hatto, hukumat va markaziy organlari oʻrtasidagi turli telegramma yozishlarining soʻzlarining soni ham qisqartirildi¹⁵⁰.

Vasiyatnoma, avtomobil va mototsikllarni hadya qilish toʻgʻrisidagi bitimlarni tasdiqlatish hamda merosga egalik huquqi toʻgʻrisida guvohnoma olish uchun toʻlanadigan davlat bojlari SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1943-yil 9-yanvardagi Qaroriga binoan bekor qilindi¹⁵¹.

Ikkinchi jahon urushi yillarida ixtiyoriy badallar toʻlash yaʼni, aholi mablagʻlarini Mudofaa Fondi va Qizil Armiya Fondiga jalb qilish ham keng tarqaldi. Bu jarayonda 1941-1945-yillar mobaynida byudjetga 111,7 mlrd. rubl mablagʻ jalb qilinib, ulardan davlat va kooperativ

¹⁴⁹OʻzMA, R-837-fond, 33-roʻyxat, 6190-yigʻmajild, 4-varaq.

¹⁵⁰OʻzMA, R-837-fond, 32-roʻyxat, 3260-yigʻmajild, 7-varaq.

¹⁵¹OʻzMA, R-837-fond, 32-roʻyxat, 3260-yigʻmajild, 4-varaq..

korxonalaridan tushgan to'lovlar (sotsialistik xo'jalikdan olingan daromadlar) 84,7 mlrd. rublni tashkil etdi¹⁵².

1943-yil 30-aprelda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining "Aholidan olinadigan daromad solig'i to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan vaqtdan boshlab 40 yil davomida daromad solig'ining asoslarini aniqlashtirib turdi¹⁵³. Bu qarorga ko'ra daromad solig'i to'laydiganlar uch toifaga SSSR fuqarolari, xorij fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga bo'lindi¹⁵⁴. Bu fuqarolar soliqni oylik maoshlaridan, xususiy daromaddan, mualliflik mukofotlaridan, asosiy ish joyidan tashqari olingan maoshlardan to'laganlar va ularning soliq stavkasi ham belgilab qo'yilgan¹⁵⁵. Masalan, maoshi oyiga belgilangan mablag' 71 rubldan oshsa 35 foiz, 101 rubldan oshsa 8 rubl 20 kop., yana qo'shimcha 13 foiz (100 rubldan oshganligi uchun) hammasi bo'lib 8 rubl 33 kop. to'laganlar. Eng yuqori soliq 90 foizlik bo'lib, 15.000 rubldan oshiq san'atda, adabiyotda, ilm-fanda mualliflik huquqi uchun mukofot olganlar to'lagan¹⁵⁶.

Bu qonunga ko'ra harbiy xizmatchilar, shuningdek, Sovet Ittifoqi Qahramonlari, 3 darajali Shon-shuhrat ordeni bilan mukofotlanganlar, Ikkinchi jahon urushi nogironlari, boshqa xizmat vaqtida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar, daromad solig'iga davlat tomonidan homiladorligi paytida vaqtinchalik nogironligi (ishsizligi) uchun, bola parvarishida bo'lganligi uchun, boquvchisini yo'qotganlar, shuningdek ish vaqtida jarohat olganlarga to'lanadigan mablag'lar kiritilmagan. Bu qonun ba'zi o'zgarishlar kiritib kelinishi bilan 1990 yilga qadar kuchda bo'ldi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, urush boshlanishi bilan turli soliq majburiyatlaridan tashqari ixtiyoriy fondlar ham tashkil etildi. Jumladan, davlat bankining barcha bo'limlarida Mudofaa fondi tuzildi. Xalq o'zining qimmatbaho buyumlari va pullarini mana shu bankka ham

¹⁵² Толкушкин А.В. История налогов в России. ... – С. 253.

¹⁵³ Едророва В.Н., Телегус А.В. Элементы подоходного налогообложения физических лиц в налоговое политике советского периода // Финансы и кредит. – Москва. 2015. -№5, - С.55.

¹⁵⁴ Толкушина А.В. История налогов в России. – Москва. Юристъ, 2001.

¹⁵⁵ Петухова Н.Е. История налогообложения в России IX-XX вв. Учеб пособ / Н.Е.Петухова. – Москва. Вузовский учебник, 2008. – С. 360-361.

¹⁵⁶ Едророва В.Н., Телегус А.В. Элементы подоходного налогообложения физических лиц в налоговой политике советского периода // Финансы и кредит. 2015, №5. – С 60.

topshirdilar. Urushdan avvalgi yillarda aholidan soliqlar undirilgan bo'lsa, urush yillari mahalliy aholi o'z ixtiyori bilan mablag'larni olib kelib topshirdi. Natijada bu yillar mudofaa fondiga 17,6 mlrd. rubl naqd pul, 13,2 kg. platina, 131,4 kg oltin, 9.519 kg. kumush, 1,7 mlrd rubllik qimmatbaho taqinchoqlar kelib tushdi¹⁵⁷. O'zbekistonda ham urushning dastlabki kunlaridan mudofaa jamg'armasini tashkil etish maqsadida ishchilar, kolxozchilar, ziyolilar bir kunlik ish haqlari, kommunistik shanbaliklardan ishlab topilgan pullarni, fuqarolarning shaxsiy jamg'armalari, qimmatbaho boyliklar, davlat zayomlari, buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlarini topshirdilar. Umuman, respublika aholisidan urushning dastlabki kunlaridayoq 30 mln. rubllik miqdorda pul, obligatsiya va qimmatbaho boyliklar tushdi. O'zbekiston aholisi urush yillari mudofaa jamg'armasiga jami 649,9 mln. rubl pul, 22 kg. oltin va kumush topshirdi¹⁵⁸.

Bu davrda Mamlakat mudofaa fondi va Qizil Armiya fondi uchun aholidan undiriladigan soliqlar muntazam o'zgarib, oshib bordi. Urush yillari aholidan olinadigan soliqlar 4,2 martaga o'sdi. 1941-1945 yillarda byudjetga 111,7 mlrd. rubl mablag' kiritildi. Undan tashqari davlat zayomlari orqali ham byudjetga pul tushirib turildi. Davlat zayomlari orqali byudjetga 113,9 mlrd. rubl tushdi va bu harbiy holat davrida byudjet daromadining 10,2 foizini tashkil etdi. Davlat muassasalaridan kelib tushadigan soliqlar urush yillari 21,4 foizga o'sdi. Umuman, urush yillari aholi tomonidan davlat byudjetiga 133 mlrd. rubl tushirildi va bu byudjet daromadining 11,9 foizini tashkil etdi. Shu tariqa sovet moliya va soliq tizimida davlat hisobi uchun soliqlarni undirish siyosati qattiqqo'llik bilan amalga oshirib, davlat byudjetining haqqoniy to'ldirishiga xizmat qildi¹⁵⁹.

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi yillaridagi qiyinchiliklarga qaramasdan sovet davlati moliya tizimida ma'lum yutuqlarga erishildi. Soliqlarning katta qismi davlat tashkilotlarining

¹⁵⁷ Гритчина М.Н. Налоговая полтика в годы Великой отечественной войны // Региональная экономика: теория и практика. 2015, №40. – С.63.

¹⁵⁸ O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Ikkinchi kitob. 1939-1991 yillar. – T.: Ozbekiston, 2019. – 12-bet.

¹⁵⁹ <https://ru.wikisource.org/wiki/>. Murojat qilingan sana 5-oktyabr 2020-yil.

davlat byudjeti uchun majburiy to'lovlariga aylantirildi. Mamlakat xalq xo'jaligi va aholining butun daromadlari urushni moliyalashtirishga va davlat byudjetini to'ldirishga sarflandi. Urush tufayli qisqargan byudjet aholiga soliq va boshqa iqtisodiy majburiyatlarni ko'paytirish orqali qoplandi. 1941-yildan 1945-yilgacha bo'lgan davrda byudjetni to'ldirish maqsadida yangi ko'rinishdagi yangi soliq to'lovlari joriy qilindi. Masalan, bo'ydoq, yolg'iz va kichik oilali SSSR fuqarolaridan olinadigan soliq ish haqi olinadigan joyda hisoblanib, daromad solig'i bilan bir vaqtda ushlab qolinar edi. Daromad oluvchi hunarmand, kosiblar ishchi va xizmatchilarga belgilangan soliq stavkasidan uch barobar, katta markazlar va ittifoqdosh respublikalar poytaxtlarida istiqomat qiluvchilar qishloq aholisiga nisbatan 2-4 marta ko'p soliq to'ladilar. Biroq, urushdan keyingi yillarda aholidan byudjetga tushadigan soliq tushumlarining hajmi ancha qisqartirildi.

Sovet davlatida soliqlar tizimi shaklan sodda ko'rinishda bo'lsada, u sohaviy yo'nalishlar jihatidan ichki murakkab tarmoqlashgan tarkibga ega bo'ldi. Bu tizim bevosita oltita soliq solinadigan sohalar qismi va yettita tashkiliy sohalar bo'limidan iborat edi. Tizimdagi oltita soliq olinadigan sohalar daromad solig'i, mahalliy soliqlar, qishloq xo'jaligida o'z-o'zini soliqqa tortish va davlat poshlinasi kabi shakllardan iborat bo'lgan.

SSSR byudjetining tuzilishi SSSR Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan bo'lib, ittifoqdosh respublikalarni vakolatlarini chegaralash SSSR va ittifoqdosh respublikalarning byudjet huquqlari to'g'risidagi Nizomga, MIQ va SSSR XKSning 1931 yil 21 dekabrda "Respublika va mahalliy byudjetlar" to'g'risidagi qaror hamda 1959-yil 30 oktyabrda SSSR va ittifoqdosh respublikalarning byudjet huquqlari to'g'risidagi Qonun bilan tartibga solingan edi. SSSRda davlat tuzumi ittifoqdosh davlat – federatsiya bo'lganligi sababli SSSR hukumati davlat byudjetini va ittifoqdosh respublikalar byudjetini birlashtirgan edi. U o'z ichiga ittifoqdosh respublikalar davlat byudjeti, avtonom respublikalarning davlat byudjeti va mahalliy byudjetlarni (viloyat,

o'lka), respublikalarga bo'ysunuvchi shahar byudjetlarini, ishchilar poselkasi byudjetlarini, qishloq Kengashlari byudjetlarini olgan edi¹⁶⁰.

Byudjet daromadlarining asosiy manbasi – xo'jalik organlari, korxonalar, tashkilotlarning pul jamg'armalari bo'lib, ular majburiy bo'lgan. Shu sababli davlat, kooperativ (kolxozlar ham shuni ichida), jamoat tashkilotlaridan olinadigan o'z vaqtida to'lanmagan soliqlar bahs munozarasiz yig'ilgan. Agar byudjetga to'lovlar fuqarolar tomonidan amalga oshirilmasa xalq sudlari yordamida undirilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda sovet mamlakatida soliq tizimi sovet xo'jaligiga asoslangan holda asta-sekinlik bilan o'zgartirib borildi. Sovet davlatining harbiy harajatlari xalq ehtiyoji mollarini ishlab chiqarishni keskin qisqartirib yubordi. Xalq ehtiyoji mollariga bo'lgan talab keskin ravishda oshib ketdi. Ikkinchi jahon urushi yillari okkupatsiya qilingan hududlarda soxta pullar ko'payib, davlat g'aznasiga mablag' kelib tushishi keskin pasayib ketdi. Pul mablag'lari bozorlarda chayqovchilar tomonidan aylanar, aholining ko'pchiligi pulni qo'lda saqlab turishni lozim topgan edi. Ayni paytda urush yillari davlat g'aznasidan muomalaga 55,4 mlrd. rubl chiqarildi¹⁶¹. Davlatning moliya va pul masalasida aniq chora – tadbirlar rejasini ishlab chiqishdan boshqa chorasi qolmadi. 1946-yilda pul islohotiga tayyorgarlik boshlanib, faqat shu yillardagi qurg'oqchilik tufayli, ko'rilgan talofatlar qisman tugatilgandan so'ng 1947-yilning 16-dekabridan 29-dekabrigacha bo'lgan qisqa muddatda o'tkazildi. 1947-yil 13-dekabrda SSSR Ministrlar Soveti va VKP(b) MQning "Oziq – ovqat va sanoat mahsulotlariga kartochka tizimini bekor qilish va pul islohotlarini o'tkazish to'g'risida"gi Farmoni chiqdi. Unda "hozirgi kunda rubl kursini oshirish hamda kartochka tizimini bekor qilish, kengaytirilgan savdoga va yagona davlat narxiga o'tish maqsadida Sovet davlati oldida pul islohotlarini o'tkazish vazifasi turibdi" – deb ta'kidlandi¹⁶².

¹⁶⁰ Толкушин А.В. История налогов в России. – М.: Юристь, 2001. – С.225.

¹⁶¹ Ломшин В. Денежная реформа 1947 г. и отмена карточной системы // Регионология. 2010, № 271. – С. 314.

¹⁶² // Известия. 14 декабря 1947 г.

Islohotlar yashirincha boshlanganligi sababli pul islohotlari boshlanishidan uch kun avval barcha kassalar berkitildi. Islohotlar natijasida mamlakatda soxta pullarni aylanishiga barham berilib, chayqovchilikni kamayishiga sabab bo'ldi. Banklarga foizga qo'yilayotgan mablag'lar ortdi. Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yildi. 1946 yilda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 20 foizga, ip-gazlama ishlab chiqarish 17 foizga, sherst mahsulotlari ishlab chiqarish 30 foizga, teri oyoq kiyimlar ishlab chiqarish 28 foizga, hayvon yog'i 69 foizga, o'simlik yog'i 18 foizga o'sdi¹⁶³. 1947 yil 14 dekabrda SSSR Ministrlar Sovetining "Oziq - ovqat va sanoat mahsulotlarini bitta qo'lda sotish normalari to'g'risida"gi Farmoyishi chiqdi. Unda bitta qo'lga 2 kg., non, krupa va makaronlar 1 kg., go'sht va go'sht mahsulotlari 1 kg., kolbasa mahsulotlari 0,5 kg., smetana 0,5 kg., sut 1 litr, shakar 0,5 kg., ip matolar 6 metr, ip 1 ta g'altak, paypoq 2 poy, teri, tekstil, rezina oyoq kiyimlar 1 dona, xo'jalik sovuni 1 dona, atir sovun 1 dona, gugurt 2 ta korobka, kerosin – 2 litr qilib belgilandi¹⁶⁴. 1947-yil 16-dekabrga kelib kartochka tizimi ham bekor qilindi.

Soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish soliq organlari hamda boshqa davlat va nodavlat organlar va tashkilotlar, shuningdek, adliya va statistika organlari, fuqarolik holatini qayd etuvchi organlar, notariatlar, davlat banki va uning bo'linmalari hamda bojxona organlari tomonidan amalga oshirildi. Ayni paytda davlat poshlinasi ham mavjud bo'lib, u SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1942 yil 10 apreldagi "Davlat poshlinasi stavkalari to'g'risida"gi, SSSR Davlat bankining 1945-yil 20-iyuldagi "Davlat poshlinasini to'lash tartibi va davlat poshlinasi markalarini hisobga olish va sotish to'g'risida"gi hamda SSSR oliy Soveti Prezidiumining 1979 yil 29 iyundagi "Davlat poshlinasi to'g'risida"gi qonunlari asosida olindi.

¹⁶³ Петренко В. О необходимости и результатах денежной реформы 1947 года в Советском Союзе // ВЕСТНИК КамчатГУ. 2018, №43. – С. 56.

¹⁶⁴ Ломшин В. Денежная реформа 1947 г. и отмена карточной системы // Регионология. 2010, № 271. – С. 314.

Davlat poshlinasini sud tashkilotlari, arbitraj organlar, notarial va fuqarolik holatini qayd etuvchi organlar, davlatga kelib ketuvchilarni qayd etish va pasportlarni qayd etish organlari, shahar va qishloq moliya bo'limlari, turli xil ruxsatnomalar beruvchi organlar hamda mahalliy sovetlar organlar, notarial idoralar bo'lmagan sharoitda davlat poshlinasini mahalliy ijroko'mlar oldi.

Davlat poshlinasi hujjatlashtirish va hujjatlar berilganligi uchun fuqarolar, tashkilotlar hamda barcha korxonalaridan olindi. Davlat poshlinasi oddiy va proporsional turlarga bo'lingan. Oddiy poshlinalar qat'iy stavkalar orqali belgilansa, proporsional poshlinalar hujjat summasiga qarab miqdor jihatdan o'zgarib borgan.

Davlat poshlinasi markalari belgilangan tartibda sudlar, notariil kontoralar va kassalarga bo'lib, ular Davlat banki ko'rsatmalari asosida sotilgan. Sotilgan markalar qaytarib olinmagan yoki boshqasiga almashtirilmagan¹⁶⁵.

Davlat arbitraj organlarida ko'riladigan ishlar bo'yicha poshlinalar asosan shartnomalar tuzish, ular bo'yicha bahsli holatlarni bartaraf etish, bekor qilish, bajarish davomida yuzaga kelgan o'zgarishlarni qayd etish va shartnoma bo'yicha qarorlarni da'vo sudiga tortish hujjatlaridan olingan. Davlat arbitraj ishlari bo'yicha quyidagi miqdorda poshlinalar olingan. SSSR Ministrlar Soveti arbitrajida – 10 rubl, Respublikalar Ministrlar Soveti arbitrajida 50 rubl, boshqa davlat arbitraj organlarida 25 so'm bo'lgan. Bu mablag' mulkiy va nomulkiy baxsli ishlarda ishning harakatiga qarab o'zgarib turgan edi.

1954-yili SSSRda amaldagi tizimga muvofiq byudjetga aylanma solig'i, notovar oparetsiyalardan olinadigan soliq, foydadan ajratmalar va boshqa to'lovlarni to'lash lozim bo'lgan xo'jalik organlari ro'yxatga olingan. Soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish tuman, shahar moliya

¹⁶⁵ Jo'raev Sh., Boboev S. Mahalliy soliqlar tarixi. – Buxoro, 2004. – 65 bet.

bo‘limlari tomonidan korxonalar va tashkilotlarning joylashgan hududi bo‘yicha ikki yilda bir marotaba amalga oshirilgan edi¹⁶⁶.

1956 yildan soliq nazorati xizmat vazifasiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini aholi tomonidan shartli ravishda davlatga yetkazishni tashkil etish vazifasi kiritildi. Qishloq xo‘jaligi solig‘idagi islohotdan keyin qishloq aholisining soliq to‘lovi hajmi pasaydi, 1956 yil 1 martdan esa soliq vakili shtati tugatildi va bu to‘lovlarni qabul qilish qishloq kengashlari zimmasiga yuklatildi. 1959 yilda soliq nazoratlari davlat daromadlari nazoratlari (inspeksiyalari) bilan birlashdi. Natijada soliq uchastkalari hududiy deb ataladigan, soliq nazoratchilari vazifasini davlat daromadlari bo‘yicha inspektorlar bajaradigan bo‘ldi.

Shundan so‘ng 1960 yil 7 mayda “Ishchi va xizmatchilarning ish haqidan soliqlar olishni bekor qilish to‘g‘risida”gi Qonuni chiqdi. Unga ko‘ra daromad solig‘i hamda SSSRning bo‘ydoq, yolg‘iz va kam bolali fuqarolarga solinadigan soliqni ishchi va xizmatchilarning ish haqidan olish 1965-yil 1-oktyabrdan boshlab batamom bekor qilish belgilandi. SSSRning bo‘ydoq, yolg‘iz va kam bolali fuqarolari to‘laydigan soliqni ishchi va xizmatchilarning asosiy ishlab turgan joylaridagi ish haqidan olish oyiga 500 so‘mgacha bo‘lganda 1960 yil 1 oktyabrdan, oyiga 600 so‘mgacha bo‘lganida 1961 yil 1 oktyabrdan, oyiga 700 so‘mgacha bo‘lganida 1962 yil 1 oktyabrdan to‘xtalishi belgilandi¹⁶⁷.

Shu bilan birga, ta‘rif stavkalari va vazifa maoshlari oyiga 1000 so‘mgacha bo‘lgan miqdorda belgilangan ishchi va xizmatchilardan daromad solig‘i olish batamom to‘xtatilib, ularning qo‘liga tegadigan ish haqi shu stavkalar va maoshlardan olinib kelgan soliqning butun summasi miqdorda ko‘paytirilishi belgilandi¹⁶⁸. 1964 yil SSSR Oliy soveti “Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy kommunal xo‘jaligi, savdo va umumiy ovqatlanish hamda xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarida

¹⁶⁶ Толкушкин А. В. История налогов в России. М.: «Юристъ», 2001. – С. 248.

¹⁶⁷ Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqining Qonuni. Ishchi va xizmatchilarning ish haqidan soliqlar olishni bekor qilish to‘g‘risida // Qizil O‘zbekiston. 1960 yil 10 may.

¹⁶⁸ Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqining Qonuni. Ishchi va xizmatchilarning ish haqidan soliqlar olishni bekor qilish to‘g‘risida // Qizil O‘zbekiston. 1960 yil 10 may.

xizmat qiluvchi aholi oylik maoshlarini oshirish to‘g‘risi’gi Qonunni qabul qildi. 1964 yil 23 dekabrda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti 1965-yilga davlat byudjetini tasdiqladi. Bu yillarda O‘zbekiston yetti yillikni 1.840.681 ming rubl daromad, 1.840.486 harajat va 2.195 daromad bilan tugatgan bo‘lsa,¹⁶⁹ yuqoridagi qonunga ko‘ra O‘zbekiston ijtimoiy – madaniy tashkilotlar xodimlarining maoshi 84 mln. rublga oshirish belgilandi¹⁷⁰. Ayni paytda birgina ijtimoiy – madaniy tomoshalarga 1965 yilning o‘zida 923.341 ming rubl sarflash belgilandi. Bu 1964 yilga nisbatan 128.117 ming rubl, yoki 16,1 foizga oshiq qilib belgilandi. Yetti yillik rejani 2.195 daromad bilan tugatgan respublika byudjetida birgina ijtimoiy – madaniy tadbirlarga belgilangan mablag‘ning o‘zi sovet xo‘jasizligining bir ko‘rinishi edi.

Soliq to‘lovlaridan tashqari 1965-1985 yillarda Sovet Ittifoqida to‘lov va yig‘imlar ham mavjud bo‘lgan. To‘lovlar, alohida jismoniy va yuridik shaxslarga tashkilotlar tomonidan ko‘rsatilgan ma’lum harakat yoki xizmat uchun olinadigan to‘lovni nazarda tutardi. 1962 yilda aholidan mamlakat byudjetiga kelib tushgan mablag‘lar 6,1 mlrd.rublni tashkil etgan bo‘lib, u davlat byudjetiga kirimning 7,2 foiziga to‘g‘ri kelgan edi. Statistik ma’lumotning e’tiborli tomonida shundaki, keyingi o‘n yilliklarda ham mana shu miqdor o‘zgarmay qoldi. 1986 yilga kelib aholining daromad solig‘idan kelib tushgan kirim 3,9 foizni (ijtimoiy ta’minotning 3,9 foizini qo‘shmaganda) tashkil etdi. Umuman, bu yillarda umumiy byudjetga kelib tushgan daromad solig‘i 6-6,8 foizni tashkil etdi¹⁷¹.

SSSRda o‘z-o‘zini soliqqa tortish tizimi ham mavjud bo‘lgan. Bu fuqarolarning ijtimoiy va madaniy qurilish va obodonlashtirish ishlari bo‘yicha mahalliy tadbirlarda naqd pul yoki beg‘araz mehnat bilan

¹⁶⁹ Муратходжаев В. Бюджет завершающего года семилетки // Экономика и жизнь. Март 1965 г. – С.8.

¹⁷⁰ Муратходжаев В. Бюджет завершающего года семилетки // Экономика и жизнь. Март 1965 г. – С.9.

¹⁷¹ Едророва В., Телегус А. Элементы подоходного налогообложения физических лиц в налоговой политике Советского периода // Финансы и кредит. 2015, №40. – С.61.

ixtiyoriy ravishda ishtirok etish shaklida namoyon bo'lgan edi. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1983-yil 5-martda "SSSR Oliy Soveti Prezidiumining "Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida"gi Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Farmoniga asosan o'z-o'ziga soliq solish tartibini joriy etish va belgilash huquqi ittifoqdosh respublikalarga berildi.

Shunday qilib, bu davrda sovet hukumati tomonidan iqtisodiyotga bozor elementlarini kiritish uchun soliq tizimini takomillashtirishga harakat qilindi, ammo amalda buni imkoni bo'lmadi, chunki SSSRda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va rejali iqtisodiy siyosat amaliyotda davom etayotgan edi. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar ham o'z samarasini bermadi¹⁷².

Urushdan keyingi yillarda jamiyat hayotida amalga oshirilgan o'zgarishlar jarayonida ittifoq miqyosida iqtisodiyotni tiklash masalasiga e'tibor kuchaytirilib, O'zbekistonda esa qishloq xo'jaligini rivojlantirishda asosan davlat rejalarini bajarish ishlari avj oldirilgan edi.

Qishloq xo'jalik solig'ini joriy etishda quyidagi omillar e'tiborga olingan. Bular – yerlarning ma'muriy bo'linishi, yerlarning hosildorligi, turli hududlarning mahalliy xususiyatlari, yerlarning suvga va bozorga hamda daromad obyektlariga yaqinligiga¹⁷³ e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin.

O'sha davrda O'zbekiston SSR da mavjud bo'lgan 9 ta viloyat va Qoraqalpog'iston ASSRdagi qishloq xo'jaligi solig'iga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kartoshka bo'yicha viloyatlar kesimida soliq miqdori farq qilganligini ko'rish mumkin ya'ni kartoshka ekiladigan hududlar bo'yicha 1-o'rinda Toshkent viloyati – 143 so'm, 2-o'rinda Samarqand viloyati – 140 so'm, 3-o'rinda Farg'ona, Andijon va Namangan – 113 so'm, 4-o'rinda Qoraqalpog'iston ASSR va Xorazm viloyati – 106 so'm, 5-o'rinda Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo –

¹⁷² Петухова Н.Е. История налогообложения в России IX-XX вв. Учеб пособие. – Москва. Вузовский учебник, 2008. – С. 373-374.

¹⁷³ Oblomurodov N., Tolipov F. O'zbekistonda soliqlar tarixi. – Toshkent, IQTISOD-MOLIYA. 2009. – B.156.

91 so‘m qilib belgilangan. Sabzavot va poliz ekinlaridan olinadigan soliq 1-o‘rinda Toshkent viloyat – 280 so‘m, 2-o‘rinda Samarqand viloyati – 251 so‘m, 3-o‘rinda Farg‘ona, Andijon va Namangan – 240 so‘m, 4-o‘rinda Qoraqalpog‘iston ASSR va Xorazm viloyati – 208 so‘m, 5-o‘rinda Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo – 182 so‘m qilib belginlangan¹⁷⁴.

Bu davrda qishloq xo‘jalik soliqlarini undirishda moliya organlariga ham alohida topshiriqlar berildi. Masalan, O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan 1950 yil 10 avgustda qabul qilingan 1393-sonli qarorida qishloq xo‘jaligi solig‘i undiriladigan obyektlar, ayrim hollarda chorva molining to‘la va to‘g‘ri hisobga olinishini ta‘minlashda moliya organlariga amaliy yordam ko‘rsatish va molni to‘la-to‘kis hisobga olish zarur bo‘lganida hovlima-hovli yurib hamda yaylovlarga borib mollarni sanab ko‘rish lozimligi ko‘rsatildi. Moliya organlarining soliq hisoblash ishlari ustidan nazoratni kuchaytirish, soliqni xato hisoblashlarga, qonunda ko‘rsatilgan yengilliklarni berishda chalkashliklar yuz berishiga yo‘l qo‘yilmasligiga va to‘lov xabarnomalarini soliq yig‘ish vaqtida topshirish kerakligi belgilandi.

Bu davrda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan olinadigan soliqlar mahsulotlarning turi va viloyatiga qarab ham o‘zaro farq qilar edi. Xususan, donli va boshqa ekinlardan olinadigan soliq Toshkent viloyatida – 67 so‘m, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida – 62 so‘m, Samarqand viloyatida – 59 so‘m, Buxoro viloyatida – 54 so‘m, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida – 52 so‘m, Qoraqalpog‘iston ASSR va Xorazm viloyati – 42 so‘m qilib belgilangan.

Bog‘ va rezavor mevalardan olinadigan soliq Toshkent viloyatida – 272 so‘m, Samarqand viloyatida – 263 so‘m, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida – 228 so‘m, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida – 188 so‘m, Qoraqalpog‘iston ASSR va Xorazm viloyatida – 164 so‘mni tashkil etgan.

¹⁷⁴ O‘zMA, R-837-fond, 33-ro‘yxat, 6190-yig‘majild, 4-varaq.

Tokzorlardan olinadigan soliq Toshkent viloyatida – 280 so‘m, Samarqand viloyatida – 277 so‘m, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida – 262 so‘m, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida – 238 so‘m, Qoraqalpog‘iston ASSR, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida – 220 so‘mga to‘g‘ri kelgan.

Pichanzorlardan 8 so‘m miqdorida O‘zbekiston SSR bo‘yicha bir xildagi soliq yig‘ib olingan.

Mahsuldor hayvonlardan olinadigan soliqlar ayniqsa sigirdan eng yuqori ko‘rsatkichi 3000 so‘m va eng past miqdori 2000 so‘m, qo‘y va echkildan hudud bo‘yicha 5 xil turda undirilgan, faqat cho‘chqalardan respublika miqyosida bir xil 800 so‘m qilib belgilangan.

Uy xo‘jaligida foydalanilgan ish hayvonlaridan ot, tuya va xachirlarga 2000 so‘m, ho‘kiz va buqadan 1000 so‘m va asal-arilarning bir uyasidan 1000 so‘m qilib Respublika miqyosida bir xil ko‘rsatkichga keltirilgan¹⁷⁵.

Tahlil etilayotgan yillarda qishloq xo‘jaligi soliqlarini undirilishi jarayonida hududiy o‘ziga xosliklar ham kuzatilgan. Jumladan, 1956 yildagi statistik ma‘lumotlarga murojaat qilib, Xorazm viloyati tumanlari kesimida to‘xtalsak (bu paytda viloyatda 2 ta shahar va 10 ta tuman bo‘lgan): Urganch tumani – 91,9 %, Xiva tumani – 96,6 %, Xanqa tumani – 98,7 %, Xozarasp tumani – 95,1 %, Gurlan tumani – 101,2 %, Shovot tumani – 93,3 %, Mang‘it tumani – 85,2 %, Yangi-ariq tumani 103 %, Qo‘shko‘pir tumani – 98 %, Yangibozor tumani – 95,4 %, Bog‘ot tumani – 99,4 % ga bajargan bo‘lsa, 10 ta tuman kesimida e‘tibor bersak umumiy hisobda 96,5 % ni tashkil etgan¹⁷⁶. Ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Gurlan va Yangi-ariq tumanlarida belgilangan miqdordan oshiq bajarilgan, Mang‘it va Urganch tumanidagi soliqlar yig‘imi boshqa tumanga nisbatan kamroq bajarilgan hamda qolgan tumanlar to‘liq to‘lamaganligini ko‘rish mumkin.

¹⁷⁵Shu o‘rinda qayd etish kerakki, O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1962 yil 3 noyabrdagi Farmoniga asosan qoramollarga to‘lanadigan soliq stavkalari o‘zgartirilgan edi. O‘zMA, R-2454-fond, 6-ro‘yxat, 683-yig‘majild, 10-varaq.

¹⁷⁶Xorazm VDA, R-40-fond, 1-ro‘yxat, 291-yig‘majild, 3-4-varaqlar.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, ayrim kolxozlar davlat oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmaganlik holatlari ham bo‘lib turgan. Masalan, 1949 yilda ko‘p viloyatlar qarzdorlik bilan chiqdi. Respublika bo‘yicha bu qarzdorlik miqdori 14,0 mln. rublni tashkil etdi.

O‘sha vaqtlarda mas’ul tashkilotlarning o‘tkazgan tekshiruvlari natijasida birgina Toshkent viloyatidagi Yangiyo‘l tumanida joylashgan Andreyev nomidagi kolxoz bo‘yicha 37 ta kolxozchilar xo‘jaliklari va Farg‘ona viloyatidagi Qo‘qon tumanida joylashgan 3 ta qishloq kengashidagi 72 ta xo‘jalik hisobga olinmaganligi aniqlangan¹⁷⁷.

Shu tariqa hisobga olish ishlari va to‘lov xabarnomalarini yuborish ishlarining kech boshlanishi va to‘lov xabarnomalarini yuborish ishlari juda sekin amalga oshirilishi soliqlar Qonunda belgilangan muddatlarda to‘lanmasligiga olib kelgan¹⁷⁸.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston SSR Vazirlar Kengashi 1949 yil 20 avgustdan kechiktirilmagan holda moliya organlari rahbarlarining qishloq xo‘jaligi solig‘ini amalga oshirish bo‘yicha ishlarning olib borilishi to‘g‘risida ma‘ruzalarini muhokama qilish, xo‘jaliklar, chorva va boshqa daromad manbalarini to‘liq hisobga olishni, hamda soliq summasini hisoblash va imtiyozlar taqdim etish jarayonlarining natijalarini 1949 yil 5 sentyabr sanasidan kechiktirmagan holda muhokama qilish, barcha ishlarni butunlay tamomlash maqsadida soliq summasini hisoblash va to‘lov xabarnomalarini topshirish jarayonining nazoratini kuchaytirish, sentyabr oyidan kolxozchilarning asosiy qismi paxta terimi bilan band bo‘lishini hisobga olgan holda topshirilgandan so‘ng soliqlarni muddatidan oldin to‘lash to‘g‘risida ommaviy-tushuntirish ishlarini tashkil qilish va amalga oshirish, moliya sohasi xodimlarini ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa ishlardan ozod qilish vazifalari topshirildi¹⁷⁹.

¹⁷⁷O‘zMA, R-837-fond, 33-ro‘yxat, 6190-yig‘majild, 34-varaq.

¹⁷⁸O‘zMA, R-837-fond, 33-ro‘yxat, 6190-yig‘majild, 35-varaq.

¹⁷⁹O‘zMA, R-837-fond, 33-ro‘yxat, 6190-yig‘majild, 36-varaq

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda ham qishloq xo‘jalik soliqlarini yig‘ish ishlari mamlakat rahbariyati tomonidan chiqarilgan Farmonlar, Qonunlar asosida boshqarilgan bo‘lsada, respublikada bu sohada mutaxassislarning yetishmasligi, mavjud xodimlarning ham o‘z ishini puxta egallamaganligi, ishni bajarishda qo‘pollik va ishni tushunmaslik holatlari urushdan keyingi ilk yillardayoq bir qator muammolarni keltirib chiqardi. Bu borada O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining (1948 yil 2 iyuldagi 1085-sonli) “1948 yilda qishloq xo‘jaligi solig‘ini yig‘ish bo‘yicha ishlar qoniqarsiz bajarilganligi to‘g‘risida¹⁸⁰”gi Qarori hamda O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining (1948 yil 20 iyul 1557-sonli) “1948 yil uchun qishloq xo‘jaligi solig‘i to‘g‘risida”gi Qarori chiqdi. Ushbu qarorlarda undirilishi lozim bo‘lgan soliqlarni to‘lash, soliqlarni o‘z vaqtida yig‘ish va soliq organlari xodimlarining vazifalari ko‘rsatib o‘tildi. Soha faoliyatini takomillashtirish yuzasidan qarorlar ketma-ket chiqarilgan bo‘lsada, biroq, boshqaruvning yanada markazlashtirilishi, rejani bajarishning qat’iy talablarini yanada kuchaytirilishi, tabiiyki hisobotlarni faqat qog‘ozlarda qolib ketishiga, belgilangan vazifalar bo‘lsa oxiriga yetkazilmay, soxta ma’lumotlar bilan to‘ldirish yo‘liga o‘tib olindi. Masalan, hisobotlarda: “Toshkent viloyatining qator tumanlarida, jumladan, Kalinin, Toshkent, Yuqori-Chirchiq, Qorasuv Mirzacho‘l, Sirdaryo va Xovos tumanlaridagi xo‘jaliklarda daromadlar to‘liq hisobga olinmaganligi, soliqqa tortiladigan daromadni aniqlash hamda soliqni hisoblash va imtiyozlarni taqdim etishda qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘yilganligi – ta’kidlangan¹⁸¹”.

Soliqqa oid qonunlarning qo‘pol ravishda buzilishi mehnatkashlar tomonidan ular soliqqa noto‘g‘ri tortilayotganligi to‘g‘risida shikoyat arizalarining yozilishiga ham sabab bo‘lgan. 1948 yilda Farg‘ona

¹⁸⁰O‘zMA, R-837-fond, 33-ro‘yxat, 6190-yig‘majild, 58-varaq.

¹⁸¹O‘zMA, R-837-fond, 33-ro‘yxat, 6190-yig‘majild, 34-varaq.

viloyati bo'yicha 5964 ta, Qashqadaryo viloyati bo'yicha esa – 5086 ta shikoyat kelib tushgan, ularning aksariyati asosli bo'lgan¹⁸².

Bu paytda Xorazm viloyatining ba'zi tumanlarida ham kolxozlarning daromad solig'i bo'yicha yillik hisobotlarini tekshirish jarayonida qonunlar qo'pol tarzda buzilgani aniqlangan. Masalan, Gurlan tuman moliya bo'limi 1949 yil uchun kolxozlardan olinadigan daromad solig'ini 19 ta kolxoz bo'yicha 31.686 rublga kam, Qo'shko'pir tuman moliya bo'limi esa 18 ta kolxoz bo'yicha 6.895 rublga ko'p va 19 ta kolxoz bo'yicha 8.420 rublga kam hisoblangan. Shovot tuman moliya bo'limi 46 ta kolxoz bo'yicha 417 ming rublga teng bo'lgan soliqqa tortilmaydigan daromadlarni ayirib tashlamagan va buning oqibatida ushbu kolxozlar bo'yicha soliq 25.062 rublga ko'p hisoblangan. Bunday hatoliklar qator tumanlarda mablag'larni jamlashning kvartal rejaları kolxozlardan daromad solig'i bo'yicha avans to'lovlarini qonunda belgilanganidan ko'p miqdorda undirish hisobiga oshirib bajarilishiga va shu bilan bir vaqtda boshqa to'lov manbalari bo'yicha rejalar bajarilmasligiga olib kelgan¹⁸³.

Tahlil etilayotgan yillarda soliq tizimidagi o'zgarishlar jarayonida 1953 yil 8 avgustda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining "Qishloq xo'jaligi solig'i to'g'risida"gi Qonuni¹⁸⁴ qabul qilindi va bu qonun qishloq xo'jaligi soliqlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat bo'lib qoldi. Qonunga ko'ra, kolxoz a'zolari va fuqarolar xo'jaliklari soliq to'lovchilariga aylanishdi. Qishloq xo'jaligi solig'i har bir xo'jalik foydalanuviga topshirilgan yer maydonlari hisobidan kelib chiqib belgilandi. Bunda qurilish bilan band bo'lgan yerlar, o'rmonlar, butazorlar, umumiy foydalanuvdagi yo'llar hisobga olinmadi. Tashkilot va korxonalarining ishchilari va xizmatchilariga yakka tartibdagi va jamoaviy bog' hamda ekin maydonlari uchun ajratilgan yerlar, qo'rg'ondan tashqari yerlar

¹⁸²O'zMA, R-837-fond, 33-ro'yxat, 4341-yig'majild, 6-varaq.

¹⁸³O'zMA, R-837-fond, 33-ro'yxat, 6190-yig'majild, 121-varaq.

¹⁸⁴Сборник законов СССР. 1938-1961. – Москва: Изд. Советов народных депутатов СССР, 1971. – С. 682.

hisobga olinmadi. 50 m² kam yer maydonlaridan ham soliq undirilmadi. Soliq 0,01 ga yer maydonidan qat'iy norma asosida hisoblandi¹⁸⁵.

O'zSSR Ministrlar Soveti "1959 yilgi qishloq xo'jaligi solig'ini o'tkazish haqida"¹⁸⁶gi qarorida ko'rsatilishicha, 1959 yilda o'rtacha viloyatlarda tamorqa yerlariga stavka belgilangan bo'lib bu 3 ilovada ko'rsatilgan.

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'umotlarda sug'oriladigan yerlardan olinadigan soliq 4 toifaga bo'lingan bo'lib, ya'ni Toshkent, Andijon, Namangan, Samarqand va Surxondaryo viloyatlariga 23 so'm, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlari – 22 so'm, Buxoro viloyati – 21 so'm, Qoraqalpog'iston ASSR va Xorazm viloyati – 18 so'm miqdorida soliq belgilangan. Sug'orilmaydigan yerlarga Qoraqalpog'iston ASSR va 9 ta viloyatga bir xil narx ya'ni – 8 so'm miqdorida belgilab qo'yilgan.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, RSFSR Ministrlar Sovetiga esa zarur hollarda qishloq xo'jaligi soliq stavkalarini o'zgartirish huquqi berildi. Ittifoqdosh respublikalar Vazirlar Kengashiga, avtonom Respublikalar Vazirlar Kengashiga, o'lka va viloyat Kengashi ijroko'mlari, respublika o'lka va viloyat stavkalaridan kelib chiqib, zarur holatlarda xo'jalik daromadi, iqtisodiy xususiyati va qishloq xo'jaligi hosildorligidan kelib chiqib alohida qishloqlar uchun soliq stavkalarini belgilash imkoni ham berildi. Alohida hudud uchun soliq stavkalarini belgilashda, yer maydonlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ekishga ishlatilganligi va bozorlarning mavjudligi ham inobatga olingan edi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi solig'i bo'yicha keng tizimli imtiyozlar o'rnatilgan bo'lib, unga ko'ra soliq to'lovlaridan qishloq maktablari o'qituvchilari, agronomlar, zootexniklar, gidrotexniklar, yer quruvchilar, melioratorlar, veterinarlar, vrachlar va feldsherlar, o'rta medik personallar, kolxoz, sovxoz va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalar va tashkilot rahbarlari ozod etildi. Soliq imtiyozlari tabiat falokatlaridan aziyat chekkan xo'jaliklarga, vaqtincha moddiy

¹⁸⁵Oblomurodov N., Tolipov F. O'zbekistonda soliqlar tarixi. – Toshkent, 2009. – B.156.

¹⁸⁶O'zMA, R-837,-Fond, 38-ro'yxat, 8514-yig'majild, 55-varaq.

qiyinchilikni boshdan o'tkazayotganlarga hamda ko'chmanchi xo'jaliklarga berilgan. Moliyaviy soliq organlari tomonidan hisoblangan va fuqarolar tomonidan bir xil miqdorda 2 marta qishloq xo'jaligi g'aznasiga 15 avgust va 15 oktyabrgacha pul mablag'i to'landi¹⁸⁷.

Xulosa qilib aytganda, tahlil etilayotgan yillarda iqtisodiyotni tiklash uchun soliqlarni kamaytirish va ayrimlarini bekor qilish ishlari amalga ham oshirildi. Lekin, O'zbekiston xom ashyo yetishtirib beruvchi respublika bo'lganligi sababli soliqlarni undirishda ham ittifoq miqyosida asosiy o'rinlardan birini egalladi. Chunonchi, soliqqa tortiladigan daromadlarda pulli daromadlar asosiy o'rinni egalladi. Ular asosan paxta yetishtirishdan olingan daromadlar bo'lib, u muntazam ko'payib turgan edi.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining (1949-yil 2-iyulda 1085 – sonli) “1949 yil uchun qishloq xo'jaligi solig'i to'g'risida”gi qarorida qishloq xo'jaligining ayrim tarmoqlaridan olinadigan soliqqa tortiladigan daromadlarning o'rtacha normalari tasdiqlandi. Unda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, bog'dorchilikni tiklash va rivojlantirish maqsadida barcha hududlarda mevali bog'lar hosil berishning dastlabki ikki yilida qishloq xo'jaligi solig'iga tortilishdan ozod qilindi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, bu davrda ham soliq sohasi, xususan, qishloq xo'jaligi soliqlarining yig'imida qator kamchiliklar kuzatildi. Ayrim hollarda soliq inspektorlarining yordamchilari tomonidan uy xo'jaliklarining hisobga olinmaslik hamda kolxozlar xo'jaliklaridagi o'lchovlar to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa nazorat materiallaridan to'liq foydalanilmaganlik holatlari ham uchrab turdi. Oqibatda ba'zi xo'jaliklar, ekinlar, chorva va daraxtlar hamda dehqonchilik bilan bog'liq bo'lmagan boshqa daromadlar to'liq hisobga olinmadi, hatto oila a'zolarining soni ham noto'g'ri hisoblanishi holatlari qayd etildi.

¹⁸⁷ Толкушкин А.В. История налогов в России. – М.: Юрист, 2001. – С. 269.

Undan tashqari, hisobga olish va to'lov xabarnomalarini yuborish ishlarining kech boshlanishi hamda to'lov kvitansiyalarini yetkazish jarayonidagi uzilishlar soliqlarni qonunda belgilangan muddatlarda to'lanmasligiga olib kelgan edi.

§ 8.3. Soliq tizimiga kadrlar tayyorlash siyosati

Har bir tashkilotning ish yuritish uslubi, unga yuklatilgan vazifa va vakolatlari bilan bog'liq faoliyatidagi yutuq va kamchiliklar bevosita uning boshqaruv shakli, tizimi hamda

tashkilotdagi kadrlarning bilimi, malakasi va tajribasi bilan bog'liq jarayon bo'lgani sababli respublikada soliq sohaning rivojlanishida ham kadrlar tayyorlash masalasi muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston SSRda moliya – soliq sohalarida kadrlar tayyorlash masalasi jiddiy muammolardan biri bo'lgan. Xususan, mutaxassis kadrlar borasidagi yetishmovchiliklar soliq sohasini rivojlanishida bir qator muammolarni keltirib chiqargan edi. Ushbu muammolarga oid tarixiy ma'lumotlar bugungi kunda respublikaning arxivlarida saqlanayotgan ko'plab hujjatlarda o'z aksini topgan.

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi yillarda soliq sohasidagi kadrlar yetishmovchiligi o'z navbatida soliq yig'imi borasida bir qator muammolarni keltirib chiqargan edi. Xususan, hududiy soliq idoralarida faoliyat olib borgan nomutaxassis, o'rta ta'lim yoki sirtqi ta'limda tahsil olgan yetarli malakaga ega bo'lmagan xodimlarining soliq yig'imi ijrosini olib borganligi hamda aholining huquqiy ongining yetarli darajada emasligi sababli, soliq yig'imini noto'g'ri yoki reja bo'yicha undirilmalik holatlari ko'plab kuzatilgan.

Tadqiq etilayotgan yillarda soliq ishi amaliyotidagi jiddiy kamchilik va xatoliklarning asosiy sabablaridan yana biri bu viloyatdagi moliya organlari tomonidan hisobga olish va hisobotlar topshirish ishlarining belgilangan tartibda yuritilmasligi hamda tegishli bo'limlar tomonidan nazorat – taftish ishlari qoniqarsiz tashkil qilinganligi bilan izohlanadi.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, Ikkinchi jahon urushidan so‘ng mamlakat miqyosida iqtisodiyotni tiklash borasida olib borilgan o‘zgarishlar jarayonida moliya va soliq sohasini isloh qilishga ham e‘tibor qaratilib, respublika Moliya vazirligining birliklari qayta taqsimlandi (soliq boshqarmasa uning tarkibida faoliyat yuritgan edi). Jumladan, 1948 yildai O‘zbekiston SSRning Qoraqalpog‘iston ASSR Moliya vazirligi va 9 ta viloyat moliya bo‘limiga jami 390 ta shtat ajratilgan¹⁸⁸.

Ushbu 390 ta xodimning 64 nafari (18%) soliq va soliqqa tortish bo‘limlarida faoliyat olib borgan. Viloyat kesimida tahlil qilinadigan bo‘lsa, Toshkent viloyati Moliya bo‘limidagi 44 shtatning 7 tasi soliqlar va yig‘imlar bo‘limiga tegishli bo‘lib, ya‘ni 16 % ni soliqchilar tashkil etgan¹⁸⁹. Boshqa viloyatlarda bularning soni bo‘limda 6 ta shtat birligi bo‘lgan. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, hududiy jihatdan kichikroq bo‘lgan 35 ta shtat birligi mavjud hududlarda ham soliqchilarni soni bittaga kamaytirilgan, bu soliqchilarga ehtiyoj katta bo‘lganligidan dalolat beradi.

O‘sha davrda viloyatlardagi soliqlar va yig‘imlar bo‘limida, bo‘lim boshlig‘i, reja va hisobga olish bosh inspektori, kolxoz qishloq xo‘jaligi va daromad solig‘ini yig‘ish bo‘yicha bosh inspektor, shahar soliq to‘lovlari bo‘yicha bosh inspektor, bosh soliq taftishchisi (revizor) va soliq taftishchisi lavozimlari bo‘lgan. Aynan tadqiqotning xronologik davri bo‘yicha soliq xodimlarining oylik maoshlari haqida ham hujjatlarda ma‘lumotlar saqlangan bo‘lib, masalan, soliqlar va yig‘imlar bo‘limi boshlig‘i (1075 rubl) eng yuqori maosh olgan bo‘lsa, eng kam maoshni taftishchi (805 rubl) olgan¹⁹⁰.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, respublika miqyosida soliq tizimini isloh qilish borasida chora-tadbirlar belgilanishi va tizimda o‘zgarishlar qilinishiga qaramasdan viloyatlardagi xodimlarning bilimi, malakasi va

¹⁸⁸ O‘zMA, R-93-fond, 15-ro‘yxat, 1098-yig‘majild, 40-varaq.

¹⁸⁹ O‘zMA, R-93-fond, 15-ro‘yxat, 1098-yig‘majild, 5-varaq.

¹⁹⁰ O‘zMA, R-93-fond, 15-ro‘yxat, 1098-yig‘majild, 40-varaq..

tajribasining pastligi oqibatida soliq yig'ish va undirish masalasida ko'plab kamchiliklar kuzatildi. Jumladan, bu paytda "Xorazm viloyati moliya bo'limi hamda tuman va shahar moliya bo'limlari kadrlar tanlash, ularni ishga olish va soliqchi xodimlarining malakasini oshirish bilan jiddiy shug'ullanilmagani, soliq apparati xodimlarining 97,8 foiz o'rta ma'lumotli bo'lgani, ba'zi tuman moliya bo'limlarida apparat tasodifiy va ishonchsiz xodimlar hisobiga to'ldirilgani, bu esa katta miqdordagi kadrlar qo'nimsizligiga sabab bo'lgani (1948 yilda viloyat bo'yicha soliq sohasidagi xodimlarning 33 foizi o'zgargan)"¹⁹¹ – statistik ma'lumotlarda keltiriladi.

Xorazm viloyat ijroiya qo'mitasi va O'zbekiston SSR KP(b) Viloyat qo'mitasi byurosi viloyat moliya bo'limi O'zbekiston SSR KP(b)ning "Davlatni aldash va moliya organlari faoliyatida soliq siyosati o'zgartirilishi faktlari to'g'risida"gi qarorida o'zi uchun kerakli xulosalarni chiqarmaganligini ta'kidlanadi. Aynan ushbu qarorning ko'p qismi bajarilmaganligi sababli viloyatda 1949 yil 1 avgust holatiga soliqlar bo'yicha 1225 ming rubldan ko'p miqdordagi qarzdorlik to'planib qolgan edi¹⁹². Aslini olganda tegishli davlat organlari tomonidan soliqlar masalasiga yetarli darajada e'tibor qaratilmagani, ushbu tizim uchun ishonchli va vijdonli kadrlarni tanlash bilan jiddiy shug'ullanmagani ko'p hollarda soliq qonunchiligining buzilishiga olib kelgan edi.

Shu munosabat bilan Xorazm viloyat ijroiya qo'mitasi va O'zbekiston SSR KP (b) viloyat qo'mitasi tomonidan "Soliq ishidagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etish va mahalliy moliya organlarida belgilangan davlat intizomini o'rnatish uchun zarur choralarni ko'rish, reja asosidagi faoliyatini ta'minlash hamda kolxozlardan olinadigan daromad solig'i, avans to'lovlarini noqonuniy ravishda ko'p miqdorda undirilishiga chek qo'yish, kadrlarni tanlash, ishga qabul qilish va tarbiyalash ishlarini takomillashtirish, ularning siyosiy va kasbiy

¹⁹¹O'zMA, R-837-fond, 33-ro'yxat, 6190-yig'majild, 124-varaq.

¹⁹²O'zMA, R-837-fond, 33-ro'yxat, 6190-yig'majild, 125-varaq.

malakalari oshirilishini ta'minlash, moliya apparatiga tasodifiy va ishonchsiz shaxslar kirishiga yo'l qo'ymaslik, apparatga mahalliy millatga mansub bo'lgan xodimlarni hamda o'zbek ayollarni (1949 yil oxiriga qadar ularning soni xodimlar umumiy sonining 30 foizdan kam bo'lmasligi lozim) jalb qilishga alohida e'tibor qaratish"¹⁹³ – kabi vazifalarni belgilab bergan edi. Lekin belgilangan vazifalarning aksariyati qog'ozda qolib ketib, soliq sohasini malakali kadrlar bilan ta'minlash masalasi keyingi yillarda ham dolzarbligicha qolaverdi.

Statistik ma'lumotlarda keltirilishicha, O'zbekiston SSR Moliya vazirligida 1950 yil jami 142 ta¹⁹⁴, 1951 va 1952 yillarda¹⁹⁵ 144 ta shtat bo'lgan. Vazirlik belgilangan funksional vazifalariga ko'ra 6 ta boshqarma, 9 ta bo'lim va qo'riqlash qismlaridan iborat bo'lgan. Moliya vazirligi apparatida (1952 yilgi ma'lumot) 139 nafar xodim faoliyat yuritib, Moliya vaziri M.I.Isametdinovning o'zi ham o'rta ma'lumotga ega bo'lgan. Vazirlikdagi shtatlar bo'linishi tahliliga ko'ra, uning tarkibida faoliyat olib borayotgan xodimlarning 45 foizi oliy ma'lumot, 39 foizi o'rta ma'lumot va 16 foizi o'rta maktab ma'lumotga ega bo'lgan. Xodimlarining milliy tarkibi esa quyidagicha bo'lgan: vazirlikda 9 dan ortiq millat vakillari faoliyat yuritib, ulardan rus millatiga mansub xodimlar 60 %, o'zbek millatiga mansub xodimlar 13 %, yahudiy millatiga mansub xodimlar 0,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, qolgan qismini tatar, ukrain, gruzin, arman, belorus va polyak millatiga mansub xodimlar tashkil etgan. Vazirlik xodimlarining jinsiy tarkibiga ko'ra 47 %i erkaklar va 53 %i ayollardan iborat bo'lgan¹⁹⁶.

Moliya vazirligining bitta boshqarmasi Soliqlar va yig'imlar boshqarma bo'lib, uning tarkibidagi rejalashtirish, qishloq xo'jaligi to'lovlari, shahar va mahalliy soliqlar, reviziya (taftish) bo'limlarida jami 14 nafar xodim faoliyat yuritgan edi (1952 yil)¹⁹⁷.

¹⁹³ O'zMA, R-837-fond, 33-ro'yxat, 6190-yig'majild, 126-varaq.

¹⁹⁴ O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1251-yig'majild, 227-varaq.

¹⁹⁵ O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1251-yig'majild, 31-varaq.

¹⁹⁶ O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1251-yig'majild, 31-varaq.

¹⁹⁷ O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1418-yig'majild, 220-varaq.

Shu o'rinda, vazirlikning rasmiy hujjatlaridagi ma'lumotlarga tayangan xolda viloyatlar kesimidagi statistikaga qaraladigan bo'lsa, 1950 yilga kelib shtatlar soni yanada yanada ko'payganini ko'rish mumkin. Masalan, 1950 yilda birgina Xorazm viloyatida soliq xodimlari 181 tani tashkil etib, ulardan 95 % mahalliy kadrlar va 13 % ayollar (boshqa viloyatlarga qaraganda mahalliy xodimlarning ulushi yuqoriligi qayd etiladi) bo'lgan. Oliy ma'lumotlilar – 1 ta, tugallanmagan o'rta maktab – 78 ta, o'rta ma'lumot – 28 ta, o'rta maktab – 68 tani tashkil etgan¹⁹⁸. Bundan tashqari tugallanmagan o'rta maktab 40 % dan ko'p bo'lgan, o'rta maktabni tugatganlar 37,5 % ga to'g'ri kelgan.

Aynan shu yilda Toshkent viloyati moliya bo'limida, soliq lavozimida ishlovchilar 6 tani tashkil etib, ulardan 3 nafari rus, qolgan 3 tasi arman, o'zbek va yahudiy millatiga mansub xodimlar bo'lgan. Ulardan ikki nafari oliy ma'lumotga ega bo'lib, 3 nafari esa o'rta maxsus va bittasi tugallanmagan o'rta ma'lumotga ega bo'lgan¹⁹⁹.

O'zbekiston SSRda tumanlar kesimida moliya xodimlari 3294 ta bo'lsa, shulardan soliq sohasida ishlovchilar 1995 tadan iborat bo'lib, 60% dan ko'proqni tashkil etgan.

Bu paytda O'zbekiston SSR tumanlari moliya bo'limida Davlat daromadlari bo'yicha inspeksiya bo'lib, uning tarkibida tuman moliya bo'limi mudiri o'rinbosari inspeksiya boshlig'i, katta inspektor, bosh iqtisodchi, iqtisodchi va inspektorlar faoliyat yuritgan²⁰⁰.

Shuni alohida qayd etish joizki, O'zbekiston SSR Moliya vazirligi shtatlar jadvalini o'zi mustaqil ravishda tasdiqlash huquqiga ega bo'lmagan, shtatlar SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Davlat Shtat Komissiyasi tomonidan tasdiqlangan. Masalaga bunday yondoshuv ittifoqdosh respublikalardagi hududiy xususiyatlarni hisobga olishda ayrim qiyinchilik va muammolarni yuzaga keltirgan edi.

¹⁹⁸ Xorazm VDA, R-40-fond, 1-ro'yxat, 111-yig'majild, 9-varaq.

¹⁹⁹ O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1516-yig'majild, 165-166-167-varaqlar.

²⁰⁰ O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1504-yig'majild, 95-varaq.

O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan 1955 yil 13 yanvarda (15-sonli) qabul qilingan qaror asosida O‘zbekiston SSR Moliya vazirligining tuzilmasi qayta shakllantirilgan²⁰¹ va bu tuzilma vazir M.Isametdinov tomonidan tasdiqlangan. Vazirlikning tuzilmasining rahbariyat qismiga e‘tibor qaratsak, unda 7 ta shtat bo‘lib, vazir – M.Isametdinov, uning birinchi o‘rinbosari – V.I.Yuran, ikkinchi o‘rinbosari – X.M.Gafurov, uchinchi o‘rinbosari – G.X. Xalilov, Moliya vaziri yordamchisi – M.V. Chekasin, Maxsus ishlar bo‘yicha katta inspektor – N.P. Fokina, huquqshunos maslahatchi – M.A. Avrunin kabilar ishlaganini ko‘rish mumkin (ulardan bittasi o‘zbek, qolganlari boshqa millat vakillari bo‘lgan). Vazirlikdagi 5 ta boshqarmadan ikkitasida soliq bilan bog‘liq bo‘limlar faoliyat yuritgan. Jumladan, Davlat daromadlar boshqarmasining tarkibida Aylanma mablag‘lardan undiriladigan soliqlarni rejalashtirish va ro‘yxatga olish bo‘limi (4 ta xodim), shuningdek, Soliqlar va yig‘imlar boshqarmasida Shahar va mahalliy qishloq soliqlarini undirish bo‘limlari (12 ta xodim) faoliyat olib borgan. Ikkita boshqarma xodimlarini qo‘shib hisoblaganda 26 nafarni tashkil etgan. Vazirlik shtat birligida 143 ta xodim faoliyat olib borgan bo‘lsa, soliqchilar 11% ni tashkil etgan²⁰².

Soliq xodimlarining 1955 yildagi milliy tarkibi va kadrlarning ma‘lumotini viloyatlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, bu paytda Andijon viloyati moliya bo‘limida 35 ta shtat birligi bo‘lib, ulardan 5 tasi soliqchilarga ajratilgan. Bu xodimlarning 3 nafari o‘zbek, rus va yahudiy (1) bo‘lib, ularning 4 nafari o‘rta va 1 nafari tugallanmagan ma‘lumotga ega bo‘lishgan. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish lozimki, shu yili viloyatda bitta ham oliy ma‘lumotli mutaxassis faoliyat yuritmagan edi²⁰³.

Namangan viloyati moliya bo‘limida 42 ta shtat birligidan 6 tasi soliq sohasiga berilgan. Ular milliy tarkibiga ko‘ra, o‘zbek va tatar (2

²⁰¹ O‘zMA, R-93-fond, 15-ro‘yxat, 1641-yig‘majild, 123-varaq.

²⁰² O‘zMA, R-93-fond, 15-ro‘yxat, 1641-yig‘majild, 124-125-varaqlar.

²⁰³ O‘zMA, R-93-fond, 15-ro‘yxat, 1516-yig‘majild, 171-172-varaqlar.

tadan), rus va eron (1 ta) millat vakillaridan, ma'lumoti bo'yicha 2 ta oliy, 1 ta o'rta va 3 ta tugallanmagan o'rta ma'lumot ega xodimlardan iborat bo'lgan²⁰⁴.

Samarqand viloyati moliya bo'limida 43 ta shtat birligidan 7 tasi soliq lavozimi bo'lgan. Milliy tarkibiga ko'ra, o'zbek, arman va rus (1), tatar (2), eron (2) millat vakillari ishlagan. Ma'lumotiga ko'ra, soliq bo'limi boshlig'i 2-bosqich moliya texnikumi talabasi, 1 nafari oliy ma'lumotli, 1 nafari boshlang'ich ta'limni tugatgan va 4 nafari tugallanmagan o'rta ma'lumot ega bo'lganlar²⁰⁵.

Buxoro viloyati moliya bo'limida 33 ta shtat birligi bo'lib, shundan 5 tasi soliqchilar bo'lishgan. Ulardan rus (1), tatar (3) va 2 nafari qumiq millati vakillari bo'lgan bo'lsa, ular ma'lumoti bo'yicha 2 tasi o'rta 4 nafari tugallanmagan o'rta ma'lumot ega bo'lgan²⁰⁶.

Qoraqalpog'iston ASSR Moliya vaziri tomonidan jami 42 ta shtat birligi tasdiqlangan bo'lib, shundan 7 ta lavozim soliqchilarga berilgan. Soliqchilarning tarkibida bo'lim boshlig'idan tashqari 3 ta o'rta maktab va 1 tasi oliy ma'lumot, 2 ta o'rta ma'lumotlilar bo'lgan²⁰⁷.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, 1956 – 1959 yillar oralig'ida Moliya vazirligining boshqaruv tizimida muntazam o'zgarishlar bo'lib, vazirlikning davlat daromadlari boshqarmasida savdo aylanmasi solig'i va davlat daromadlar, kolxozlardan tushadigan soliq hisob kitobi bo'limlari ham tuzilgan edi.

1960 yil vazirlikda shtatlar soni oshirilib, 168 ta yetkazilgan. Vazirlik 8 ta boshqarmadan tuzilgan bo'lib, bularning ichida xodimlar soni jihatidan ikkinchi o'rinda turgan Davlat daromad boshqarmasi to'rtta bo'limdan ya'ni, aylanma mablag'lar solig'i bo'lim, daromadlardan soliq undirish bo'limi, soliq va boshqa qo'shimcha daromadlarni yig'ish bo'limi hamda rejalashtirish va ro'yxatga olish

²⁰⁴O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1516-yig'majild, 173-175-varaqlar.

²⁰⁵O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1516-yig'majild, 176-varaq.

²⁰⁶O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1516-yig'majild, 177-varaq.

²⁰⁷O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1516-yig'majild, 182-183-varaqlar.

bo'limlaridan iborat bo'lgan²⁰⁸. Boshqarma tarkibida 24 ta xodim faoliyat yuritgan bo'lsa, 14% dan ortig'ini soliqchilar tashkil etgan.

1970-yil Moliya vazirligining tarkibida 203 ta xodim Davlat daromadlar boshqarmasida 4 ta bo'lim 27 ta xodim bo'lgan bo'lsa, 13% dan ortig'ini soliqchilar tashkil etgan²⁰⁹.

1976-yil 9-martdagi O'zbekiston SSR Moliya vaziri o'rinbosari U.Sattorov tomonidan tasdiqlangan shtat jadvalida xodimlar soni 231 tani tashkil etib, vazirlik rahbariyat, 12 ta boshqarma, 7 ta bo'limdan iborat bo'lgan. Davlat daromadlar boshqarmasi, rahbariyat, shuningdek, quyidagi beshta bo'limdan: savdo aylanmasi solig'i bo'lim, daromadlardan soliq undirish bo'limi, soliq bo'limi, boshqa qo'shimcha daromadlarni yig'ish bo'limi, rejalashtirish va ro'yxatga olish bo'limlaridan iborat bo'lgan. Xodimlarning umumiy soni 29 tani tashkil etib, vazirlik xodimlarining 12,5% dan ortig'i soliqchilar bo'lishgan²¹⁰.

Ma'lumotlar tahliliga ko'ra har besh yilda moliya sohasida shtatlar soni o'sib borgani kuzatiladi. O'z navbatida, moliya sohasida shtatlar sonining oshishi soliq sohasida shtatlar sonining o'sishiga ta'sir etgan. Xususan, 1980 yilda O'zbekiston SSR Moliya vazirligi shtatlar soni tarkibida 252 taga yetgan bo'lsa, ulardan oliy ma'lumotlilar soni 6 taga, o'rta ma'lumotlilar 26 ta, nomutaxassislar 2 taga kamaygan. Moliya va soliq sohasidagilarning 244 tasi mutaxassis bo'lib, ular jami xodimlarning 99,6% tashkil etgan²¹¹.

1980-yilda Davlat daromadlar boshqarmasining strukturasi o'zgarishlar amalga oshirilib, uning tarkibida oltinchi – taftish (reviziya) bo'limi tashkil etiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, respublika soliq siyosati va soliq boshqarmasi (Moliya vazirligi tasarrufidagi) strukturasi amalga oshirilgan o'zgarishlarga qaramay, soliq tizimidagi kamchiliklar keyingi yillarda ham kuzatildi. Xususan, O'zbekiston SSR Moliya vazirligi

²⁰⁸ O'zMA R-93-fond, 15-ro'yxat, 2507-yig'majild, 78-87 varaqlar.

²⁰⁹ O'zMA R-93-fond, 15-ro'yxat, 3486-yig'majild, 155-156-varaqlar.

²¹⁰ O'zMA R-93-fond, 15-ro'yxat, 4269-yig'majild, 3-13 varaqlar.

²¹¹ O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 4886-yig'majild, 117-varaq.

tomonidan Qoraqalpoq ASSR Moliya vaziri, viloyat moliya bo'limlari va Toshkent shahar moliya bo'limiga 1982 yilda soliq hisobotini tuzishdagi kamchiliklar to'g'risida yuborilgan maktubda keltirilishicha, "xodimlar o'rtasida shunday holatlar bo'lganki, hattoki arifmetik xatolarga yo'l qo'yilgan hamda boshqa hisobotlar yoki mazkur hisobotning bo'limlari o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lmagan"²¹². Masalan, "Buxoro viloyat moliya bo'limining "1982-yil uchun qishloq xo'jaligi solig'i to'lovchilarini hisobga olish va soliq summasini hisoblash natijalari to'g'risida"gi 14-gd. sonli shakl hisobotida qishloq xo'jaligi solig'i bo'yicha imtiyoz taqdim etilgan kolxozchilar xo'jaliklari soni noto'g'ri hisoblangan. Bu hisobotda Jizzax viloyat moliya bo'limi ham kolxozchilar xo'jaliklari bilan bir xil asoslarda soliqqa tortiladigan va imtiyoz taqdim etilgan ishchi hamda xizmatchilar xo'jaliklari sonini hisoblashda aynan shunday xatoga yo'l qo'yganlar. Qashqadaryo viloyat moliya bo'limi tomonidan ushbu hisobotning birinchi bo'limida hisobga olingan xo'jaliklar soni 2948 taga ko'p ko'rsatilgan"ligi – qayd etiladi²¹³. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu davrda soliq sohasidagi kamchiliklar respublikadagi barcha viloyat, shahar va tumanlarida kuzatilgan edi.

Sovet jamiyatida boshlangan "qayta qurish" siyosati, iqtisodiy qarash va mezonlarning o'zgarishi soliq sohasiga ham ta'sir qildi. Jumladan, 1990 yil 3 aprelda Moliya vazirligi tasarrufidagi boshqarma o'rnida "Davlat bosh soliq inspeksiyasi" tashkil etilib²¹⁴, inspeksiya 14 bo'limdan iborat bo'ldi.

Hududiy jihatdan bitta viloyat misolida tahlil etiladigan bo'lsa, masalan, Samarqand viloyati soliqlar inspeksiyasi boshlig'i Sh.Safarov tomonidan 1990 yil 1 iyundagi tasdiqlangan ma'lumotga ko'ra viloyat kesimida soliq sohasining tuzilishi rahbariyat va 6 ta bo'limdan iborat

²¹² O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 5198-yig'majild, 4-varaq.

²¹³ O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 5198-yig'majild, 5-varaq.

²¹⁴ O'zMA R-93-fond, 15-ro'yxat, 6530-yig'majild, 1-5 varaqlar.

boʻlgan²¹⁵. Bular: Rahbariyat – Davlat soliq inspeksiyasi boshligʻi, Davlat soliq inspeksiyasi boshligʻi muovini, Sekretar-mashinistka va Bosh buxgalterni tashkil etgan. Shuningdek, davlat ijara, qoʻshma va boshqa korxonalar soliqlari hamda resurslari toʻlovlari boʻlimi boʻlib, uning tarkibida 6 ta xodim faoliyat olib borgan. Inspeksiya boshligʻi muovini – boʻlim boshligʻi, Bosh davlat soliq inspektorlari, Katta davlat soliq inspektorlari va Davlat soliqlar inspektoridan iborat boʻlgan.

Shu bilan birga, kooperativ korxonalar, jamoat tashkilotlari va jamoat xoʻjaliklari soliqlari boʻlimi ham faoliyat yuritib, unda 5 ta xodim – boʻlim boshligʻi, Katta davlat soliq inspektorlari va Davlat soliq inspektorlari xizmat qilgan.

Aholidan tushadigan soliqlar va boshqa soliqlar boʻlimida 3 nafar xodimlar, yaʼni, boʻlim boshligʻi, Bosh davlat soliq inspektori va Davlat soliq inspektorlari faoliyat yuritgan.

Soliq inspeksiyalari ishlarini nazorat qilish va tashkiliy instruktorlik boʻlimi mavjud boʻlib, unda boʻlim boshligʻi, Bosh davlat soliq inspektori va Davlat soliq inspektorlari ishlagan.

Hisob, analiz, statistika va umumlashgan rejalashtirish boʻlimida esa – boʻlim boshligʻi, Katta davlat soliq inspektori va Davlat soliq inspektorlari faoliyat yuritgan.

Umumiy boʻlimda 3 ta xodim faoliyat olib borgan bular – boʻlim boshligʻi mutaxassislar boʻyicha inspektor, inspektor va xoʻjalik boʻlimi boshliqlaridan iborat boʻlib, viloyatda 28 ta xodim ish olib borgan²¹⁶.

Shu oʻrinda alohida qayd etish kerakki, tahlil etilayotgan yillarda sovet davlati tomonidan Oʻzbekistondagi soliq idoralarini yetakchi mutaxassislar bilan taʼminlaydigan bitta ham oliy oʻquv yurti ochilmadi. Bu davrda faoliyat yuritgan Toshkent Xalq xoʻjaligi instituti, Toshkent Moliya iqtisodiyot instituti va Samarqand qishloq xoʻjaligi institutlari asosan moliya sohasiga kadrlar tayyorlab beruvchi oliy oʻquv yurtlari hisoblangan edi.

²¹⁵ OʻzMA R-93-fond, 15-roʻyxat, 6331-yigʻmajild, 62-varaq.

²¹⁶ OʻzMA R-93-fond, 15-roʻyxat, 6331-yigʻmajild, 63-varaq..

Aslini olganda, respublika soliq idoralarida faoliyat yuritgan xodimlarning aksariyati oʻrta maxsus bilimga ega boʻlgan mutaxassislar edi. Ular respublikaning turli viloyatlari va qoʻshni ittifoqdosh respublikagi oʻquv yurtlari, jumladan, Samarqand moliya texnikumi, Qoraqalpogʻiston ASSR Moliya texnikumi, Ashxobod moliya texnikumi, Toshkent moliya texnikumi va boshqalarda taʼlim olgan edi. Bu haqda, soliq idora xodimlarining ayrimlari oliy maʼlumotli boʻlish uchun Toshkent Xalq xoʻjaligi institutida (sirtqi) yoki boshqa moliya texnikumlarida (ayniqsa, “Soliq va aholi hamda kolxozlardan yigʻim undirish”, “Yigʻim undirish va soliq boʻyicha moliyachi” yoʻnalishlarida)²¹⁷ tahsil olgani haqida oʻsha davrdagi arxiv hujjatlarida ham maʼlumotlar keltiriladi²¹⁸.

Xulosa qilib aytganda, tadqiq etilayotgan yillarda respublika soliq siyosatidagi islohotlar, ayrim soliqlarning bekor qilinishi hamda soliq boshqarmasi (Moliya vazirligi tasarrufidagi) strukturasi amalga oshirilgan oʻzgarishlarga qaramay, soliq tizimidagi kamchiliklar doimiy ravishda kuzatildi. Bu jarayonning oʻziga xos obyektiv va subyektiv sabablari boʻlib, ulardan biri soliq organlarining shaxsiy tarkibini malakali va tajribali kadrlar bilan taʼminlash masalasi edi.

Sakkizinchi bob boʻyicha oʻzini oʻzi nazorat qilish uchun savollar:

1. Ikkinchi jahon urushi yillarida joriy qilingan soliqlar haqida maʼlumot bering?

2. Boʻydoq, yolgʻiz va farzandsiz fuqarolarga soliqlarni joriy qilishdan maqsad nima boʻlgan?

3. Harbiy soliq qachon joriy etilgan va fuqarolardan qanday miqdorda undirish belgilangan?

4. Davlat poshlinasi qanday amalga oshirilgan?

5. “Ishchi va xizmatchilarning ish haqidan soliqlar olishni bekor qilish toʻgʻrisida”gi Qonun qachon qabul qilingan?

²¹⁷OʻzMA, R-93-fond, 15-roʻyxat, 5903-yigʻmajild, 3-8 varaqlar.

²¹⁸OʻzMA, R-93-fond, 15-roʻyxat, 2497-yigʻmajild, 117-126-varaqlar.

6. Soliq va yig'img'lar boshqarmasida 1946-1991 yillarda qanday o'zgarishlar bo'lgan?

7. Soliq sohasiga kadrlar qaysi o'quv yurtlarida tayyorlangan?

8. Qishloq xo'jaligi solig'i haqida ma'lumot bering?

9. "Qahramonona unvoni"ga belgilangan talab nimalardan iborat bo'lgan?

10. O'zbekiston SSRda soliq idoralarida faoliyat yuritgan xodimlarning aksariyati o'rta maxsus bilimga ega mutaxassisleri bo'lgan bo'lib, soliqchilar qaysi o'quv yurtlarida tahsil olgan?

Test savollari:

1. Soliq va yig'img'lar boshqarmasida qachon Davlat Daromadlar boshqarmasi tarkibiga birlashtirilgan?

a) 1956

b) 1945

s) 1960

d) 1975

2. Bo'ydoq, yolg'iz va farzandsiz fuqarolar uchun soliqni joriy etish tizimi qachon amaliyotga joriy qilingan?

a) 1941

b) 1939

s) 1943

d) 1975

3. Bo'ydoq, yolg'iz va farzandsiz fuqarolari solig'i to'lashi qonun bilan belgilab qo'yilgan bo'lib, bunda erkaklar uchun belgilangan yosh qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) 20 yoshdan 50 yoshgacha

b) 20 yoshdan 45 yoshgacha

s) 18 yoshdan 55 yoshgacha

d) 25 yoshdan 45 yoshgacha

4. Bo‘ydoq, yolg‘iz va farzandsiz fuqarolari solig‘i to‘lashi qonun bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bunda ayollar uchun belgilangan yosh qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) 20 yoshdan 50 yoshgacha
- b) 20 yoshdan 45 yoshgacha
- s) 18 yoshdan 55 yoshgacha
- d) 25 yoshdan 45 yoshgacha

5. “Harbiy soliq to‘g‘risida”gi farmoni qachon qabul qilingan?

- a) 1941
- b) 1939
- s) 1943
- d) 1975

6. Harbiy soliq SSSR fuqarolaridan necha yoshga to‘lganda to‘lash ko‘rsatilgan?

- a) 20 yoshdan
- b) 23 yoshdan
- s) 18 yoshdan
- d) 25 yoshdan

7. Qishloq xo‘jaligi solig‘i to‘g‘risidagi qonun qachon qabul qilingan?

- a) 1941
- b) 1939
- s) 1953
- d) 1975

8. Qishloq xo‘jaligi solig‘i to‘g‘risidagi qonun nechta moddadan iborat bo‘lgan?

- a) 12-modda
- b) 30-modda
- s) 18-modda
- d) 10-modda

9. “Harbiy soliq to‘g‘risida”gi farmoni nechta moddadan iborat bo‘lgan?

- a) 12-modda
- b) 30-modda
- s) 18-modda
- d) 10-modda

10. Bo‘ydoq, yolg‘iz va farzandsiz fuqarolari solig‘i nechta moddadan iborat bo‘lgan?

- a) 12-modda
- b) 30-modda
- s) 18-modda
- d) 10-modda

9-BOB. SOLIQQA OID ILMIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA SOLIQLAR XUSUSIDAGI ILK UMUMIY NAZARIYALAR

§ 9.1. Dastlabki soliq nazariyalarining shakllanishi va soliqlar tabiatiga oid ilmiy qarashlar

XII asr boshlarida yuzaga kelgan soliqqa tortish nazariyalarining shakllanishiga iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda soliq to'lovlarining yuzaga kelishini ilmiy asoslashga ehtiyoj tug'ildi, chunki o'sha davrgacha soliqlar haqidagi barcha g'oyalar tasodifiy bo'lgan va shuning uchun jiddiy nazariy tadqiqotlar bo'lmagan.

V.M. Pushkareva soliqqa tortishning nazariy asoslarini paydo bo'lish sabablarini aniqlar ekan: "Amaliyot soliqlarning adolatli undirilishi borasida jamiyat fikrini shakllantiradigan moliyaviy ilmdan ildamlab ketdi, deb qayd etadi. Hukumatlar aholi tomonidan soliqlarni rad etish, ularni to'lashdan bo'yin tovlash bilan yuzlanmoqda. Shuning uchun moliya fani davlat ehtiyojlariga javob berar ekan, soliqlarning nazariy asoslanishini o'z zimmasiga oldi"²¹⁹. Bunday yondashuvga S.V.Barulin gumon bilan qaraydi. Uning fikricha, soliqqa tortish nazariyasiga "davlat buyurtmasi" olimlar, mutafakkirlar va iqtisodchilar tomonidan bu sohaga bo'lgan qiziqish darajasini orttirgan, deb hisoblash biroz munozaralidir²²⁰.

I.I.Kucherovaning fikriga ko'ra, aynan soliqlarning davlat daromadlari manbai sifatida mustahkam ildiz otishi, vaqt o'tishi bilan jamiyatda soliqlarning roli ortib borishi, ularning zaruriyatini ilmiy asoslashni, kelib chiqish holatlarini o'rgatishni talab etdi²²¹.

²¹⁹ Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов: учеб. пособие. М., Вузовский учебник 2008. С. 76.

²²⁰ Барулин С.В. Теория и история налогообложения: учеб. пособие. М., Кнорус. 2006. – С. 24.

²²¹ Кучеров И. И. Теория налогов и сборов (Правовые аспекты). М., ЮрИнфоР ЗАО. 2009. – С 11.

Soliqlarning mohiyati va ularning iqtisodiy tizimdagi o'rnini haqidagi tasavvur jamiyat munosabatlari rivojlanishi bilan o'zgarib bordi. Adabiyotlarga ko'ra soliqlarning tabiati haqidagi g'oyalar xususidagi nazariy konsepsiyalar shakllanishining uch bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin: zamin yaratilishi, shakllanishi, ilk qarashlarning paydo bo'lishi.

Birinchi bosqich – zamin yaratilishi

Dastlabki davrlarda aksariyat soliqlar vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lib, ma'lum vaqt o'tgandan keyin bekor qilinadi yoki yangilari joriy etiladi. Tinimsiz urushlar va tinchlik davrida ham saqlab turiladigan armiyalar ta'minoti katta xarajatlarni talab qilardi. Shu va yuzaga kelgan boshqa vaziyatlar soliqlarning davlat daromadlari doimiy hamda barqaror manbaiga aylanishiga sabab bo'ldi. Urush davrida joriy etilgan ayrim vaqtinchalik soliqlar bekor qilinmasdan, aksincha soliqlar soni oshirib borildi. Bu o'z-o'zidan aholining noroziligiga sabab bo'ldi.



Bu haqda N.I. Turgenev²²² “Aynan soliq va moliyaviy tartibsizliklar hammasidan ko'proq qo'zg'olonlar, inqiloblar va boshqa jamiyat iztiroblariga sabab bo'lgan” deya bizga eslatadi. Angliyada XIII asrdagi Hurriyatlar buyuk xartiyasi va parlamentarizmning tug'ilishi voqealari, XIV asrdagi Uot Tayler qo'zg'oloni, XVII asrdagi ingliz inqilobi kabi soliqlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan voqealarni Turgenev fikriga misol sifatida keltirish mumkin. “Tarixdan ma'lumki, soliqlar, ayniqsa ahmoqona soliq tizimlari niderlandlarni Ispaniyadan, shveysariyaliklarni Avstriyadan, frislandlarni Daniyadan va nihoyat kazaklarni Polshadan mustaqil bo'lishiga sabablardan biri bo'lgan. Shuningdek, xalqdan mahoratsiz (tajribasiz) pul yig'ish Lyuter

²²² Тургенев Н. Опыт теории налоговъ. Санкт-Петербургъ. Типография Н.Греча. 1818 г. С.34. Копия pdf в Harvard college library. www.books.google.com.

reformatsiyasiga olib kelgan. Moliyaning parokandaligi albatta fransuz inqilobiga sabab bo'lmadi, lekin uning yuz berishini osonlashtirdi va uning o'tishiga sezirlarli ta'siri o'tkazdi", deb yozgan Turgenev.

Ikkinchi bosqich – shakllanishi

Yuzaga kelgan bunday vaziyat moliya fani tomonidan soliqlarning nazariy asoslari yaratilishini davr taqozosiga aylantirdi. Shu tariqa soliq nazariyasi shakllana boshladi.

Soliqlar nazariyasi shakllanishiga oid N.I.Turgenevning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli. "Bizda moliya haqida ko'p gapirilib, kam yozilayotgan hozirgi davrda moliyaning asosi bo'lib xizmat qiluvchi soliq nazariyasini o'rganish yetarli bo'lmagani kabi, mutlaqo ortiqcha ham bo'lmaydi. Odamzodning tabiiy yoki yovvoyi holatida soliqqa ehtiyoj bo'lgan emas. Dastlab bitta, keyin bir necha to'dalardan jamoa (jamiyat)ning tarkib topishi odamlar o'rtasida jamiyat foydasiga yakka tartibda (xususiy) qurbonlik, ya'ni xayriya qilish zarurligini tasdiqlab qo'ydi. Bu qurbonliklar boshida oddiy yumushlarni bajarish yoki mevalarning bir qismini berish tarzida bo'lgan bo'lsa, keyinchalik jamiyatning takomillashib borgani sayin ular ham mukammallashib bordi va hozirgi holatga yetib keldi"²²³.

Soliq nazariyasi dastlab umumiy soliq nazariyasi sifatida shakllangan bo'lsa, keyin xususiy soliq nazariyalarining tamal toshi qo'yila boshlandi. Soliqlarning umumiy nazariyasi orqasidan xususiy soliq nazariyalari shakllangan bo'lsa, soliq munosabatlari murakkablashib borgani sayin hozirgi kunga kelib soliqlarning zamonaviy nazariyalari ham shakllanib ulgurdi.



²²³ Тургенев Н. Опыт теории налоговъ. Санкт-Петербургъ. Типография Н.Греча. 1818 г. С.34. Копия pdf в Harvard college library. www.books.google.com.

Uchinchi bosqich – ilk ilmiy qarashlarning paydo bo‘lishi.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyatiga bevosita bag‘ishlagan ilk ilmiy tadqiqot olib borgan olim sifatida U.Petti²²⁴ tan olinishiga qaramasdan, undan sal oldinroq 1651-yilda e‘lon qilingan Tomas Gobbsning “Leviafan” nomli siyosiy-falsafiy asarida soliqlarga alohida e‘tibor qaratilgan. Gobbs o‘z asarida ibtidoiy jamiyatni “hamma hammaga qarshi urush” sifatida tasvirlagan. Jamiyatning bunday halokatli holatini oldini olish maqsadida odamlar davlat hokimiyatini yaratishadi deb hisoblaydi. Ushbu hokimiyatni namoyon qiluvchi kishilarning borligini ta‘minlash uchun jamiyat a‘zolari umumiy jamg‘arma – fisk (lot. “fiskus” - g‘azna), ya‘ni davlat g‘aznasini tashkil etadilar. Uning fikricha, “soliqlar – jamiyat tinchligi sotib olinadigan baho”²²⁵ bo‘lib hisoblanadi.



Sal keyinroq Voban (1707 yil) Gobbs fikrini boshqacha talqin qildi: “Davlat hukmdori ularga (aholiga) bu himoyani berolmaydi, qachonki ular hukmdorga zarur mablag‘larni yetkazib bermasalar”.

Yanada keyinroq Sharl Lui Monteskye (1748-yil) yuqoridagi qarashni tamomila shakllantirdi. U “soliq to‘lovchilar o‘zlarining mol-mulkulari ma‘lum bir qismini boshqa qismidan xotirjam foydalanishlari uchun berishadi”, degan fikrni ilgari suradi.

Soliqa oid “jamiyat shartnomasi” nazariyasi J.J.Russo nomi bilan bog‘liq bo‘lib,



²²⁴Petti U.ning 1662 yilda chop etilgan “Soliq va yig‘imlar to‘g‘risida traktat” nomli asarida soliqlarning nazariy jihatlari ilk bor tadqiq etilgan. U.Petti soliqlarni mutanosib bo‘lishi zarur, chunki bu turli miqdordagi daromadlarning neytralligini ta‘minlaydi degan g‘oyani ilgari suradi.

²²⁵ Майбурд Е.М. Введение в историю экономической мысли. От пророков до профессоров. - М.: Дело, Вита-Пресс, 1996. - 128 С.

uning asosida “fiskal shartnoma” nazariyasi yoki unga yaqin bo‘lgan davlat va fuqarolar o‘rtasida xizmatlar almashinuvi nazariyasi hosil bo‘ldi. Keyinroq bu konsepsiya bir muncha chuqurlashtirildi va soliq – bu jamiyat hayotida alohida shaxslarning ishtirok etish shakli, degan g‘oya shakllantirildi.

XIX asrda soliq jamiyat boyligini qayta taqsimlovchi instrument sifatida ko‘rib chiqildi. Unga ko‘ra kuchliroq yelkalar og‘irroq yukni ko‘tarishi kerak, zaiflarni soliq majburiyatidan ozod qilish va kuchsizlarni qo‘llab-quvvatlash, ba’zida esa jamiyat yelkasiga chiqarish kerak, degan fikrga kelindi²²⁶.

Merkantilistlar maktabining namoyondalaridan biri J.Bodin (fr. Jean Bodin; 1530-1596) ham soliqlarga shunday ko‘z bilan qaraydi²²⁷. Biroq, merkantilistlar garchi XVII asrda asosiy tamoyil hisoblangan tenglik tamoyiliga o‘zining sodiqligini bildirgan bo‘lsalar-da, soliq solish tamoyillarini bevosita ishlab chiqish muammosini o‘z oldilarga maqsad qilib qo‘ymaganlar.



Soliqqa tortishning ilk nazariyalarini F.Akvinskiy, T.Gobbs, S.P. de Voban, Sh.Monteskye, S.Volter, O.Mirabo, J.Sismondi, T.Maltuz, A.Tyer, D.Mak-Kullox ilmiy ishlarida kuzatish mumkin.

F.Akvinskiy (1225-1274) soliqlarni “qaroqchilikning ruxsat etilgan shakli” deb ta’riflagan. U soliqni olijanob odamlarning boyligi hisobiga davlat xarajatlarini moliyalashtirishning eng “Xudoga ma’qul shakli”, soliqsiz esa buning umuman iloji yo‘q²²⁸, deb hisobladi.

F.Bekon (1561-1626) o‘zining “tajribalar yoki axloqiy-siyosiy ko‘rsatmalar” asarida shunday yozadi: “Xalqning roziligi bilan

²²⁶ Shu yerda 128-134 b.

²²⁷ Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов: Учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 1996. – 58 с.

²²⁸ Черник Д. Г., Шмелева Ю. Д. Налоги и налогообложение. Учебник и практикум для СПО. 2-е издание, переработанное и дополненное. “Юрайт”. М. 2015. С. 493.

undiriladigan soliqlar uning mag'rurligini pasaytirmaydi. Xalqning roziligi bilan yoki uning rozilgisiz yig'im hamyon uchun farqsiz bo'lishi mumkin, ammo xalq ruhiyatiga ta'siri bir xil emas"²²⁹.

Davlatning rivojlanishi va uning funksiyalarini kengaytirish ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida soliqlar to'g'risidagi ilmiy qarashlarning evolyusiyasi bilan birga olib borilgan. Iqtisodiyot nazariyasi doirasida soliqlarning umumiy nazariyasi paydo bo'ladi.



Soliqlar umumiy nazariyasining tamal toshi ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati masalasidir. Soliqlar biror narsa evaziga to'lanishi kerak, shuningdek, ular beg'araz, boshqacha aytganda neytraldir. Dastlabki soliq nazariyalari o'zida qaytimlilikni ifoda etgan, ya'ni soliq to'lovchi davlat tomonidan taqdim etilgan muayyan narsa evaziga soliq to'laydi.

§ 9.2. Soliq nazariyalari tushunchasi va iqtisodiy ta'limotlarda soliqlarga oid nazariyalar tavsifi


Ta'kidlash joizki, ilk asosiy soliq nazariyalari XVII asrdan boshlab to'liq ta'limotlar sifatida shakllana boshladi va burjua fanida "soliqlarning umumiy nazariyasi" nomini oldi. Uning asosiy yo'nalishlari jamiyat iqtisodiy rivojlanishining bevosita ta'siri ostida shakllandi.

Soliq nazariyalari soliqlarning mohiyati va tabiati, ularning jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni, roli va ahamiyati haqidagi ilmiy bilimlarning u yoki bu tizimi sifatida tushunilishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, soliq nazariyalari soliqlarni ma'lum maqsad uchun tan olinishiga qarab, davlat soliq tizimlarini qurishning turli modellarini ifodalaydi²³⁰.

²²⁹ Бэкон Ф. Сочинение. В 2 т. М., 1972. Т. 2. С. 406.

²³⁰ Toshmatov Sh., G'iyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2021. – 267 b.

Bir muncha keng ma'noda esa soliq nazariyalari har qanday ilmiy va umumlashtirilgan ishlanmalar (umumiy soliq nazariyalari), shu jumladan ayrim soliqqa tortishning alohida masalalarini (xususiy soliq nazariyalari) o'zida ifoda etadi.



9.1-rasm. Iqtisodiy ta'limotlarda soliq'larga oid umumiy nazariyalar tavsifi²³¹

Xususiy soliq nazariyalariga har xil soliq turlari nisbati, soliqlar soni, ularning sifat tarkibi, soliq stavkasi va boshqalar haqidagi ta'limot kiradi. Xususiy nazariyaning yorqin namunasi "yagona soliq nazariyasi"dir. Umumiy soliq nazariyasining yo'nalishlari soliqqa tortishning umumiy maqsadini belgilasa, xususiy soliq nazariyalari soliqlarning qanday turlarini belgilash kerakligi, ularning sifat tarkibi qanday bo'lishi kerakligini asoslab beradi.

Soliqqa tortish nazariyalari soliqlarni joriy etish va soliqlarni yig'ish mexanizmlarining paydo bo'lishi, belgilanishi, shakllanishi hamda

²³¹Mualliflar tomonidan izlanishlari asosida shakllantirildi.

solliqlarning mohiyati va roli bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha turli qarashlar, fikrlar, g‘oyalar va ilmiy asoslar majmuidir.

Solliqlar nazariyasi tushunchasi ingliz yozuvchisi Davenant tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u yer egalari manfaatlarini himoya qilish va yer yagona daromad manbai bo‘lganligi sababli yer egalarini solliqlardan ozod qilishni taklif qilishga kirishgan²³².

Aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda solliqqa tortish nazariyalari ikki turga ajratilgan holda tadqiq etilgan:

- solliqqa tortishning umumiy nazariyalari

- solliqqa tortishning xususiy nazariyalari.

Lekin hozirgi kunga kelib solliqqa tortishning zamonaviy nazariyalari ham shakllanib ulgurgan.

Solliqlarning umumiy nazariyasiga berilgan ta’riflardan kelib chiqqan holda umulashtirib aytganda, solliq nazariyasi – bu solliqlarning mohiyati va tabiati hamda jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni, roli va ahamiyati to‘g‘risidagi ilmiy ta’limotlar tizimidir.

Solliqning umumiy nazariyalari uchta asosiy nazariyalarga, xususan solliqlar xususidagi ilk umumiy nazariyalar, solliqqa tortishning takomillashgan umumiy nazariyalari va solliqqa tortishning zamonaviy nazariyalariga ajratib o‘rganish mumkin.

O‘z navbatida, solliqlar xususidagi ilk umumiy nazariyalar to‘rtta asosiy nazariyalarga tasniflanadi. Bular: solliqning almashinuv nazariyasi, atomistik solliq nazariyasi, solliqning rohatlanish nazariyasi va solliqning “sug‘urta mukofoti” nazariyalaridir.

Shuningdek, solliqqa tortishning takomillashgan umumiy nazariyalari – solliqqa tortishning klassik nazariyasi, solliqqa tortishning keynschilik nazariyasi, solliqqa tortishning neoklassik nazariyasi (“neo”- yangi, yosh), solliqqa tortishning neokeynschilik nazariyasi, solliqning qurbonliklar nazariyasi va kollektiv (jamo) ehtiyojlar nazariyasiga

²³² Сорокина Ю. В. Финансовое управление и правовое регулирование финансовых отношений в России XVIII - нач. XX в. Воронеж, 2001. С. 133.

ajratiladi. Soliqqa tortishning neoklassik nazariyasi ham o‘z navbatida, monetarizm va taklif iqtisodiyoti nazariyalarga tasniflanadi.

Bundan tashqari, soliqqa tortishning zamonaviy nazariyalari mohiyatiga ko‘ra – optimal soliqqa tortish nazariyasi, Ramsey nazariyasi va Korletta-Xeyg qoidasi, soliqqa tortish chegarasi nazariyasi, Lorens egri chizig‘i nazariyalaridan tashkil topgan.

Soliqqa tortishning umumiy nazariyalari, soliqqa tortish maqsadini aks ettiruvchi umumlashtirilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarni ifodalasa, soliqqa tortishning xususiy nazariyalari aniq soliqqa tortish masalalari bo‘yicha ishlanmalarni ifodalaydi. Demak, umumiy nazariyalar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchisi, soliqqa tortishning kelib chiqishi va soliq tabiatini ochib beruvchi umumiy nazariyalar, ikkinchisi, soliqqa tortishning boshqarish (tartibga solish) nazariyalari hisoblanadi.


§ 9.3. Soliqning almashinuv nazariyasi va atomistik soliq nazariyasi

Soliqqa oid ilk umumiy nazariyalarni ko‘rib chiqar ekanmiz, almashinuv nazariyasi dastlabki umumiy soliq nazariyalaridan biri hisoblanib, u soliqlar davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatida qaytarilishi g‘oyasiga asoslanadi. Ushbu davrlarda soliqlarning dastlabki ekvivalentlik va qaytarishlilik xarakteriga asoslanib, soliq munosabatlarining “bir hujayrali” ilk mohiyati yoritilgan²³³.

Mazkur nazariyaning mohiyati shundan iboratki, fuqarolar soliq to‘lash orqali tashqaridan qilinadigan hujumlardan himoya, o‘z haq-huquqlarining himoya qilinishi yuzasidan ichki tartib-qoida ta‘minlanishi kabi xizmatlarni davlatdan sotib oladi. Biroq, bunday nazariya o‘rta asrlardagi holatga xos bo‘lib, go‘yo qirol va fuqarolar o‘rtasida shartnoma asosida soliq va boj to‘lovlari evaziga harbiy va huquqiy himoya almashinardi. Bunday sharoitlarda almashinuv nazariyasi mavjud munosabatlarning rasmiy mazmuni hisoblanardi xolos.

²³³ Барулин С. В. Теория и история налогообложения: Учеб. пособие. М.: Экономист, 2006. С – 35.

Almashinuv nazariyasi (yoki xizmatlarning ekvivalentligi nazariyasi) soliqqa tortishning qaytimlilik xususiyatiga asoslanadi, chunki fuqarolar soliqni to‘lar ekan davlatdan huquq va tartibni saqlash, himoya qilish, jamoat xavfsizligini ta’minlash va h.k. sotib olishadi. Bu nazariya B.Spinoza, G.Grotsiya, T.Gobbs, J.Russo va kabi erta burjua mutafakkirlarining asarlarida shakllantirilgan.



9.2-rasm. Soliqlar xususidagi ilk umumiy nazariyalar²³⁴

Bu nazariyaga ko‘ra soliq davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun mukofot vazifasini bajaradi. Bunda, almashinuv fuqarolar uchun ham, davlat uchun ham foydali ekanligi ta’kidlanadi. Nazariya shartnomaviy munosabatlar hukmron bo‘lgan o‘rta asr tizimi sharoitlariga mos keladi. Qirol shaxsiy xo‘jaligidan ajralmagan davlat xo‘jaligi asosida hududlarning (viloyatlar) daromadlari, soliqlar va bojlar bo‘yicha tushumlar bo‘lib, ular asosida huquqiy va harbiy himoya qilish hamda davlat hokimiyatining boshqa funksiyalarini amalga oshirilishi ta’minlangan²³⁵.

²³⁴Mualliflar tomonidan izlanishlari asosida shakllantirildi.

²³⁵ Гриценко В. В. Развитие учений о налогообложении. Финансовое право. Бюджетное право. Воронежский государственный университет. 2010. №1. 408-418 С.

Almashinuv (ayirboshlash) nazariyasining keyingi yondashuvlari davlatni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar subyektini deb hisoblab, fuqarolarning (jamiyatning) jamoaviy ehtiyojlarini amalga oshirishga ko'maklashadi. Shuning uchun davlat xo'jalik yurituvchi subyekt funksiyalarini amalga oshirishi, davlat ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan iqtisodiyotning o'z (davlat) sektoriga ega bo'lishi mumkin.

Soliqlar davlatning jamoa ehtiyojlarini qondirish faoliyatini ta'minlovchi moliyaviy manba hisoblanadi. Almashinuv nazariyasi soliqqa tortishning majburiyatini oqlaydi. Shuningdek, davlatning faoliyat sohasini kengaytirish, uni mamlakat iqtisodiy hayotini tartibga solishi uchun soliqlarning o'sishini mafkuraviy jihatdan asoslab beradi.

Almashinuv nazariyasi birinchi yozma soliq ta'limotidir. Keyinchalik, ilmiy jihatdan murakkab nazariyalarni ko'rib chiqamiz. Ularning ba'zilar ayirboshlash nazariyasining faqat yengil modifikatsiyasi bo'ladi, boshqalari boshqa sabablarga ko'ra quriladi. Biroq, oradan yuz yillar o'tib, bu ta'limot asoslarining tabiiyligi bilan o'ziga tortadi va tarafdorlari topiladi. Uning asosida, keyinchalik E.Seligmen, R.Sturm, L.Shteyn, A.Sheffle, F.Nitti, A.Vagner kabi mualliflar o'zlarining ilmiy-tadqiqotlarini amalga oshiradi.

Hatto keyinchalik almashinuv nazariyasi Dj.Byukenen, R.Lempman (AQSH), D.Xiks, D.Middlton (Buyuk Britaniya), D.Oyken, E. Shmalenbax (GFR) ishlarida rivojlantirildi. Ularning asosiy tezlari shundan iborat ediki, davlat jamiyatdan yuqori turuvchi, butun aholi manfaatlari yo'lida harakat qiluvchi organ bo'lib, soliqlar davlat jamiyat uchun ta'minlaydigan jamoat tartibi va ichki osoyishtalikning bahosidir. Iqtisodchi R.Lempman tomonidan biroz o'zgartirilgan tezis taklif etiladi. Uning fikricha, soliqlar to'lovchining davlatdan ma'lum xizmatlarni olishi uchun transfert to'lovlardan boshqa narsa emas²³⁶.

²³⁶ Олейникова О. В. Эволюция налоговых теорий и направления совершенствования налогообложения: автореферат дис. ... кандидата экономических наук: 08.00.01 / Институте международного права и экономики им. А.С. Грибоедова - Москва, 2007. - 18 с.

Hozirgi zamon iqtisodchilari orasida soliqning almashinuv nazariyasi faqat oʻrta asr moliya xoʻjaligi sharoitidagina amal qilgan, degan fikr mavjud. Biroq, almashinuv nazariyasining faqat oʻrta asr sharoitlariga mos kelishi haqidagi xulosaga kelish munozaralidir. Iqtisodiy, shu jumladan, har qanday hodisaning eng chuqur mohiyatini, uning oddiy va asl shaklida bilish mumkin. Almashinuv nazariyasida birinchi soliqlar, bojlar va yigʻimlar aynan shunday, yaʼni soliqlarni yigʻish va toʻlash mexanizmlarining zamonaviy “oʻsimtalari” (defektlari) va asoratlari bilan namoyon boʻladi.

Soliq munosabatlarining “bir hujayrali” dastlabki mohiyati birinchi pul soliqlarining qaytariladigan, ekvivalent va qoplab beriladigan xususiyatiga asoslanadi. Misol uchun, iqtisodiy nazariyada “tovarlar”ning umumiy toifasi sotish (almashtirish) uchun moʻljallangan inson mehnatining turli xil mahsulotlaridan olinadi va tovarning mohiyati (uni ishlatish va almashtirish qiymati) bir tovarning boshqasiga eng oddiy ekvivalent almashinuvidan olinadi. Shuning uchun soliqning almashinuv nazariyasi vaqt (yaʼni, faqat oʻrta asrlar) bilan cheklangan emas va soliqlar mohiyatiga “rasmiy yondashuviga muhtoj emas”. Yaʼni, u hech boʻlmaganda oʻzining asosiy gʻoyasi soliq munosabatlarining qaytarilishida (ekvivalentligi) obyektiv boʻlishi mumkin.

Tashqi dushmandan himoyani taʼminlash, ichki qonun-qoidalar, tartibni saqlash uchun armiya, sud, politsiya va boshqa davlat muassasalari kerak, ularni saqlash uchun esa mablagʻ talab etiladi. Shu maqsadda soliqlar undiriladi, yaʼni bir qiymatning boshqa qiymatga almashinuvi amalga oshiriladi. Masalan, sotuvchiga tovarlar uchun, advokatga esa maslahat uchun toʻlov amalga oshirilsa, davlat xizmatlari uchun haq soliqlar orqali amalga oshiriladi²³⁷.

Almashinuv nazariyasi pozitsiyasida turgan XIX asrdagi fransuz moliya maktabi vakillari (P.Lerua-Bolye, R.Sturm va boshq.) soliqni

²³⁷ Кулишер И.М. Очерки финансовой науки. Пг.: Наука и Школа, 1919. С. 76—77.

xizmat uchun to'lov sifatida ko'rib chiqishgan. Ularni sotsialist P.Prudon qo'llab-quvvatlaydi. Uning ta'kidlashicha, muayyan ehtiyojlarni qondirish uchun ham alohida shaxslar o'rtasida almashinuv mavjud bo'gani kabi boshqa muayyan ehtiyojlarni qondirish uchun ham shaxslar va jamoaviy shaxs – davlat o'rtasida almashinuv mavjud.

Soliq munosabatlarida qaytarilish xarakteri hamda to'langan soliqlar va davlatdan olingan xizmatlar o'rtasidagi bog'liqlik tan olinishining



muxoliflari odatda quyidagi dalillarni keltiradilar. “Birinchidan, amalga oshiriladigan har qanday oldi-sotdida bo'lgani kabi ixtiyoriy va erkin kelishuv yo'q, shuning uchun soliq to'lash bozorda sotib olingan tovarlar uchun pul to'lash kabi narsa emas. Shu bilan birga, shaxs to'laydigan soliq summasi bilan uning davlat faoliyatidan oladigan foydasi o'rtasida hech qanday

tenglikni o'rnatish mumkin emas. Nihoyat, davlatning xizmatlari jismoniy shaxslarga nisbatan juda noaniqdir, ular hech qanaqasiga to'lov (soliq) qiymatining ifodasini ololmaydilar. Shuning uchun davlat tomonidan alohida olingan shaxsga ko'rsatiladigan xizmatlarni baholash juda mushkul”²³⁸.



Soliq munosabatlaridagi ekvivalent almashinuvning o'ziga xos xususiyatlarini inkor etib bo'lmaydi, bu shubhasiz mavjud. Davlat xizmatlarini to'g'ridan-to'g'ri baholashning murakkabligiga qaramasdan, davlat xarajatlari orqali ularning almashinuv qiymatini bilvosita ifodalash mumkin. Soliq munosabatlarida ekvivalentlik (qaytarilish) soliq to'lovining individual maxsus holati sifatida emas,

²³⁸ Кулишер И.М. Очерки финансовой науки. Пг.: Наука и Школа, 1919. С. 76—77.

balki butun jamiyat miqyosida yigʻma toʻlov munosabatlari sifatida amalga oshiriladi.

Almashinuv nazariyasining ahamiyati shundan iboratki, iqtisodiyot va moliya fanining turli sohalaridagi barcha keyingi vakillari ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda unga kiritilgan asosiy gʻoyaga murojaat qilishadi. Mazkur nazariya ularni soliq munosabatlari va soliqlarning teng (qaytariladigan) yoki begʻaraz (qaytarilmaydigan) tabiatini jamoat tovarlari (xizmatlar) yoki jabrlanuvchi (ommaviy zarar) sifatida tan olish tarafdorlari va muxoliflariga ajratdi.

XVII-XVIII asrlarda shakllangan maʼrifat davrida almashinuv nazariyasining **atomistik nazariya** deb nomlangan turi paydo boʻldi. Atomistik nazariyaga fransiyalik mutafakkirlar Sebastyen Le Pretr de Voban (fr. Sébastien Le Prestre de Vauban, 1633-1707) (“jamoat shartnomasi” nazariyasi) va Sharl Lui de Monteskye (fr. Charles-Louis de Seconda, Baron de La Brède et de Montesquieu; 1689-1755) (“davlat shartnomasi” nazariyasi) hamda Volter kabilar unga asos soldi. Ushbu nazariya soliq fuqarolar va davlat oʻrtasidagi shartnoma mahsuli ekanini eʼtirof etadi. Unga muvofiq fuqaro shaxsiy va mulkiy xavfsizligi himoyasi hamda boshqa xizmatlar uchun davlatga haq toʻlaydi²³⁹.

Biroq, soliqni toʻlash bilan davlatdan olingan manfaatlar oʻrtasida aniq aloqa oʻrnatish qiyin, chunki soliqni toʻlash sotib olingan tovarlar uchun pul toʻlashdan farq qiladi. Birinchi holda, dispozitiv (siyosiy va ijtimoiy institutlar, maʼmuriy qarorlar) munosabatlar haqida, ikkinchi holatda esa imperativ (talab, tartib, qonun) munosabatlar haqida mulohaza qilinmoqda. Bunda soliqlar shartnoma asosida emas, balki davlatning majburlovchi kuchi bilan bogʻliq holda undiriladi. Bundan tashqari, muayyan shaxs toʻlaydigan soliq summasi bilan uning davlat faoliyatidan oladigan foydasi oʻrtasida tenglik mavjud emas. Davlat xizmatlarining alohida shaxslarga nisbatan noaniqligi bir mahsulot qiymatini boshqasining qiymati orqali ifodalovchi miqdoriy nisbat sifatida qabul qila olmasligidan iborat. Yuqorida muhokama qilingan

²³⁹ Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов. М.: Финансы и статистика, 2001. – С 78.

ikki nazariyaning o'xshashligi atomistik nazariyani almashinuv nazariyasining bir turi ekanligi bilan bog'liq.

Atomistik nazariya almashinuv nazariyasi kabi soliqlarning undirilishi davlat va uning subyektlari o'rtasida tuzilgan shartnoma bajarilishining bir turi deb hisoblaydi. Uning (shartnomaning) predmeti esa qo'riqlash, himoya va boshqa xizmatlar ko'rsatishdir.

Ichki tartibni va mamlakatda tinchlik-totuvlikni qo'llab-quvvatlash muammosi tashqi dushmandan himoya qilish muammosi bilan umumlashtiriladi. Bunday muammoni hal etish uchun mudofaa, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari talab etiladi, ularni saqlab turish uchun soliq to'lash zarur.

David Yunning (ingl. David Hume; 1711 - 1776) "fiskal shartnoma" g'oyasini alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq. O'zining "Soliqlar to'g'risida"gi inshosida (1752) u shunday yozgan edi: iste'molga soliqlar yuqori darajada o'rnatilsa, ishchilar o'z ehtiyojlarini kamaytirishlari yoki o'z mehnatiga to'lanadigan haqning oshirilishini talab qilishlari kerak. O'shanda soliq yuki boylarga tushadi, biroq agar soliqlar maqbul darajada bo'lsa va bosqichma-bosqich joriy etilsa, ishchilar ko'proq va yaxshiroq ishlay boshlaydi, ularning turmush darajasi esa ish haqi oshirilmasa ham avvalgidek qoladi. Bunday holat mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishiga olib boradi degan xulosaga keladi²⁴⁰.



Mashhur rus iqtisodchisi I.M.Kulisher (1878-1934) almashinuv nazariyasining xususiyati va iqtisodiy ta'limotlar taraqqiyotidagi o'рни haqida to'xtalib, shunday degan: "Ushbu bitim har doim ham

²⁴⁰ Майбурд Е.М. Введение в историю экономической мысли. От пророков до профессоров. - М.: Дело, Вита-Пресс, 1996. - 144 С.

ixtiyoriy va boz ustiga adolatli bo‘lmagan, lekin baribir ushbu ayirboshlash oxir-oqibatda foydalidir. Hattoki zaif bo‘lib qolgan hukumat ham fuqarolarini, ular o‘zlarini mustaqil himoya qilganidan ko‘ra arzonroq hamda yaxshiroq muhofaza qila oladi”²⁴¹.

Biroq, iqtisodiy ta’limotlarni rivojlantirishdagi fransiyalik olimlarning xizmati atomistik nazariyani yaratish bilan cheklanib qolmadi. Fransiyaning fiziokratlar maktabi vakili Onore Mirabo (fr.

Honoré Gabriel Riqueti, comte de Mirabeau, 1749-1791) tomonidan F.Kene bilan hamkorlikda yozilgan risolalaridan (pamflet) birida soliq bo‘yicha mulohazalarining asosiy qoidalarini shakllantirdi. Mirabo har qanday soliq solish uchta tamoyilga javob berishi kerak deb hisoblardi: birinchidan, u bevosita daromadlar manbaining o‘ziga asoslangan bo‘lishi lozim; ikkinchidan ushbu daromadlar bilan muayyan munosabatda bo‘lishi zarur; uchinchidan, uni undirish xarajatlari haddan ortiq ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Fransua Kene (fr. François Quesnay, 1694-1774) o‘zining iqtisodiy jadvalini tahlil qilishda takror ishlab chiqarish jarayonini qisqartiruvchi



sabablar sifatida quyidagilarga alohida to‘xtalgan: 1) soliq solishning noqulay shakli; 2) soliqlarning ortiqcha yuki; 3) ortiqcha sud chiqimlari²⁴².



Demak, F.Kene takror ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish iqtisodiyot

²⁴¹ Кулишер И.М. Очерки финансовой науки. Пг., 1919.

https://bstudy.net/608308/ekonomika/nalogovaya_teoriya_obmena_raznovidnosti

²⁴² Лобачева Е.Н. Экономическая теория. Учебник для академического бакалавриата. 4-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт. 2015. – 539 с. – Серия: Бакалавр. Академический курс.

rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qarab, soliq yuki va sud chiqimlarini salbiy ta‘sir etuvchi omillar deb baholaydi. Fiziokratlar maktabining xizmati shundan iboratki, u soliq umumiy yoki sof foydadan olinishi kerakmi degan savolga birinchi bo‘lib javob berayotib, oxirgisiga ustuvorlik berdi. Bu esa ularning nuqtai nazaridan soliq yuki taqsimlanishining tengligini ta‘minlashi kerak. Shunday qilib, ular soliq solish tamoyillari to‘g‘risidagi masalani birinchilardan bo‘lib ilgari surdi.

Shartnoma nazariyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, davlat xizmatlari aniq yoki mavhum bo‘lishi mumkin. Masalan, “mulkingizni tajovuzlardan himoya qilish uchun xotirjamlik” davlat xizmatining mavhum ifodasidir.

Monteskye soliqqa tortishni madaniyatli jamiyatda yashash huquqi uchun to‘lov deb hisobladi. Atomistik nazariya vakillarining so‘zlariga ko‘ra, hech kim soliqlardan va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan foydalanishdan bosh torta olmagan. Bu aqidaga asosan soliq fuqarolarning manfaati (foydasi) va tinch hayoti uchun jamiyatning bahosi bo‘lgan²⁴³.



Bu nazariya boshqacha aytganda shartnomaviy deb ataladi “jamiyat shartnomasi” nazariyasi, bu nazariya doirasida “fiskal shartnoma” nazariyasi paydo bo‘ldi). Unga ko‘ra jamiyat va davlat o‘rtasida o‘ziga xos shartnoma mavjud. Shartnoma shartlariga ko‘ra, davlat jamiyatga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish majburiyatini oladi, buning evaziga undan soliq undirish huquqini oladi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyat davlatga soliq to‘lash bo‘yicha o‘z huquqini o‘tkazadi²⁴⁴.

²⁴³ Майбурд Е.М. Введение в историю экономической мысли. От пророков до профессоров. - М.: Дело, Вита-Пресс, 1996. - 284 С.

²⁴⁴ Toshmatov Sh., G‘iyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2021. – 267 b.

Xuddi shu nazariya uning (nazariyaning) boshqa vakillari tomonidan biroz boshqacha tarzda talqin qilinadi: soliq hatto davlatning tashkil etilishi emas, balki jamiyatning o‘zi tomonidan uning vakillari, ya’ni parlament a‘zolari orqali amalga oshiriladi.

Umuman olganda, atomistik nazariya qoidalari zamonaviy soliqqa tortish va soliq yukini taqsimlashning ikkita konseptual tamoyillaridan birining asosini tashkil etganini ta’kidlash kerak. Bu olingan foyda (xizmatlar, naf, manfaat) tamoyili bo‘lib, uning asosida to‘lovga qodirlik tamoyili bilan birgalikda hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimlari qurilmoqda.

§ 9.4. “Sug‘urta mukofoti” va soliqning rohatlanish nazariyalari

XVIII asrda soliqlarni **sug‘urta mukofoti** singari baholash g‘oyasi paydo bo‘ladi. Ushbu nazariyaga muvofiq soliq to‘lovchilar sug‘urta jamiyati a‘zolari sifatida ishtirok etadi. XIX asrning ikkinchi yarmida fransiyalik davlat arbobi Adolf Tyer (fr. Louis-Adolphe Thiers, 1797-1877) va shotlandiyalik iqtisodchi Jon Ramsey Mak-Kullox (John Ramsey McCulloch; 1789-1864) sug‘urta mukofoti sifatida ushbu g‘oyani rivojlantirdi va ushbu g‘oyani yoqlovchi izdoshlarini topdi. Ularning fikricha, soliq bu sug‘urta to‘lovi bo‘lib, u biror-bir xavfni (urush,



yong‘in, o‘g‘rilik va hokazo) oldini olish uchun fuqarolar tomonidan davlatga to‘lanadi²⁴⁵.

Bunda, A.Tyer nazariyasiga ko‘ra, har kim o‘z daromadi yoki mulkiga mutanosib ravishda soliq to‘lashi kerak, chunki mudofaa va muhofaza qilishga sarflanadigan xarajatlar qo‘riqlanadigan mulkka (boylikka) mutanosib taqsimlanishi kerak. Biroq, haqiqiy sug‘urtadan farqli ravishda soliqlar sug‘urta hodisasi yuz berganda qoplash summasini olish uchun to‘lanmaydi, balki muhofazani ta‘minlash va tartibni saqlash bo‘yicha hukumat sarf-xarajatlarini moliyalashtirish uchun to‘lanadi.

Sug‘urta mukofoti sifatidagi soliq nazariyasi vakillaridan yana biri fransuz iqtisodchisi E. de Jirardin (1806-1880) shunday deb yozgan edi: “Soliq jamiyat tayanadigan deyarli yagona poydevordir. Biz eng muhimlari soliq islohotlarida bo‘lgan ijtimoiy va siyosiy islohotlarni uzoqdan, osmonu-falakdan izlaymiz. Soliqlar, biz tushunganimizdek, subyektlar tomonidan mulkka egalik qilish va foydalanishga xalaqit beradigan har qanday xavfdan sug‘urta qilish uchun to‘lanadigan sug‘urta mukofoti sifatida xizmat qilishi kerak”²⁴⁶.



Ushbu sug‘urta turi an’anaviy sug‘urtadan tubdan farq qiladi, chunki to‘lovchilar sug‘urta hodisasi yuz berganda kompensatsiya miqdorini olish uchun emas, balki mamlakatni tashqi xavfdan mudofaa qilish, jamiyat ichki tartibi va muhofazasi, adolat hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini ta‘minlash uchun davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun soliq to‘laydilar.

²⁴⁵ Черник Д. Г., Шмелев Ю. Д. Теория и история налогообложения. Учебник для академического бакалавриата. – М. : Издательство Юрайт. 2014. – 364 с. Серия : Бакалавр. Академический курс.

²⁴⁶ Конотопов М. Экономическая история мира. Том 5. 3-е издание, дополненное и доработанное. М. 465 с.

Sugʻurta mukofoti sifatida soliq haqidagi taʼlimotning yana bir talqini shundaki, toʻlovchi oʻzaro sugʻurta jamiyatining aʼzosi sifatida faoliyat yuritadi va sugʻurta mukofotini oʻz daromadi va mulki hajmiga mutanosib ravishda toʻlash majburiyatini oladi.

Sugʻurta mukofoti sifatidagi soliq nazariyasining almashinuv nazariyasi bilan bogʻliqligi soliq toʻlovlarining mulkni himoya qilish va muhofaza qilish boʻyicha davlat xarajatlariga, yaʼni davlat xizmatlarining qiymat ifodasiga bogʻliqligidan kelib chiqadi. Koʻrib chiqilayotgan nazariya asoschilarining xizmati shundaki, ular zamonaviy soliq tizimlarini qurishning ikkinchi konseptual tamoyilini – toʻlov qobiliyati tamoyilini eʼtirof etdilar. Unga koʻra har kim oʻz daromadlari yoki mol-mulkiga mutanosib ravishda soliq toʻlashi kerak. Biroq, sugʻurta gʻoyasini barcha soliq munosabatlariga tatbiq etish va uning asosida barcha soliqlarning mohiyatini koʻrib chiqish biroz munozaralidir. Davlat sugʻurta hodisasi yuz bergandan keyin toʻlovchilarga sugʻurta toʻlovlarini amalga oshirish majburiyatini har doim ham oʻz zimmasiga olmaydi. Shu bilan birga, soliq solishda sugʻurta gʻoyasi hozirgi kunda byudjetdan tashqari fondlarga sugʻurta badallari (pensiya, bandlik, ijtimoiy va sogʻliqni saqlash sugʻurtasi) kabi aniq maqsadli soliq toʻlovlari nuqtai nazaridan tatbiq etilmoqda. Xodim oʻz mehnat faoliyati davomida sugʻurta badallarini ish haqi miqdoriga nisbatan foizda toʻlaydi, maʼlum bir voqea (sugʻurta hodisasi) yuzaga kelganda sugʻurta toʻlovlari shaklida pul tovon, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari va boshqalar oladi.

Sugʻurta mukofoti sifatidagi soliq nazariyasi bilan parallel ravishda XIX asrning birinchi yarmida shveysariyalik iqtisodchi Jan Simond de Sismondi (fr. Jean Charles Léonard Simonde de Sismondi; 1773-1842) oʻzining “Siyosiy iqtisodiyotning yangi davri” nomli asosiy asarida (1819) soliq nazariyasini rohatlanish nazariyasi sifatida taʼriflaydi. Unga muvofiq soliqlar yordamida har bir soliq toʻlovchi rohat-farogʻatdan

boshqa narsa sotib olmaydi. Rohat-farog‘at deganda u jamoat tartibi, adolat, shaxsiy va mulkiy himoyani nazarda tutadi²⁴⁷.

Rohat-farog‘at, shuningdek, jamoat ishlari, xalq ma‘rifati, milliy xavfsizlikni o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, fuqarolar soliqlarga ularning shaxsiy va mulkiy himoyasini ta‘minlash uchun hukumat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat sifatida qarashlari kerak. Ularning yordamida davlatning har yillik xarajatlari qoplanadi. Shuningdek, Sismondi soliqlar shaxsiy kapitaldan emas, balki sof daromaddan olinishi kerak deb hisoblagan.

Ravon yo‘llar, keng ko‘chalardan foydalanish, sog‘liq uchun xavfli bo‘lmagan suvni iste‘mol qilish imkonini beruvchi jamoat ishlari ham rohat-farog‘at sifatida qaraladi.

Boshqa barcha lazzatlarga qo‘shimcha sifatida milliy himoya (tashqi tajovuzdan himoya qilish) va ichki himoya mavjud bo‘lib, u har bir fuqaroning jamoat tartibi bilan ta‘minlangan ne‘matlarda ishtirok etishini kafolatlaydi.

“Xullas, soliqlar sifatida to‘lanadigan pullarni maqbul foydalanildi deyish mumkin, qachonki jamiyat rohat-farog‘ati yo‘lida yig‘ilgan ushbu mablag‘lar haqiqatda hukmdorlarning manmanlik va ehtirolari uchun ishlatilmasdan, ijtimoiy rohatlanish uchun sarf etilgan bo‘lsa. Soliqlar fuqarolarning rohatlanishi qiymatidir”²⁴⁸.

Shu ma‘noda, ushbu nazariya tarafdorlari eng avvalo yig‘ilgan soliqlarning jamiyat farovonligi uchun sarflanishi zarurligini yoqlab chiqqan bo‘lsalar, boshqa tomondan, ushbu mablag‘lardan yakka ehtiyojlarni, ya‘ni ayrim yuqori tabaqali zodagonlarning shaxsiy manfaatlari uchun foydalanishni qoralaydi.

“Fiskal shartnoma” nazariyasi va rohatlanish sifatidagi soliq nazariyasida alohida e‘tibor soliqqa narx maqomi berilishidir. Bu esa o‘z navbatida davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar va olingan naflar

²⁴⁷ Сисмонди Ж. С. Новые начала политической экономики. Теория экономики. Экономика. М. : “Директ-Медиа” 2007. 356 стр. https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=26844.

²⁴⁸ Майбуров И.А. и др. Теория и история налогообложения. 2-е изд., перераб. и доп. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2011. –30 с. <https://knigi.news/nalog/obschie-teorii-nalogov-28312.html>

uchun to'lov sifatida uni tushunishga nisbatan oldinga qadam qo'yish bo'lgan.

To'qqizinchi bob bo'yicha o'zini o'zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Soliq nazariyalarining shakllanish bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Soliqqa tortish nazariyalarning tavsifini gapirib bering?
3. Soliqning almashinuv nazariyasini izohlab bering?
4. Atomistik soliq nazariyasini sharhlab bering?
5. Soliqqa tortishning zamonaviy nazariyalarini tushuntirib bering?
6. Soliqning "Sug'urta mukofoti" sifatidagi nazariyasi mohiyatini tushuntirib bering?
7. Soliqning rohatlanish nazariyasi mazmunini tushintirib bering?
8. Soliqning almashinuv nazariyasi va atomistik nazariyasi o'rtasidagi qanday bog'liqlik jihatlari mavjud?
9. Soliqning "Sug'urta mukofoti" sifatidagi nazariyasi va soliqning rohatlanish nazariyasi o'rtasida qanday o'xshash va farqli tomonlari bor?
10. David Yunning "Fiskal shartnoma g'oyasi"ning asosiy mohiyati nimadan iborat?

Test savollari:

1. Javoblarning qaysi birida S. Voban tomonidan "Davlat hukmdori ularga (aholiga) bu himoyani berolmaydi, qachonki ular hukmdorga zarur mablag'larni yetkazib bermasalar" deganida qaysi mablag'larni nazarda tutgan edi?

- a) Soliqlarni nazarda tutgan
- b) Bank kreditlarini nazarda tutgan
- s) Ijara to'lovlari, komunal to'lovlarni nazarda tutgan
- d) Katta qarzdorlikni to'lashga yo'naltirilgan xarajatlar

2. Quyida keltirilgan javoblarda dastlabki soliq nazariyasi namoyondalaridan biri Sh.Monteskye "Fuqarolar o'zlarining mol-

mulklari ma'lum bir qismini boshqa qismidan xotirjam foydalanishlari uchun berishadi” deganda nimani nazarda tutgan?

- a) Fuqarolar tomonidan to'lanadigan soliqlarni
- b) Bank kreditlarini qoplash xarajatlarini nazarda tutgan
- s) Sud jarimalarini qoplashni nazarda tutgan
- d) Ijara haqi to'lovlarini to'lashni nazarda tutgan

3. “Kuchliroq yelkalar og'irroq yukni ko'tarishi kerak, zaiflarni ozod qilish va kuchsizlarni qo'llab-quvvatlash, ba'zida esa jamiyat yelkasiga chiqarish kerak” degan fikr dastlabki soliq nazariyalarini shakllanishiga hissa qo'shgan qaysi olimning fikri edi?

- a) Jan Jak Russo
- b) Adam Smit
- s) David Rikardo
- d) Tomas Gobs

4. Javoblarning qaysi birida soliq nazariyasiga to'liq va to'g'ri javob berilgan?

a) Soliqlarni joriy etish va soliqlarni yig'ish mexanizmlarining paydo bo'lishi, belgilanishi, shakllanishi hamda soliqlarning mohiyati va roli bilan bog'liq masalalar bo'yicha turli qarashlar, fikrlar, g'oyalar va ilmiy asoslar majmui

- b) Bitta soliqqa oid ilmiy ishlanma
- s) Soliqlarning mohiyatini tadqiq etuvchi fan
- d) Aholining iqtisodiy bilim va qaarashlarini oshirishga yo'naltirilgan fan tarmog'i

5. Quyida keltirilgan soliqlar xususidagi ilk umumiy nazariyalar “Soliqlar – fuqarolarning rohatlanishi qiymatidir” degan fikr javoblarda muallifiga taaluqli?

- a) Jan Simond de Sismondi
- b) Adolf Tyer

- s) Onore Mirabo
- d) I.M.Kulisher

6. Soliqlar xususidagi ilk umumiy nazariyalar vakili E.Jirardinning soliqlar to‘g‘risidagi qarashlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang?

a) Soliqning sug‘urta turi an’anaviy sug‘urtadan farq qiladi, chunki to‘lovchilar sug‘urta hodisasi yuz berganda kompensatsiya miqdorini olish uchun emas, balki mamlakatni tashqi xavfdan mudofaa qilish, jamiyat ichki tartibi va muhofazasi, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini ta’minlash uchun davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun soliq to‘laydilar

b) Soliqlar shaxsiy kapitaldan emas, balki sof daromaddan olinishi kerak

s) Hech kim soliqlardan va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan foydalanishdan bosh torta olmagan. Jamiyat davlatga soliq to‘lash bo‘yicha o‘z huquqini o‘tkazadi.

d) Soliqlarni undirish xarajatlari haddan ortiq ko‘p bo‘lmasligi kerak

7. Atomistik soliq nazariyasi vakillaridan biri Onore Miraboning soliqqa oid qarashlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang?

a) Soliqlar bevosita daromadlar manbaining o‘ziga asoslangan bo‘lishi, daromadlar bilan muayyan munosabatda bo‘lishi, ularni, undirish xarajatlari haddan ortiq ko‘p bo‘lmasligi kerak

b) Soliq bu sug‘urta to‘lovi bo‘lib, u biror-bir xavfni (urush, yong‘in, o‘g‘rilik va hokazo) oldini olish uchun fuqarolar tomonidan davlatga to‘lanadi

s) Soliqlar – fuqarolarning rohatlanishi qiymatidir

d) Fuqarolar o‘zlarining mol-mulklari ma’lum bir qismini boshqa qismidan xotirjam foydalanishlari uchun berishadi

8. Atomistik soliq nazariyasi vakillaridan biri I.M.Kulisher tomonidan soliqning almashinuv nazariyasiga oid qarashlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang?

a) Hattoki zaif bo‘lib qolgan hukumat ham fuqarolarini, ular o‘zlarini mustaqil himoya qilganidan ko‘ra arzonroq hamda yaxshiroq muhofaza qila oladi

b) Soliqlar bevosita daromadlar manbaining o‘ziga asoslangan bo‘lishi, daromadlar bilan muayyan munosabatda bo‘lishi, ularni, undirish xarajatlari haddan ortiq ko‘p bo‘lmasligi kerak

s) Fuqarolar soliq to‘lash orqali o‘zlarining mol-mulklari ma‘lum bir qismini boshqa qismidan xotirjam foydalanishlari uchun berishadi

d) Soliqlar–fuqarolarning rohatlanishi qiymatidir

9. Atomistik soliq nazariyasi vakillaridan biri David Yum tomonidan “fiskal shartnoma” g‘oyasi bo‘yicha qarashlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang?

a) Iste‘molga soliqlar yuqori darajada o‘rnatilsa, ishchilar o‘z ehtiyojlarini kamaytirishlari yoki o‘z mehnatiga to‘lanadigan haqning oshirilishini talab qilishlari kerak

b) Ushbu soliq bitimi har doim ham ixtiyoriy va boz ustiga adolatli bo‘lmagan, lekin baribir ushbu ayirboshlash oxir-oqibatda foydalidir

s) Soliq jamiyat tayanadigan deyarli yagona poydevordir

d) Fuqarolar soliqlarga ularning shaxsiy va mulkiy himoyasini ta‘minlash uchun hukumat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat sifatida qarashlari kerak

10. Quyida keltirilgan javoblarning qaysi birida Atomistik nazariya asoschilari to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tilgan?

a) Voban, Monteskye va Volter

b) Jon Ramsey Mak-Kullox, Adolf Tyer

s) Jan Simond de Sismondi

d) E. Jirardin

10-BOB. SOLIQQA TORTISHNING TAKOMILLASHGAN UMUMIY NAZARIYALARI

§ 10.1. Soliqqa tortishning klassik nazariyasi

G'arbiy Yevropada moliya ilmi kuchaygan XVII-XVIII asrlarda shakllangan soliq nazariyalari ichida klassik maktab ta'limoti alohida o'rin egallaydi. Klassik olimlar soliqlarning iqtisodiy tabiati va mohiyatini yoritish hamda to'lash manbasi masalalariga oid muhim tadqiqotlar olib borishgan.

Klassik nazariya soliqlarning davlat byudjeti daromad manbai sifatidagi rolini e'tirof etib, iqtisodiyotni boshqarishdagi ahamiyatini bir muncha inkor etishdi. Ularning fikricha, raqobatbardosh iqtisodiy muhit iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlay oladigan tabiiy mexanizmlarga ega. Ya'ni, tabiiy iqtisodiy qonunlar "ko'rinmas qo'llar" yordamida iqtisodiyotni tartibga solib turadi.



Klassik maktabning birinchi vakillaridan biri bo'lgan angliyalik iqtisodchi "Soliqlar va yig'imlar to'g'risida traktat" (*Treatise of Taxes & Contributions*, 1662) asarining muallifi Uilyam Petti (*William Petty*; 1623-1687) o'z qarashlarida "tarixiy an'analar va o'zaro kelishuvlar orqali tabiiy boshqarilishi mumkin bo'lgan juda ko'p narsalar qonun ostida tartibga solishga o'tganligi"ni davlat boshqaruvining kamchiliklari sifatida e'tirof etadi. Shu tufayli U.Petti tabiiy qonunlarni

cheklovchi davlat tomonidan ishlab chiqiladigan me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishiga qarshi chiqadi²⁴⁹.

Davlatning asosiy funksiyalari sifatida u ish kuchlaridan to'liq foydalanishni tashkil qilish va uning sifatini oshirishni ko'rsatadi hamda davlat maqsadli xarajatlarini quyidagilarga ajratadi: 1) harbiy xarajatlar, 2) boshqaruv xarajatlari, 3) cherkov xarajatlari, 4) ta'lim xarajatlari, 5) nogiron va yetim bolalarni boqish xarajatlari, 6) yo'llarni, ko'priklarni, portlarni va boshqa umumfoydalanishdagi inshootlarni saqlash xarajatlari.

U.Petti o'zining "Soliqlar va to'lovlar to'g'risida traktati"da "Soliq solish mutanosib va teng bo'lishi hamda soliq hajmi avvaldan hisoblab chiqilishi, favqulodda soliqlar esa imkon qadar kamroq bo'lishi kerak" deb ta'kidlagan²⁵⁰. Uning fikricha, " ... kutilmagan qo'shimchalarsiz, barcha soliq va yig'imlar yukining hajmi oldindan ma'lum bo'lgan mamlakat haqiqatdan ham omadlidir. Bunday holatda, nafaqat yerning mulkdori, balki uning yeridan olingan bitta sabzavotni yeydigan yoki mazkur yerdan oziqlanuvchi kosibning xizmatidan foydalanadigan har qanday odam soliq to'laydi"²⁵¹.

Shuningdek, u soliq yukining o'z me'yorida bo'lishini yoqlab chiqqan. Pettining yozishicha, "me'yoridan ortiqcha soliq aholining hatto tabiiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur tovarlarga bo'lgan haddan ziyod va chidab bo'lmaydigan zaruratini keltirib chiqaradi. Bunday soliqlar, kishilarni o'g'rilik va firibgarlikka majbur etadi. Bundan tashqari, kutilmagan og'ir soliqlar aholini, hatto qurol olib, uni to'lashga qarshi kurashishga majbur qiladi. Bu esa, o'z navbatida, davlat uchun ham, alohida shaxslar uchun ham yovuzlik va jazo bo'lmish qatllar, qamoq choralarning qo'llanilishiga olib keladi"²⁵².

²⁴⁹ Петти У. Трактат о налогах и сборах, - Москва, Гвардия. 1963, - С . 11.

²⁵⁰ Петти У. Трактат о налогах и сборах, М.: Гвардия. 1963, с. 11.

²⁵¹ Антология экономической классики. В 2-х томах. Т. I. (В.Петти, А.Смит, Д.Рикардо) Пред. И.А.Столярова. – М.: МП "ЭКОНОВ", 1991. – С. 28-29.

²⁵² Антология экономической классики. В 2-х томах. Т. I. (В.Петти, А.Смит, Д.Рикардо) Пред. И.А.Столярова. – М.: МП "ЭКОНОВ", 1991. – С. 27.

Soliqqa tortish qiyinlashuvining eng asosiy sabablaridan biri sifatida Petti xalqning soliq to'lashni istamasligi, deb hisoblaydi. Bu esa soliq undirishda davlat tomonidan ortiqcha sarf-xarajatlar va qattiq jazo choralari qo'llanishiga olib keladi²⁵³. Soliq to'lovchilar noroziligining kelib chiqish sabablari sifatida u asosan quyidagilarni keltirgan²⁵⁴:

❖ soliq qanchalik katta bo'lmasin, agar uning yuki barchaga mutanosib tushsa, hech kim u sababli o'z boyligini yo'qotmaydi;

❖ kishining hammasidan ko'proq g'ashiga tegadigan narsa, bu uning qo'shnisiga nisbatan yuqoriroq soliqqa tortilishidir;

❖ kishilar, davlat o'ziga keragidan ko'proq talab qiladi, deb o'ylashadi;

❖ odamlar shunday xayolga borishadiki, yig'ilgan pullar vaqtichog'lik, to'y-tomoshalar, hasham qasrlar va shu kabi boshqa narsalarga sarflanadi;

❖ kishilar tez-tez shuni ta'kidlashadiki, qirol aholidan yig'ilgan pullarni o'zining yaqin kishilariga tarqatadi.

Yuqoridagi sabablarni mantiqiy mushohada qilib ko'radigan bo'lsak, ularning bir qismi soliq to'lovchilar o'rtasida soliq yukining qanchalik adolatli taqsimlanayotganligi, boshqalari esa undirilayotgan soliqlarning nimaga sarflanayotganligini bilish istagi mavjudligidir.

Bundan qariyb 350 yil avval aytib o'tilgan ushbu fikrlar hozirgi axborot asri bo'lmish uchinchi ming yillik boshida qanchalik o'rinli va ahamiyatga ega? Agar keltirilgan fikrlarga birma-bir to'xtaladigan bo'lsak, quyidagi oddiy haqiqatni anglab olishimiz mumkin. Birinchidan, soliq to'lovchi, u hoh jismoniy, hoh yuridik shaxs bo'lsin, barcha qatori soliq to'lasa, ya'ni boshqalarga nisbatan ko'proq soliq to'lamasa, soliqning og'irligi unga unchalik sezilmaydi (albatta soliq yuki chidab bo'ladigan me'yorda bo'lsa). Ikkinchidan, soliq to'lovchi o'z mulki bir qismini soliq sifatida davlatga ajratar ekan, ushbu

²⁵³ Афанасьев В.С. Возникновение классической буржуазной политической экономии (Вильям Петти). – М.: Соцэргиз, 1960. – С.20-21.

²⁵⁴ Антология экономической классики. В 2-х томах. Т.1. (В.Петти, А.Смит, Д.Рикардо) Пред. И.А.Столярова. – М.: МП "ЭКОНОВ", 1991. – С.22-23.

mablagʻlarning qayerga ketayotganligi va nimaga ishlatilayotganligi bilan albatta qiziqadi. Soliq toʻlovchilarning bu qiziqishini qondirish uchun davlat byudjet xarajatlari toʻgʻrisida ommaga shaffof hisobot berishi kerak.

U.Petti soliqqa tortishning ishlab chiqarishga, mamlakat boyligining oʻsishiga taʼsiri haqidagi masalani ham qoʻyadi. Uning fikricha, soliqlar mamlakatning iqtisodiy holatiga ham salbiy, ham ijobiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Soliq va yigʻimlarning ayrim turlari qirollik boyligini yanada koʻpaytirishi mumkin. Bunday holat soliqlar milliy ishlab chiqarishni kengaytirishga taʼsir qilganda yuz beradi. Mamlakat boyligi koʻpayadi, qachonki, soliq ilgari chetdan import qilinayotgan tovarlarni ishlab chiqarishga majbur qilsa, qachonki, u “ortiqcha” (hasham, shohona) isteʼmolning qisqarishiga va boʻshagan mablagʻlarni ishlab chiqarishni yaxshilash maqsadlariga yoʻnaltira olsa va hokazo²⁵⁵.



Pettining ushbu fikrlaridan xulosa qilish mumkinki, soliq – davlat qoʻlidagi eng nozik iqtisodiy instrument boʻlib, uning vositasida iqtisodiyotni rivojlantirish ham mumkin, tanazzulga yuz tuttirish ham mumkin. Bu davlat tomonidan soliqdan qanday foydalanilishiga bogʻliq. Olimning fikrlaridan kelib chiqadigan ikkinchi xulosa shuki,

soliqlar va soliqqa tortish mexanizmlari qayishqoq boʻlmogʻi darkor. Yaʼni, soliqqa tortish vositasida, bir tomondan milliy iqtisodiyotda import oʻrnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarish ragʻbatlantirilsa, ikkinchi tomondan shunday tovarlarning importi maʼlum darajada cheklansa, mamlakatda iqtisodiy rivojlanish boʻladi va milliy boylik koʻpayib boradi. Yana bir holat, bu ijtimoiy ortiqcha isteʼmolni

²⁵⁵ Афанасьев В.С. Возникновение классической буржуазной политической экономии (Вильям Петти). – М.: Соцэкгиз, 1960. – С.21.

(birlamchi ijtimoiy zarurat qondirilgandan keyingi shohona, hasham tovarlar iste'moli), shuningdek, o'lik kapital to'planishini soliqlar vositasida cheklash va aksincha, mablag'larni iqtisodiyotga yo'nal-tirish orqali ulardan samarali foydalanishni soliq mexanizmi vositasida rag'batlantirishdir.

Biroq, klassik iqtisodiy ta'limot shakllanishida Adam Smit (*Adam Smith; 1723-1790*) markaziy rolni o'ynaydi. U soliqning iqtisodiy tabiatini chuqurroq o'rgangan va tamoyillarini ishlab chiqqan. Bunda *Adam Smit soliqning almashinuv nazariyasiga asoslanadi va soliqni ko'rsatilgan xizmatlar uchun davlatga to'lanadigan adolatli haq deb e'tirof etadi*. Soliqlarning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini keng e'tirof etmagan holda, A.Smit "har bir mamlakatning boyligi va unga bog'liq bo'lgan qudrati har doim mamlakat yillik mahsuloti qiymatiga mos kelmog'i lozim, qaysiki barcha soliqlar oxir-oqibatda uning (mahsulot) hisobidan to'lanadi. Shuning uchun har bir mamlakat siyosiy iqtisodiyotining eng muhim vazifasi uning boyligi va qudratini oshirishdan iborat"²⁵⁶ – degan xulosaga keladi.

A.Smitning soliqlar xususida bildirgan fikrlaridan davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi va byudjet daromadlarini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotga soliqlar vositasida ta'sir etishi kerakligini (bunda ham faqat fiskal jihatdan) yoqlab chiqqanligini anglash mumkin.

U soliqlar "aholining kapitali hisobidan davlat daromadlarini ko'paytiradi" deb tushuntiradi va soliqlarni to'lash manbai sifatida uchta asosiy xususiy daromad turini, ya'ni renta, foyda va ish haqini keltiradi. A.Smit "har qanday soliq oxir-oqibatda ushbu uch turdagi daromadning birontasidan yoki barchasidan bir xilda to'lanishi kerak"²⁵⁷ degan fikrga keladi.

²⁵⁶ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Издательство социально-экономической литературы. Москва, 1962. – С. 274 (Воспроизведено по изданию в издательстве "Директ медиа Паблишинг". Москва, 2008)

²⁵⁷ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Издательство социально-экономической литературы. Москва, 1962. – С. 588 (Воспроизведено по изданию в издательстве "Директ медиа Паблишинг". Москва, 2008)

Soliqqa tortishning nazariy asoslari shakllanishida Adam Smitning “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot” (*An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations, 1776*) asari g‘oyat muhim rol o‘ynagan. Adam Smit keyinchalik soliq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil qilish va soliqqa tortishni takomillashtirishga xizmat qilgan quyidagi to‘rtta fundamental prinsipni ilgari surgan²⁵⁸:

1. Adolat (tenglik) prinsipi – har bir shaxs davlat panohida topgan daromadlariga va o‘z to‘lov qobiliyatiga mutanosib soliq to‘lashi kerak.

2. Aniqlik prinsipi – to‘lanadigan soliqlar turi, muddati, to‘lash uslubi soliq to‘lovchi uchun aniq belgilangan bo‘lishi lozim.

3. Qulaylik prinsipi – har bir soliq uni to‘lovchilardan qulay vaqtda va usulda undirilishi shart.

4. Tejamlilik (arzonlilik) prinsipi – soliqlar shunday o‘rnatilishi kerakki, uni undirish davlatga imkon qadar arzon tushishi kerak.

Klassik iqtisodchilardan bo‘lgan David Rikardo Adam Smitning soliqqa doir qarashlarni bir muncha to‘ldirgan holda soliqqa tortishning yangi ta’limotlarini ilgari surdi.

David Rikardo (*David Ricardo; 1772-1823*) klassik maktab vakili va A.Smit izdoshi hisoblanadi. Uning fikricha, “Har bir insonga xos bo‘lgani kabi o‘z ijtimoiy mavqeini saqlab qolish va boyligini erishilgan eng yuqori darajada ushlab turish istagi aksariyat soliqlarning, ular kapital yoki daromaddan olinishidan qat’i nazar, daromaddan to‘lanishiga olib keladi. Soliqqa tortishning oshishi yoki hukumat xarajatlarining ko‘payishi bilan, agar xalq bunga mos ravishda o‘z kapital va daromadlarini oshirmasa, xalq foydalanadigan qulayliklar soni



²⁵⁸ Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. The Electronic Edition (2000) The Library of Economics and Liberty. URL: <https://www.econlib.org/library/Smith/smWN.html>

kamayishi kerak. Bunda, hukumatning vazifasi jamg'arishga bo'lgan moyillikni rag'batlantirishdan iborat bo'lishi va u kapitalga tushadigan soliqlarni joriy etmasligi kerak. Agar bunday qilinmas ekan, soliqlar mehnatni saqlab turish uchun mo'ljallangan fondga ta'sir etadi va bu bilan mamlakatning kelajakdagi ishlab chiqarishini kamaytiradi"²⁵⁹.

David Rikardoning qarashlari asosan Adam Smitning²⁶⁰ qarashlari bilan mos kelsa-da, soliqlarning jamiyatdagi rolini u nisbatan kengroq baholaydi. Rikardo soliqlarning zarurligini e'tirof etib, uni davlat xarajatlarini qoplash bilan bog'laydi hamda soliqlarning undirilish manbasini ishlab chiqarish faoliyati, ya'ni korxonalar faoliyati bilan baholaydi: "...noishlab chiqarishdagi ishchilarni saqlab turishga yo'naltiriladigan davlat xarajatlarini qoplash uchun solinadigan soliqlar mamlakatning ishlab chiqarish faoliyatidan undiriladi"²⁶¹.

Soliqlarning jamiyat hayotidagi roliga olim katta baho berar ekan, soliq yuki darajasining oshishi oqibatida qanday noxushliklar kelib chiqishini quyidagicha izohlaydi: – "Katta qarzdorlikka yuz tutgan mamlakat noqulay holatga tushib qoladi. Bu holatda har bir soliq to'lovchi o'zidagi yukni (soliqni) boshqaga o'tkazishdan manfaatdordir. Bunday yukdan qutilish imkonini beradigan boshqa mamlakatga o'z kapitali bilan ko'chib ketish taskini oxir-oqibatda kishini yutib chiqadi, shu taskin bilan u o'z vatanini va eski aloqalarni tark etadi"²⁶².

Soliqlar, – deb yozadi D.Rikardo, - hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir-oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi. Har qanday soliq, u yer solig'i, "desyatina" yoki olingan mahsulotdan soliq bo'ladimi, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga sabab bo'ladi va yakunda xom ashyo, materiallar narxini

²⁵⁹ Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Сочинения, том I. Государственное издательство политической литературы. М.: - 1955.- С. 131.

²⁶⁰ Smit, A. "Economic Theory in Retrospect", London: The Wealth of Nations, 1776. 627 p.

²⁶¹ Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Сочинения, том I. Государственное издательство политической литературы. М.: - 1955.- С. 203.

²⁶² Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Сочинения, том I. Государственное издательство политической литературы. М.: - 1955.- С. 205.

oshiradi. Xom ashyolarga, materiallarga soliq esa yer egasi yoki fermer tomonidan to‘lanmasdan, balki iste‘molchi tomonidan to‘lab beriladi.

Davlatning almashinuv bitimlariga asoslangan barcha nazariyalarda soliq to‘lash va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar (olinadigan naf) o‘rtasida hech bir muayyan bog‘lanish mavjud emas. Chunki, bunday bitim tuzilishida hech qanday ixtiyoriylik yo‘q, balki u majburiy xarakterga ega. Shuningdek, shaxs tomonidan to‘lanadigan soliq miqdori va unga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar o‘rtasida har doim tengsizlik qaror topadi. Bunga sabab, soliq to‘lovchi o‘zi “iste‘mol” qilayotgan xavfsizlikning riskini baholay olmaydi, tinchlikni hech qanday ne‘mat bilan almashtirib bo‘lmaydi. Shuningdek, davlat ko‘rsatayotgan ta‘lim yoki tibbiy xizmatlar chegara bilmaydi, o‘lim to‘shagida yotgan kishining boyliklari ko‘ziga ko‘rinmaydi, sog‘ligini tiklash uchun bor-budini berishga tayyor bo‘ladi. Aynan davlat fuqaroning bevaqt o‘lim to‘shagiga mixlanib qolmasligi uchun profilaktika (emlash, epidemiyaning oldini olish va h.k.) tadbirlarini amalga oshiradi.

Shu o‘rinda O‘zbekistonlik taniqli olim prof. Q.A.Yax‘yoyevning fikrlarini keltirib o‘tishni joiz: “Bozor iqtisodiyoti ekvivalentli iqtisodiyot. Bu yerda hamma narsa sotiladi: mahsulot, ish, xizmat, ularning qiymati va obyektiv zarurligi bozorda oldi-sotdi munosabatlari orqali namoyon bo‘ladi. Bozor munosabatlarida davlat ham uning boshqaruvchisi, ham asosiy ishtirokchisi (subyekti) bo‘ladi. Bu yerda davlat ishtiroki uning jamiyat uchun o‘ta zarur bo‘lgan mamlakat xavfsizligini ta‘minlash, tartib-intizom o‘rnatish, ta‘lim-tarbiyaviy tadbirlar, aholi sog‘ligini ta‘minlash, mamlakatni boshqarish, dunyo hamdo‘stligi mamlakatlari bilan har xil aloqalarni o‘rnatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmalarini tashkil etish va rivojlantirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishda o‘z ifodasini topadi. Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari bozor sharoitida erkin sotilishi lozim edi. Ammo, uni bozor “ko‘tarmaydi”. Sababi ikkita. Birinchidan, bu

xizmatlar murakkab bo‘lganligidan ularni birorta yuridik shaxs, hattoki eng yirigi ham bajara olmaydi. Ikkinchidan, davlat xizmatlari xarajati alohida soliq to‘lovchilar uchun juda qimmatga tushishi mumkin. Shuning uchun, davlatning bunday xizmatlari “ijtimoiy tovarlar”, to‘g‘rirog‘i ijtimoiy xizmatlar deb ataladi. Shu xizmatlar haqini olish davlat uchun obyektiv zarur, chunki u xizmatlarga mablag‘ sarflanadi. Bu xizmatlarni erkin sotish yo‘qligidan, davlat ular haqini majburiy undirishni talab qilib Oliy Majlisga murojaat qiladi”²⁶³.

§ 10.2. Soliqning qurbonliklar va kollektiv ehtiyojlar nazariyalari

Keyingi davrlarda asta-sekin huquqiy davlat to‘g‘risidagi ta’limotlarning rivojlanishi soliqlarning majburiylik xususiyatiga asoslangan yangi nazariyalar (qurbonliklar nazariyasi va kollektiv (jamoaviy) ehtiyojlar nazariyasi) paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu nazariyalar soliqni davlat xarajatlarini qoplash manbai sifatida davlat



tomonidan qondiriladigan jamoaviy ehtiyojlardan kelib chiqadigan majburiyat sifatida talqin qildi. Ushbu nazariyalar soliqlarning mohiyati va xususiyati bo‘yicha qarashlarda keskin burilish yasadi.

Rus olimi, professor I.I. Yanjul (1846-1914) o‘zining davrida “soliq

deganda

davlat yoki jamiyat vakillari bo‘lgan ijtimoiy guruhlar tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish yo‘lidagi xarajatlarni qoplash uchun qonuniy yo‘l bilan fuqarolarning xususiy mulkidan undiriladigan bir



²⁶³ Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. - T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. - 14 b.

tomonlama iqtisodiy qurbonlikni tushunish kerak”²⁶⁴, degan fikrni ilgari suradi.

Shuningdek, rus olimi A.Isayev (1851-1924) davlatning kutilmagan xarajatlarini qoplash manbalarini byudjet qoldig‘i (byudjet profitsiti), harbiy vaqtlarda xarajatlarni qoplash bo‘yicha maxsus fond, boshqa davlatlar kontributsiyasi (tovon puli, o‘lpon), soliqlar va davlat krediti (qarzi) sifatida tavsiflar ekan, fuqarolarning qurbonliklarini ham shular qatoriga kiritadi.

Uning fikricha, soliqlar – davlatning umumiy va o‘zini-o‘zi boshqarish xarajatlarini qoplash uchun xizmat qiladigan xususiy xo‘jaliklarning majburiy pul to‘lovlaridir²⁶⁵.

Qurbonliklar nazariyasi – soliqning majburiylik xususiyatiga ustuvorlik berilgan dastlabki nazariyalardan biridir. Lekin shunga qaramay, ushbu nazariyaning dastlabki uchqunlarini fiziokratlarda uchratishimiz mumkin. Ular yagona yer solig‘ini asoslashda “agar davlat butun xalq boyligi, barcha ne‘matlar uchun yerdan, tabiat in‘omlaridan minnatdor bo‘lsa, u holda davlat xalqdan talab qilishi mumkin bo‘lgan barcha qurbonliklar ushbu manbadan olinishi kerak” degan fikrni ilgari suradilar²⁶⁶.

Odamzodning tabiiy yoki yovvoyi holatida soliqqa ehtiyoj bo‘lgan emas. Dastlab bitta, keyin bir necha to‘dalardan jamoa (jamiyat)ning tarkib topishi odamlar o‘rtasida jamiyat foydasiga yakka tartibda (xususiy) qurbonlik, ya’ni xayriya qilish zarurligini tasdiqlab qo‘ydi. Bu qurbonliklar boshida oddiy yumushlarni bajarish yoki mevalarning bir qismini berish tarzida bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik jamiyatning takomillashib borgani sayin ular ham mukammallashib bordi va hozirgi holatga yetib keldi²⁶⁷.

²⁶⁴ Янжул И.И. Основные начала финансовой науки: Учение о государственных доходах. –М: “Статут” (в серии “Золотые страницы финансового права России”), 2002, том 3. – С 240.

²⁶⁵ Исаев, А.А. очерк теории и политики налогов / а.а. исаев. - ярославль: типолитография г.фальк, 1887 - 175 с. - на тит. л. печать “м.и. боголепов”. на заднем форзаце (нахзац) прикреен экслибрис “антикварная книжная торговля в.и. клочкова”. - свободный доступ из сети интернет (чтение). - <url:<http://elib.fa.ru/oldbook/isaev.pdf>>.

²⁶⁶ Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов: Учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 1996. – С 65

²⁶⁷ Тургенев Н. Опыт теории налоговъ. Санкт-Петербургъ. Типография Н.Греча. 1818 г. С.34. Копия pdf в Harvard college library. www.books.google.com.

Fransiyalik iqtisodchi N.Kanar o‘zining “Siyosiy iqtisod tamoyillari” kitobida (1801) soliqlar to‘lashda individum tomonidan davlat manfaatlari uchun keltiriladigan qurbonlik (xayr-sadaqa) to‘g‘risidagi g‘oyani rivojlantiradi²⁶⁸.



Jon Styuart Mill (*John Stuart Mill; 1806-1873*) o‘zining “Siyosiy iqtisodiyot asoslari” nomli kitobining “Hukumat ta’siri to‘g‘risida”gi beshinchi jildida soliq tizimini takomillashtirish, uning ijro etuvchilari ustidan nazorat va daromadlarni qayta taqsimlash masalalarini ko‘rib chiqdi²⁶⁹. U soliqni balo (zulum) emas, balki zarurat tufayli keltirilgan qurbonlik deb ataydi.

Hukumat xo‘jalik tizimining normal shart-sharoitlarini ta’minlash uchun mas’ul alohida ishlab chiqaruvchi hisoblanadi va soliq ushbu sharoitlar uchun to‘langan haqdir.

Shunday qilib, J.S.Mill davlat faoliyat olib borishi uchun soliqlar shaklida daromadlarni yig‘ishi zarurligini e’tirof etadi. Biroq, uning nuqtai nazaridan soliqlar, ayniqsa, egri soliqlar birinchi ehtiyoj tovarlarga nisbatan qo‘llanilmasligi kerak hamda ularga yuqori import bojlar solinmasligi kerak. Uning fikricha, soliq solish tengligi qurbonliklar tengligini anglatadi. Shu munosabat bilan Mill mutanosib soliq solish tarafdori bo‘ldi, boz ustiga mutanosib soliq mulkka emas, balki sarflash mumkin bo‘lgan mablag‘larga mutanosib ravishda soliq solishi kerak²⁷⁰.

²⁶⁸ Сердюков А. Э., Вылкова Е. С., Тарасевич А.Л. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. 2-е изд. -СПб.: Питер, 2008. -704 с.

²⁶⁹ Милль Джон Стюарт. Основы политической экономии с некоторыми приложениями к социальной философии. Антология экономической мысли. Издательство: Эксмо, 2007 г. 547 стр. Подробнее: <https://www.labirint.ru/books/139642/>.

²⁷⁰ Милль Джон Стюарт. Основы политической экономии с некоторыми приложениями к социальной философии. Антология экономической мысли. Издательство: Эксмо, 2007 г. 547 стр. Подробнее: <https://www.labirint.ru/books/139642/>.

Qurbonliklar nazariyasi XIX asrning ikkinchi yarmida yanada rivojlandi, XX asrning birinchi o‘n yilligida ham o‘z dolzarbligini saqlab qoldi.

Soliqlarning davlat tomonidan majburiy tartibda, muayyan o‘rnatilgan stavkalarda undirilishi g‘oyasi kollektiv (jamoaviy) ehtiyojlar nazariyasida rivojlantirildi. Kollektiv ehtiyojlar nazariyasi XIX asr va XX asr boshida jahonda yuzaga kelgan haqiqiy vaziyatni aks ettirdi. Chunki, bu davrda davlat xarajatlarining harbiy sarflar hisobiga keskin ko‘payishi va soliq yukining oshirilishini asoslash zarurati yuzaga kelgandi.

Barcha moliya maktablari: nemis, italyan, avstriya, amerika maktablari soliqni davlat tomonidan ko‘rsatiladigan kollektiv xizmatlar uchun ekvivalent sifatida ko‘rib chiqib, bundan soliqning majburiylik xususiyati – boj, domenlardan (qirol meros yerlarining egaligi majmui) olinadigan daromadlar va regaliylardan (muayyan huquq beruvchi nishon) farq qiluvchi o‘ziga xos belgisi ekanligi isbotlashga urindilar.

Ushbu maktabning yana bir yorqin vakillaridan biri nemis olimi Adolf Vagner (*Adolph Wagner; 1835-1917*) soliqlarga

“umumiy asoslar va ko‘lamlar bo‘yicha davlat hamda mahalliy jamoat uyushmalarining barcha xizmatlari uchun umumiy taqdirlash sifatida bir tomonlama o‘rnatilgan shaklda va miqdorda davlat yoki mahalliy hokimiyat organlari umumiy sarf-xarajatlarini qoplash maqsadida alohida xo‘jaliklar yoki jismoniy shaxslardan undiriladigan majburiy badallar”, deb ta’rif beradi. Kollektiv (jamoaviy) ehtiyojlar nazariyasiga rioya qilgan holda A.Vagner soliq solishning yetarliligi va qulayligi kabi moliyaviy tamoyillarini yuqori o‘ringa qo‘ydi. Bunda davlat



manfaatlariga ustuvorlik berdi hamda moliya fanida davlat va soliq to'lovchilar manfaatlarini muvozanatlashtirish to'g'risidagi masalani o'rtaga tashladi²⁷¹.

Biroq, A.Vagner o'z tadqiqotlarida ijtimoiy-siyosiy yondashuvni ilgari surdi, bunga ko'ra soliq siyosati nafaqat fiskal, balki tartibga soluvchi ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni ham ko'zda tutishi kerak. "Soliqlarga yaqin kelajakda sof moliyaviy maqsad bilan bir qatorda, - deydi A.Vagner, - yana bir boshqa farqli maqsad – xalq daromadlari va mulkini taqsimlashda soliqlar yordamida tartibga soluvchi aralashuvni amalga oshirish va shuning asosida erkin ayirboshlash sharoitida yuzaga keladigan o'zgarishlarni ta'minlash maqsadi qo'yilishi mumkin. Men bu nuqtayi nazarni nafaqat turli ziddiyatlarga qarshi turib qo'llayman, balki endi mazkur maqsadni alohida daromad va mol-mulkning iste'mol qilinishida ham tartibga soluvchi mazmundagi aralashuv yo'nalishida kengaytiraman. Ko'rsatilgan ushbu maqsadning bunday belgilanishidan kengaygan yoki, aytish joiz bo'lsa, soliqning sof moliyaviy mazmuni bilan birgalikda, ikkinchi ijtimoiy-siyosiy mohiyati kelib chiqadi"²⁷².

Kollektiv (jamoaviy) ehtiyojlar nazariyasi ko'plab tanqidga uchrashiga qaramasdan, ushbu nazariya XX asrning 30-yillarida G'arb moliya fanida yetakchi o'rin egallaganini va asr oxirida zarur tuzatishlarni hisobga olgan holda G'arb iqtisodiy ta'limotida munosib o'rinni egallaganini qayd etish zarur²⁷³. Shuningdek, soliqlarning kollektiv ehtiyojlar nazariyasidagi "kollektiv" so'zi "jamiyat ehtiyojlari" so'ziga to'g'rilanib, keynschilar va neokeynschilar tomonidan ham to'liq qabul qilindi.

²⁷¹ Налоги и налоговое администрирование в системе экономической безопасности: учебное пособие / под ред. А.Г. Яруниной; отв. ред. Л. В. Савина. – М.; Берлин: Директ-медиа, 2019. – 343 с.

²⁷² Титов А.С. Понятие, сущность и основные направления развития налоговой политики // Финансовое право. – №5, 2005 – С.21.

²⁷³ Toshmatov Sh., G'iyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2021. – 267 b.

§ 10.3. Keynes ta'limoti va soliqqa tortishning keynschilik nazariyasi

Keynschilik va neoklassik nazariya XX asrda paydo bo'lib, rivojlanish sari yo'l tutgan ikkita mustaqil yo'nalishdir. Ushbu yo'nalishlarni hozirgi davrda ham bir-birini inkor etuvchi, joyi kelganda bir-birini to'ldiruvchi takomillashgan soliq nazariyasi sifatida alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Mazkur nazariyalar o'z davrida yechimini kutib turgan savollarga javob bera olganligi va yuzaga kelgan muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo'lganligini e'tirof etish zarur.



Angliyalik iqtisodchi Jon Meynard Keynes (*John Maynard Keynes; 1883-1946*) va uning izdoshlari ishlanmalari asosida XX asr boshlarida asos solingan keynschilik nazariyasi klassiklar nazariyasini ko'p jihatdan inkor etadi. Ushbu nazariyaning bosh g'oyasi soliqlar iqtisodiyotni tartibga solishning muhim moliyaviy instrumenti va mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri ekanligidan iborat²⁷⁴.

Mazkur nazariya ishlab chiqarilgan mahsulot sotilishini ta'minlash hamda pirovard natijada mamlakatning iqtisodiy o'sishiga xizmat qiladigan ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun "samarali talab"ni yaratish zarurligini isbotlaydi. Nazariya yalpi talab dinamikasini faol davlat aralashuvi orqali tartibga solishni taklif qiladi. Davlat nafaqat monetar, balki fiskal siyosati orqali soliqlarning progressiv va tabaqalashtirilgan stavkalaridan foydalanib yalpi iste'molni rag'batlantirishga ta'sir ko'rsatishi kerak. Iqtisodiy inqiroz davrida ish bilan bandlik pasayadi, demak, ishsizlik bo'yicha davlatning nafaqaga sarflaydigan xarajatlari yuqori bo'ladi. Bunday sharoitda soliqlarni

²⁷⁴ Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. –М.: Гелиос АРВ, 1999. –С 352

oshirishga to'g'ri keladi, davlat shu orqali talabni oshiradi. Iqtisodiyotning ko'tarilish davriga kelib esa soliqlarni pasaytirish imkoniyati yuzaga keladi²⁷⁵.

Ushbu nazariyaning markaziy g'oyasi soliqlar iqtisodiyotni tartibga solishning yagona vositasi va muvaffaqiyatli iqtisodiy o'sishning tarkibiy qismlaridan biri ekanligidan iborat.

Keynsning fikricha, bozor iqtisodiyoti munosabatlari takomillashgan va o'zini o'zi tartiblab turuvchi tizim hisoblanmaydi. Faqat davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ish bilan bandlikni eng yuqori darajaga oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashi mumkin. Davlatning roli, eng avvalo, shundan iboratki, u inqiroz davrida yalpi talabni oshirishi va shu bilan ishlab chiqarish hamda investitsiyani faollashtirishi, ishsizlikni esa kamaytirishi lozim.

Keyns soliqlarning bandlikka ta'siri to'g'risida quyidagi fikrlarni bildirgan. To'la bandlikni ta'minlash uchun faqat investitsiyalarni emas, balki milliy daromadni ham tartibga solish taklif etiladi. Buni hal qilish vositasi sifatida soliqlarga murojaat qilish kerak deyiladi. Aholining jamg'armalarini muomalaga kiritish maqsadida soliqlarni oshirish talab etiladi va bu omonatlar davlat investitsiyalarini oshirish uchun foydalanilishi mumkin deyiladi. Ayni vaqtda boylarning solig'ini oshirishga qarshilik qilinadi²⁷⁶. Keyns o'z taklifini quyidagicha tushuntiradi: mehnatkashlarning soliqlarini oshirishdan maqsad – ularning jamg'armalarini kamaytirish va iste'molini rag'batlantirishdir. Real ish haqini pasaytirish uchun inflyasiya asosida narh-navoni oshirish yo'li tavsiya etiladi. Real ish haqini pasaytirmasdan turib to'liq bandlikni ta'minlash mumkin emas, degan fikr uqtiriladi.

Keynsning fikricha, ish bilan bandlik ortishi tufayli milliy daromad, demakki, iste'mol ortadi. Ammo iste'mol daromadga nisbatan sekinroq ortadi, chunki daromad ortishi bilan jamg'arishga intilish kuchayadi.

²⁷⁵ Маневич В. Е. Теоретическая система Кейнса. К 70-летию выхода “Общей теории занятости, процента и денег”. Институт проблем рынка РАН. Бизнес и банки, 2006, январь, № 4. стр. 1-18.

²⁷⁶ Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. –М.: Гелиос АРВ, 1999. –352 стр.

Keynsning asosiy psixologik qonuni shundan iboratki, odamlar odatda daromadlari ortishi bilan iste'molni ham oshiradi, ammo bu o'sish baribir daromadlar ortishi darajasida bo'lmaydi. Oqibatda daromadlar o'sishi bilan jamg'arish ortadi va iste'mol nisbatan kamayib boradi. Yakunda esa samarali talab kamayadi va talab shunday yo'l bilan ishlab chiqarish hajmlari hamda bandlik darajasiga ta'sir etadi²⁷⁷.

Keynsning fikriga ko'ra, davlat bozor iqtisodiyotiga zarur. Ish bilan bandlik yalpi talabga bog'liq. Pul massasi ishlab chiqarishga nisbatan xolis (yomon ham, yaxshi ham ta'sir etmaydi). Talab, ya'ni "samarali talab" taklifni paydo qiladi. Asosiy muammo – ishsizlik. O'zgaruvchan pul siyosati lozim. Byudjet kamomadi – talabni rag'batlantirish vositasi hisoblanadi²⁷⁸.

J.Keyns "Ish bilan bandlikning umumiy nazariyasi, foiz va pullar" ("The General Theory of Employment, Interest, and Money", 1936) asarida²⁷⁹ o'z nazariyasining mazmun-mohiyatini bayon qiladi: iqtisodiy o'sish pul omonatlari hajmiga bog'liq. Ish bilan to'liq bandlik bo'lmasa, yuqori darajadagi jamg'armalar iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladi, chunki ular ishlab chiqarishga yo'naltirilmasdan daromadning passiv manbai sifatida saqlanib qoladi. Bunday oqibatlarni bartaraf etish uchun jamg'armalarning me'yoriy miqdorini pasaytirish yoki iste'molning me'yoriy miqdorini oshirish zarur. Aynan soliqlar yordamida ortiqcha jamg'armalarni byudjetga undirish orqali mazkur muammolarni bartaraf etish mumkin²⁸⁰.

Biroq, ilmiy-texnika taraqqiyoti va tovarlarning ortiqcha ishlab chiqarilishi bilan bog'liq bo'lmagan inqirozli holatlarning tobora jadal tus olishi sharoitlarida keynschilik nazariyasining asosiy mazmunini tashkil etuvchi "samarali talab"ga erishish nuqtai nazaridan davlatning iqtisodiyotga aralashuvi qaysidir ma'noda o'zini oqlamay qoldi va ushbu

²⁷⁷ Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. –М.: Гелиос АРВ, 1999. –352 стр.

²⁷⁸ Toshmatov Sh., G'iyosov A., Giyosov S. Soliq nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodmoliya, 2021. – 286 b.

²⁷⁹ Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. –М.: Гелиос АРВ, 1999. –352 стр.

²⁸⁰ Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. –М.: Гелиос АРВ, 1999. –352 стр.

nazariyani faqat bir tomonlama yondashuv sifatida tanqid qiluvchilar ko‘paya boshladi.


Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning keynschilik nazariyasining quyidagi jihatlari tanqidga uchradi²⁸¹.

Birinchidan, realizatsiya bilan bog‘liq bo‘lmagan va ishlab chiqarish jarayonlaridagi o‘zgarishlar tufayli inflyasiya surunkali xususiyat kasb etganda talabni emas, balki taklifni rag‘batlantiruvchi davlat aralashuvi zarur bo‘ldi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotda integratsion jarayonlarning rivojlanishi mamlakatlarning tashqi bozorga qaramligini oshirdi. Bunday sharoitda davlat tomonidan talabning rag‘batlantirilishi xorijiy investitsiyalarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi bilan birga iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ko‘rsatishi tabiiy hol. Shular sabab, “samarali talab”ning keynschilik konsepsiyasi o‘rniga “samarali taklif”ning neoklassik nazariyasi rivojlana bordi.

§ 10.4. Neoklassik nazariya: monetarizm va taklif iqtisodiyoti

Neoklassik nazariya erkin va tabiiy raqobatga, iqtisodiy, xususan, ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini ta‘minlashga ustuvorlik berishga asoslanadi. Alfred Marshall (*Alfred Marshall; 1842-1924*) bu nazariya asoschilaridan biri hisoblanadi.



Ushbu nazariyaning keynschilik nazariyasidan asosiy farqi davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishga boshqacha yondashuvdan iborat. Agar keynschilik maktabi vakillari dinamik muvozanat barqaror

²⁸¹ Toshmatov Sh., G‘iyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2021. – 267 b.

emas va shu sababli iqtisodiy jarayonlarga davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuvi zarur deb hisoblagan bo‘lsa, neoklassik nazariyaga ko‘ra erkin raqobat muhitini yaratuvchi qonunlarga xalaqit beruvchi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan davlat aralashuvi zarur va bunday davlatning iqtisodiyotga aralashuvi iqtisodiy muvozanatni ta‘minlovchi tabiiy qonunlar harakatini cheklab qo‘ymasligi lozim.

Neoklassik modelining asoschilaridan bo‘lgan A.Marshall davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi rolini bilvosita vazifa deb qarab, davlat xarajatlari muntazam ortib borishi tufayli unga iqtisodiy barqarorlikka putur yetkazuvchi omil sifatida qaraydi²⁸².

Neoklassiklar Markaziy bankning monetar siyosatiga ustuvorlik berib, davlatning fiskal siyosatini yetarli baholamagan holda to‘liq bandlik va milliy boylikning barqaror o‘shini ta‘minlovchi daromadlarni samarali qayta taqsimlash mexanizmini yaratish mumkin, deb hisoblaydilar.

Neoklassik nazariya, o‘z navbatida, ikki yo‘nalishda keng rivojlandi: taklif iqtisodiyoti va monetarizm.

Taklif iqtisodiyoti fundamental nazariya bo‘lib, konservativ iqtisodchilarning eng faol guruhiga taalluqli. U AQSH iqtisodiy romantizmi, pragmatizm va siyosiy demagogiya aralashmasidan kelib chiqqan. Mazkur nazariya AQSH ma‘muriyatining iqtisodiy siyosatini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

J.Kemp, J.Russelotorg, U.Rot kabi siyosatchilar, J.Vanniski, J.Gilder, I.Kristol kabi jurnalistlar, A.Laffer, R.Mandel kabi nazariyachi professorlardan iborat amaliy arboblarning ushbu nazariyaga asos soldi. Uning empirik tadqiqotlari esa M.Feldsteyn va M.Boskin kabi professorlar tomonidan taqdim etildi²⁸³.

Taklif iqtisodiyoti nazariyasi vakillari iqtisodiy liberalizm g‘oyalari tarafdorlari hisoblanadi. Nazariyaning asosiy konsepsiyasi davlat

²⁸² Маршалл А. Основы экономической науки. Principles of Economics : пер. с англ. / А. Маршалл ; авт. предисл. Дж. М. Кейнс. - М. : Эксмо, 2007. - 831 с.

²⁸³ История экономических учений: Курс лекций. – Мн. : Академия управления при Президенте Республики Беларусь, 2004.– 280 с.

moliyasi va kapitalni jamgʻarish kabi makroiqtisodiy muammolarni tahlil qilishda makroiqtisodiy tamoyillaridan keng foydalanishga qaratilgan. Bunda asosiy gʻoya ragʻbatlantiruvchi soliq siyosatini qoʻllash orqali iqtisodiy faollikni oshirish, samarali iqtisodiy siyosat yuritish orqali ustuvor yoʻnalishdagi ishlab chiqarish jarayonlarini (taklifni) qoʻllab-quvvatlashga asoslanadi. Taklif iqtisodiyoti nazariyasi vakillari iqtisodiyotga davlat aralashuvining “zararli” jihatlarini bartaraf etishni, davlat tomonidan tartibga solinadigan faoliyatni minimallashtirishni, shuningdek, tadbirkorlikning bozor asoslarini mustahkamlash va erkin raqobat muhitini yaratilishini talab qiladi²⁸⁴.

Taklif iqtisodiyoti nazariyasi vakillari jamiyatning iqtisodiy taraqqiy etishini xususiy mulkchilikni himoya qilish va narx siyosatini erkinlashtirish, bozor iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar tizimini takomillashtirish, tadbirkorlar manfaatlarini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish lozimligini ilgari suradilar. Biroq, mazkur nazariya tarafdorlari davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini toʻliq inkor etmaydilar, faqat davlatning rolini isloh etishni taklif qiladilar. Taklif iqtisodiyoti nazariyasi vakillari davlatning asosiy vazifasi jamiyatning barcha aʼzolariga “teng imkoniyatlar” yaratish va amerikaliklarning turmush tarzini yaxshilash hamda orzu-havas va intilishlarini roʻyobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat deb hisoblaydilar. Bunda boylikni oshirishga zamin yaratish, mulkchilikka cheksiz egalik qilish huquqini berish, tadbirkorlarning iqtisodiy faolligini oshirish jamiyat gullab-



²⁸⁴ Кулишова Р. С. Экономическая теория: учебно-метод. комплекс / Р. С. Кулишова. — М. : Юридический институт, 2011. — 68 с.

yashnashi uchun zarur shartlar sifatida e'tirof etiladi²⁸⁵.

Taklif iqtisodiyoti nazariyasi namoyondalari soliqlarning past darajali stavkalari omonatlar o'sishi va investitsiya faoliyati kengayishini ta'minlovchi shartlardan biri degan fikrni ilgari surdilar. Pasaytirilgan soliq stavkalarining rag'batlantiruvchi ta'sirini nazariy isbotlash uchun ular amerikalik iqtisodchi Artur Lafferning (*Arthur Betz Laffer; 1940 yil*) konsepsiyasidan foydalandi. A.Laffer soliq yuki va davlat daromadlari o'rtasidagi aloqani belgilovchi qonuniyat mavjud, degan fikrni ilgari suradi²⁸⁶. Turli mamlakatlarning statistik ma'lumotlarini umumlashtirib, u shunday xulosaga keldiki, soliq stavkalarini kamaytirish ishlab chiqarishning va iqtisodiy faollikning o'sishini rag'batlantiradi. Kamroq stavkada davlat ko'proq daromad oladi, chunki yuqori soliqlar ishlab chiqarishni bo'g'ib qo'yadi, korxonani aylanma mablag'lar va investitsiyalardan mahrum qiladi²⁸⁷.



XX asrning 50-yillarida erkin bozor g'oyasi tarafdori amerikalik iqtisodchi, Chikago universiteti iqtisodiyot professori Milton Fridman (*Milton Friedman; 1912-2006*) tomonidan monetarizm nazariyasi ilgari surildi. Monetaristlar byudjet multiplikatori mexanizmini shubha ostiga qo'ydi. U soliq stavkalari va byudjet sarfxarajatlari o'zgarishi milliy daromadning ko'p karra o'sishini ta'minlashi va keynschilarning byudjet chora-tadbirlari talabning to'lov qobiliyati holatiga, ish bilan ta'minlanganlikka va narxlarga kuchli

²⁸⁵ Майбурд Е.М. Введение в историю экономической мысли. От пророков до профессоров. - М.: Дело, Вита-Пресс, 1996. - 241 б.

²⁸⁶ Стругова Л. Р. Зависимость налоговых поступлений от налоговой нагрузки на основе закона Артура Лаффера. Экономика. Раздел V. Налоговая политика. Вестник пермского университета. 2012. Вып. 4(15), 81-87 стр.

²⁸⁷ Toshmatov Sh., G'iyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-Moliya, 2021. - 267 b.

hamda puxta taxmin qilingan ta'siri to'g'risidagi da'vosini bekor qilishga urinib ko'rdi. Fridman davlat rolini undan boshqa hech qim bajara olmaydigan faoliyat, ya'ni muomaladagi pullarni tartibga solish bilan cheklashni taklif qildi²⁸⁸.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishda monetaristlar keyns nazariyasidagidek soliqlarga muhim o'rin bermadi. Soliqlarga boshqa mexanizmlar bilan bir qatorda pul muomalasiga ta'sir ko'rsatuvchi dastaklardan biri sifatida qaraldi. Monetaristlar davlat tomonidan har yili inflyasiyaning qo'shimcha ravishda o'sishini keltirib chiqaradigan xarajatlarini oshirish orqali jamiyat boyligini yaratish, ishlab chiqarish hajmlari va bandlik hamda narxlarning tartibga solinishiga qarshi chiqadilar. Biroq, monetarizm vakillari zayomlar yordamida ortiqcha pul massasini muomaladan olib qo'yish imkoni bo'lmasa, soliqlar yordamida bu vazifani bajarish zarur deb hisoblaydilar²⁸⁹.

M.Fridman soliqlarning yuqori stavkalariga qarshi chiqdi. Uning fikricha, davlatning puxta o'ylanmagan soliq siyosati ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar va yollanma ishchilar o'rtasidagi munosabatlarga putur yetkazishi mumkin, tadbirkorlarning ixtiyorida qoladigan foydasini kamaytirib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlari uchun investitsiyalar yo'naltirish imkoniyatlarini kamaytiradi. Shu munosabat bilan Fridman korxonaga nisbatan soliq stavkalarini pasaytirish orqali ishlab chiqarishga sarflanishi mumkin bo'lgan jamg'armalarni oshirish imkoniyatini yaratish zarur deb hisoblaydi²⁹⁰.

Fridmenning fikricha, bozor o'zini o'zi boshqarishga qodir, iqtisodiyot ishlab chiqarish va ish bilan bandlik darjasini o'zi o'rnatadi. Pul massasi baholarning o'sishi va kon'yukturaning o'zgarishi

²⁸⁸ Toshmatov Sh., G'iyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2021. – 267 b.

²⁸⁹ Брайан Сноудон, Ховард Вэйн. Современная макроэкономика и ее эволюция с монетаристской точки зрения: интервью с профессором Милтоном Фридманом. стр. 557. Перевод Юрия Валеви́ча. <http://www.research.by/webroot/delivery/files/ecowest/2002n4r01.pdf>

²⁹⁰ Бартенеv С. А. История экономических учений: учеб. для студ. вузов, обуч. по экон. спец. и напр. / Всерос. акад. внешней торговли. - 2-е изд., перераб. и доп. - М. :Магистр : ИНФРА-М, 2013.

sababchisidir. Asosiy muammo – inflyasiya, shuning uchun barqaror pul siyosati zarur. Byudjet kamomadi – inflyasiya sababchisi, deb hisoblaydi²⁹¹.

Umuman olganda neoklassik nazariyalarning asosiy g‘oyasi inflyasiyani kamaytirish va korporatsiyalar hamda aholining bozorda iste‘mol talabini shakllantiradigan qismiga katta miqdorda soliq imtiyozlarini berishdan iborat. Biroq, neoklassik yo‘nalish usullarining ommabopligi va ulardan amaliy foydalanilishiga qaramay, iqtisodiyotni tartibga solishning keynscha metodlari to‘liq almashtirilmadi.

Amerikalik iqtisodchi Jon Kennet Gelbreyt (*John Kenneth Galbraith; 1908-2006*) o‘zining “Iqtisodiy nazariya va jamiyat maqsadlari” (*Economics and the Public Purpose; 1973*)²⁹² asarida daromadlarning adolatli taqsimlanishi va soliqlarning qat’iy progressiv tuzilmasi uchun kurashdi. Chunki, soliqlarning bunday tuzilmasi jamiyatning o‘z foydasidan emas, balki adolatdan manfaatdorligini aks ettiradi²⁹³.



Gelbreytning fikriga ko‘ra, daromadlardagi yuqori tafovutlarni qisqartirishga xizmat qiladigan soliqlar barqarorlashtiruvchi eng samarali vositadir²⁹⁴. Bunda soliq tizimi takomillashgan bo‘lishi zarur, soliqdan qochish yo‘llari qancha kam bo‘lsa, u shuncha adolat va barqarorlashtirishga to‘laqonli xizmat qiladi.

²⁹¹ Toshmatov Sh., G‘iyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2021. – 267 b.

²⁹² Ushbu asar rus tilida “Ekonomicheskie teorii i seli obshchestva” nomlanib tarjima qilingan. Ta’kidlash joizki, ingliz tilida Economics so‘zi iqtisodiy nazariya, iqtisodiyot bilan shug‘ullanadigan fan ma’nosida keng qo‘llanilsa, Economy so‘zi ko‘proq iqtisodiyot tarmog‘i, xo‘jalik yuritish ma’nosida kengroq qo‘llaniladi.

²⁹³ Гэлбрейт Джон. экономические теории и цели общества. м.: прогресс, 1979. перевод с английского, прогресс, 1976.

²⁹⁴ Гелбрейт Дж. К. Новое индустриальное общество. М., 2004, С – 602.

§ 10.5. Neokeynschilik ta'limotida soliqqa doir nazariy qarashlar

Neokeynschilik – J.M. Keynsning mehnatlariga tayangan urush davridan keyin ishlab chiqilgan makroiqtisodiy g'oyaga asoslangan maktab hisoblanadi. Bir guruh iqtisodchilar (ayniqsa, Franko Modilyani, Jon Xiks va Pol Samuelsonlar) Keynsning ta'limotini talqin qilish, unga izoh berish va rasmiy ko'rinishda tasavvur etish hamda uni iqtisodiyotning neoklassik modellari bilan sintez qilishga urindilar²⁹⁵. Shu sababdan ularning ishlari “neoklassik sintez”, deb nomlandi va uning asosida neokeynschilikning markaziy g'oyalarini tashkil etuvchi modellar yaratildi. Neokeynschilik gurkiragan vaqti 1950, 1960 va 1970 yillarga to'g'ri keladi.

Neokeynschilik kapitalistik iqtisodiyotni davlat tomonidan monopolistik tartibga solish nazariyasi bo'lib, keynschilikning 1939-1945 yillardagi ikkinchi jahon urushidan keyin yuzaga kelgan tarixiy vaziyatga qo'llaniladigan modifikatsiyasidan iborat. Neokeynschilikning taniqli tarafdorlari R.Xarrod, N.Kaldor, J.Robinson, YE.Domar, A.Xansen hisoblanadi.

Agar R.Xarrod va YE.Domar G'arbda iqtisodiy o'sish nazariyasining asoschilari sifatida neokeynschilar orasida aniq bir o'rinni egallagan bo'lsa, unda YE.Xansen, P. Samuelson, J. Xiks va boshqalarni faqat iqtisodiy sikllar modellarini qurish bilan bog'liq holda neokeynschilar, deb atash mumkin. Boshqa asarlarda esa ular neoklassik sintez mualliflari sifatida paydo bo'ladi va J.Xiksning so'nggi asarlari iqtisodiy nazariyaning institutsional yo'nalishiga tegishli bo'lishi mumkin.

Neokeynschilikning paydo bo'lishi. Neokeynschilik 1950-yillarning 1-yarmida kapitalizmning umumiy tub inqirozi va monopolistik kapitalizmdan davlat-monopolistik kapitalizmga o'tish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ilmiy va texnologik inqilob, ikki jahon tizimlarining

²⁹⁵ Лисин В. С. Макроэкономическая теория и политика экономического роста. Монография: учеб. пособие. М.: Экономика, 2004. С. 3.

iqtisodiy raqobati va imperializmning mustamlakachilik tizimi qulashi ta'siri ostida shakllandi.

Yangi tarixiy sharoitda iqtisodiy o'sish sur'atlari muammosi kapitalizmning hayot-mamot masalasi sifatida qarala boshlaganda neokeynschilik J.M.Keyns nazariyasi kabi asosan inqirozga qarshi iqtisodiy siyosatning muammolarini ko'rib chiqish bilan cheklanib qolishi mumkin emas edi. Shuning uchun neokeynschilik kengaytirilgan kapitalistik ishlab chiqarishning miqdoriy bog'liqliklariga yoki davlat-monopolistik kapitalizmi iqtisodiy siyosatining eng muhim nazariy asosi sifatida iqtisodiy dinamika va iqtisodiy o'sish muammolariga qaratilgan²⁹⁶.

Neokeynschilik ta'limotining mohiyati. Neokeynschilik keynschilikning iqtisodiy muvozanatni tiklash uchun kapitalizmning ofatli mexanizmini yo'qotish va shu sababli kapitalistik iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish zarurati haqidagi asosiy yo'nalishidan kelib chiqadi.

Bu boradagi neokeynschilikning o'ziga xosligi shundaki, mazkur nazariya davlat-monopolistik kapitalizmini rivojlantirishning yanada yetuk bosqichini aks ettirgan holda Keyns nazariyasi kabi kapitalistik iqtisodiyotga burjua davlatining tasodifiy va bilvosita ta'sirini emas, balki tizimli va to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etishini yoqlaydi.

Shu sababli, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish burjua konsepsiyasining asosiy muammolari o'zgaradi. Iqtisodiyotni inqirozga qarshi tartibga solishga mo'ljallangan bandlik nazariyasidan kapitalistik tizimni iqtisodiy rivojlantirishning barqaror sur'atlarini ta'minlash yo'llarini topishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan iqtisodiy o'sish nazariyasiga o'tkazish amalga oshirildi.

Neokeynschilik metodologiyasi milliy daromad, yalpi ichki mahsulot, yalpi talab, yalpi taklif, yalpi investitsiya va h.k. deb atalmish agregat toifalardan (makroiqtisodiy ko'rsatkichlar) foydalanish orqali

²⁹⁶ Классики кейнсианства: в 2 т. М.: Экономика, 1997. Т. 1. – С 120.

ishlab chiqarish muammolarini ko‘rib chiqishda makroiqtisodiy yondashuv bilan xarakterlanadi²⁹⁷.

Neokeynschilik doirasida bir nechta konsepsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular orasida iqtisodiy dinamika va iqtisodiy o‘shish nazariyalari bir muncha muhimlari hisoblanadi. O‘z navbatida, iqtisodiy dinamika nazariyasi ham kumulyativ talab konsepsiyasi (investitsion nazariya), jamg‘arish konsepsiyasi va iqtisodiy dinamika tengligi konsepsiyalarini o‘z ichiga oladi.

Neokeynschilik jamg‘arish va iste‘mol qilish moyilligi ostida barcha resurslardan “to‘liq” foydalanilgan taqdirda inqiroz ehtimoli mavjudligini tan olishgan. Ularning fikricha, “bandlik cho‘qqisi”ga erishilganda pasayishning oldini olish vositasi etib “o‘rnatilgan stabilizatorlar” (ish haqidan daromadni soliqqa tortish, chakana narxlar, sug‘urta, ish haqi, ishsizlik nafaqalari va boshqalarni tartibga solish) harakati doirasida amalga oshiriladigan davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari hisoblanadi²⁹⁸.

Neokeynschilikning iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish choralari kapitalizmni ichki ziddiyatlardan xalos eta olmaydi. Bundan tashqari, “iqtisodiy o‘shish” siyosati iqtisodiyotni moliyalashtirish defitsiti, inflyasiya, kapitalistik mamlakatlar o‘rtasidagi savdo urushining keskinlashuvi, valyuta inqirozi, ekologik halokat va boshqalarga olib keldi.

Umumman olganda, neokeynschilar metodologiyasida Keyns an‘analarini davom ettirib, makroiqtisodiy va miqdoriy yondashuvlardan, jami ko‘rsatkichlarni tahlil qilish, psixologik usuldan foydalanadi, milliy daromad taqsimotida miqdoriy nisbatlarning o‘zgarishini tan oladi. Investitsiya multiplikatoridan tashqari, neokeynschilar akseleratorni-investitsiya o‘zgarishining milliy daromad o‘zgarishiga bog‘liqligini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichni joriy etadilar.

²⁹⁷ Hairod R. F. An Essay in Dynamic Theory // Economic Journal, 1939. № 49. P. 15.

²⁹⁸ Domar E. Capital Expansion, Rate of Growth, and Employment // Econometrica. 1946. № 14. P. 137.

O‘ninch bob bo‘yicha o‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Soliqqa tortishning klassik nazariyasi mohiyatini tushuntirib bering?
2. Soliqning qurbonliklar nazariyasi mazmunini izohlab bering?
3. Soliqning kollektiv (jamo) ehtiyojlar nazariyasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Keynes ta’limoti va soliqqa tortishning keynschilik nazariyasini izohlab bering?
5. Keynesning psixologik qonuni va samarali talab haqida nimalarni bilasiz?
6. Soliqqa tortishning klassik va keynschilik nazariyalari o‘rtasidagi bir birini nkor etuvchi jihatlarini yoritib bering?
7. Neoklassik nazariyasining monetarizm ta’limotini tushuntirib bering?
8. Neoklassik nazariyasining taklif iqtisodiyoti g‘oyasini ochib bering?
9. Neoklassik nazariyasining monetarizm va taklif iqtisodiyoti ta’limoti o‘rtasida qanday o‘xshash va farqli taraflari bor?
10. Soliqqa tortishning keynschilik va neoklassik nazariyalarining farqli jihatlarini yoritib bering?

Test savollari:

1. **Keynschilik nazariyasiga muvofiq davlat iste’molni rag‘batlantirish uchun qanday harakatlarni amalga oshirishi zarur?**
 - a) Monetar siyosat bilan birgalikda fiskal siyosati orqali soliqlarning progressiv va tabaqalashtirilgan stavkalaridan foydalanib yalpi iste’molni rag‘batlantirishga ta’sir ko‘rsatishi kerak
 - b) Ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali
 - s) Aholining ijtimoiy muhtoj qatlamiga yordam ko‘rsatgan holda iste’molni rag‘batlantirish mumkin
 - d) Kapitalga soliqni oshirish orqali iste’molni rag‘batlantirishi mumkin

2. Keynschilik nazariyasiga asosan davlat iqtisodiy inqiroz davrida iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida qanday harakatlarni amalga oshirishi lozim?

a) Inqiroz davrida yalpi talabni oshirishi va shu bilan ishlab chiqarish va investitsiyani faollashtirishi, ishsizlikni esa kamaytirishi lozim

b) Yalpi taklifni oshirishi, ishlab chiqarish hajmini pasaytirishi, xarajatlarni kamaytirish lozim

s) Soliq stavkalarini oshirishi, byudjetga tushumlar hajmini oshirishi lozim

d) Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarining faoliyatini vaqtinchalik to'xtatib turishi, xarajatlar hajmini kamaytirishi lozim

3. J. Keynsning nazariyasiga ko'ra aholi jamg'armalarini muomalaga kiritish maqsadida davlat qanday yo'l tutishi lozim?

a) aholi jamg'armalarini muomalaga kiritish maqsadida soliqlarni oshirish, bu orqali omonatlardan davlat (markazlashgan) investitsiyalarini amalga oshirish uchun foydalanishi mumkin

b) aholi jamg'armalarini muomalaga kiritish maqsadida soliqlarni pasaytirish, aholining daromadini oshirish, bu orqali aholining mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabini oshirish

s) davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash lozim

d) aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlami uchun soliqdan imtiyozlarni qisqartirish

4. Javoblarning qaysi birida J. Keyns tomonidan ilgari surilgan bandlik nazariyasining asosiy g'oyasi to'g'ri ko'rsatib o'tilgan?

a) ish bilan bandlik ortishi tufayli milliy daromad, iste'mol ortadi. Ammo iste'mol daromadga nisbatan sekinroq ortadi, chunki daromad ortishi bilan jamg'arishga intilish kuchayadi

b) ish bilan bandlik yalpi talabga bog'liq emas

s) byudjet kamomadi – talabni rag'batlantirish vositasi hisoblanmaydi

d) iqtisodiy o'sish pul omonatlari hajmiga bog'liq emas

5. Neoklassik nazariya vakili to'g'ri ko'rsatilgan javobni tanlang?

- a) Alfred Marshall
- b) Milton Fridman
- s) Adam Smit
- d) D. Rikardo

6. Monetaristik nazariya vakili to'g'ri ko'rsatilgan javobni tanlang?

- a) Milton Fridman
- b) Alfred Marshall
- s) Adam Smit
- d) David Rikardo

7. Javoblarning qaysi birida monetaristik g'oya vakilliridan M.Fridman qarashlari to'g'ri ko'rsatib o'tilgan javobni tanlang?

- a) Davlatning iqtisodiyotni boshqarishni muomaladagi pullarni tartibga solish orqali amalga oshirishni taklif qildi
- b) Ish bilan bandlik yalpi talabga bog'liq emas deb ta'kidladi
- s) Byudjet kamomadi – talabni rag'batlantirish vositasi hisoblanmaydi degan g'oyani ilgari surdi
- d) Iqtisodiy o'sish pul omonatlari hajmiga bog'liq emas degan g'oyani ilgari surdi

8. Neokeynschilikning taniqli tarafdorlari keltirilgan javobni tanlang?

- a) R.Xarrod, N.Kaldor, J.Robinson, YE.Domar, A.Xansen
- b) Adolf Vagner
- s) Adam Smit
- d) Alfred Marshall

9. Bilvosita soliqqa tortishda ehtiyotkorlik bilan yondoshish kerakligi, bunda birinchi zaruriy tovarlarni bilvosita soliqqa tortilishi kambag'al aholining turmush tarziga salbiy ta'sir etishi va bilvosita soliqqa aksariyat hollarda faqat qimmatbaho tovarlarni tortish zarurligi to'g'risidagi fikr qaysi iqtisodchi olimning fikri?

- a) Adam Smit
- b) Yanjul Ivan Ivanovich
- s) Fransua Kene
- d) Jon Batis Sey

10. Rus iqtisodchisi Yanjul Ivan Ivanovichning bilvosita soliqqa tortish bo'yicha nechta qoidasini ishlab chiqqan?

- a) 6 ta
- b) 8 ta
- s) 4 ta
- d) 2 ta

11-BOB. SOLIQQA TORTISHNING ZAMONAVIY NAZARIYALARI



§ 11.1. Optimal soliqqa tortish nazariyasi

Xalqaro iqtisodiyot nazariyasida resurslarni taqsimlashning ijtimoiy samaradorligiga erishish muammosi italiyalik injener, iqtisodchi va sotsiolog Vilfredo Pareto (1848-1923) tomonidan ishlab chiqilgan. “Pareto samaradorligi” zamonaviy iqtisodiyot uchun asosiy tushunchalardan biri bo‘lib, uning asosida birinchi va ikkinchi farovonlik teoremlari quriladi.

Pareto konsepsiyasiga ko‘ra resurslardan minimal foydalangan holda ishlab chiqarish sohasida optimal taqsimlash va ehtiyojlarni maksimal darajada qondirish ta‘minlanadi. Boshqacha aytganda, iste‘mol sohasida samarali taqsimlashni nazarda tutadigan jamiyatning umumiy iqtisodiy muvozanati va resurslarni taqsimlashning ijtimoiy samaradorligi holati hisoblanadi²⁹⁹.

Mukammal raqobat sharoitidagi bozor iqtisodiyotida Pareto bo‘yicha optimumga avtomatik erishiladi.

Pareto qonuni yoki Pareto “20/80” tamoyiliga ko‘ra 20 foiz harakat 80 foiz natijani beradi, qolgan 80 foiz harakat esa faqatgina 20 foiz natijani beradi. Ushbu ko‘rsatkich ma‘lum bir faoliyatning natijadorlik omillarini aniqlashda va uni optimallashtirishda foydalaniladi. Eng

²⁹⁹ Парето В. Социалистические системы / В. Парето. – Москва: Директ-Медиа, 2007. – 131 с. – Режим доступа: по подписке. – URL: <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=26557> (дата обращения: 26.02.2022). – ISBN 978-5-94865-918-3. – Текст: электронный.

zarur minimal harakatlarni to'g'ri tanlash kutilayotgan natijaning katta qismiga tezroq erishishni ta'minlaydi. Bunda keyingi harakatlar natijaga unchalik ta'sir etmaydi va o'zini oqlamasligi mumkin³⁰⁰.

Paretoning taqsimlanish qoidasi (ehtimollar nazariyasi) barcha turdagi hodisalarni o'rganishda keng qo'llaniladi. Xususan, ijtimoiy, iqtisodiy, fizik va boshqa hodisalar.

Pareto iqtisodiyotda yaratilgan boyliklarning taqsimlanishi bo'yicha 20/80 ko'rsatkichini qayd etgan. Ya'ni, uning taqsimlanish qoidasiga binoan aholining 20 foizi mamlakatda yaratilgan umumiy boyliklarning 80 foiziga egalik qiladi (Italiyadagi aholi daromadlari bo'yicha aniqlangan).

Ma'lum bir tizimda, tizimni ifodalovchi xususiy ko'rsatkichlar holatini tizimdagi boshqa birorta ko'rsatkich holatiga zarar yetkazmagan holda yaxshilashning imkoni bo'lmaydi. Pareto bo'yicha optimal holat - "Hech kimga zarar keltirmaydigan va ayrim shaxslarga foyda keltiradigan (ularning shaxsiy bahosi bo'yicha) har qanday o'zgarish yaxshilanish bo'ladi". Bu degani, hech kimga qo'shimcha zarar keltirmaydigan barcha o'zgarishlarga bo'lgan huquq tan olinadi.

Iqtisodiyotda Pareto samaradorligiga erishilgan vaziyat tomonlar almashinuvida olingan barcha manfaatlar tugagan holatdir.

Pareto bo'yicha optimal bozor holati bu shunday holatki, unda iqtisodiy jarayonlarning bironta ishtirokchisi holatini, hech bo'lmaganda boshqa ishtirokchilardan bittasiga zarar yetkazmagan holda yaxshilash imkoniyati bo'lmasligidadir.

Pareto bo'yicha optimum – bu shunday (taqsimlanish) holatki, unda jamiyatning jami boyliklari maksimal darajaga yetadi va boyliklar hamda resurslar taqsimlanishi optimal holatga keladi, ya'ni ushbu holatning (taqsimlanishning) har qanday o'zgarishi hech bo'lmaganda iqtisodiy tizimning bitta subyektiga zarar keltiradi.

³⁰⁰ Парето В. Трансформация демократии: сборник научных трудов / В. Парето. – Москва: Территория будущего, 2011. – 208 с. – (Университетская библиотека Александра Погорельского). – Режим доступа: по подписке. – URL: <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=85013> (дата обращения: 26.02.2022). – ISBN 978-5-911290-62-7. – Текст: электронный.

Pareto bo'yicha optimallik taklif qilingan o'zgarish ba'zilarga foyda keltiradigan va ayni paytda boshqalarga zarar (yo'qotish) keltiradigan holatga qo'llanilmaydi.

Paretoga ko'ra optimallik mezoni foydalilikning umumiy maksimallasuvi emas, balki uning har bir shaxs uchun ma'lum bir boshlang'ich tovar zaxirasiga ega bo'lishdagi maksimallasuvi hisoblanadi.

Iqtisodiy subyektning oqilona xulq-atvoriga asoslanib, korxonada mahsulot ishlab chiqarishda shunday imkoniyatlaridan foydalanadiki, bunda uning foydasi maksimal oshadi. Iste'molchi, o'z navbatida, maksimal foydani ta'minlaydigan bunday tovarlar to'plamini sotib oladi.

Tizimning muvozanat holati maqsadli funksiyalarni optimallashtirishni nazarda tutadi (iste'molchi uchun – maksimal foydalilik, tadbirkor uchun – maksimal daromad). Aynan shu Pareto bo'yicha bozorning optimal holatini anglatadi. Demak, har biri o'z manfaati uchun intilayotgan barcha bozor ishtirokchilari o'zaro manfaatlar muvozanatiga erishsalar, umumiy qoniqish (umumiy foydalilik funksiyasi) maksimal darajaga yetadi. Bu esa deyarli A.Smitning "ko'rinmas qo'llar" (to'g'ri, foydaliligi jihatidan emas, balki boyligi jihatidan) haqidagi mashhur iborasini eslatadi. Keyinchalik umumiy bozor muvozanati haqidagi teorema aslida bozorning Pareto optimal holati ekanligi isbotlandi³⁰¹.

Boshqacha aytganda, maqsadli funksiyalarning optimal holati barcha bozorlarda muvozanatni ta'minlaydi. Paretoga ko'ra, obyektiv funksiyalarni optimallashtirish iqtisodiy jarayonning barcha ishtirokchilari tomonidan mumkin bo'lgan eng yaxshi muqobilni (alternativ) tanlashni anglatadi. Biroq, ta'kidlash joizki, har bir individning tanlovi u foydalanadigan va tasarruf etadigan dastlabki foydaning (manfaat) narxiga va hajmiga bog'liq bo'lib, foydaning

³⁰¹ Schumpeter J.A. Ten Great Economists from Marx to Keynes (Oxford University Press, 1951); M. Allais, Pareto, Vilfredo, International Encyclopedia of the Social Sciences, vol. 11, ed. D.L. Sills (Macmillan Free Press, 1968).

(manfaat) dastlabki taqsimotini o'zgartiradi. Bundan kelib chiqadiki, bozor muvozanati allaqachon shakllangan taqsimlash tizimi doirasidagi eng yaxshi pozitsiya hisoblanadi va Pareto modeli jamiyatning tengsizlikni qabul qilmasligini anglatadi.

Turli tarixiy davrlarda bir qator mamlakatlar statistikasini o'rganish asosida, Pareto ma'lum bir qiymatdan yuqori daromadni taqsimlash muhim barqarorlikni saqlab qoladi va bu ijtimoiy sharoitlarning nomukammalligi emas, balki inson tabiiy qobiliyatining notekis taqsimlanishidan dalolat beradi, degan g'oyani ilgari surdi. Bu Paretoning jamiyatni ijtimoiy qayta qurish masalalariga o'ta shubha bilan qarashiga olib keldi³⁰².

Soliqqa tortishning iqtisodiy samaradorligini oshirish ortiqcha soliq yukini minimallashtirishni o'z ichiga oladi. Soliqlarni optimallashtirish muammosini hal qilish uchun soliq siyosatining maqsadlari va cheklovlarini tahlil qilish kerak.

Soliq siyosatining maqsadlari davlat moliyasining funksiyalari, shu jumladan soliqqa tortish bilan belgilanadi, ma'lumki, ularning uchta mavjud:

1. Allokatsion (agar resurslarni taqsimlanishi bozor kamchiliklari tufayli yetarli darajada samarali bo'lmasa davlatning soliq siyosati orqali korrektyrovka qilish).

2. Qayta taqsimlash (byudjet siyosatida ifodalangan taqsimlash).

3. Barqarorlashtirish (makroiqtisodiy muvozanatga ta'siri).

Soliqqa tortishni optimallashtirish masalalarini aynan allokatsion funksiya asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, aynan soliqlarning (soliq yukining) allokatsion samaradorlikka ta'siri aniq miqdoriy xarakterga ega. Optimal soliqqa tortish ortiqcha soliq yukini kamaytiradi. O'z navbatida qayta taqsimlash va barqarorlashtirish funksiyalari optimal soliqqa tortishning sifat tarkibiy qismi hisoblanadi.

³⁰² Беккер Г., Босков А. Современная социологическая теория. М., 1961. – С 452

Allokatsion (“allocation” – ingl. lug‘aviy ma’nosi: aniqlangan, belgilangan) samaradorlik nuqtai nazaridan davlatning soliqlarni yig‘ishga qodirligini va qayta taqsimlashdagi aniq talablarni ifodalovchi qoniqarli cheklovlarga ega soliq strukturasi (tuzilmasi) Pareto optimal soliq strukturasi deb nomalanadi. Aynan shunday strukturalarni qidirish soliq solishni optimallashtirish vazifalari tarkibini tashkil etadi³⁰³.

§ 11.2. Ramsey nazariyasi va Korletta-Xeyg qoidasi: ziddiyatlari va iqtisodiy mohiyati

Britaniyalik matematik-iqtisodchi, Ramsey nazariyasining asoschisi Frenk Plampton Ramsey (1903-1927) matematika sohasida tadqiqotlar olib borgan, shuningdek, falsafa va iqtisodiyot ilm-faniga ulkan hissa qo‘shgan. Soliqqa tortishning optimallashtirish muammosi ilk bor Ramsey tomonidan tahlil qilingan.



Ramsey qoidasi optimal soliqqa tortish nazariyasining shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Biroq, uni bevosita amaliy qo‘llash imkoniyati birinchi navbatda adolatlilik nuqtai nazaridan cheklangan³⁰⁴.


Ramsey qoidasining asosiy mohiyati shundan iboratki, soliq solinadigan tovarlarga bo‘lgan talabning elastikligiga (taklif elastikligi o‘zgarmas bo‘lgan sharoitda) soliq stavkalarini teskari mutanosiblikda o‘zgartirish zarur, ya’ni tovarga bo‘lgan talab noelastik bo‘lsa

³⁰³ Селигмен Б. Основные течения современной экономической мысли. М., 1968. 327 с.

³⁰⁴ Russell B. Critical Notice on “The Foundation of Mathematics and Other Logical Essays” by F.P. Ramsey. – Mind. – 1931. Vol. 40. № 160. – P. 476–482.

yuqoriroq stavkada, tovarga boʻlgan talab elastik boʻlsa pastroq stavkada soliqqa tortilishi lozim³⁰⁵.

12.1-rasmdagi grafiklardan koʻrishimiz mumkinki, X-tovarga boʻlgan talab Y-tovarga boʻlgan talabga nisbatan noelastikroq boʻlganligi sababli X-tovar va Y-tovar uchun bir xil miqdorda soliq joriy qilinishi X-tovar xajmining Y-tovar hajmiga nisbatan kamroq qisqarishiga sabab boʻlmoqda. Bunda: R-narx, Q-miqdor, S-taklif, D-talab, t-soliq, KOSYU-keragidan ortiq soliq yuki.



11.1-rasm. Mahsulotga boʻlgan talab noelastik va elastik holatida soliq yukining oʻzgarishi tahlili³⁰⁶

Ramsey nazariyasiga asosan optimal soliqqa tortishda tovarlarga nisbatan soliq joriy qilinishi har bir tovarning hajmini bir xil miqdorda qisqarishini taʼminlashi lozim. Ushbu holatda optimal soliq solish maqsadida X-tovarga nisbatan soliq miqdorini oshirish va Y-tovarga nisbat soliq miqdorini kamaytirish lozim boʻladi.

Ramsey nazariyasi boʻyicha soliq stavkalarining tovarlarga boʻlgan talabning elastikligi darajasiga teskari mutanosibligini bir misol orqali ifoda etishga harakat qilamiz³⁰⁷. Masalan, A va V tovar boʻyicha soliq joriy qilinishini oladigan boʻlsak.

³⁰⁵ Toshmatov Sh., Gʻiyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2021. – 267 b.

³⁰⁶ Суrowцев В.А. С 90 Ф.П. Рамсей и программа логицизма. Томск: Изд-во Том. ун-та, 2012. – 258 с.

³⁰⁷ Toshmatov Sh., Gʻiyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2021. – 267 b.

$$t_A/t_B = e_{DB}/e_{DA}$$

Bu yerda: t -solliq stavkasi, e_D - talb elastikligi darajasi

Quyidagi tenglikni keltirib chiqaramiz

$$t_A * e_{DA} = t_B * e_{DB}$$

t_A va t_B tovarlar narxining solliq joriy qilingunga qadar amaldagi narxning o'zgarishining foizli ko'rsatkichi bo'lganligi sababli:

$$e_{DA} = (dQ_A/Q_A)/t_A, e_{DB} = (dQ_B/Q_B)/t_B$$

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi formulani keltirib chiqaramiz:

$$t_A * dQ_A / Q_A * t_A = t_B * dQ_B / Q_B * t_B \Rightarrow \underline{dQ_A/Q_A = dQ_B/Q_B}$$

Demak, optimal solliq solishda ishlab chiqarishning hajmi mutanosib ravishda teng qisqaradi va bu Ramsey nazariyasi deb ataladi.

Korletta-Xeyg qoidasi – optimal solliq solishda tovarlarga bo'lgan talabning elastiklik darajasiga qarab solliq stavkalarining joriy qilinganda, o'zaro o'rnini bosuvchi tovarlar o'zaro o'rnini to'ldiruvchi tovarlarga nisbatan kamroq miqdorda solliqqa tortiladi. Ya'ni bir tovar narxining o'sishi (solliq miqdori hisobiga) ikkinchi bir o'zaro o'rnini bosuvchi tovarning iste'molini oshishiga olib keladi. Shuningdek o'zaro o'rnini to'ldiruvchi tovarlar iste'molini kamaytiradi³⁰⁸.

“Ikkinchisi eng yaxshi” – qoidasi iqtisodiyotda har qanday qaror qabul qilishda (shu jumladan solliqqa tortish tizimida ham) ushbu qarorning ijobiy (yaratiladigan sharoit) va salbiy (mavjud sharoitni buzilishi) ta'sirlari o'rganilishi hamda ijobiy va salbiy oqibatlarni sarhisob qilgan holda to'g'ri qarorni qabul qilish lozim bo'ladi. Ya'ni qabul qilinayotgan qarorning ijobiy jihatidan ko'ra salbiy oqibatlari

³⁰⁸ Corlett W.J., Hague D.C. Complementary and the Excess Burden of Taxation // Review of Economic Studies. 1953. № 21. P. 21—30.

darajasi yuqori boʻlgan hollarda ushbu qarorni qabul qilinmaganligi maʼqul deb topiladi³⁰⁹.

Misol uchun davlat tomonidan tovarlar narxining belgilanishi iqtisodiy optimumga erishishda umumbelgilangan qoidalarning buzilishiga, yaʼni ishlab chiqaruvchilarning foydasini cheklanishiga olib kelsa, yana bir tomondan davlat tovarlar narxini shakllanishiga aralashmaganda, monopol ishlab chiqaruvchilar tomonidan oʻzlari xohlagan narxlarning belgilanishi oldinga holatga nisbatan koʻproq salbiy taʼsir qiladi³¹⁰.

Tovarlarga boʻlgan talab elastikligi darajasidan kelib chiqqan holda soliq stavkalarining alohida-alohida belgilanishi soliqlarning egiluvchanlik tamoyilini bajarilishini taʼminlaydi.

Lekin oddiylik, adolatlik va iqtisodiy betaraflik tamoyillarining buzilishiga olib keladi.

Aholining birlamchi isteʼmol tovarlariga nisbatan soliq stavkalarining yuqori boʻlishiga va aksincha xasham tovarlari uchun soliq stavkalarining pasaytirilishiga olib keladi.

Soliq toʻlovchilarda soliqlarni hisoblab chiqarishda qiyinchilikni keltirib chiqaradi. Misol uchun bir nechta turdagi tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan har bir tovar turi boʻyicha alohida soliq stavkalarining qoʻllanishi soliqlarni hisoblashda chalkalshliklar va xatoliklarni keltirib chiqaradi.

Ramsey nazariyasidan voz kechish olinadigan daromadlarga salbiy taʼsir qiladi va ortiqcha soliq yukini keltirib chiqaradi (ishlab chiqaruvchilar jihatdan)³¹¹.

³⁰⁹ Якобсон Л.И. Государственный сектор экономики: Экономическая теория и политика. М.: ГУ ВШЭ, 2000. - 371 с.

³¹⁰ Toshmatov Sh., Gʻiyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2021. – 267 b.

³¹¹ Potter M. Ramsey’s Transcendental Argument // Ramsey’s Legacy. – Clarendon Press, Oxford University Press, 2005. – P. 71–82.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarlarining talab elastikligidan kelib chiqqan holda soliq stavkalarining qo'llanilganda o'zaro o'rni bosuvchi tovarlar, o'zaro o'rni to'ldiruvchi tovarlarga nisbat kamroq miqdorda soliqqa tortiladi va o'z navbatida tovarlarning talabiga ta'sir o'tkazadi³¹².

Tovarga bo'lgan talabning o'zgarishi natijasida soliqlar yuqoriroq stavkada belgilangan tovar turlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarining faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatiladi³¹³.

Soliq yukini optimallashtirish deganda - talab va taklifning elastikligidan kelib chiqadigan ortiqcha soliq yukini qisqartirish masalasini hal qilish tushuniladi. Optimal soliq stavkasi talab kompensatsiya qilingan talab elastikligi darajasiga teskari proporsional³¹⁴.

Shuningdek, ma'lum bir tovarlarga nisbatan soliq joriy qilinishi ushbu tovarlarga bo'lgan talabni qisqartirish bilan bir qatorda o'zaro o'rni bosuvchi tovarlarga bo'lgan talabning ortishiga hamda o'zaro bog'liq tovarlarga bo'lgan talabning kamayishiga olib keladi.

Birlamchi kundalik ehtiyoj tovarlari uchun talab elastikligi juda past (noelastik). Aholi turmushi uchun birlamchi kundalik ehtiyoj tovarlari iste'moli muhim. Shuning uchun kam daromadga ega bo'lgan aholi qatlami o'z daromadlarini asosiy qismini birlamchi kundalik ehtiyoj tovarlariga sarflaydi. Birlamchi kundalik ehtiyoj tovarlariga nisbatan bilvosita soliqlarning joriy qilinishi yoki kundalik ehtiyoj tovarlarini ishlab chiqaruvchilarga nisbatan bevosita soliqlarning joriy qilinishi, talab elastikligi past (noelastik) bo'lganligi sababli ushbu

³¹² Экономика общественного сектора: учебник для академического бакалавриата/под ред. Л.И. Якобсона, М.Г. Колосницыной. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2016. - 558 с. - Серия: Бакалавр. Академический курс.

³¹³ Sahlin N.-E. 'HE IS NO GOOD FOR MY WORK': On the Philosophical Relations between Ramsey and Wittgenstein // Knowledge and Inquiry: Essays on Jaakko Hintikka's Epistemology and Philosophy of Science. - Rodopi, Amsterdam, 1997. - P. 61-84.

³¹⁴ Sullivan P.M. Wittgenstein on "The Foundations of Mathematics" of Ramsey. - Theoria. - 1995. Vol. LXI, p.2. - P. 105-42.

tovarlar narxining o'sishiga va bevosita soliqlarning soliq yukini ham ma'lum darajada iste'molchilar zimmasiga o'tkazilishiga sabab bo'ladi³¹⁵.

Shu sabab davlat tomonidan soliqlarni rejalashtirish, soliq yukini optimallashtirish hamda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida mutanosib taqsimlanishini ta'minlashda talab va taklif elastikligini inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ramsey narxlari va qoidasi. Tovarlariga soliq solishning shunday strukturasi optimal hisoblanadiki, bunda qoplanadigan (kompensatsiya) talab soliqqa qadar muvozanat holatga nisbatan uning har biriga bir hil mutanosiblikda kamayadi (agar u Pareto optimal bo'lsa)³¹⁶.

Ramsey qoidasi davlat tomonidan belgilanadigan optimal narxlar strukturasi ham tegishlidir. Misol uchun X va U – monopolar tomonidan ishlab chiqarilgan ikki tovarning miqdori va davlat ushbu tovarlar narxini nazoratga olmoqchi. Tabiiy monopol sharoitlarda davlat tarmoqni milliylashtirishi mumkin yoki monopol mahsulotlar narxlarini tartibga solishi mumkin. Ikkila holatda ishlab chiqarish hajmiga erishi mumkin, bunda talab narxlari eng yuqori chiqimlarga teng bo'ladi. Biroq, eng yuqori chiqimlar o'rta me'yordan past bo'lgan taqdirda, tabiiy monopoliya zarar keltiruvchi bo'ladi. Agar davlat narxni shunday belgilashni ko'zda tutsa, unda u ishlab chiqarishni soliqlar hisobidan subsidiyalashga majbur bo'ladi. Bunda, sotib oluvchilarning narxlari o'rta chiqimlarni qoplashi kerak bo'lgan sotuvchilarga nisbatan past bo'ladi. Shunday ekan, narxlarning optimal ahamiyati shunday bo'lishi kerakki, ikkila tovarga qoplanadigan (kompensatsiya) talab soliqqa qadar narxlarga nisbatan bir hil mutanosiblikda qisqarishi kerak. Bunday

³¹⁵ Экономика общественного сектора: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлению "Экономика" и экономическим специальностям. Институт экономики РАН, МГУ имени М.В. Ломоносова/под ред. П.В. Савченко и др. — М.: ИНФРА-М, 2010.

³¹⁶ Psillos S. Ramsey's Ramsey-sentences // Cambridge and Vienna: Frank Ramsey and The Vienna Circle. — Springer, 2006. — P. 67–90.

shart-sharoitlarga javob beradigan narxlar Ramsey narxlari deb nomlanadi³¹⁷.

Bunday qoidani soliq solishga va narxlarni tartibga solishga qo'llanilishi - bozor jarayoniga davlat aralashuvining turli shakllari yahlitligi va o'zaro bog'liqligiga odatiy misol bo'la oladi.

§ 11.3. Soliqqa tortish chegarasi nazariyasi (Laffer egri chizig'i)



Soliqlarning xususiy nazariyalari ichida soliqlarning me'yoriy miqdori bo'yicha nazariya alohida ahamiyatga ega, chunki ushbu nazariya nafaqat nazariy balki amaliy statistik ma'lumotlar asosida ham o'z isbotini topgan. Soliqqa tortish me'yoriy miqdori xususidagi nazariya amerikalik davlat arbobi, neoklassik nazariyaning zamonaviy vakillaridan biri ingliz iqtisodchisi Artur Laffer tomonidan ishlab chiqilgan.

A.Laffer o'zining ilmiy izlanishlarida soliq stavkalarini pasaytirish va soliqqa tortishning progressivligini kamaytirish orqali Keynes nazariyasidan farqli o'laroq davlat tomonidan investitsiyalarni ko'paytirishni emas, balki korxonalariga investitsiya uchun o'z jamg'armalarini ko'paytirish imkonini berish lozim, degan fikrni ilgari suradi. Uning ilmiy tahlillari tasdiqlaydiki, soliqqa tortishning shunday optimal chegarasi mavjud bo'lib, soliq stavkasi undan yuqoriga qancha ko'tarilmasin, soliq tushumlarini ko'paytirishga erishib bo'lmaydi. Soliq yukining ortib borishi soliq bazasining kamayishiga olib keladi. Uning natijasida esa, tadbirkorlar korxonalarni yopib qo'yadilar, yoki soliq bazasini yashirishga urinadi va shu tariqa yashirin iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi³¹⁸.

³¹⁷ Sandu G. Ramsey and the Notion of Arbitrary Function // F.P. Ramsey: Critical Reassessments. – London, New York: Continuum, 2005. – P. 237–256.

³¹⁸ Подковыров В.Е., Вертикальный эффект Лаффера // Налоги и финансы. – 2013. – № 3. – С. 43–46.

Soliq stavkalari shkalalarini shakllanish darajasi bo'yicha umumiy qonun bor. Keng soliqqa tortiladigan bazaga nisbatan kamroq soliqqa tortish stavkasini qo'llash, yetarli darajada kam bo'lgan soliq bazasiga nisbatan esa, buning teskarisi, alohida soliq turlarini yuqori stavkada qo'llash kerak. Ko'rinib turibdiki, yuqori va past soliq stavkalari xo'jalik faoliyatiga va tadbirkorlarni ish faolligiga har hil ta'sir ko'rsatadi³¹⁹.

A.Smitning fikricha, soliq yukini kamaytirilishi natijasida davlat ko'proq yutadi, ya'ni soliqdan ozod bo'lgan summadan ortiqcha daromad olish mumkin va natijada olingan daromad soliqqa tortish uchun qo'shimcha soliqqa tortish obyekti bo'ladi. Shu bilan birga soliq to'lovchilar soliq summasini o'z xohishlari va yengillik bilan byudjetga o'tkazib berishadi. Bu esa davlatni ortiqcha xarajatlardan, ya'ni soliqlarni undirish, soliq bo'yicha jinoyatlarni topish va unga nisbatan jazolarni qo'llash xarajatlarini kamaytiradi. A.Smitning bu g'oyalari uning davomchilariga emas, balki keyingi iqtisodchi olimlar uchun aksioma bo'lib qoldi³²⁰.

A.Laffer progressiv soliq stavkasi va byudjet daromadlarini parabola ko'rinishidagi egri chiziq bilan ifodaladi va u quyidagi fikrga keldi: soliq stavkasini pastligi xususiy sektorning investitsiya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab iqtisodchilar soliq to'lovchilarning daromadini byudjetga olishning chegarasi borligi va soliq og'irligini ko'paytirib yubormaslik haqida yozib o'tganlar. Davlat milliy ishlab chiqarishni o'sishi yoki pasayishiga soliq stavkalarini o'zgartirish va byudjet xarajatlari orqali ta'sir ko'rsatadi.

A.Lafferning hisobiga ko'ra soliqlarni kamaytirish natijasida iqtisodiyotning o'sishi va davlat daromadlarining o'sishini isbotlab bergan. Bu tarixda Laffer egri chizig'i deb ataladi. Soliq stavkasi ma'lum darajaga yetishi soliq tushumlarini ko'paytiradi, uning yanada oshirilishi aksincha soliq tushumlarini kamaytiradi³²¹.


³¹⁹ Алексеев В.В. Матвеев И.В. Эластичность кривой Лаффера и оптимизации налоговых поступлений при оценке теневого сектора экономики // Налоговый вестник Чебоксарского кооперативного института. – 2012. – № 01. – С. 223–229

³²⁰ Букач Б.А. Обоснование и анализ различных вариантов графической интерпретации кривой Лаффера// Экономика и финансы. – 2012. – № 02. – С. 30 – 38.

³²¹ Папава В.Г. Лафферов эффект с последствием // Мировая экономика и международные экономические отношения. – 2011. – № 07. – С. 34 – 39.

Soliq stavkasining o‘shishi faqatgina ma’lum darajaga yetgunicha byudjetga tushadigan daromadlarni o‘shishga olib keladi, keyin bu o‘shish sekinlashadi va yana oshgan sari byudjet daromadlari uning oshishiga nisbatan tezroq kamayadi. Shunday qilib, soliq stavkasi ma’lum darajaga yetganidan tadbirkorlik tashabbusi o‘ladi, ishlab chiqarishni kengaytirishga bo‘lgan rag‘bat kamayadi, soliqqa tortiladigan daromadlar kamayadi, natijada soliq to‘lovchilarning bir qismi iqtisodiyotni “qonuniy” sektordan “yashirin” sektoriga o‘tadi. Laffer nazariyasiga ko‘ra iqtisodiyotning rivojlanishi soliq yukini oshishiga to‘g‘ri proporsionaldir, ya’ni soliqlar oshishi bilan yashirin iqtisodiyot ko‘payadi, natijada olingan daromadlarning ko‘p qismi deklaratsiyada ko‘rsatilmaydi³²².

Bunga aksincha, soliqlarni kamaytirilishi iqtisodiyotni rivojlantirishga rag‘bat beradi. Bu esa davlat daromadlarini soliq stavkasi va yukini ko‘payishi hisobiga emas, balki soliqqa tortiladigan bazani ko‘payishi hisobiga oshadi.




11.2-rasm. Laffer egri chizig‘i³²³

³²² Becsi Z. The Shifty Laffer Curve [Электронный ресурс] // Federal Reserve Bank of Atlanta: Economic Review. 2000. Third Quarter. URL: www.frbatlanta.org/filelegacydocs/becsi.pdf (дата обращения: 15.10.2013).

³²³ Niyazmetov I.M. Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: “Moliya”, 2016. – 192 b.

Lafferning fikricha, soliq stavkalarining ma’lum miqdorgacha oshib borishi byudjet daromadlarining ko‘payishiga xizmat qiladi, lekin soliq stavkalari me’yoridan oshib ketsa byudjet daromadlari aksincha kamayib boshlaydi. Xuddi shuningdek soliq stavkalarining oshirilishi soliq solinadigan bazaning miqdoriga teskari mutanosibda bo‘lib, xufyona iqtisodiyot ko‘lamini kengayishiga to‘g‘ri mutanosibdir. Bu qonuniyat Lafferning egri chizig‘i bilan ifoda etilgan.



11.3-rasm. Laffer egri chizig‘i: soliqqa tortishning sog‘lom va ta’qiqlangan hududi³²⁴

Ushbu egri chiziq bo‘yicha soliq stavkasining eng optimal darajasini, ya’ni soliq stavkasining maksimal darajada soliq tushumiga ega bo‘lish mumkin bo‘lgan chegarasini aniqlash masalasi har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, iqtisodiy shart-sharoitlari va hatto milliy xususiyatlaridan kelib chiqib turli xil bo‘lishi mumkin. Buni aniqlash uchun, birinchi galda, amalda bo‘lgan soliqning haqiqiy yuki (r_{haq}) qaysi zonada joylashganini aniqlab olish zarur, agar haqiqiy soliq yuki optimal soliq yukidan past bo‘lsa ($r_{haq}^1 < r_{max}$), soliq stavkalarini

³²⁴ Niyazmetov I.M. Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: “Moliya”, 2016. – 192 b.

oshirish orqali soliq tushumlarini ko'paytirish mumkin bo'ladi, agar haqiqiy soliq yuki optimal soliq yukidan yuqori bo'lsa ($r_{\max} < r_{\text{haq}}^2$), soliq stavkalarini pasaytirish talab etiladi. Bu haqda "egri chiziq asosida yotuvchi fundamental g'oya...", -deydi Laffer, - shuni bildiradiki, soliq stavkalari qanchalik yuqori bo'lsa, shaxslarda bosh tortish uchun shunchalik kuchli undaydigan sabablar bo'ladi. Odamlar soliq to'lash uchun ishlamaydilar"³²⁵.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, soliqlar - bu pul tushumlari, ya'ni soliq - bu pul, shuning uchun uni doim yashirishga moyillik mavjud bo'lgan va bo'ladi. Chunki hech kim o'zining pulini boshqaga bekordan-bekorga berib qo'yishni istamagani uchun, imkoni boricha soliqdan qochishga, uni to'lamaslikka harakat qiladi. Demak, soliqqa tortish tizimi shunday tashkil etilishi kerakki, undan noqonuniy qochish imkoniyatlari minimallashtiriladi³²⁶.

Iqtisodiyot subyektlarining soliq stavkasi dinamikasiga ta'siri bir ondayoq sezilmaydi, balki ma'lum bir vaqt o'tganidan so'ng seziladi. Laffer egri chizig'i davlat daromadlarining o'sishi soliq stavkalarining kamayishiga obyektiv bog'liq ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bu egri chiziqda yotuvchi fundamental g'oya shundaki, soliq stavkasining chegarasi qancha yuqori bo'lsa, individlarni soliqni to'lashdan chetlashlari shuncha ko'p bo'ladi. Chunki odamlar soliq to'lash uchun ishlamaydilar. Sof foyda, ya'ni daromadlardan soliqlarni ayirib tashlagan summa individlarni ishlamayaptimi yoki yo'qligini ko'rsatadi. Agar tadbirkor o'zining ishlab chiqarish faoliyatidan daromad olish kelajagiga ishonmasa, ya'ni uni daromadlari yuqori progressiv stavkali soliqlar bilan olib qo'yiladigan bo'lsa, tadbirkor bozorda normal faoliyat ko'rsatmay qo'yadi.

³²⁵ Кравченко И.А. Налоговые реформы 80-х гг. в США: социально-экономический аспект. – М.: НИФИ, 1989. – С. 9.

³²⁶ Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. Monografiya. – Toshkent, Fan va texnologiya.– 2008.– 47 b.

Daromadning ko'p qismi soliqlar orqali tortib olib qo'yiladigan bo'lsa, tadbirkorni ishlab chiqarishni kengaytirishga, yangilashga va yangi ishlab chiqarishga investitsiya qilishga qiziqishi yo'qoladi.

Laffer konsepsiyasining qisqacha mohiyati shundaki, davlat byudjetining daromadlari soliq stavkalari va soliq yuki darajasini oshirish hisobiga emas, balki soliq solish bazalarining kengayishi hisobiga ko'payadi³²⁷.

§ 11.4. Lorens egri chizig'i va uni daromadlarni soliqqa tortishdagi ahamiyati

Lorens egri chizig'i – 1905 yilda amerikalik iqtisodchi Maks Otto Lorens tomonidan daromadlar tengsizligi ko'rsatkichi sifatida taklif etilgan taqsimot funksiyasining grafik tasviridir. Lorens egri chizig'i to'plangan aholi soni va daromadlarining ulushida taqsimlash funksiyasini ifodalaydi.



Iqtisodchilar

K.R. Makkonnell va S.L. Bryular


ta'kidlashicha, Lorens egri chizig'i bu iqtisodiyotda daromad taqsimoti egri chizig'i bo'lib, unda daromad olayotgan uy xo'jaliklarining umumiy ulushi absissa o'qiga, daromadning umumiy ulushi esa ordinata o'qiga to'g'ri keladi³²⁸. Lorens egri chizig'i daromad taqsimoti tengsizligi darajasini ko'rsatadi: mutlaq tenglik chizig'i va Lorens egri orasidagi maydon hisoblanadi.

Daromadning mutlaqo bir tekis taqsimlanishi (to'liq tenglik) OSAning bissektrisasi bilan ifodalanadi. Bu chiziq oilaviy uy xo'jaliklarining har qanday berilgan foizi tegishli daromad foizini olishini ko'rsatadi: uy xo'jaliklarining 20 foiz daromadining 20 foizini, uy xo'jaliklarining 40 foiz daromadining 40 foizini va h.k. tashkil etadi.

³²⁷ Niyazmetov I.M. Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: “Moliya”, 2016. – 192 b.

³²⁸ [Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономика: принципы, проблемы и политика. - М.: Республика, 1992. - Т. 2. - С. 389. - 399 с. - ISBN 5-250-01486-0.](#)

To'liq tenglikni bildiruvchi chiziq bilan Lorens egri chizig'i (OYEA) orasidagi maydon daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi. Bu maydon qanchalik keng bo'lsa, daromadlar tengsizligi darajasi shunchalik katta bo'ladi. Bissektrisa va koordinata o'qlari o'rtasida hosil qilingan uchburchak (OB va AV) tengsizlikning ekstremal darajasini xarakterlaydi³²⁹.



11.4-rasm. Lorens egri chizig'i³³⁰

Agar haqiqiy daromad taqsimoti mutlaqo teng bo'lsa, Lorens egri va bissektrisa bir-biriga to'g'ri keladi va bo'shliq yo'qoladi. Lorens egri chizig'ining tahlili progressiv soliqlar tengsizlikni kamaytiradi, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Soliqlardan keyingi daromad taqsimotini soliqlardan oldingi taqsimotiga nisbatan bir xillashtiradi.


³²⁹ Трофимова Г.А. Квадратура кривых Лоренца // Human Progress. 2021. Том 7, Вып. 2. С. 16. URL: http://progress-human.com/images/2021/Том7_2/Trofimova.pdf, свободный. DOI 10.34709/ИМ.172.16

³³⁰ Лебедев В.В., Лебедев К.В. Построение кривой Лоренца и оценка индикаторов дифференциации денежных доходов населения на основе экспоненциального распределения. Вестник университета. 2018; (1):141-148. <https://doi.org/10.26425/1816-4277-2018-1-141-148>

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, progressiv soliqqa tortish to'lovchilarning ko'proq tengligini ta'minlagani uchun adolatliroq bo'ladi.

Lorens egri chizig'i tenglik va to'liq tengsizlik egri orasida ifodalanadi. Lorens egri chizig'i nafaqat daromadlarni, balki uy-xo'jaliklarning mol-mulkini taqsimlashda foydalaniladi.

Lorens egri chizig'i soliq va turli xil ijtimoiy dasturlar orqali davlat tomonidan olib boriladigan daromadlarni tenglashtirish siyosatini aniq ko'rsatmoqda. Progressiv soliq tizimida, yuqori daromadlardan yuqori soliqlar undiriladi. Turli ijtimoiy dasturlar natijasida aholining eng kam ta'minlangan qismining daromadlari oshib bormoqda. Tegishli ma'lumotlarga asoslanib, daromadlarni soliqdan oldin, soliqdan keyin va ijtimoiy dasturlar bo'yicha to'lovlar hamda imtiyozlarni olganidan keyin taqsimlashni aks ettiradigan Lorens egri qurish mumkin³³¹.




- Daromadlarni haqiqiy (real) taqsimlanishi
- Daromadlarning soliqlar to'langandan keyin taqsimlanishi
- Ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish natijasida daromadlarni taqsimlanishi

11.5-rasm. Davlatning daromadlari va faoliyatining taqsimlanishi³³²

³³¹ Колмаков, И.Б. Методы измерения неравенства денежных доходов населения // Народонаселение. 2017. Том 20 № 2. С.: 81-91.

³³² Lorenz M. O. Methods of Measuring the Concentration of Wealth // Publications of the American Statistical Association. 1905. Vol. 9. No. 70. P. 209-219.

Ish haqini tabaqalashtirish shaxsiy daromad taqsimotida tengsizlikni keltirib chiqaradi. Buning asosida, qobiliyat, ta'lim va professional tajribadagi farqlar yotadi. Tengsizlikning muhim omili qimmatli qog'ozlar (aksiyalar va obligatsiyalar) va ko'chmas mulkka egalik qilishning notekis taqsimlanishi hisoblanadi. Shuningdek, omad, qimmatli axborotlarga ega bo'lish, risk, shaxsiy aloqalar va boshqalar ham ma'lum darajada muhim rol o'ynaydi. Bu omillar turli ta'sir qiladi, tengsizlikni ba'zan yumshatadi, ba'zan esa oshiradi. Uning chuqurligini aniqlash uchun Lorens egri chizig'idan foydalaniladi.



11.6-rasm. Lorens egri chizig'i (daromadlarning aholi soniga taqsimoti)³³³

Aholi (yoki oilalar) foizini gorizontaal o'qqa, daromad foizini esa vertikal o'qqa qo'yaylik. Odatda aholi besh kvintellarga (qismlarga) bo'linadi, ularning har biriga 20 foiz aholi kiradi. Aholi guruhlari eng kambag'aldan eng boygacha bo'lgan o'qda joylashgan. Agar barcha

³³³ Павлов о. и. павлова о. ю. функция лоренца и математическое определение среднего класса. "экономика и бизнес", м.: 2016. 1-12 с.

aholi guruhlari teng daromadga ega bo'lsa, aholining 20 foizi 20 foiz daromadga, 40 foiz aholining 40 foiz daromadga ega va h.k.. Mutlaq tenglik grafik bissektrisasi OE bilan, mutlaq tengsizlik esa OG chizig'i bilan ifodalanadi. Lorens egri chizig'i daromadning haqiqiy taqsimlanishini aks ettiradi.

Haqiqatda, aholining eng kambag'al qatlami odatda 5-6 foiz, boy qatlami esa 40-45 foiz daromad ega bo'ladi. Shuning uchun Lorens egri chizig'i daromadning mutlaq tenglik va mutlaq tengsizlikni aks ettiruvchi chiziqlar orasida yotadi. Daromad taqsimoti qanchalik notekis bo'lsa, Lorens egri chizig'i shunchalik yondoshligi bilan xarakterlandi, u G-nuqtaga shunchalik yaqin o'tadi. Aksincha, differensiallash darajasi qancha past bo'lsa, Lorens egri chizig'i bissektrisasi OYE ga shuncha yaqin bo'ladi³³⁴.

Agar daromadning haqiqiy (real) taqsimoti mutlaqo teng bo'lsa, Lorens egri va bissektrisa bir-biriga to'g'ri keladi va bo'shliq yo'qoladi. Lorens egri chizig'ining tahlili progressiv soliqlar tengsizlikni kamaytiradi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Soliqlardan keyingi daromad taqsimotini soliqlardan oldingi taqsimotiga nisbatan bir xillashtiradi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, progressiv soliqqa tortish to'lovchilarning ko'proq tengligini ta'minlagani uchun adolatliroq bo'ladi.

O'n birinchi bob bo'yicha o'zini o'zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Optimal soliqqa tortish nazariyasi mazmunini tushuntirib bering?
2. Ramsey nazariyasi iqtisodiy mohiyatini sharhlab bering?
3. Korletta-Xeyg qoidasi iqtisodiy mohiyatini gapirib bering?
4. Ramsey nazariyasi va Korletta-Xeyg qoidasining ziddiyatlari nimada?
5. Soliqqa tortish chegarasi nazariyasi haqida nimalarni bilasiz?
6. Laffer egri chizig'ining asosiy mohiyatini tushuntirib bering?

³³⁴ Пахомов Е. В. Влияние дифференциации заработной платы на поступление обязательных страховых взносов. Аналитика. Финансовый журнал / Financial journal №3 2012. стр. 117-130.

7. Lorens egri chizig‘i mohiyatini yoritib bering?
8. Lorens egri chizig‘ini daromadlarni soliqqa tortishdagi ahamiyatini ochib bering?
9. Soliq stavkalari shkalalarini shakllanish darajasi bo‘yicha umumiy qonuniyatning mohiyatini tushuntirib bering?
10. A.Smit soliq yukining kamaytirilishi davlatning iqtisodiyotiga ta‘sirini qanday izohlab bergan?

Test savollari:

1. M.Fridmenning fikriga ko‘ra daromadlarni soliqqa tortishning optimal stavkasi necha foiz bo‘lishi kerak?

- a) 25 foiz
- b) 30 foiz
- s) 20-25 foiz oralig‘ida
- d) 45 foiz

2. M.Feldsteyn, Bredli va Grefardlar fikrlariga ko‘ra daromadlarni soliqqa tortishning optimal stavkasi necha foiz bo‘lishi kerak?

- a) 30-35 foiz
- b) 30 foiz
- s) 15 foiz
- d) 25 foiz

3. “Tovarlarga bo‘lgan talab noelastik bo‘lsa yuqoriroq stavkada, agar elastik bo‘lsa pastroq stavkada soliqqa tortilishi” g‘oyasi kimga tegishli?

- a) Frenk Plampton Ramsey
- b) Korletta-Xeyg
- s) Gregori Menkyu
- d) Artur Laffer

4. “Optimal soliq solishda tovarlarga bo‘lgan talabning elastiklik darajasiga qarab, o‘zaro o‘rnini bosuvchi tovarlar o‘zaro o‘rnini

to'ldiruvchi tovarlarga nisbatan kamroq miqdorda soliqqa tortiladi" g'oyasi kimga tegishli?

- a) Korletta-Xeyg
- b) Frenk Plampton Ramsey
- s) Gregori Menkyu
- d) Artur Laffer

5. Soliqlarga fuqarolarning ijtimoiy rohatlanishi qiymati sifatida berilgan ta'rif qaysi iqtisodchiga tegshishli?

- a) Jan Sismondi
- b) Lui Monteskye
- s) Adam Smit
- d) Tomas Gobbs

6. U. Pettining soliqni hisoblash va undirish borasidagi qarashlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni tanlang?

a) Soliqlar“aholining kapitali hisobidan davlat daromadlarini ko'paytiradi”degan g'oyani ilgari suradi

b) Har qanday soliq oxir-oqibatda uch turdagi daromadning birontasi-dan yoki barchasidan bir xilda to'lanishi kerak”degan g'oya tarafdori hisoblanadi

s) Har qanday soliq, u yer solig'i, “desyatina” yoki olingan mahsulotdan soliq bo'ladimi, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga sabab bo'ladi va yakunda xom ashyo materiallar narxini oshiradi degan g'oyani ilgari surgan.

d) Soliq solish mutanosib va teng bo'lishi hamda soliq hajmi avvaldan hisoblab chiqilishi, favqulodda soliqlar esa imkon qadar kamroq bo'lishi kerak

7. U.Petti tomonidan soliqlarni undirish nuqtai nazaridan haqiqatdan ham omadli mamlakat deb tariflagan mamlakat javoblarning qaysi birida to'g'ri ko'rsatilgan?

a) Kutilmagan qo'shimchalarsiz, barcha soliq va yig'imlar yukining hajmi oldindan ma'lum bo'lgan mamlakat haqiqatdan ham omadlidir

b) “Har qanday soliq oxir-oqibatda daromadning birontasidan yoki bar-chasidan bir xilda to‘lanishi kerak” degan

s) Har qanday soliq, u yer solig‘i, “desyatina” yoki olingan mahsulotdan soliq bo‘ladimi, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga sabab bo‘ladi va yakunda xom ashyo materiallar narxini oshiradi

d) Xom ashyolarga, materiallarga soliq yer egasi yoki fermer tomonidan to‘lanmasdan, balki iste‘molchi tomonidan to‘lab beriladi

8. Javoblarning qaysi birida U.Petti tomonidan davlat maqsadli xarajatlarining tarkibi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang?

a) harbiy, boshqaruv, cherkov, ta‘lim, nogiron va yetim bolalarni boqish xarajatlari, yo‘llar, ko‘priklar, portlar va boshqa umumfoydalanishdagi inshootlarni saqlash xarajatlari

b) xom-ashyolarga, materiallarni sotib olishga yo‘naltirilgan xarajatlar

s) renta, foyda va ish haqini qoplash tarzidagi xarajatlar

d) katta qarzdorlikni to‘lashga yo‘naltirilgan xarajatlar

9. Quyida keltirilgan javoblarning qaysi birida A.Smitning almashinuv nazariyasiga asoslangan holdagi ta‘rifi berilgan?

a) soliq ko‘rsatilgan xizmatlar uchun davlatga to‘lanadigan adolatli haq deb e‘tirof etadi

b) soliqlar dunyo kabi ko‘hnadir

s) “qaroqchilikning ruxsat etilgan shakli”

d) soliqlarni joriy etilishi xalq vakillari roziligi asosida amalga oshirilishi lozim

10. Adam Smitning soliqqa tortishning nazariy asoslarini tushuntirib o‘tilgan asari qanday nomlanadi?

a) “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot” nomli asarida

b) “Siyosiy iqtisodiyot asoslari” nomli asarida

s) “Bandlik, foiz va pullarning umumiy nazariyasi” nomli asarida

d) “Iqtisodiy nazariya va jamiyat maqsadlari” nomli asarida

12-BOB. SOLIQQA OID DASTLABKI XUSUSIY NAZARIYALAR

§ 12.1. Bevosita va bilvosita soliqlar nisbati nazariyasi

Davlatchilik paydo bo'lgan ilk davrlarda soliqlardan faqatgina davlat daromadlarini shakllantirishning muhim va doimiy manbai sifatida foydalanilgan bo'lsa, hozirga kelib soliqlar iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy unsuri (vositasi, dastagi) bo'lib xizmat qilmoqda.

Soliqlarning davlat g'aznasiga yoki soliq to'lovchilarga yoxud jamiyatdagi jarayonlarga ta'sirini aniqlash, shuningdek eng maqbul soliqqa tortish tizimini yaratishga qaratilgan ta'limotlarning rivojlanishi soliqlarning xususiy nazariyalarining paydo bo'lishiga muhim turtki bergan³³⁵.

Xususiy nazariyalar orasida bevosita va bilvosita soliqqa tortishning nisbat munosablari nazariyasi yaratilgan dastlabki xususiy nazariyalardan biri hisoblanadi. Ushbu nazariyaning yaratilishi ko'p jihatdan bilvosita soliqlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.

Dastlab soliqlar faqat to'g'ri soliqlar shaklda undirilgan, ya'ni yerdan, mulkdan yoki hosildan soliqlar olingan. Bu holat jamiyatda soliq yukini adolatli taqsimlanishiga to'sqinlik qilar edi, chunki davlat soliq tushumlari orqali o'z xarajatlarini qoplar ekan, bu xarajatlar mamlakatning xavfsizligini ta'minlashga, qolevarsa butun jamiyatni taraqqiy ettirishga sarflansa-da, jamiyatning barcha a'zolari soliqni birday to'lamas edi. Bunda mulk, yer va shundan kelib chiqqan holda, hosilga ega bo'lmaganlar soliq to'lamas edi. Soliq yuki aholining bunday qatlami zimmasiga qisman bo'lsa-da o'tkazish maqsadida dastlabki davrlarda ko'mirga, tuzga, shamga bilvosita iste'mol soliqlar

³³⁵ Toshmatov Sh., G'iyosov A., Giyosov S. Soliq nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2021. – 267 b.

joriy etilgan. Keyingi davrlarda bilvosita soliqlar shu qadar rivojlandiki, ko'pgina davlatlarning asosiy daromad manbaiga aylanib qoldi.

Yevropa taraqqiyotining ilk davrlarida to'g'ri va bilvosita soliq solishni belgilash jamiyatning siyosiy ravnaqiga bog'liq edi. Lekin shunga qaramay ilk o'rta asrlardagi yirik shaharlarda soliq tizimi asosan to'g'ri soliq solishga tayandi. Bilvosita soliqlar og'ir va xalq ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblanardi, chunki ular tovar qiymatini oshirardi. Shu tariqa bilvosita soliqlarga nisbatan dastlabki davrlarda salbiy nazariy qarashlar shakllandi, ularni xalq ahvoriga yomonlashtiradi, narxlarni oshirishi orqali kam daromadli oilalar uchun zaruriy tovarlarni xarid qilish qobiliyatini cheklaydi, deb qaraldi.



O'rta asrlar oxirida paydo bo'lgan keyingi qarashlarda, aksincha, bilvosita soliq solish zaruriyatini soliqqa tortishning tenglik tamoyilini ta'minlanishidagi ahamiyati nuqtai nazaridan asoslashga urinishlar paydo bo'ldi. Turli xil yo'llar bilan boy tabaqali zadogonlar to'g'ri soliqlardan imtiyozlarga ega bo'lgan sharoitda bilvosita

soliqqa tortish samarali usul sifatida e'tirof etildi. Shu sababli bilvosita soliq solish g'oyasi tarafdorlari ularning xarajatlari uchun soliq belgilash orqali imtiyozli sinflarni soliqdan qochish imkoniyatlarini chegaralashga urindilar va bilvosita soliqqa tortish tenglikni o'rnatish vositasi sifatida qaraldi.



Fiziokratlar F.Kene va A.Tyurgolar XVIII asr o'rtalarida soliqlarning to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) ga bo'linishini nazariy

jihaddan asoslab berdilar. To'g'ri soliqlarga (bevosita) ular to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchi sinflarga: yerga ishlov beruvchilar va yer yegalariga solinadigan soliqlarni, bilvosita (bilvosita) soliqlarga esa - boshqa barcha soliqlarni ajratishgan³³⁶.

XVIII asr oxirida A. Smit to'g'ri soliqqa tortish faqat qishloq xo'jaligidan olinadigan daromad solig'i bilan cheklanib bo'lmasligini, ishchilarning ish haqi va kapital egasining tadbirkorlik foydasi uchun soliqlarni ham o'z ichiga olishini aniqladi. U xarajatlar bilan bog'liq




va oxir-oqibat tovarlar va xizmatlar iste'molchilari uchun taklif qilingan barcha soliqlarni bilvosita deb hisoblashni taklif qildi. A. Smit bilvosita soliqlarning davlat byudjetini shakllantirish uchun ahamiyatini tushunib, ularga salbiy munosabatda bo'ldi, chunki tovarlar narxini oshirish orqali ular iste'molni kamaytiradi, bu esa ishlab chiqarishni qisqartirishga olib keladi³³⁷, deb hisoblangan.

Shuningdek, A.Smit bilvosita soliqqa tortishda ehtiyotkorlik bilan yondashish tarafdori bo'lgan, bunda birinchi zaruriy tovarlarni bilvosita soliqqa tortilishi kambag'al aholini turmush tarziga salbiy ta'sir etishi va bilvosita soliqqa aksariyat hollarda faqat qimmatbaho tovarlarni tortishni yoqlab chiqqan. "... zaruriy mollarga soliqning joriy etilishi, ishchilarning ish haqiga to'g'ri soliq singari ta'sir ko'rsatadi. Bunda ishchi tomonidan ushbu soliqning to'lanishi uzoq muddatga ish haqidan to'lab boriladigan bo'nak sifatida qaralmaslik kerak. Oxir oqibatda ushbu bo'naklarni tadbirkor ish haqini oshirish tariqasida o'z hisobidan

³³⁶ Коровкин, В. В. Основы теории налогообложения: учеб, пособие / В. В. Коровкин. - М.: Экономика, 2006. - 575 с.

³³⁷ Налоги и налогообложение: учеб, пособие для студентов вузов / под ред. Д. Г. Черника.- 2-е изд., перераб. и доп. -М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2010. - 368 с. 2 Смит, А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Книги 4-5 / А. Смит. - М.: Директ-Медиа, 2014. -617 с.

qoplash berish kerak bo‘ladi. ... Men tomonimdan zeb-ziynat mollari deb atalgan tovarlarga soliq solinsa, hatto ushbu tovarlarni kambag‘allar iste‘mol qilinganda ham, boshqacha holat yuz beradi. Bu soliqlarni joriy etilishi natijasida narxlarning oshishi ishchilarning ish haqini oshirish zaruriyatini keltirib chiqarmaydi³³⁸”, ular ixtiyoriylik g‘oyasi orqali uni asoslab berdi. Bu g‘oya bilvosita soliqlar to‘g‘ri soliqlarga nisbatan yengilroq degan fikrdan kelib chiqdi, shu sababli soliq solinadigan tovarni kambag‘allar tomonidan xarid qilmay turib, ulardan oson qutilib qolish mumkin³³⁹. Biroq, XIX asr oxirida bu masala bo‘yicha bahs-munozara qilgan iqtisodchilar to‘g‘ri soliq solishning muvozanatini saqlash maqsadiga, bilvosita soliqlar daromadlarni samarali olishga mo‘ljallangan deb hisoblab, bilvosita va to‘g‘ri soliqlar o‘rtasida muvozanatni saqlash zarurati to‘g‘risida xulosaga keldi. Ba’zi mutaxassilar “to‘g‘ri va bilvosita soliqlar oqilona uyg‘unligi” to‘g‘risidagi g‘oyaga soliq tizimi tamoyillaridan biri sifatida qaraydi.



12.1-rasm. Bevosita va bilvosita soliqlar nisbati³⁴⁰

Bilvosita soliqqa tortishning nazariy jihatlari va salbiy oqibatlarini xususida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ular orasida rus

³³⁸ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Издательство социально-экономической литературы. Москва, 1962.– (Воспроизведено по изданию в издательстве “Директмедиа Паблишинг”. Москва, 2008). С.621.

³³⁹ Smit A. “Economic Theory in Retrospect”, London: The Wealth of Nations, 1776. 627 p.

³⁴⁰ Mualliflar tomonidan izlanishlari asosida shakllantirildi.

iqtisodchisi Yanjul Ivan Ivanovichning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

XIX asrda olimlar soliqlarning mohiyatini ko'rib chiqishni davom ettirdilar, ammo qarashlar birligi yo'q edi. Ba'zilar soliqlarni bevosita va bilvosita ajartish uchun asos sifatida soliq to'lovchining to'lov qobiliyatining belgisi, deb hisoblashgan. Misol uchun bevosita soliqlar mavjud bo'lgan narsadan olinadi, bilvosita soliqlar esa harakatlardan olinadi, deb ta'kidlangan. Boshqalar birinchi navbatda soliqlarning o'tkaziluvchanligi belgisini asos sifatida qo'yadilar. Masalan, bevosita soliqlarning yuki to'g'ridan-to'g'ri soliq to'lovchilarga tushadi, to'lovchi va soliq yukini tashuvchi (ko'taruvchi) bir xil shaxs bo'ladi. Bilvosita soliqlarda tovarlarni sotishda ularning narxlariga qo'shish orqali iste'molchiga muvaffaqiyatli o'tkaziladi, to'lovchi va soliq yukini tashuvchi (ko'taruvchi) farq qiladi. Yana boshqalar soliq solish predmetini farqlovchi xususiyat deb hisoblaganlar, misol uchun bevosita soliqlar daromad yoki mol-mulkka egalik qilish va (yoki) sotib olishdan, bilvosita soliqlar esa iste'moldan undiriladi, deb hisoblashgan.

Aksariyat olimlar soliqning shaxs yoki obyekt bilan bog'lashgan. To'g'ri soliqlar to'lovchining shaxsi bilan, egri soliqlar soliq solish obyekt bilan bog'liq, deb hisoblangan. Ko'p sonli tushunchalarga qaramay, asosiy tushuncha ushbu soliqlarning o'tkazuvchanligi asosida bo'linishi bo'lib qolmoqda, chunki u ushbu soliqlardagi farqlarning mohiyatini eng ko'p ochib beradi.

Shunday qilib, XIX asr oxirida bevosita va bilvosita soliqlar o'rtasidagi maqbul nisbat bo'yicha barcha nizolar bevosita soliqqa tortish tenglashtirish maqsadlari uchun, bilvosita soliqqa tortish esa fiskal maqsadlar uchun mo'ljallanishi nuqtai nazaridan ularning o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarur, degan xulosaga kelingan.

XX asrning boshlarida qilingan asosiy xulosa shundan iboratki, soliqlarni to'g'ri va egriga ajratish asosan shartli, ammo buni inkor etish maqsadga muvofiq emas, sababi aksariyat holatlarda tub farqlar saqlanib

qolmoqda. Natijada, bevosita va bilvosita soliqqa tortishning maqbul nisbati masalasi eng mushkul masalalardan biri hisoblanadi.

I.I.Yanjul bilvosita soliqqa tortishning oltita qoidasini³⁴¹ o'z davrida ishlab chiqqan bo'lib, ushbu qoidalar hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan:



1. Bilvosita soliqqa asosan zaruriyati jihatdan ikkinchi darajali predmetlar tortilishi kerak. Ko'pchilik holatda mahsulotning birinchi zaruriy yoki ikkinchi darajali zaruriy ekanligini aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi, ushbu holatda yagona mezon sifatida mahsulotning keng tarqalganligini inobatga olinishi kerak. Mahsulot qanchalik iste'molda ko'p foydalanilsa, shunchalik zaruriy mahsulot va shunga mos ravishda kam bilvosita soliqqa tortilishi zarur.

2. Bilvosita soliqlar soni juda ko'p bo'lmasligi lozim, aks holda ular mamlakatning ishlab chiqarish kuchlari va sanoatining rivojlanishini cheklab qo'yishi mumkin.

3. Bilvosita soliqlar uni aniqlash imkoniyati mavjud soliq obyektlari va muddatlariga ega bo'lishi lozim. Soliq iste'molchi qo'liga o'tishiga qadar tovar qiymatiga qo'shilgan bo'lishi kerak. O'z navbatida bilvosita soliqqa tortishda ikki usuldan biri foydalanish maqsadga muvofiq: birinchidan, soliq ishlab chiqaruvchi tomonidan oldindan to'langan bo'lishi; ikkinchidan soliq sotuvchi tomonidan to'lig'icha to'lanishi. Birinchi usul nisbatan qulay, chunki iste'molchilarga nisbatan ishlab chiqaruvchilar sonining kamligi soliq ma'murchiligini yengillashtiradi. Ikkinchi usulning afzalligi shundaki, bunda soliqni to'lash muddati iste'mol qilish davriga yaqin turadi, bunda foiz miqdorining obyektiv tarzda past bo'lishi tufayli uni (soliqni) to'lash og'irligi ishlab

³⁴¹ Янжул И.И. Основные начала финансовой науки: Учение о государственных доходах. – М: “Статут” (в серии “Золотые страницы финансового права России”), 2002, том 3. С. 401-404.

chiqaruvchiga sezilmaydi. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, xonadon xo‘jaligi ichida ishlab chiqarilgan va iste‘mol qilingan mahsulotlarni bilvosita soliqqa tortishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

4. Agar soliqqa tortiladigan tovar sifat va narxi bo‘yicha farq qilsa, bilvosita soliqlar stavkalari tabaqalashtirilgan progressiv tartibda qo‘llanilishi zarur. Masalan, sigaretlar narxidan kelib chiqib maxorka yoki papirosga nisbatan yuqoriroq foizlarda soliqqa tortilishi kerak.

5. Stavkalarining miqdori soliqqa tortiladigan mahsulotning xarakteriga va uning iste‘mol darajasiga mos kelishi kerak. Bunda stavkalar bilvosita soliq bo‘yicha tushumlarga salbiy ta‘sir etmasligi zarur, ya‘ni stavkalar, iste‘molning haddan ziyod kamayishi natijasida bilvosita soliq tushumlari pasayishi mumkin bo‘lgan, me‘yordan oshib ketmaslik kerak.

6. Mamlakatda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni bilvosita soliqqa tortish jarayonlari import qilinadigan tovarlarga nisbatan o‘rnatiladigan bojxona bojlari bilan izchillikda amalga oshirilishi lozim³⁴².

§ 12.2. Yagona soliq nazariyasining xususiyatlari

Soliqqa tortishda adolatlilik g‘oyasi birinchi navbatda yagona soliq nazariyasida aniq ifodalangan. Sof moliya faniga hurmat bilan qarash kerak, chunki uning shakllanishi boshida soliqqa tortishda ijtimoiy adolat masalasini ko‘targan. Yagona soliq nazariyasining amaliy jihati soliq tizimidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotchilar yagona soliq nazariyasi bilan bir necha marta qurollandi. Ushbu nazariya ko‘p jihatdan soliq masalalariga ijtimoiy-siyosiy tus berish jihatdan ko‘rib chiqilganligini qayd etish zarur. Yagona soliq o‘rnatish g‘oyasi turli davrlarda mashhur bo‘lgan. XVIII asrda Angliyada hatto qurilish uchun yagona soliq shiori ostida faoliyat olib borgan partiya ham bo‘lgan³⁴³.

³⁴² Янжул И.И. Основные начала финансовой науки: Учение о государственных доходах. –М: “Статут” (в серии “Золотые страницы финансового права России”), 2002, том 3. – С. 401-404.

³⁴³ Toshmatov Sh., G‘iyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2021. – 267 b.

Ushbu nazariyaning turli tarafdorlari barcha ofatlarga qarshi vosita sifatida yagona soliqni ilgari surgan. Ushbu soliq o‘rnatilgach, qashshoqlik bartaraf etilishi, ish haqi oshishi, ortiqcha ishlab chiqarishga yo‘l qo‘yilmasligi, sanoatning barcha sohalarida talabga mos ravishda ishlab chiqarishning kengayishi yuz berishi keltirib o‘tilgan.

Yagona soliq – soliq solishning bitta aniq obyektiga, daromad manbalaridan biriga solinadigan yagona, ixchamlashtirilgan soliqdir. Shu sababli yagona soliq ko‘pgina alohida soliqlar undirilishiga nisbatan nazariy jihatdan maqsadga muvofiq, oddiy va oqilona hisoblandi. Yagona soliq obyektini sifatida turli nazariyachilar tomonidan yer, sarf-xarajatlar, mulk, daromad, kapital taklif etildi³⁴⁴.

Vensan Gurne – fiziokratlar maktabining asoschilaridan biri hisoblanadi. U sanoat va tijorat mehnati unumdor emas degan ta’limotga qarshi bo‘lgan. Biroq, u olamdan erta ketganligi sababli bu qarash fiziokratiya doktrinasini yakuniy shakllanishida sezilarli ahamiyat kasb etmagan. Gurne hamfikri va qarashlari davomchisi bo‘lgan Fransua Kene esa - fiziokratlarning lideri sifatida gavdalanib, siyosiy iqtisodiyotda sof mahsulot va mehnat unumdorligi kabi kategoriyalarni shakllanishida hissasi ulkan bo‘lgan.

Faqatgina yer sof mahsulot beranligi sababli, soliqlarning barcha yuki unga tushadi. Hukumat qarori bilan qanday tarzda soliq solinmasin, hosilsiz qatlam soliqni o‘z cho‘ntagidan to‘lay olmaydi: sof mahsulot yo‘qmi, soliqni ham nimadandir to‘lashni imkoni yo‘q. Hosilsiz qatlam soliqlarni ishlab chiqaruvchiga o‘tkazadi. Biroq, ishlab chiqaruvchilar ham o‘z mehnatlaridan tashqari hech qanday ortiqcha narsasi yo‘q. Bu jihatdan “Sermahsul” dehqon va hosilsiz xunarmand – bular barchasi yagonadir. Vaholanki, sof mahsulotni yer egalari oladi. Bu yer egalari – ijarachilar tomonidan ularga beradigan yer rentasi hisoblanadi. Bu shunday qatlamki, ularning boyliklari o‘z mehnatlaridan emas, balki yerlarga egaligidan kelib chiqadi va ushbu qatlamga barcha soliqlarning

³⁴⁴ Майбурд Е.М. Введение в историю экономической мысли. От пророков до профессоров. - М.: Дело, Вита-Пресс, 1996. – 441-б.

yuki tushadi. Shu sababdan soliqlarni undirish sodda va arzon bo‘lishi uchun ularning barcha turlarini bitta yer solig‘i bilan almashtirish kerak.

Fiziokratlarning ta’limot rukni shunday bo‘lgan: 1) iqtisodiy liberalizm; 2) yerga qo‘yiladigan mutloq mehnat unumdorligi; 3) yagona yer solig‘i – bular fiziokratiyaning “uch kiti” hisoblanadi. Bu ko‘rsatilgan doiraga faqat uch siymo sig‘maydi: Gurne, Kene va Tyurgo. Bular iqtisodiyot nuqtai nazaridan birinchilardan bo‘lib, aholining katta ijtimoiy guruhlarini yoki qatlamlarini haqida ta’kidlashgan. Ular qatlamlarni ikki toifaga ajratishgan: jamiyat boyliklarini yaratishda ishtirok etuvchilar va yaratilgan jamiyat boyliklarini taqsimlashda ishtirok etuvchilar. Yerga qo‘yilayotgan mutloq mehnat unumdorligi bo‘yicha aholini 3 asosiy qatlamga ajratishgan: unumdor (sermahsul), hosilsiz va yer egalari³⁴⁵.

Yer ijarasi solig‘i yagona soliqning ilk soliqlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, fiziokratlar – jamiyatni rivojlantirish qishloq xo‘jaligi tizimi tarafdorlari sanoat daromadga sof ustama haq qo‘shmaydi deb hisoblashgan. Barcha boylik yerda joylashgan va yerdan paydo bo‘ladi. Shu sababli daromadlarning yagona manbasi sifatida yer ijarasiga yagona soliqni belgilash zarur va yer egalari bunday soliqni to‘lashlari kerak degan fikrni ilgari surishgan. O‘z fikrlarini asoslash uchun yagona soliqqa tortish obyekti bo‘lgan “erlar umummiyligi” g‘oyasi taklif etildi. Yer Yaratgan tomonidan yaratilgan tuhfadir, u barchaga tegishli bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, barcha boyliklarning paydo bo‘lish va yaratilish asosi yer deb qaraldi.



Haqiqatda esa yer ayrim toifa zodagonlarga tegishli bo‘lgani bois, ular boylikning yagona manbaining egalari sifatida yagona soliq to‘lashlari kerak. XIX asrda “yagona yer solig‘i”ni ilgari surgan

³⁴⁵ Майбурд Е.М. “Введение в историю экономической мысли”. – М.: ВИТА-ПРЕСС, 1996. – 594-бет.

amerikalik iqtisodchi Genri Jorj (ingl. George Henry, 1839-1897) soliqqa tortishning mazkur tartibini umumiy boylikni va ijtimoiy tenglikni ta'minlash vositasi sifatida baholadi³⁴⁶.

Yagona soliq nazariyasi muayyan soliqqa tortish obyektiga nisbatan yagona, yakka soliqning joriy etilishini yoqlovchi nazariya hisoblanadi. Soliq solish obyekti quyidagilar bo'lishi mumkin: yer, mol-mulk, daromad, kapital, xarajat.

Yagona soliq nazariyasi tarafdorlari sanoatda sof qo'shimcha daromad ishlab chiqarilmaydi (yaratilmaydi), shuning uchun sof daromad yaratiladigan joydagina soliq (yagona) undirilishi kerak, deb hisoblaydilar.

Yagona soliq nazariyasi soliqlar oxir - oqibat bir manba-daromaddan to'lanadi, degan to'g'ri fikrga asoslanadi. Ammo agar shunday bo'lsa, unda yagona soliq nazariy jihatdan juda ko'p soliqlardan ko'ra ko'proq maqsadga muvofiq, sodda va qisqaroq ko'rinadi. Yagona soliq g'oyasi o'rta asrlarda paydo bo'lib, jamiyatning imtiyozli tabaqalariga soliq yukini ko'tarishga jalb etish maqsadida yagona aksiz solig'i nazariyasi yaratildi³⁴⁷.

Fiziokratlar aslida soliqqa tortishning yagona manbai bo'lgan yerdan olingan sof daromad haqidagi ta'limotiga asoslanib, yer rentasini soliqqa tortishning yagona obyekti bo'lishini talab qildilar. Ushbu yagona va to'g'ridan-to'g'ri soliq kadastr asosida aniqlanishi va yerning unumdorligi bilan mos bo'lishi kerak. F.Keninging so'zlariga ko'ra, bu soliq yer



³⁴⁶ Barker C.A., George, Henry, International Encyclopedia of the Social Sciences, vol.6, ed. D.L. Sills (Macmillan Free Press, 1968); R.V. Anderson (ed.), Critics of Henry George (Fairleigh Dickinson University Press, 1979).

³⁴⁷ Кулишер И.М. Очерки финансовой науки. П. Наука и школа. 1919, с. 147.

daromadining 2/7 qismiga yetishi kerak. Boshqa barcha soliqlar yuki og'ir bo'lgan, ular oxir-oqibat yerdan sof daromad yo'naltiriladi va shuning uchun bekor qilinishi kerak³⁴⁸.

Fransiyada XIX asrning 50-yillarida Jirardin va Menye daromad solig'iga qarshi bo'lgan va sug'urta uchun mukofot bo'lgan kapitalga yagona soliqning davlat tomonidan to'lanadigan imtiyozlar uchun imkoniyati, zarurligi va maqsadga muvofiqligi haqida va'z qildilar. Yer, buloqlar, uylar va boshqa binolar, avtomobillar, kemalar, hatto ishlab chiqarish maqsadlariga xizmat qiladigan hayvonlar qiymati, ularning sotish narxi bilan belgilanadi. Shu tarzda olingan soliq qiymati juda yuqori (200-300 milliard frank) ediki, uning 1-2 foizi Fransiyada barcha davlat xarajatlarini qoplash uchun yetarli bo'ladi³⁴⁹.

Kapitalga yagona soliqning ustunligi faqat nazariyada ahamiyatga ega edi. Amalda esa bu soliq ham daromaddan to'lanadi, chunki

daromadsiz mol-mulk mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Yagona soliq g'oyasining nomuvofiqligini isbotlagan P.Prudon yagona soliq joriy etilishini nomaqbul, deb hisoblagan. Uning fikricha, barcha soliqlar adolatsiz bo'lgan. Yagona soliq fiskal



adolatsizliklar

yig'indisi, mukammal

adolatsiz soliq bo'lardi. Stavkaning balandligi eng yaxshi soliqlarni buzadi. Yagona soliq bilan soliqqa tortishning notekisligi ortadi. Bir soliqning kamchiliklari boshqa soliqning afzalliklari bilan qoplab bo'lmaydi. Soliqdan kichik daromadlarni ozod qilish yoki juda past



³⁴⁸ Майбурд Е.М. "Введение в историю экономической мысли". – М.: ВИТА-ПРЕСС, 1996. – 594-бет.

³⁴⁹ Кулишер И.М. Очерки финансовой науки. П.: Наука и школа, 1919, С – 149

stavkani belgilash mumkin emas, chunki boylik va boylar kam. Yagona soliqni tashkil etishning oddiyliги aslida bajarilmaydi. Uning obyektini aniqlash qiyin bo‘ladi³⁵⁰.

Italiyalik moliyachi F.Nitti yagona soliq g‘oyasini amalga oshirib bo‘lmaydi, deb hisoblardi, chunki uning joriy qilinishi adolat g‘oyasiga mos keladigan bir xillik va umumiylik (universallik) prinsipini amalga oshirishga imkon bermaydi³⁵¹.

Kolumbiya universiteti professori E.Seligman to‘g‘ri soliq solishni rivojlantirish tahlilidan shunday xulosaga keladiki, yaqin kelajakda yagona daromad solig‘i barcha to‘g‘ri soliqlarni siqib chiqaradi³⁵².



A.Isayev moliyaviy qonunchilikka intilish kerak bo‘lgan yagona daromad solig‘i g‘oyasini tanqid qiladi. U bu nazariyani amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini ko‘rmaydi. Uning asosiy dalili shundaki, “yagona daromad solig‘ini qo‘llash uchun moliyaviy boshqaruv organlari zarur bo‘lib, ular ko‘plab fuqarolarning soliq yukini kamaytirish istagiga qarshi chiqib, to‘lovchilar olgan daromadlarni aniqlaydi. “Daromadni aniqlash, bu jarayon texnologiyasi bo‘yicha katta xarajatlarni talab qiladi. Bundan tashqari, turli manbalardan teng daromadlar, ularni aniqlashning bir va bir nechta usullarini qo‘llash zaruratini keltirib chiqarar edi. Isayev xulosa qiladiki, yagona daromad solig‘i faqat fiksiya (mavjud bo‘lmagan, xayoliy, yolg‘on narsa, uydurma) bo‘lishi mumkin, u tabiiy ravishda bir qator daromad solig‘i, - yer, uy-joy, tijorat va hokazolarga bo‘linadi”³⁵³.

³⁵⁰ Макконнелл К., Брю С. Экономикс: Принципы, проблемы и политика: В 2 т. М.: Т, 1993. С – 178.

³⁵¹ Барулин СВ., Солнышкова Ю.Н.. Налогообложение природопользования: Учеб. пособие / СВ. Барулин, Ю.Н. Солнышкова. - М.: Экономистъ, 2008 - 285 с.

³⁵² Гидирим В. А. Основы международного корпоративного налогообложения. Издательство “Человек слова”, оформление, М.: 2016. 524 с.

³⁵³ Исаев А.А. Очерк теории и политики налогов. – М.: ЮрИнфоР-Пресс, 2004. – С.270.

XX asr soliqqa tortish amaliyoti yagona soliq nazariyalarining nomuvofiqligi va amalsizligini yana bir bor isbotladi, ammo ularning ta'sirisiz moliya fanida soliqqa tortishning yanada adolatli yo'llarini qidirish bilan bog'liq tadqiqotlar olib bordi. Progressiv daromad solig'ini moliyaviy amaliyotga joriy etish juda qimmatga tushdi. Bugungi kunda uni tashkil etishning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan soliq tizimining soddaligiga erishish maqsadida ko'plab islohotlar o'tkazildi.

§ 12.3. Progressiv va proporsional soliqqa tortish nazariyasi

Soliqlarning ijtimoiy-siyosiy tabiati soliq solishning nazariy jihatlariga katta ta'sir o'tkazdi. Ayniqsa bu mutanosib va progressiv soliq solish nazariyalari o'zaro nisbatida kuzatildi. Soliqlar har doim noqonuniy faoliyatini cheklash va mulkning bir qismini majburiy undirilishini aks ettirganligi tufayli soliq tizimi sinf va guruh manfaatlari, ijtimoiy kuchlarning mavqeiga xolisona baho berishi tabiiy holdir.


Mutanosib soliq solish g'oyasiga muvofiq soliq stavkalari uning hajmidan qat'i nazar soliq to'lovchi daromadiga yagona foizlarda belgilanishi kerak. Ushbu holat har doim boy tabaqali aholi vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlandi hamda tenglik va adolat tamoyillariga mos kelishi bilan asoslashga urindilar.

Mutanosib stavkali soliqlarda soliq to'lovlarining miqdori soliq to'lovchining daromadi, foydasi va mulkiga to'g'ridan-to'g'ri mutanosib, chunki bunday stavkalar soliq solish obyekti (soliq solish bazasi) qiymatining bahosiga o'zgarmas foizda amal qiladi³⁵⁴.

Proporsional soliqqa tortish nazariyasining tarafdorlari Dj.Byukinenn, R.Sturm, A.Vagner, Lerua-Bolyelar hisoblangan.

³⁵⁴ Toshmatov Sh., G'iyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2021. – 267 b.

Proporsional soliqqa tortishda soliq stavkalari daromadlarning miqdoridan qat'iy nazar soliq stavkalari bir xil o'rnatilishi kerak. Mazkur soliqqa tortish tizimi boy qatlam aholida va yuqori daromadga ega korxonalar egalari tomonidan qo'llab quvvatlangan va tenglik, adolatlilik prinsipi bilan asoslangan. Aksariyat rivojlangan davlatlarda keng qo'llaniladi. O'zbekistonda ham foyda solig'i stavkalari faoliyat turlariga qarab tabaqalashgan bo'lsada, foyda miqdoriga qarab o'zgarmaydi.



12.2-rasm. Progressiv soliqqa tortishning turlari³⁵⁵.

Progressiv soliq solishga muvofiq soliq to'lovchi daromadi oshib borgani sari soliq stavkalari va soliq solish yuki ortib boradi. Boy fuqarolardan nafaqat mutlaq, balki nisbatan ko'proq soliq undirish zarur deb hisoblanardi. Ushbu nazariya XIX asr o'rtalarida uzil-kesil qaror topdi, biroq uning elementlari A.Smit asarlarida, shuningdek fransiyalik faylasuf-ma'rifatparvarlar J.J.Russo va J.B.Sey asarlarida uchraydi. Soliqning progressiv stavkalari tarafdorlari ushbu soliqqa tortish tizimini adolatlir oq deb hisoblab, tengsizlikni kamaytirish va mulk hamda

³⁵⁵Mualliflar tomonidan izlanishlari asosida shakllantirildi.



daromadlarning adolatli qayta taqsimlashga ijobiy ta'sir ko'rsatishi orqali asoslashga urindilar³⁵⁶.

Demak, progressiv soliqqa tortish daromadning (soliq solinadigan bazaning) oshishiga mos ravishda soliq stavkalari oshib boradi. Bunda: 2 turdagi progressiya (regressiya) mavjud (13.2-rasm):

Oddiy – oddiy progressivlik (regressivlik) soliq solish obykti (soliq solish bazasi) qiymatining bahosi o'sishida soliq stavkasini bir maromda ko'paytiradi (kamaytiradi).

Murakkab – yoki boshqacha aytganda kaskad progressivlik (regressivlik) soliq solish obykti (soliq solish bazasi) qiymati bahosini ma'lum qismlarga bo'linishini ko'zda tutadi, bunda har bir keyingi qismi yuqori (past) foizli stavkada soliqqa tortiladi.

Progressiv stavkali soliqlarda soliq to'lovlarining miqdori soliq to'lovchining daromadi, mulki yoki foydasiga nisbatan ma'lum bir progressiv holatda bo'ladi, ya'ni bunday stavkalar soliq solish obykti (soliq solish bazasi) qiymatining bahosiga o'sib boruvchi foizda amal qiladi.

Umuman olganda, foizli (advalor) stavka bo'yicha soliqlar – bu soliq solish obykti (soliq solish bazasi) qiymatining bahosidan kelib chiqib, foizda hisoblangan holda stavkasi belgilanadigan soliqlar. Bunday soliqlar soliq to'lovchining to'g'ridan-to'g'ri daromadi, foydasi, mulki miqdoriga bog'liq.

Soliqqa tortishning progressiv usulining aksariyat tarafdorlari uni ancha adolatliligini ta'kidlashgan, chunki u tengsizlikni yumshatadi hamda mulk va daromadning qayta taqsimlanishiga ta'sir qiladi.



³⁵⁶ Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов: Учеб, пособие. М.: Финансы и статистика, 2005. – С 118.

Kommunistik manifestda (1848) yagona progressiv daromad solig'ini e'lon qilgan K.Marks boshqa barcha soliqlarni almashtirish imkoniyatini bildirmadi. U bu soliqda faqat kapital va kapitalizmni yo'q qilish vositasini ko'rdi³⁵⁷.

XIX asrning ikkinchi yarmida ko'p mamlakatlar yangi ilmiy nazariyalarni hayotga tatbiq etishga uringanlar, lekin faqatgina birinchi jahon urushidan so'ng yangi ilmiy qarashlarning samarasi o'laroq soliq tamoyillari hozirgi mukammal ko'rinishga ega bo'lgan. Ayni shu vaqtda zamonaviy soliq tizimining poydevori qurila boshlandi, to'g'ri soliqlarning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi hamda byudjet daromadlari ulushining katta qismini to'ldiruvchi jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqlarni progressiv stavkalari joriy etildi.

E.Jerardin soliqlar yordamida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmiga ta'sir etib, soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash orqali jamiyat a'zolarining mulkiy tengsizligini tugatish mumkinligini ta'kidlaydi³⁵⁸.

J.Keyns ham soliq stavkalarini progressiv bo'lishini yoqlagan. Chunki, progressiv soliq stavkalari ishlab chiqaruvchini kapital qo'yimalarga nisbatan bo'lgan riskni qabul qilishga va fuqarolarning jamg'armalarini iste'molga yo'naltirishga rag'bat beradi, deb hisoblagan³⁵⁹.

M.Bernson, G.Stayn va A.Lafferlar soliq stavkalarini pasaytirish orqali soliqni progressivligini kamaytirishga erishish, bu esa korxonalarini kelajakda investitsiya qilishlari uchun jamg'arma manbalarini ko'payishiga olib keladi, deb hisoblashgan³⁶⁰.

N.Koldorning fikricha, iste'molga soliq progressiv bo'lishi, shu bilan birga alohida olingan mahsulotlarga (masalan, kundalik ehtiyoj mollariga) yetarlicha soliq imtiyozlari berilishi kerak deydi. Shuningdek, agar kam daromadli aholidan iste'mol solig'I olinmasa,

³⁵⁷ Зарубина Н.Н. Социология хозяйственной жизни: Проблемный анализ в глобальной перспективе. Учебное пособие. Москва. 2004. С – 439 стр.

³⁵⁸ Майбурд Е.М. “Введение в историю экономической мысли”. 1996 йил. Москва. “ДЕЛО”, “ВИТА-ПРЕСС” нашриётлари. 594 С.

³⁵⁹ Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. / Пер. с англ. проф. Н. Н. Любимова; под. ред. д.э.н., проф. Л. П. Куракова. – М.: Гелиос АРВ, 2002. 456 с.

³⁶⁰ Soliq nazariyasi: O'quv qo'llanma / Mual.: A. Jo'raev, O. Meyliev, G'. Safarov. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2004. –166 b.

ancha haqqoniy bo'lgan bo'lar edi. Bundan tashqari, jamg'armalar soliqa tortilmasligi kerak, chunki ular kelajakda investitsiya qilish uchun kerak va iqtisodiyotni o'sishiga rag'bat bo'ladi³⁶¹.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunga kelib, regressiv soliqa tortish nazariyasi ham shakllanib ulgurgan. Regressiv soliq stavkasida soliq obyektining oshib borishi bilan soliq stavkasi kamayib borib, daromad yoki mahsulot ko'plab ishlab chiqarishni talab qiladi.

Regressiv stavkali soliqlarda soliq to'lovlarining miqdori soliq to'lovchining daromadi, mulki yoki foydasiga nisbatan ma'lum bir regressiv holatda bo'ladi, ya'ni bunday stavkalar soliq solish obyekti (soliq solish bazasi) qiymatining bahosiga kamayib boruvchi foizda amal qiladi.

§ 12.4. Soliqlarni (yukini) o'tkazish nazariyasi

Soliq solishning asosiy muammolaridan biri soliqlarni qayta yuklash nazariyasida o'z aksini topdi, uni o'rganish XVII asrdayoq boshlangandi. Soliqlarni boshqalar zimmasiga qayta yuklash nazariyasiga soliqning haqiqiy yukini aniqlash muammosi asos soldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Soliq yukini aniqlash muammosi dunyoda bir necha asrlardan buyon qizg'in baxs-munozaraga sabab bo'layotgan masalalardan biridir. Mamlakat bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlar, o'rnatilgan soliq stavkalari, shuningdek yalpi ichki mahsulotdagi byudjet daromadlarining ulushining hisoblab topilishi yoki korxonalar doirasida soliqning umumiy daromaddagi hissasini aniqlash makro yoki mikrodarajadagi soliq yuki bo'yicha to'liq tassavurni shakllantira olmaydi. Masalan, mikrodarajada korxonalar zimmasiga tushadigan soliqning haqiqiy yukini aniqlash nafaqat korxonalarining hisobot ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan ko'rsatkichga, balki soliqlarning boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga qayta yuklanishi darajasiga ham chambarchas bog'liqdir.

³⁶¹ O'sha yerda.

Bunda, biz oldindan ma'lum bo'lgan, lekin birinchi marta XVIII asrga kelib o'zining nazariy isbotini topgan hodisaga duch kelamiz. Jamiyat har doim yangi soliqni joriy etilishi paytida bu hodisaning guvohi bo'ladi. Ko'pchilik hollarda soliqlarning boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga yuklanish hodisasi ko'p bosqichli bo'ladi. Buning qanday kechishini qo'shilgan qiymat solig'i misolida ko'rib chiqaylik. Temir rudasi qazib oluvchi korxonalar qo'shilgan qiymat solig'ini narxga kiritadi va temir erituvchi korxonalar zimmasiga yuklaydi, xuddi shunday temir erituvchi korxonalar soliqni po'latni qayta ishlovchi korxonalar zimmasiga yuklaydi, u esa o'z navbatida soliqni temir asboblarni ishlab chiqaruvchi korxonaning zimmasiga yuklaydi va xullas, shu tarzda qo'shilgan qiymat solig'i tovarning chakana bahosigacha yetib bormaguncha hamda oxirgi iste'molchidan undirilmagunga qadar bu jarayon davom etaveradi. Soliqlarni boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga



yuklash hech kutilmagan va hatto ko'ngilsiz oqibatlariga ham olib kelishi mumkin³⁶².

Jon Lokk (ingl. John Locke; 1632 - 1704) qayta yuklash nazariyasining asoschisi hisoblanadi, u barcha soliqlar oxir-oqibat yer egasi zimmasiga

tushishi haqida xulosaga kelib, ushbu muammoni hal qilishning aniq yo'llari va usullarini taklif etdi. XIX asr oxirida Kolumbiya universiteti professori Edvin Seligmen (ingl. Edwin Robert Anderson Seligman; 1861-1939) "Soliq yuki va uni qayta yuklash" (The Shifting and Incidence of Taxation; 1892)³⁶³ kitobida ushbu nazariyaning asosiy qoidalarini bayon qilib berdi va uning ikki



³⁶²Toshmatov Sh.A. Komilov M.M. Qo'shilgan qiymat solig'i. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyoti –2004. – 102 b.

³⁶³ Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu asarning nomlanishi rus tilida "Perelozhenie i padenie nalogov" tarzida keltirilgan. Asarning yuqorida keltirilgan o'zbek tilidagi nomi bevosita ingliz tilidan tarjima qilinganligi uchun rus tilidagi tarjimadan farq qiladi.

turini ko'rsatdi: sotuvchidan xaridorga yuklash (odatda, bu bilvosita soliq solishda yuz beradi) va xaridordan sotuvchiga yuklash (bilvosita soliqlar biror-bir tovar narxi yuqori stavkalar, masalan aksizlar tufayli juda yuqori bo'lsa, ushbu tovarga bo'lgan talabni ancha cheklaydi). Shunday qilib, har bir soliqning qayta yuklanish jarayonlariga to'g'ri baho berish uchun soliqlarni tabiatini, shuningdek uni undirishdagi mamlakatda mavjud barcha iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarini hisobga olish zarur³⁶⁴.

Tarixiy fakt. Prussiyada XIX asrda savdo bozorida katta univermaglar shunday katta mavqega ega bo'ldilarki, buning natijasida mayda savdogarlar raqobatga bardosh berolmay qoldilar. Ularning yoppasiga inqirozga uchrashi bu hududda univermaglarni monopolistga aylantirib qo'yishi muqarrar edi. Shu tufayli hukumat mayda savdogarlarga yordam berish maqsadida univermaglar uchun savdo aylanmasidan 2 foiz miqdoridagi soliqni joriy qildi. Buning natijasida univermaglardagi narx 2 foizga oshishi va ushbu soliqdan ozod bo'lgan mayda savdogarlar raqobatbardosh bo'lishi ko'zda tutilgan edi. Aslida esa unday bo'lib chiqmaydi.

Univermaglar narxni ko'tarish o'rniga barcha mol yetkazib beruvchilardan narxni 2 foizga pasaytirishni talab qildilar. Mol yetkazib beruvchi zavod, fabrikalar doimiy mijozlaridan ajralib qolmasliklari uchun bu talabga bo'ysunishga majbur edilar. Shu tufayli univermaglarga narxni ikki foizga pasaytirilishidan ko'rilgan zararni qoplash maqsadida, zavod va fabrikalar mayda savdogarlarga narxni 2 foizga qimmatroq qilib qo'yishdi.

Demak, joriy etilgan soliq avvaliga mol yetkazib beruvchilar zimmasiga yuklandi, keyin ular ham o'z navbatida soliqni mayda savdogarlarning zimmasiga yukladilar. Joriy etilgan soliq iqtisodiyotda ko'p uchrab turadigan soliqlarni boshqalar zimmasiga yuklash deb,

³⁶⁴ Майбурд Е.М. "Введение в историю экономической мысли". Москва, издательство "Дело", издательство "Вита-Пресс", 1996. 129-130 с.

ataladigan jarayon tufayli oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshira olmadi. Bunday hodisalar oldin ham bo'lgan hozir ham uchrab turadi³⁶⁵.

Soliqlarning boshqalar zimmasiga yuklash – soliq yukini qisman yoki to'liq boshqalar zimmasi o'tkazish hisoblanadi. Soliqlarni boshqalar zimmasiga yuklash asosan tovar ayirboshlash jarayonida narxlarning shakllanishida yuz beradi. Soliqlarning boshqalar zimmasiga yuklanishining 2 turi mavjud:

1. Talab noelastik: agar narx oshsa, talab o'zgarmasa, unda soliqni iste'molchi (xaridor) to'laydi. Bu soliqni to'g'ridan-to'g'ri sotuvchi (ishlab chiqaruvchi)dan xaridor (iste'molchi)ga o'tkazish (zimmasiga yuklash) hisoblanadi.

2. Talab elastik agar narx oshsa, talab kamaysa soliqni sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) to'laydi. Bu soliqni teskari ravishda xaridor (iste'molchi) dan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi)ga o'tkazish (zimmasiga yuklash) hisoblanadi.


Agar taklif elastikligiga $S =$ talab elastikligi D teng bo'lsa, soliq yuki ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida teng taqsimlanadi.

Tasavvur qilaylik hukumat har yilgi bayram tadbirini o'tkazish uchun byudjetga mablag' to'plamoqchi bo'ldi. Hukumat vakillari o'ylab ko'rib, muzqaymoqlar (tovar) uchun 0.50\$ dan soliq joriy etishni taklif etdi. Milliy muzqaymoq ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan bu holat ko'rib chiqildi va ular ushbu soliqni iste'molchilar to'lashi lozimligi ta'kidlashdi. Sababi muzqaymoq ishlab chiqaruvchilarni ko'pligi va ular orasida raqobatning kuchliligi hamda soliq ishlab chiqaruvchilarning zarariga tushishi keltirib o'tildi. Shu o'rinda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish uyushmasi tomonidan ham bu holatga e'tirozlar keltirildi. Jumladan: Ular, iste'molchilarning turmush tarzi shundoq ham yaxshi emasligi va soliqni iste'molchilar emas, ishlab chiqaruvchilar to'lashi lozimligi ko'rsatib o'tildi. Shunda, hukumat

³⁶⁵ Майбурд Е.М. “Введение в историю экономической мысли”. Москва, издательство “Дело”, издательство “Вита-Пресс”, 1996. – С 129-130

tomonidan ushbu soliqning yarmini ishlab chiqaruvchilar va yarmini iste'molchilar to'lashi lozimligi belgilab qo'yildi.

Yuqorida keltirilgan misolni talab va taklif egri chiziqlarida ko'rib chiqsak hamda yangi kiritilgan soliqni bozorga ta'sirini tahlil qilsak.



12. 3-rasm. Talab va taklif egri chizig'i hamda yangi kiritilgan soliqni bozorga ta'siri (1-holat)³⁶⁶


Agar hukumat soliqni iste'molchilardan olishni ko'zda tutsa, u holda ko'rib turganimizdek, talab egri chizig'i D1 nuqtadan D2 nuqtaga siljiydi. Iste'molchilar tomonidan muzqaymoq sotib olish 100 birlikdan 90 birlikka kamayadi. Erkin raqobat sharoitida avval 3\$ dan sotilayotgan muzqaymoq narxi 2.80\$ ga tushadi.

Iste'molchilarga nisbatan yangi soliqning kiritilishi bozorda talabning qisqarishiga olib keladi.

Lekin soliqning yuki bozor qonuniyatlariga ko'ra, faqat iste'molchiga emas, balki bir qismi ishlab chiqaruvchi zimmasiga ham

³⁶⁶ Мэнкью Н. Г. М97 Принципы Экономикс. - СПб: Питер Ком, 1999. - 784 с.

tushar ekan. Bizning misolimizda 0.50\$ kiritilgan soliqning 0.20\$ ishlab chiqaruvchi zimmasiga, 0.30\$ esa iste'molchi zimmasiga soliq yuki bo'lib tushdi (13.3-rasm). Aytaylik ishlab chiqaruvchi ishlab chiqargan har bir muzqaymoq uchun 0.50\$ dan soliq to'lasin. U holda o'z navbatida bozorda taklif kamayadi. Rasmda ko'rib turganimizdek S1 chiziq S2 chiziqqa ko'chadi. Mahsulot ishlab chiqarish birligi ham 100 dan 90 birlikka kamayadi. Talab miqdori o'zgarmaydi (13.4-rasm).



12.4-rasm. Talab va taklif egri chizig'i hamda yangi kiritilgan soliqni bozorga ta'siri (2-holat)³⁶⁷


Avval 3\$ dan sotilgan muzqaymoq 3.30\$ dan sotila boshlaydi. Bu holatda ham 0.50\$ kiritilgan soliq yuki ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida bozor qonuniyatlariga mos ravishda taqsimlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi soliqning joriy etilishi, bozordagi talab va taklifning muvozanat holatiga ta'sir etadi hamda xar gal yangi muvozanat nuqtaga erishilganda soliq yuki ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida taqsimlanadi.

³⁶⁷ Мэнкью Н. Г. Принципы Экономикс. - СПб: Питер Ком, 1999. - С- 784

Aytib o‘tdikki, tovarga soliq kiritilganda soliq yuki o‘zaro talab va taklif bo‘yicha iste‘molchi va ishlab chiqaruvchiga taqsimlanadi. Lekin qayday holatda va qancha miqdorda? Bu savolga javob berish uchun talab va taklif elastik yoki noelastik bo‘lgan holatni ko‘rib chiqish lozim.

Elastiklik - bozordagi ma‘lum bir shart sharoitlarni o‘zgarishi natijasida uni iste‘molchi yoki sotuvchining bozorni tark etishini anglatadi.



12.5-rasm. Taklifning elastikligi, talabning noelastikligi va yangi kiritilgan soliq yuqini taqsimlanishi³⁶⁸

Talabning noelastikligi - xaridorlarning bu tovardan boshqa alternativ (muqobil) variantdagi boshqa tovarga bo‘lgan talabning yo‘qligini (ya‘ni shuni, shu narxda (sharoitda) olishga majburligi) anglatadi.


Taklifning noelastikligi - sotuvchilar tomonidan ushbu tovarni sotish yoki ishlab chiqarish bo‘yicha boshqa alternativ (muqobil) variantining yo‘qligini (ya‘ni shuni, shu narxda sotishga majburligi) anglatadi.

O‘z navbatida tovarga soliq kiritilganda, qaysi tomonidan kuchsiz bo‘lsa, ya‘ni noelastik bo‘lsa, soliq yuki shunga ko‘proq tushadi:

³⁶⁸ Мэнкью Н. Г. М97 Принципы Экономикс. - СПб: Питер Ком, 1999. - 784 с.

a) elastik taklif, noelastik talab, ya'ni agar taklif talabga nisbatan bir muncha elastik bo'lsa, soliq yukining ko'p qismi ishlab chiqaruvchiga emas iste'mochiga tushadi (12.5-rasm).

b) noelastik taklif, elastik talab, ya'ni agar talab taklifga nisbatan bir muncha elastik bo'lsa, soliq yukining ko'p qismi iste'mochiga emas, ishlab chiqaruvchiga tushadi (12.6-rasm).



12.6-rasm. Taklifning noelastikligi, talabning elastikligi va yangi kiritilgan soliq yuqini taqsimlanishi³⁶⁹

Bizning davrimizdagi misol. 1992-yilda Rossiya hukumati butun mamlakat va barcha ishlab chiqarishlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini 18% stavkada joriy qildi va zarar ko'rayotgan korxonalariga davlat dotatsiyalarini bekor qildi. Maqsad davlat daromadlarini ko'paytirish va harajatlarini kamaytirish. O'tgan yillarda daromadlardan harajatlar oshishi kuzatilgan, farqi (byudjet defitsiti) davlat tomonidan pul chiqarish orqali qoplangan, qog'ozlar ko'payib borar edi, bundan tovarlar ko'paymasdi va narxlar oshib borardi. Yangi tashkil etilgan hukumat byudjet defitsitini oldini olish yoki eng past darajaga tushirish orqali inflyasiya bilan kurashishni boshladi.

³⁶⁹ Мэнкью Н. Г. М97 Принципы Экономикс. - СПб: Питер Ком, 1999. - 784 с.

Nima kuzatildi? Qo‘shilgan qiymat solig‘i ishlab chiqarish korxonalaridan bosqichma-bosqich iste‘molchilarga o‘ta boshladi. Yana har bir bosqichda QQS qo‘shila boshladi. Barcha narxlar korxonalar o‘rtasidagi hisob kitoblardan boshlanib, shiddat bilan ko‘tarildi va oxir oqibat iste‘molchiga - aholiga yetib keldi. Inflyasiya sekinlashmadi, balki kuchaydi.

Davlat ishchilarining ish haqlari ko‘tarila boshladi. Undan so‘ng pensionerlarning ish haqlari. Keyin o‘qituvchilar, shifokorlar, xattashuvchilar, xaydovchilar va h.k. Umumiy ish haqlarini oshirish bo‘yicha farmonlar chiqa boshladi. Ularning aksariyati, davlat byudjetidan to‘lanadi, natijada davlatning harajatlari kamayishi o‘rniga ko‘tarila boshladi.

Boshqa tomondan SSSR pachalanishi va “buyurtmachi-yetkazib beruvchi” odatiy zanjiri uzilishi natijasida narhlar ko‘tarilishi ishlab chiqarishda anarxiyani yuzaga keltirildi. Xom-ashyo yo‘q, mahsulot iste‘moli yo‘q, harajatlar ko‘payib, daromadlar esa kamayib borardi. Buyurtmachilar o‘zlarining yetkazib beruvchilariga hech narsa bilan to‘la olmasligi yangi uzulishlar va daromadlarni ola olmaslik kelib chiqdi. Bu “to‘lovlar krizisi”, deb nomlandi. Ishlab chiqarish qisqarila boshladi, umumiy tushum pasaydi va byudjetga qo‘shilgan qiymat solig‘idan tushum qisqardi.

Mazkur tasvirlash juda sxematik va taxminiydir. Bu davrni xali ko‘p o‘rganishadi. Hozir nima xato va nima majburiy chora deyish qiyin. Ehtimol qo‘shilgan qiymat solig‘ini 18 foizda joriy qilinishi, bunday qadamning natijasi dastlab atay ko‘rib chiqilmalik oqibatida yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Haqiqat shuki, mazkur ishlanma shunday murakkab ishki, barcha oqibatlarni oldindan bilish juda mushkuldir. Bunday holatlarda o‘tgan avlodlarning yig‘ilgan tajribasi bebaho ahamiyatga egadir³⁷⁰.

³⁷⁰ Майбурд Е.М. “Введение в историю экономической мысли”. – М.: “Дело” издательство “Вита-Пресс”, 1996. – С 594

O‘n ikkinchi bob bo‘yicha o‘zini o‘zi nazorat qilish uchun savollar:

1. Bevosita va bilvosita soliqlar nisbati nazariyasi mohiyatini va ahamiyatini tushuntirib bering?
2. Yagona soliq nazariyasining o‘ziga xos xususiyatlari va moliya ilmiga qo‘shgan hissasini izohlang?
3. Progressiv soliqqa tortish nazariyasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Progressiv soliq stavkalari mohiyatini sharhlab bering?
5. Proporsional soliqqa tortish nazariyasi mohiyatini yoritib bering?
6. Soliqlarni (yukini) o‘tkazish nazariyasi o‘ziga xos jihatlarini ochib bering?
7. Yangi kiritilgan soliqni bozordagi mahsulotga bo‘lgan talab va taklifga bo‘ladigan ta’sirini tushuntirib bering?
8. Soliq yukini boshqalar zimmasiga yuklashda talab va taklif elastik-ligi mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering?
9. Soliqlarning boshqalar zimmasiga yuklanishining qanday turlari mavjud?
10. Iste’molchilarga nisbatan yangi soliqning kiritilishi bozorga qanday ta’sir qiladi?

Test savollari:

1. D.Rikardoning soliqqa oid qarashlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni tanlang?

- a) Soliqlar - hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir-oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to‘lanadi
- b) Soliq ko‘rsatilgan xizmatlar uchun davlatga to‘lanadigan adolatli haq deb e’tirof etadi
- s) Soliq zulm emas, balki zarurat tufayli keltirilgan qurbonlik
- d) Soliq har bir fuqaro uchun ayni bir xil qurbonlik hisoblangan vaziyatda uni normal soliq solish deb atash mumkin

2. Jon Styuart Millning egri soliqlar haqidagi fikri to‘g‘ri bayon etilgan javobni tanlang?

- a) Egri soliqlar birinchi ehtiyoj tovarlarga nisbatan qo‘llanilmasligi kerak hamda ularga yuqori import bojlar solinmasligi kerak
- b) Soliqlar hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi
- s) Soliq ko‘rsatilgan xizmatlar uchun davlatga to‘lanadigan adolatli haq
- d) Har qanday soliq oxir-oqibatda daromadning birontasidan yoki barchasidan bir xilda to‘lanishi kerak

3. “Qurbonliklar boshida oddiy yumushlar yoki mevalarning bir qismini berish tarzida bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik jamiyatning takomillashib borgani sayin, ular ham mukammallashib bordi va hozirgi holatga yetib keldi.” Ushbu so‘zlar quyidagi javoblarda keltirilgan qurbonlik nazariyasining qaysi vakiliga tegishli?

- a) N.I.Turgenev
- b) Adolf Vagner
- s) Adam Smit
- d) J.Keyns

4. Javoblarning qaysi birida Jon Meynard Keynsning soliqlar haqidagi fikri to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tilgan?

- a) Soliqlar iqtisodiyotni tartibga solishning muhim moliyaviy instrumenti va mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashning asosiy shartlaridan biri
- b) Xom ashyolarga, materiallarga soliq yer egasi yoki fermer tomonidan to‘lanmasdan, balki iste‘molchi tomonidan to‘lab beriladi
- s) Soliq solish mutanosib va teng bo‘lishi hamda soliq hajmi avvaldan hisoblab chiqilishi, favqulodda soliqlar esa imkon qadar kamroq bo‘lishi kerak
- d) Soliq ko‘rsatilgan xizmatlar uchun davlatga to‘lanadigan adolatli haq deb e‘tirof etadi

5. Keynschilik nazariyasiga muvofiq davlat iste'molni rag'batlantirish uchun qanday harakatlarni amalga oshirishi zarur?

a) Monetar siyosat bilan birgalikda fiskal siyosati orqali soliqlarning progressiv va tabaqalashtirilgan stavkalaridan foydalanib yalpi iste'molni rag'batlantirishga ta'sir ko'rsatishi kerak

b) Ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali

s) Axolining ijtimoiy muhtoj qatlamiga yordam ko'rsatgan holda iste'molni rag'batlantirish mumkin

d) Kapitalga soliqni oshirish orqali iste'molni rag'batlantirishi mumkin

6. Keynschilik nazariyasiga asosan davlat iqtisodiy inqiroz davrida iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida qanday harakatlarni amalga oshirishi lozim?

a) Inqiroz davrida yalpi talabni oshirishi va shu bilan ishlab chiqarish va investitsiyani faollashtirishi, ishsizlikni esa kamaytirishi lozim

b) Yalpi taklifni oshirishi, ishlab chiqarish hajmini pasaytirishi, xarajatlarni kamaytirish lozim

s) Soliq stavkalarini oshirishi, byudjetga tushumlar hajmini oshirishi lozim

d) Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarining faoliyatini vaqtinchalik to'xtatib turishi, xarajatlar hajmini kamaytirishi lozim

7. J. Keynsning nazariyasiga ko'ra aholi jamg'armalarini muomalaga kiritish maqsadida davlat qanday yo'l tutishi lozim?

a) Aholi jamg'armalarini muomalaga kiritish maqsadida soliqlarni oshirish, bu orqali omonatlardan davlat (markazlashgan) investitsiyalarini amalga oshirish uchun foydalanishi mumkin

b) Aholi jamg'armalarini muomalaga kiritish maqsadida soliqlarni pasaytirish, axolining daromadini oshirish, bu orqali aholining mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabini oshirish

- s) Davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash lozim
- d) Aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlami uchun soliqdan imtiyozlarni qisqartirish

8. Javoblarning qaysi birida J. Keyns tomonidan ilgari surilgan bandlik nazariyasining asosiy g'oyasi to'g'ri ko'rsatib o'tilgan?

- a) Ish bilan bandlik ortishi tufayli milliy daromad, iste'mol ortadi. Ammo iste'mol daromadga nisbatan sekinroq ortadi, chunki daromad ortishi bilan jamg'arishga intilish kuchayadi
- b) Ish bilan bandlik yalpi talabga bog'liq emas
- s) Byudjet kamomadi – talabni rag'batlantirish vositasi hisoblanmaydi
- d) Iqtisodiy o'sish pul omonatlari hajmiga bog'liq emas

9. Neoklassik nazariya vakili to'g'ri ko'rsatilgan javobni tanlang?

- a) Alfred Marshall
- b) Milton Fridman
- s) Adam Smit
- d) D. Rikardo

10. Regressiv soliqqa tortish tizimiga berilgan ta'rifni belgilang?

- a) Soliq to'lovchining daromadi oshib borgani sari soliq stavkalari va soliq solish yuki kamayib boradi
- b) Soliq stavkalari daromadlarning miqdoridan qat'iy nazar soliq stavkalari bir xil o'rnatilishi kerak
- s) Soliq to'lovchining daromadi oshib borgani sari soliq stavkalari va soliq solish yuki ortib boradi
- d) Soliq to'lovchining daromadi kamayib borgani sari soliq stavkalari va soliq solish yuki kamayib boradi

GLOSSARIY

Xiroj – hosilga solinadigan asosiy yer solig‘i $\frac{1}{4}$ qism.

Juzya – jon boshiga g‘ayridinlar to‘laydigan soliq. Ayollar, keksalar, ruhoniylar va qullar bu soliقدan ozod etilganlar.

O‘lponlar (vazoif) – umumxalq yillik solig‘i.

Zakot – tuyadan $\frac{1}{25}$, sigirdan $\frac{1}{30}$, ot va qo‘ydan $\frac{1}{40}$ bosh, kumushdan $\frac{1}{40}$ dirxam (24/119 gramm), oltindan $\frac{1}{20}$ misqol (2.5/85 gramm) xazina va kondan $\frac{1}{5}$ qism, ekinlardan $\frac{1}{3}$ qism, mevalardan $\frac{1}{10}$ qism zakot olingan.

Boj – tashqi savdodan olinadigan chegara solig‘i.

Muqasama – hosil cho‘g‘iga qarab olinadigan soliq.

Ushr – hosil yoki chorvaning $\frac{1}{10}$ qism solig‘i.

Uloq – hukmdorlar uchun sara hayvonlar yetkazib berish majburiyati.

Umra – hosilning $\frac{1}{10}$ qismi natural solig‘i.

Muazzaf – yer jerib o‘lchovi hisobdan beriladigan soliq.

Misaha – ekinzor birligidan qat‘i nazar me‘yorida olinadigan soliq.

Muxayir – zakotni pul tarzida to‘lash.

Muqasim – yillik hosilning $\frac{3,5}{10}$ qism solig‘i.

Muqota – qat‘iy belgilanadigan summadan olinadigan soliq.

Kafsani dorug‘a – tuman hokimi foydasiga olinadigan soliq.

Tanob puli – xirojdan tashqari bog‘ va poliz maydonlar o‘lchovidan olinadigan soliq.

Chig‘ir puli – sug‘orish uchun olinadigan yarim ushr solig‘i.

Xarvor – poliz va bog‘lardan olinadigan hosil solig‘i.

Begar – natural ravishda olinadigan soliq va turli mehnat majburiyatlari.

Jarima – jomlar (savdo bekatlari)ni ta‘minlash uchun olinadigan yig‘imlar.

Ovarizot – aholidan favqulodda holatlarda olinadigan soliq.

Moli jihat – natura yoki naqd pul bilan to‘lanadigan, ammo rasmiy belgilanmagan qo‘shimcha soliq.

Ixrojod – jogirdorlar (in'om etilgan yer egalari) to'laydigan soliq, saroy xarajatlarini qoplash uchun yig'ilgan soliqlar.

Sarishumor – juzyaning bir turi. Jon solig'i.

Xonai shumor – har bir uydan olinadigan jon solig'i.

Qo'shnalg'a – elchilar, amaldorlar choparlarni tekinga mehmon qilish majburiyati.

Peshkash – yuqori martabali amaldorga beriladigan sovg'a uchun yig'im.

Tamg'a – chegaradan olib o'tiladigan tovarlar uchun olinadigan soliq.

Nisob – mol va mablag'larning zakot berish darajasiga yetgan miqdori.

Tanor – harbiy yurishlar vaqtida aholidan oziq-ovqat shaklida yig'iladigan natural soliq turi.

Shilon – noiblarni mehmon qilish maqsadida yig'iladigan yig'im.

Ojaz puli – poliz ekinlaridan olinadigan soliq.

Alaf puli – xas xashak yig'ishdan olinadigan soliq.

G'o'za puli – paxta hosilidan olinadigan soliq.

Yasoq – sug'orish inshootlari, binolar, yo'l qurish va qurilish materiallari yig'ish majburiyati, *begarning* bir turi.

Boy puli – boylardan olinadigan mulk solig'i.

Bone to'lovi – chegaradan o'tadigan tovarlar qiymatidan olinadigan boj solig'i.

Bozor solig'i – bozordagi hayvonlar savdosidan olinadigan soliq va h.k.

Molu-jixot – mol-mulk solig'i (er solig'ining bir turi);

Tagor – Amir Temur va temuriylar davrida hamda Dashti qipchoq o'zbeklarida aholining yarim o'troq va o'troq qatlamidan daromad manbai va turidan qati nazar, chorva mollari, dehqonchilik mahsulotlari va boshqa xo'jalik sohalaridan olinadigan soliq turi. Tagor ko'pincha urush va harbiy yurishlar davrida qo'shinni oziq-ovqat va yem-xashak bilan ta'minlash uchun ham to'plangan;

Ixrojot – saroylarga qarash uchun maxsus yig‘im;

Boj – savdogarlardan chegarani kesib o‘tishda undiriladigan bojxona solig‘i;

Sarshumar – jon solig‘i;

Chonashumar – har bir uydan olinadigan yig‘im;

Qo‘nalg‘a – amaldorlar, choparlarni bepul qabul qilish va mehmon qilish yig‘imi;

Shilon – podshohlar va amirlarning ta‘minoti uchun xona boshidan to‘planadigan soliq;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6098-son Farmoni

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5837-son Farmoni

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4389-sonli qarori

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 avgustdagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 677-sonli qarori

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-son Farmoni

8. Sbornik zakonov SSSR. 1938-1961. – Moskva: Izd. Sovetov narodnykh deputatov SSSR, 1971. – S. 682.

II. Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va monografiyalar

9. Abdullayev O, Toshmatova J. Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida. Yurist-media markazi. T., 2008. 67-68 betlar.

10. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy. Xadis. 1-kitob. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent, 1997. 382-416-betlar.
11. A. Askarov O‘zbekiston xalqlari tarixi. O‘zbekiston. T., 1992. – 81b.
11. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. Sharq.T., 2000. – 36 b.
12. Axmedov V. O‘zbek ulusi. Sharq. T., 1992. 74-75 betlar.
13. Axmedova B.A. Maxmud ibn Vali. More tayn otnositelno doblestey blagorodnix. Vvedeniye, primechaniya, ukazateli Tashkent, Krasnaya gvardiya. 1977. - S.38 – 92.
14. Abduraximova N.A., Ergashev F.R. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. Toshkent: Akademiya, 2002. – 44 b.
15. Bazarov V.B., Vanchikova S.P. Ekonomicheskaya sistema mongolskoy imperii. Jurnal VLAST. 2015 g. № 6
16. Bobobekov X, Karimov III. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. IQTISOD-MOLIYA. T., 2000. –122 b.
17. Jo‘rayev A, O. Meyliyev, G‘. Safarov. Soliq nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2004. –166 b.
18. Jo‘rayev Sh., Boboyev S. Mahalliy soliqlar tarixi. – Buxoro 2004. – 35 b.
19. Jo‘rayev Sh., Boboyev S. Mahalliy soliqlar tarixi. - Buxoro. 2004. – 46-47- betlar.
20. Ziyodulla Muqimov Shayboniylar davlati va huquqi. Toshkent. Sharq. 2007. –107 b.
21. Ziyodulla Muqimov Shayboniylar davlati va huquqi. Toshkent. Sharq. 2007. –154 b.
22. Mamanazarov A. Soliq siyosati. T. “Moliya”. 2003. – 6 b.
23. Mamanazarov A. Soliq siyosati. T. “Moliya”. 2003. – 150 b.
24. Niyazmetov I.M. Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: “Moliya”, 2016. – 192 b.
25. Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekistonda soliqlar tarixi. T.: “Iqtisod-Moliya” 2009. – 27 b.

26. Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekistonda soliqlar tarixi. Toshkent. “Iqtisodiyot-Moliya” 2009. – 42 b.
27. Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekistonda soliklar tarixi. Toshkent “Iqtisod-Moliya” 2009. – 90 b.
28. Oblomurov N., Tolipov F. O‘zbekistonda soliqlar tarixi. – Toshkent, Iqtisod-Moliya. 2009. – 110 b.
29. Tursunov X Beknazarov. O‘zbekiston SSR tarixi. T., Qizil gvardiya. 1982. – 41 b.
30. Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli. Monografiya. – Toshkent, Fan va texnologiya.– 2008.– 47 b.
31. Toshmatov Sh., G‘iyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2021. – 286 b.
32. Toshmatov Sh., G‘iyosov A., Giyasov S. Soliq nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2021. – 267 b.
33. Sereteli G.V Arabskiyе dialektу v Sredney Azii. Ch. I. Tbilisi., 1956. – S 17.
34. Shodmonova S. B. Turkiston tarixi – matbuot ko‘zgasida. Toshkent: Yangi nashr, 2011. – 122 b.
35. Ergashev F., Abduraximova N., Suguraliyeva F. Turkistonda mustam-laka moliya-xo‘jalik idoralari tizimi. - Toshkent: Akademiya, 2008. – 77 b.
36. Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik (qayta ishlangan). TMI. Fan va texnologiyalar markazi. Toshkent. 2003. – 247 b.

III. Xorijiy adabiyotlar

37. Alekseyev V.V. Matveyev I.V. Elastichnost krivoy Laffera i optimizatsii nalogovыx postupleniy pri otsenke tenevogo sektora ekonomiki // Nalogovыy vestnik Cheboksarskogo kooperativnogo instituta. – 2012. – № 01. – S. 223–229
38. Antologiya ekonomicheskoy klassiki. V 2-x tomax. T.I. (V.Petti, A.Smit, D.Rikardo) Pred. I.A.Stolyarova. – M.: MP “EKONOV”, 1991. S. 27

39. Artemyeva O, Tropina Yu. Istoriya razvitiya transportnogo naloga v Rossii // Elektronnyy nauchnyy jurnal "Vektor ekonomiki". 2020, №10.
40. Afanasyev V.S. Vozniknoveniye klassicheskoy burjuaznoy politicheskoy ekonomii (Vilyam Petti). – M.: Sotsekgiz, 1960. – S. 21.
41. Barulin S.V. Teoriya i istoriya nalogooblojeniya: ucheb. posobiye. M., Knorus. 2006. – S. 24.
42. Bekon F. Sochineniye. V 2 t. M., 1972. T. 2. – S. 406.
43. Bartenev S. A. Istoriya ekonomicheskix ucheniy: ucheb. dlya stud. vuzov, obuch. po ekon. spets. i napr. / Vseros. akad. vneshney trgovli. - 2-e izd., pererab. i dop. - M. :Magistr : INFRA-M, 2013.
44. Voznesenskiy N. Voyennaya ekonomika SSSR v period Otechestvennoy voyny. – Moskva: Gospolitizdat, 2004. – S.131.
45. Gelbreyt Dj. K. Novoye industrialnoye obshchestvo. M., 2004, – S. 602.
46. Grigoryev V.V. Evolyusiya imushchestvennogo nalogooblojeniya fizicheskix lits v Rossii v XX veke // Yevraziyskaya advokatura. 2018, №1. – S.11.
47. Gidirim V. A. Osnovy mejdunarodnogo korporativnogo nalogooblojeniya. Izdatelstvo "Chelovek slova", oformleniye, M.: 2016. – S. 524.
48. Gladkov I.A. Istoriya sotsialisticheskoy ekonomiki SSSR. V 7 t. ... – S. 505-506.
49. Dandamayev M.A. Politicheskaya istoriya Axmenidskoy derjavy. Press. M., 1985. – S. 73.
50. Yedronova V.N., Telegus A.V. Elementy podoxodnogo nalogooblojeniya fizicheskix lits v nalogovoye politike sovetskogo perioda // Finansy i kredit. – Moskva. 2015. -№5, – S.55.
51. Isayev A.A. Ocherk teorii i politiki nalogov. – M.: YurInfoR-Press, 2004. – S. 270.
52. Korovkin, V. V. Osnovy teorii nalogooblojeniya: ucheb. posobiye / V. V. Korovkin . - M. : Ekonomist', 2006. – S. 575.
53. Kucherov I. I. Teoriya nalogov i sborov (Pravovye aspekty). M., YurInfoR ZAO. 2009. – S. 11.

54. Kulisher I.M. Ocherki finansovoy nauki. Pg.: Nauka i Shkola, 1919. S. 76—77.

55. Leonova L.G. Istoriya i teoriya nalogooblojeniya, RF “Tixookeanskiy gosudarstvennyy universitet” Хабаровск Izdatelstvo TOGU: 2016 – S. 4.

56. Leonova L.G. Istoriya i teoriya nalogooblojeniya, RF “Tixookeanskiy gosudarstvennyy universitet” Хабаровск Izdatelstvo TOGU: 2016 – S. 5.

57. Leonova N. G. Istoriya i teoriya nalogooblojeniya ucheb. posobiye / Izd-vo Tixookean gos un-ta. 2016. – S. 84.

58. Lomshin V. Denejnaya reforma 1947 g. i otmena kartochnoy sistemy // Regionologiya. 2010, № 271. – S. 314.

59. Lomshin V. Denejnaya reforma 1947 g. i otmena kartochnoy sistemy // Regionologiya. 2010, № 271. – S. 314.

60. Menkyu N. G. M97 Prinsipy Ekonomiks. - SPb: Piter Kom, 1999. –S. 784.

61. Mayburd YE.M. Vvedeniye v istoriyu ekonomicheskoy myсли. Ot prorokov do professorov. - M.: Delo, Vita-Press, 1996. – 128 b.

62. Mayburd YE.M. Vvedeniye v istoriyu ekonomicheskoy myсли. Ot prorokov do professorov. - M.: Delo, Vita-Press, 1996. – 144 b.

63. Nalogi i nalogooblojeniyе. Uchebник. – Kursk: Regionalnyy finansovo-ekonomicheskiy institut, 2010. – S.53.

64. Nalogi i nalooblojeniyе. 6-e izd. – Sankt –Peterburg: Piter, 2009. – S. 90.

65. Palen K.K. Pozemelno-podatnoye delo. - SPb., 1910. Papka 2, dokument 3. - S. 3.

66. Petrenko V. O neobxodimosti i rezultatax denejnoy reformy 1947 goda v Sovetkom Soyuze // VESTNIK KamchatGU. 2018, №43. – S. 56.

67. Petuxova N.Ye. Istoriya nalogooblojeniya v Rossii IX-XX vv. Ucheb posob / N.Ye.Petuxova. – Moskva. Vuzovskiy uchebник, 2008. – S. 360-361.

68. Petuxova N.Ye. Istoriya nalooblojeniya v Rossii IX-XX vv. Ucheb posob. – Moskva. Vuzovskiy uchebник, 2008. – S. 373-374.

69. Plotnikov K.N. Ocherki istorii byudjeta Sovetskogo gosudarstva. – Moskva: Gosfinizdat, 1955. – S. 305-309.
70. Popov V.P. Krestyanskiye nalogi // Sotsiologicheskiye issledovaniya. 1997, №2. – S.97.
71. Podkovыrov V.Ye., Vertikalnyy effekt Laffera // Nalogi i finansы. – 2013. – № 3. – S. 43–46.
72. Papava V.G. Lafferov effekt s posledstviyem // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnyye ekonomicheskiye otnosheniya. – 2011. – № 07. – S. 34 – 39.
73. Pareto V. Sotsialisticheskiye sistemy / V. Pareto. – Moskva: Direkt-Media, 2007. – S. 131.
74. Ramanova L.S. Transportnoye nalogooblojenіye: istoriya razvitiya i napravleniya sovershenstvovaniya // Vestnik Buryatskogo gosudarstvennogo universiteta. 2015, №2. – S. 88.
75. Romanovskiy M.V., Proxorova N.G. Istoriya nalogovoy sistemy Kitaya. RF. SPb. : Izd-vo SPBGUEF, 2012, – S. 56.
76. Sorokina Yu. V. Finansovoye upravleniye i pravovoye regulirovaniye finansovykh otnosheniy v Rossii XVIII - nach. XX v. Voronej, 2001. – S. 133.
77. Serdyukov A. E., Vылkova YE. S., Tarasevich A.L. Nalogi i nalogooblojenіye: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd. -SPb.: Piter, 2008. – S. 704.
78. Tarasova V.F. Semыkina L.N., Sapыkina T.V. Nalogi i nalogooblojenіye. – Moskva: KNORUS, 2007. – S. 48.
79. Tolkushkin A. V. Istoriya nalogov v Rossii: ucheb. posobiye / A. V Tolkushkin. – Moskva: Yurist', 2001. – S. 216-218.
80. Tolkushkin A.V. Istoriya nalogov v Rossii. – Moskva: Yurist', 2001. – S. 252.
81. Titov A.S. Ponyatiye, suщnost i osnovnyye napravleniya razvitiya nalogovoy politiki // Finansovoye pravo. – №5, 2005 – S. 21.
82. Ushak N.V. Teoriya i istoriya nalogooblojenіya. Ucheb posob. / N.V.Ushak. – Moskva: Knorus, 2009. – S.57.
83. Ushak N.V. Teoriya i istoriya nalogooblojenіya. Ucheb posob. / N.V.Ushak. – Moskva: Knorus, 2009. – S. 231.

84. Ushak N.V. Teoriya i istoriya nalogooblojeniya. Ucheb posob. / N.V.Ushak. – Moskva: Knorus, 2009. – S.231.
85. Sereteli G.V Arabskiye dialektı v Sredney Azii. Ch. I. Tbilisi., 1956. - S 17.
86. Sentralnaya Aziya v sostave Rossiyskoy imperii. – M.: Novoye literaturnoye obozreniye, 2008. – S.138.
87. Chernik D.G., Pochinok A.P., Morozov V.P. Osnovy nalogovoy sistemy: ucheb. dlya vuzov / D. G. Chernik, Pochinok A. P., Morozov V. P. – Moskva: YUNITI-DANA, 2000. – S. 84.
88. Chernik D.G., Shmelev Yu.D. Teoriya va istoriya nalogooblojeniya. Uchebnik. – Moskva: Yurayt, 2016. – S.139.
89. Yanjul I.I. Osnovnyye nachala finansovoy nauki: Ucheniye o gosudarstvennykh dohodax. –M: “Statut” (v serii “Zolotye stranitsy finansovogo prava Rossii”), 2002, tom 3. – S. 240.
90. Yakobson L.I. Gosudarstvennyy sektor ekonomiki: Ekonomicheskaya teoriya i politika. M.: GU VSHE, 2000. – 371 s.
91. Yanjul I.I. Osnovnyye nachala finansovoy nauki: Ucheniye o gosudarstvennykh dohodax. –M: “Statut” (v serii “Zolotye stranitsy finansovogo prava Rossii”), 2002, tom 3. – S. 401-404.
92. Barker S.A., George, Henry, International Encyclopedia of the Social Sciences, vol.6, ed. D.L. Sills (Macmillan Free Press, 1968); R.V. Anderson (ed.), Critics of Henry George (Fairleigh Dickinson University Press, 1979).
93. Charles Adams. For Good and Evil: The Impact of Taxes on the Course of Civilization, Second edition, Madison Books:Lanham, New York, Oxford 1999, –P. 79.
94. Domar YE. Capital Expansion, Rate of Growth, and Employment // Econometrica. 1946. № 14. –P. 137.
95. Hairod R. F. An Essay in Dynamic Theory // Economic Journal, 1939. № 49. – P. 15.
96. Lorenz M. O. Methods of Measuring the Concentration of Wealth // Publications of the American Statistical Association. 1905. Vol. 9. No. 70. –P. 209-219.

97. Sullivan P.M. Wittgenstein on “The Foundations of Mathematics” of Ramsey. – Theoria. – 1995. Vol. LXI, p.2. – P. 105.

98. Sandu G. Ramsey and the Notion of Arbitrary Function // F.P. Ramsey: Critical Reassessments. – London, New York: Continuum, 2005. – P. 237–256.

IV. Boshqa adabiyotlar

99. Bobojonov X. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotidagi transformatsion jarayonlar. Tarix.fan.bo‘yicha fal.dokt. (PhD) diss. ... – Toshkent, 2018. – 104 b.

100. Yedronova V., Telegus A. Elementy podoxodnogo nalogooblojeniya fizicheskix lits v nalogovoy politike Sovetskogo perioda // Finansy i kredit. 2015, №40. – S. 61.

101. Jumayev U.X. Rossiya imperiyasining Turkistondagi soliq siyosati-ning shakllanishi: asosiy bosqichlari va taraqqiyoti. Tarix. fan. bo‘yicha fal. dokt. (PhD) diss. ... – Toshkent, 2012. – 99 b.

102. Jumayev U.X. Rossiya imperiyasining Turkistondagi soliq siyosatining shakllanishi: asosiy bosqichlari va taraqqiyoti. Tarix. fan. bo‘yicha fal. dokt. (PhD) diss. ... avtoref. – Toshkent, 2012. – 23 b.

103. Kutbayev Z.A. K istorii vakufnyx vladeniy Xodji Axrara i yego potomkov. Avtoref. diss..kand. ist. Nauk - T., 1970. – S. 16.

104. Mallaboyev B. Chorizmping Turkistonda vak;f mulkchilik siyosati (Xuja Axror Valiy avlodlari vak;f mulklari misolida). tarix. fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtorsferati. -T, 2004. -B. 13-21. Bolpshboyev S D. Vakfnoye imущestvo v Turkestanskom kraye vo vtoroy polovine XIX i v nachale XX vekov. Avtore. Diss... kand. isg. Nauk. - T., 1995 – S. 10-17.

105. Muratxodjayev V. Byudjet zavershayushego goda semiletki // Ekonomika i jizn. Mart 1965 g. – S. 8.

106. Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR za 50 let (st.sb.). – Tashkent: Uzbekistan, 1967. – S. 226-227.

107. Projekt polojeniya ob upravlenii v Semirechenskoy i Сырдаринской oblasti. - SPb., 1867. - S. 49.

108. Projekt polojeniya ob upravlenii v Semirechenskoj i Сырдаринской oblasti. - SPb., 1867. - S. 53.
109. Projekt polojeniya ob upravlenii Semirechenskoj i Sverdlovskoj oblasti... - S. 49.
110. Projekt polojeniya ob upravlenii v Semirechenskoj i Сырдаринской oblasti. - SPb.: B.i., 1867. - S. 54.
111. Projekt polojeniya ob upravlenii v Semirechenskoj i Сырдаринской oblasti. - SPb., 1867. - S. 55.
112. Sayidahmedov I. Pnsma Sheybanidov - vajnyy istoricheskiy istochnik//Diss. na soisk. kand. ist. nauk. Tashkent. 1992. - S. 39.
113. Xorazm VDA, R-40-fond, 1-ro'yxat, 291-yig'majild, 3-4-vaqalar.
114. Chexovich. O.D. Buxarskiye dokumenty XIV v. T., "Nauka". 1965. - S. 171.
115. Chexovich O.D. Samarqandkiye dokumenty v XVI-XVII vv. (o vladeniya Xodji Axrara v SredneyAzii i Afganistane) faksimile, kriticheskiy tekst, perevod, primechaniya i ukazateli.- Moskva. 1974. Kutbayev. Z.A. K istorii vakufnykh vladeniy Xodji Axrara i yego potomkov. Avgoref. diss.
116. O'zbekiston SSR tarixi. T. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi. 1957 y. 4 tomli. 1 tom. 2-kitob. - 42 b.
117. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Ikkinchi kitob. 1939-1991 yillar. - Toshkent: O'zbekiston, 2019. - 12 b.
118. O'zbekiston SSR tarixi. T. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi. 1957 y. 4 tomli. 1 tom. 2 kitob. 42-43 - betlar.
119. O'zbekiston SSR tarixi. T. 1957 y. 1 tom. 2 kitob. 56-57 b.
120. O'zbekiston SSR tarixi. T. 1957 y. 1 tom. 2 kitob. -70 b.
121. O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1098-yig'majild, 5-vaq.
122. O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 4886-yig'majild, 117-vaq.
123. O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1516-yig'majild, 165-167-vaqalar.
124. O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1516-yig'majild, 173-175-vaqalar.

125. O'zMA, R-93-fond, 15-ro'yxat, 1516-yig'majild, 182-183-
varaqlar.
126. O'zMA, R-837-fond, 32-ro'yxat, 3260-yig'majild, 7-varaq.
127. O'zMA, R-837, 32-ro'yxat, 3270-yig'majild, 64-varaq.
128. O'zMA, R-837-fond, 33-ro'yxat, 6190-yig'majild, 4-varaq.
129. O'zMA, R-837-fond, 33-ro'yxat, 6190-yig'majild, 58-varaq.
130. O'zMA, R-837-fond, 33-ro'yxat, 6190-yig'majild, 121-varaq.
131. O'zMA, R-837-fond, 33-ro'yxat, 6190-yig'majild, 124-varaq.
132. O'zMA, R-1714-fond, 5-ro'yxat, 609-yig'majild, 3-varaq.
133. O'zbekiston SSR tarixi. T. 1957 y. 1 tom. 2 kitob. – 158 b.

V. Internet sahifalari:

134. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/inolchiq-uz/>
135. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ibn-al-asir-uz/>
136. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bichurin-uz/>
137. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-r/rubruk-uz/>
138. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/koriz-uz/>
139. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-q/qora-cherik-uz/>
140. <http://www.oboznik.ru/?p=43261>
141. <https://ru.wikisource.org/wiki/>
142. <https://ru.wikisource.org/wiki/>
143. <https://www.vectoreconomy.ry/>
141. https://bstudy.net/608308/ekonomika/nalogovaya_teoriya_obm_ena_raznovidnosti
142. <https://knigi.news/nalog/obschie-teorii-nalogov-28312.html>
143. <https://www.labirint.ru/books/139642/>
- 144.
- <http://www.research.by/webroot/delivery/files/ecowest/2002n4r01.pdf>
145. <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=26557>
146. <https://doi.org/10.26425/1816-4277-2018-1-141-148>

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. “SOLIQ NAZARIYASI VA TARIXI” FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA UNI O‘RGANISH USULLARI.....	6
§ 1.1. “Soliq nazariyasi va tarixi” fani soliqqa oid boshqa fanlarning nazariy-uslubiy poydevori va davlat soliq siyosatining ilmiy asosi sifatida	6
§ 1.2. Fanning predmeti va mazmuni. Fanni o‘rganishdagi umumiy va alohida usullar.....	9
§ 1.3. Fanning kadrlarni tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishdagi o‘rni va ahamiyati.....	13
2-BOB. QADIMGI DUNYO DAVLATLARIDA SOLIQ MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI.....	20
§ 2.1. Qadimgi Rimda soliq munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	20
§ 2.2. Xitoy hududidagi qadimgi davlatlarda amal qilgan soliqlar	29
§ 2.3. Qadimgi Turon zaminida shakllangan davlatlarda soliqlarning rivojlanishi	34
3-BOB. ARABLAR VA MARKAZIY OSIYONING BOSHQA O‘RTA ASR DAVLATLARI HUKMRONLIGI DAVRIDA AMAL QILGAN SOLIQLAR.....	50
§ 3.1. Arablarning turon hududlarini egallashi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlarida soliq munosabatlarining o‘zgarishi.....	50
§ 3.2. Arablar tomonidan undirilgan islomiy soliqlar mazmuni	57
§ 3.3. Somoniylar davlatida soliq munosabatlari tizimi. Qoraxoniylar hukmronligi davrida soliq siyosati.....	62
§ 3.4. G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatida shakllangan soliqlar tizimi	68
§ 3.5. Yelyuy Chutsayning mo‘g‘ul soliq siyosatini tashkil etishdagi o‘rni	83
§ 3.6. Maxmud Yalavochning Movaraunnahrda amalga oshirgan soliq islohotlari	88
4-BOB. MO‘G‘UL ISTILOCHILARI DAVRIDAGI SOLIQLAR	89
§ 4.1. Mo‘g‘ullar imperiyasining shakllanishi va davlatning iqtisodiy tizimi	89
§ 4.2. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida Markaziy Osiyo hududida shakllangan soliq tizimi	94

5-BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGIDA SOLIQ MUNOSABATLARI.....	104
§ 5.1. Amir Temurning markazlashgan davlatga asos solishi va soliq islohotlari	104
§ 5.2. Amir Temurning soliqqa oid qarashlari va soliq siyosatini belgilashda “Temur tuzuklari”ning o‘rni	112
§ 5.3. Temuriylar davlatchiligida soliqlar tizimi	114
§ 5.4. Temuriylar davrida din peshvolariga ko‘zda tutilgan imtiyozlar	120
6-BOB. O‘ZBEK XONLIKLARI DAVRIDAGI SOLIQ MUNOSABATLARI.....	127
§ 6.1. Markaziy Osiyoda Shayboniylar hukmronligi davrida soliqlar tizimining o‘zgarishi.....	127
§ 6.2. Xorazm xonligida amal qilgan soliqlar va yig‘imlar.....	134
§ 6.3. Buxoro amirligining soliq tizimi va undagi o‘zgarishlar	139
§ 6.4. Qo‘qon xonligida soliq munosabatlari	149
7-BOB. ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDAGI SOLIQ SIYOSATI.....	156
§ 7.1. Rossiya imperiyasi davrida soliq siyosatining shakllanish asoslari	156
§ 7.2. Rossiya imperiyasi davrida soliqlarning turlari.....	162
§ 7.3. Qishloq xo‘jaligi sohasidagi soliq idoralarning faoliyati	165
8-BOB. SOVET DAVLATINING SOLIQ SIYOSATI	174
§ 8.1. Sovet davlatida soliqlarning turlari.....	174
§ 8.2. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi solig‘ining ahamiyati	181
§ 8.3. Soliq tizimiga kadrlar tayyorlash siyosati	204
9-BOB. SOLIQQA OID ILMIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA SOLIQLAR XUSUSIDAGI ILK UMUMIY NAZARIYALAR.....	218
§ 9.1. Dastlabki soliq nazariyalarining shakllanishi va soliqlar tabiatiga oid ilmiy qarashlar	218
§ 9.2. Soliq nazariyalari tushunchasi va iqtisodiy ta’limotlarda soliqlarga oid nazariyalar tavsifi.....	223
§ 9.3. Soliqning almashinuv nazariyasi va atomistik soliq nazariyasi	226
§ 9.4. “Sug‘urta mukofoti” va soliqning rohatlanish nazariyalari.....	235
10-BOB. SOLIQQA TORTISHNING TAKOMILLASHGAN UMUMIY NAZARIYALARI	243
§ 10.1. Soliqqa tortishning klassik nazariyasi	243
§ 10.2. Soliqning qurbonliklar va kollektiv ehtiyojlar nazariyalari	251
§ 10.3. Keyns ta’limoti va soliqqa tortishning keynschilik nazariyasi.....	256

§ 10.4. Neoklassik nazariya: monetarizm va taklif iqtisodiyoti	259
§ 10.5. Neokeynschilik ta'limotida soliqqa doir nazariy qarashlar	265
11-BOB. SOLIQQA TORTISHNING ZAMONAVIY NAZARIYALARI... 272	
§ 11.1. Optimal soliqqa tortish nazariyasi	272
§ 11.2. Ramsey nazariyasi va Korletta-Xeyg qoidasi: ziddiyatlari va iqtisodiy mohiyati	276
§ 11.3. Soliqqa tortish chegarasi nazariyasi (Laffer egri chizig'i)	282
§ 11.4. Lorens egri chizig'i va uni daromadlarni soliqqa tortishdagi ahamiyati	287
12-BOB. SOLIQQA OID DASTLABKI XUSUSIY NAZARIYALAR..... 295	
§ 12.1. Bevosita va bilvosita soliqlar nisbati nazariyasi.....	295
§ 12.2. Yagona soliq nazariyasining xususiyatlari	301
§ 12.3. Progressiv va proporsional soliqqa tortish nazariyasi	307
§ 12.4. Soliqlarni (yukini) o'tkazish nazariyasi.....	311
GLOSSARIY	324
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	327

**I.M.NIYAZMETOV, S.A.GIYASOV,
F.A.FAYZIYEV, R.R.DUSCHANOV**

SOLIQ NAZARIYASI VA TARIXI

O'quv qo'llanma

Muharrir Sh.Bazarova
Badiiy muharrir K.Boyxo'jayev
Kompyuterda sahifalovchi Z.Ulug'bekova

Nashr listi AI 305. Bosishga ruhsat berildi 23.12.2022.
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog'i 19.6.
Hisob-nashr tabog'i 20.45. Adadi 70.
51-buyurtma.

“CHINOR FAYZI BALAND” MCHJ NASHRIYOTI
100000, Toshkent sh. Chilonzor tum.
Almazor 15/1-uy, 8-xonadon

“DAVR MATBUOT SAVDO” MCHJ bosmaxonasida chop
etildi. 100198, Toshkent, Qo'ylig, 4-mavze, 46